



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 4-son (122) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV	- O'zFA akademigi
T. MIRZAYEV	- O'zFA akademigi
SH. A. HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
M. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. SH. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M. M. MAXMUDOVA	- ped.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
J. YA. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV	- t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV	- t.f.d., professor (SamDU)
TAMIR KLEIN	- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
NAZIF SHAHRANY	- Indiana universiteti professori (AQSh)
HIROAKI HUZIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
KIM SUNGHAЕ	- Daeju universiteti professori (Koreya)
BYLAPPA MANJUNATH	- Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston)

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY

Xatamov T. A.	Maktab ta'limida ma'naviy-tarbiyaviy islohotlar: tarixiy tahlil (1997-2010 yu.)	4
Сабиров А.Т.	Устная история в исследовательской практике Беларуси и Узбекистана	7
Sharipov Sh. Z.	O'zbekistonda milliy – madaniy markazlar faoliyati huquqiy asoslarining shakllantirishi	12
Zaripov O. O.	Rossiya imperiyasi ma'murligi davrida Turkiston o'lkasida suv xo'jaligi boshqaruv tizimi	16
[Bodirov A.], Bodirova Z.	Samarqandlik jangchilarni fashizmni tor-mor etishdagi ishtiroki	19
Raximov N.Sh.	Qayta qurish yillari va Xorazm xalq sovet respublikasi tarixiga yangicha yondashuvlar	22
Gadoyev H. U.	Sovet davlatida greklarning ko'chirilishi tarixidan: sabab va oqibat	27
Шадманов Т. Р.	Создание жилищно-строительных кооперативов в Узбекистане в 20-30-е гг. XX в.	30
Turolova M. T.	Janubiy O'zbekiston hududlarida 1897-1940-yillardagi demografik jarayonlar	33
Yakubov B. S.	XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning boshlarida siyosiy partiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokining o'rganilishi masalalari: asosiy bosqichlar va yondoshuvlar	37
Шарипова Г. У.	Развитие сотрудничества между государствами Узбекистана и Малайзии в сфере науки и образования	42
Ermetov A.A.	Qayta qurish yillarida O'zbekiston ichki ishlar organlarining faoliyatidagi xususiyatlar (1985-1991 yillar)	46

FALSAFA / PHILOSOPHY

Xashimov Sh. J.	O'zbekistonda turistik klasterlar va ularning ijtimoiy-falsafiy masalalari	52
Abdullayev S. T.	Inson ma'naviy borlig'i va go'zallik kategoriyasining falsafiy tahlili	55
Xudayqulov D. I.	Yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik tafakkur transformasiyasi	59
Yusupov M. S.	O'zbekistonning milliy yuksalishida tibbiyot xodimlarining kasb axloqini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy qonun-qoidalarining falsafiy tahlili	62
Юсупова Ф. З.	Социально-философский анализ инновационной активности молодежи	65
Samatov X. U.	Naqshbandiya tariqatida xalq bilan muloqot qilishning tasavvufiy-falsafiy asoslari	69
Sharipov A. Z.	Globalashuv va mafkuraviy o'zgarishlarning o'zaro aloqadorligi	74
Boboqulova X. E.	Mustaqillik davri yangi milliy - falsafiy tafakkur rivojlanishning xususiyatlari	78

Alimov A. N.	Husayn Voiz Koshifiyning ta'limotida ijtimoiy adolat masalalari	82
Turobov B. N.	Alisher Navoiy ijodida inson muammosi	84
Haydarov K. D.	Ma'naviy qadriyatlar takomilida so'fiylik falsafasining o'rni	87
SOTSILOGIYA / SOCIOLOGY		
Oripov X.A., Shakarov J.Sh.	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosatidagi islohotlar, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalari	93
Nuriddinov S. B.	Xitoyning «Bir makon - bir yo'l» tashabbusi uchun motivatsiya	97
Tagiyeva G. G., Xujanov Z.	Ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini takomillashtirish yo'llari	101
Qudratov A. M.	Volontyorlikni tadqiq etishga oid ilmiy yondashuvlar	106
IQTISODIYOT / ECONOMICS		
Aynaqulov M. A., Nazarov O. T.	Motivatsiya funksiyalarining o'rni va xususiyatlari	110
Shukurov F. F.	Qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	116
Xudoyorov L. B.	Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish mezonlari va ko'rsatgichlari	123
O'QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY		
Xodjayev J.	Xor jamoalari bilan ishlash jarayonida vokal, solfedjio mashqlarining ahamiyati	129
Qurbonova M. F.	Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasi: tushuncha, xususiyatlar, mazmuni va shakllanish bosqichlari	132
Jomonqulova F.E., Esanov M.A.	Oliy ta'lim tizimida malakali kadrlarni yetishtirib berishga bo'lgan innovatsion yondashuvlar	136
Rustamov J.E.	Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish	139
Solayeva M. N., Seytov A. J.	Maktab o'quvchilariga ketma- ketlik va funksiya limitini o'rgatishdagi ba'zi misollarni ishlashning innovatsion uslublari	145
Omonov H.T., Egamberdiyev I.B.	Noorganik kimyoni o'qitishda tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik asoslari	149
Tolibov N. N.	Kasbiy faoliyat ko'nikmalarni shakllantirish shartlari	152
Nizamova S. A.	Kimyo fanini ta'lim samaradorligini oshirishda multimediya dasturlaridan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimi	155
Djuraeva L.T., Nurmurodova N.F., Beknaev U.A.	Fizikaning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati	158
Tuxtasinov I. M., Xoliyorov B. H.	Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	162

Mualliflarga

UDK: 9(575.1)

**MAKTAB TA'LIMIDA MA'NAVIY-TARBIYAVIY ISLOHOTLAR:
TARIXIY TAHLIL (1997-2010 yy.)****T. A. Xatamov***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
t.xatamov@mail.ru*

Annotasiya. Maqolada O'zbekistonda 1997-2010 yillar oralig'ida ta'lim-tarbiya xususan, maktab ta'limidagi ma'naviy-tarbiyaviy sohada olib borilgan dastlabki islohotlar, muammolar va ularning bartaraf etilishi yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar ilk marotaba arxiv hujjatlari va ilmiy manbalardan foydalanilgan holda tarixiy jihatdan tahlil etildi. Jumladan, milliy g'oya, yoshlarga oid davlat siyosati, vatanparvarlik tuyg'usi, milliy qadriyatlarimizga ehtirom, allomalar merosini o'rganish, diniy ma'rifat va bag'rikenglik, san'at va sportni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili yoritilgan. Ushbu maqoladan, pedagogika sohasiga ixtisoslashgan oliygo'harlar, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlarida, ma'naviy-ma'rifiy sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotlar hamda O'zbekistonning eng yangi tarixining dolzarb masalalarini tadqiq etishda amaliy foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, ma'naviyat, milliy g'oya, milliy tarbiya, Yoshlarga oid davlat siyosati, Kamolot YOIH, sport, ijod markazlari.

**Духовно-воспитательное реформи в школьный образование:
исторический анализ (1997-2010 гг.)**

Аннотация. В статье исторически проанализированы реформы, проблемы и меры, предпринятые в Узбекистане за 1997-2010 годы, особенно в области образования и школьного образования, с использованием архивных документов и научных ресурсов. В частности, анализ национальных идей, государственной молодежной политики, чувство патриотизма, уважение к национальным ценностям, изучение наследия ученых, религиозное воспитание и толерантность, развитие искусства и спорта. Данная статья может быть использована в исследованиях по актуальным вопросам современной истории Узбекистана, таких как педагогические университеты, средние специальные учебные заведения, институты повышения квалификации и переподготовки а также в области духовного образования и изучений новейшей история Узбекистана.

Ключевые слова: Независимость, духовность, национальная идея, национальное воспитание, государственная молодежная политика, молодежное движение Камолот, спорт, творческие центры.

Spiritual-educational reform in school education: historical analysis (1997-2010 yy.)

Abstract. In this article, education system of Uzbekistan within 1997-2010, especially primary reforms carried out in schooling, problems and measures were firstly analyzed by using archival documents and scientific resources. For example, there has been given an analysis of works on developing art and sport, religious education and open-heartedness, study the heritage of our ancestors, respect to our national customs and habits, patriotism, state policy on the youth and national concept. You can use this paper at higher and secondary educational institutes specialized on pedagogics, at teacher training institutes, organizations functioning in moral and educational sphere, as well as, to study important problems of Uzbekistan's newest history.

Keywords: Independence, Spirituality, National Idea, national upbringing, State Youth Policy, Kamolot Youth Movement, sport, creativity centers

Istiqlol natijasida qabul qilingan Milliy dasturda belgilab berilgan konseptual tamoyillar asosida boshlangan ta'lim islohotlari yoshlarga nafaqat chuqur bilim berish, balki ularni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-ma'rifiy jihatdan komil inson qilib tarbiyalashni ham talab etdi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan respublikadagi mavjud umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni jonlantirish maqsadida 1997-1998 o'quv yilida umumta'lim maktablari ma'naviyat-ma'rifat xonalari uchun buyuk siymolar va qadimiy-me'moriy obidalarni o'zida aks ettiruvchi devoriy sur'atlar hamda kutubxonalar uchun bir necha tillarda 386,347 donadan ortiq «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» nomli darslik va adabiyotlar yetkazib berildi.

O'quvchi yoshlarni mustahkam e'tiqod, yuksak dunyoqarash, teran tafakkur, oliyjanoblilik hamda milliy mustaqillik an'analariga sodiq qilib tarbiyalashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 1998 yil 24 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ularning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 311-sonli qaroridan [1] kelib chiqib “Milliy istiqloq g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanini umumta’lim maktablarida 34 soat hajmda o’qitishning yo’lga qo’yilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, 1-4 sinflarda “Odobnoma”, 5-6 sinflarda “Vatan tuyg’usi”, 7-9 sinflarda “Milliy istiqloq g’oyasi va va ma’naviyat asoslari” darslari o’tilib, ularga jami 102 soat ajratildi [2].

Birgina, 2003-2004 o’quv yilida ushbu fanlar yuzasidan ta’lim qozoq, qoraqalpoq, tojik, qirg’iz, turkman tillarida olib boriladigan maktablar uchun o’quv dasturlar va o’quv qo’llanmalar tarjima qilinib, chop etildi. Rusiyazabon sinflar uchun esa “Chuvstvo Rodini” nomli o’quv qo’llanmasi tayyorlanib, 5-sinflar uchun 32000, 6-sinflar uchun 20000 nusxada nashr etildi [3].

Respublika hukumati o’quvchi-yoshlarda huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirishga muhim e’tibor qaratdi. Shu maqsadda umumta’lim maktablari o’quv rejasiga 1-4 sinflari uchun “Konstitutsiya alifbosi”, 5-7 sinflar uchun “Konstitutsiya olamiga sayohat”, 8-9 sinflar uchun “O’zbekiston davlati va huquqi asoslari” va “Konstitutsiyaviy huquq asoslari”, huquq chuqurlashtirilib o’qitiladigan 10-11 sinflar uchun esa “Huquqshunoslik” fanlari kiritilib o’quv darsliklari ham yozildi.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2009-2010 o’quv yili –“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi o’quv yili” deya nomlanishi umumta’lim maktablari faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy ishlarining ko’lmi yanada kengaydi.

Respublika hukumati, Xalq ta’limi vazirligi va viloyat, tuman xalq ta’limi boshqarmalari yoshlarni o’zga g’oyalarni ta’siridan asrash maqsadida ularning darsdan bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish, maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga o’quvchilarni yanada keng jalb qilishga e’tibor qaratdilar. Shu maqsadda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2004-2005 o’quv yilini “Maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini oshirish o’quv yili” [4] deb e’lon qilish haqida qaror qabul qilindi.

Qaror asosida o’quvchi-yoshlarga turli kasb sirlarini o’rgatish, ularni hayotga tayyorlash va qiziqishlariga qarab maktabda olgan bilimlarini rivojlantirish, amaliyotda mustahkamlash asosiy maqsad qilib belgilandi. 2004-2005 o’quv yilida 553 ta maktabdan tashqari ta’lim muassasalari va markazlarida 25.679 ta to’garaklar faoliyati takomillashtirildi. Bu to’garaklarga 539.483 nafar o’quvchilar jalb etildi. Qishloq maktablari o’quvchilariga ham e’tibor qaratilib, mahallalar bilan hamkorlikda ishlar olib borildi. 2005-2006-o’quv yilida maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida, bevosita turar joylar va mahallalar qoshida 557.401 nafar o’quvchilar qatnashayotgan turli yo’nalishdagi to’garaklar tashkil etildi. Ularga ijtimoiy himoyaga muhtoj 29416 nafar o’quvchilar ham jalb etildi. 2007-yilga kelib 1,4 mingta bolalar sporti majmualari va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari umumta’lim maktablari o’quvchilarining 28,7 % dan ortig’ini qamrab oldi. Umumiy ta’lim maktablarining o’zida ham turli ixtisos va nomdagi 122 mingdan ortiq to’garak va seksiyalar tashkil etildi. Ularda respublikadagi 5,4 mln. o’quvchidan 2,4 mln. (44,4%) nafari qo’shimcha ta’lim o’las boshladilar [5].

Shuningdek, Respublika o’quvchilar saroyi 2008-yilda “Yoshlar yili” davlat dasturida belgilangan vazifalar asosida o’z faoliyatini tashkil etdi, 265 ta ijodiyot markazlaridagi 6123 ta to’garaklarga 285503 nafar o’quvchi jalb etildi. To’garaklardagi izlanish va yutuqlarni o’quvchilar o’rtasida ommalashtirish maqsadida Buxoro viloyatida “Zardo’zlik”, Farg’ona viloyatida “Naqqoshlik” to’garaklari, Toshkent shahrida “Yulduz” raqs dastasining faoliyatlari o’quvchilarga namoiysh etildi. Shu bilan birgalikda, Toshkent shahrida “Yosh ustalar”, Buxoro shahrida “Qo’g’irchoq teatrlari”, Jizzax viloyatida “Do’st bilan obod uying”, Qashqadaryo viloyati “Yosh qiziqchilar” kabi respublika miqyosidagi ko’rik-tanlov va festivallar tashkil etilgan bo’lsa, 2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag’ishlab “Toshkent bahori” bolalar teatrlari, “Toshkent yosh rassomlar tasavvurida” respublika ko’rgazmasi, “Zarb-2009” yosh doirachilar tanlovi o’tkazildi. Tadbirlarning borish jarayoni O’ztele-radio kompaniyasining “Axborot”, “Davr” informasion ko’rsatuvlarida yoritilib borildi [6].

Amalga oshirilgan ishlar samarasi o’quvchilarning turli tanlovlardagi yutuqlarida ko’rina boshladi. Masalan, Respublika o’quvchilar saroyi tomonidan O’zbekiston teleradiokompaniyasining “Sa’nat g’unchalari”, “Bo’sh o’tirma” teleko’rsatuvlari uchun 5 ta ko’rsatuv tayyorlanib e’fira uzatildi, “Sehrli yog’du” bolalar kino festivali tashkil etildi. “O’zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg’armasi hamda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan 2004-yilda tashkil etilgan “Yangi avlod” respublika bolalar badiiy ijodiyoti festivalida mumtoz va milliy cholg’u asboblari, xonandalik, amaliy va tasviriy san’at, she’riyat, nasr va sahna asarlari kabi yo’nalishlarda o’quvchi-yoshlar o’z iste’dodlarini namoyish etgan bo’lsalar, 2005 yildan iqtidorli yoshlarni kashf etish, rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlashga qaratilgan “Kelajak ovozi” respublika ko’rik-tanlovida “Badiiy va amaliy san’at”, “Axborot va kommunikasiya texnologiyalari”, “Ratsionalizatorlik takliflar, texnik loyihalar va ishlanmalar”, “Ijtimoiy

loyihalar va biznes-reja”, “Badiiy publisistik ijod”, “Me’morchilik va dizayn” nominasiyalari bo’yicha yoshlarimiz o’z intellektual salohiyatlarini namoyish etdilar [7].

Yosh sayohatchilar va o’lkashunoslar markazining 3383 ta to’garak guruhlariga 2008-2009 o’quv yilida 41455 nafar o’quvchi yoshlar a’zo bo’lib, ularning 4856 nafari ijtimoiy ko’makka muhtoj oilalar farzandlari edi. Markaz tomonidan respublika miqyosida “Eng yaxshi to’garak rahbari”, “Eng yaxshi sayyohlik yurishi”, “Eng yaxshi fotosar” nominasiyalari bo’yicha ko’rik-tanlovlar o’tkazildi. Yosh sayohatchilar va o’lkashunoslar markazlari tomonidan turli sayohat va ekskursiyalarga jalb qilingan o’quvchi-yoshlar soni 2001-yilda 250205, 2002-yilda 357342, 2003-yilda 381249, 2004- yilda 572311, 2007-yilda 596114, 2008-yilda 627128, 2009-yilda esa 661212 nafarni tashkil etdi. Sayohat va ekskursiyalar mobaynida o’quvchi-yoshlar respublikaning qadimiy shaharlari, tarixiy-me’moriy obidalarini va muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishdi hamda xalqaro va mintaqaviy yo’nalishlarda ham 2009-yilda 17 ta sayohat va ekskursiyalar tashkil etildi.

Jumladan, Toshkent shahar hududida joylashgan Respublika o’quvchilar saroyining 17 ta, o’quvchi yoshlar texnik ijodiyotining 8 ta, Respublika “BIOEKOSAN” o’quv uslubiy majmusining 12 ta, shahar qo’shimcha ta’lim majmuasining 4 ta to’garaklari bevosita mahallalar va ularning hududidagi umumta’lim maktablari qoshida tashkil etildi. Natijada, o’quvchilarning to’garaklarga jalb etish ko’rsatkichi 2001-yilga nisbatan 2006-yilga kelib qariyb 30 % ga o’sdi. 15588 nafar o’quvchilar shahar sport maktablarining turli sport to’garaklari va seksiyalariga jalb qilindi. Ularning 3433 nafari bevosita mahallalar qoshida tashkil etilgan sport seksiyalarida qatnashayotgan edi [8]. 2008-2009 o’quv yilida “O’zbekteatr” birlashmasi bilan hamkorlikda tuzilgan “Maktab va teatr” dasturi ijrosi natijasida 107,519 nafar o’quvchilar shahar teatrlarida o’z ma’naviy-madaniy saviyalarini oshirdilar.

1999-2000 o’quv yilida buyuk fiqhshunos Burhoniddin Marg’inoniyning 910 yilligi va kalom ilmining yetuk allomasi Imom Abu Mansur al-Moturidiyning 1130 yilligini nishonlash tadbirlarida, ular qoldirgan noyob asarlarning ilmiy qiymati va tarbiyaviy jihatlari o’quvchilarga singdirildi. Kutubxona va ma’naviyat xonalarida allomalarning merosiga oid risolalar, qo’llanmalar ko’rgazmasi va ilmiy meroslariga doir ko’rgazmali burchaklar tashkil etildi [9].

Shuningdek, millat adabiyoti va she’riyati uchun boy ma’naviy meros qoldirgan ulug’ siymolar Alisher Navoiy, Bobur, Nodira, Uvaysiy, Zulfiyalarning tavallud ayyomlariga bag’ishlab har yili o’tkazilayotgan «Navoiyxonlik», «Nodira adabiy merosi», «Zulfiya izdoshlari» kabi adabiy kechalar va davra suhbatlarida o’quvchilar ularning ulkan ma’naviy-ma’rifiy merosidan bahramand bo’lmoqda. 2000-yildan “Zulfiyaxonim qizlari” ko’rik tanlovi tashkil etilib, har yili 14 nafar g’oloblari “Zulfiya nomidagi davlat mukofati” bilan taqdirlanmoqda.

O’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va bu borada qonun qabul qilinishini nishonlash har yili maktablarda muhim tadbirga aylandi. Umumta’lim maktablari 1-4 sinflarda “O’zbek tili-jonu dilim”, “O’zbek tilini o’rganamiz”, 5-9 sinflarda “O’zbekiston mustaqilligi va ona tilimiz rivoji”, “Til boyligi-tafakkur boyligi”, “Til-millat faxri” kabi mavzularda referatlar tanlovi hamda “Davlat tili to’g’risida”gi qonun amalda”, “Qonun va davlat tili” kabi mavzularda tadbirlar, adabiy-badiiy kechalar tashkil etildi.

Yosh avlodga reproduktiv sog’liq va sog’lom turmush tarzini shakllantirish yuzasidan ko’plab ommaviy tadbirlar ko’rgazmali vositalar orqali targ’ibot qilindi. Xalq ta’limi vazirligining 2004-yil 26 fevraldagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi” [10] haqidagi qaroridan kelib chiqib, 2008-2009 o’quv yilidan “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi” tashkil etildi. Markaz faoliyati natijasida “Oila qurish mas’uliyati”, “O’zbekona oila ma’naviyati”, “Sog’lom ona-sog’lom bola” kabi mavzularda davra suhbatlari o’tkazilib, ularda sog’liqni saqlash xodimlari va jamoatchilik vakillari faol ishtirok etdilar [11].

Balog’at ostonasida turgan o’g’il-qizlarning yoshligidan tibbiy madaniyati va savodxonligini oshirish maqsadida “Salomatlik darslari” (1-4 sinflar uchun), “Sog’lom avlod asoslari” (5-9 sinflar uchun), “Sog’lom turmush asoslari va oila” (10-11 sinflar uchun) o’quvlari joriy etildi. O’quvchi qizlar o’rtasida ginekologiya kasalliklarining oldini olish maqsadida “Balog’at davri” o’quv dasturi asosida sog’liqni saqlash xodimlari bilan hamkorlikda turli xil davra suhbatlari va targ’ibot ishlari olib borildi. Har bir o’quvchi qizga batafsil ma’lumot berish maqsadida tibbiyot sohasi mutaxassislari bilan hamkorlikda 10 soatlik dars mashg’ulotlari o’tkazildi [12].

O’quvchi yoshlarda ekologik madaniyatini oshirish maqsadida “Sog’lom avlod” dasturi asosida respublika maktablarida muntazam ravishda YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda “Tabiat: kecha, bugun va ertaga”, “Yodlangan tuz salomatlik garovi”, “EKOSAN” jamg’armasi bilan hamkorlikda esa “Ekologiya va salomatlik” kunlari va “Suv va bolalar” ekofestivali, “Orol-bolalar nigohida” kabi mavzularda rasmlar va insholar tanlovlarini o’tkazish an’ana tusiga kirdi [13].

Tahlillar natijasidan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, o’rganilgan davrda Milliy dastur vazifalari asosida chuqurlashayotgan ta’lim islohotlari umumta’lim maktablari ta’lim mazmunida tub o’zgarishlar yasashni, o’quvchi yoshlar tarbiyasida esa tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishni, tarbiyada milliylik va zamonaviylikka asoslanishni eng muhimi uni milliy g’oya bilan uyg’unlashgan holda olib borishni talab etdi. Mamlakatimiz rahbariyatining mafkuraviy ishlarda izchillik bo’lmasa, ish susaytirilsa yoki loqaydlikka yo’l qo’yilsa, jamiyat a’zolari ongida bo’shliq paydo bo’lishi oqibatida va g’oyaviy muxoliflarimiz undan o’zlarining

g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishlarini oldindan seza olganligi va bu boradagi vazifalarni belgilab berganligi, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami.-Toshkent, 2008. - T.1. - B. 359.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (bundan buyon O'zR XTV) joriy arxivi. 2417-fond. 48-ro'yxat, UMBB boshqarmasi hisobotlari. 16-ish, 35-40-varaqlar.
3. O'zR XTV joriy arxivi. 3853-fond. 3-ro'yxat. DO'MAYAYAB boshqarmasi hisobotlari. 42-ish, 4-7-varaqlar.
4. O'zR XTV joriy arxivi. 3123-fond. 43-ro'yxat, 21-ish. Boshqaruv kengashining 2004 yil 4-sonli avgust oyi qarorlari. 65-69-varaqlar.
5. O'zR XTV joriy arxivi. 3126-fond. 45-ro'yxat, 44-ish, 11-13-varaq.
6. O'zR XTV joriy arxivi. 2561-fond. 21-ro'yxat, 89-ish. 73-74-varaqlar.
7. O'zR XTV joriy arxivi. 5461-fond. 8-ro'yxat, MATB boshqarmasi hisobotlari. 1999-2000 o'quv yilida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hisoboti. 43-ish, 20-26-varaqlar.
8. Ta'lim taraqqiyoti. 2008 yil №4. B. 45.
9. O'zR XTV joriy arxivi. 3126-fond. 20-ro'yxat. MATB boshqarmasi hisobotlari. 43-ish, 22-23-varaqlar.
10. O'zR XTV joriy arxivi. 3215-fond. 23-ro'yxat, BSRB boshqarmasi hisobotlari. 50-ish, 32-33-varaqlar.
11. O'zR XTV joriy arxivi. 6123-fond. 4-ro'yxat. STIB boshqarmasi hisoboti. "Sog'lom avlod" dasturining amalga oshirilishi to'g'risida hisobotlar. 2000-2003 yillar. 55-ish, 28-varaq, 74-ish, 31-37-varaqlar, 39-ish, 73-varaq.
12. O'sha joyda. 75-ish, 11-20-varaqlar.
13. O'zR XTV boshqarmasi hisobotlari. 2623-fond. 14-ro'yxat, 72-ish, 49-ish, 10-14-varaqlar.

УДК: 9(575.1)

УСТНАЯ ИСТОРИЯ В ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ПРАКТИКЕ БЕЛАРУССИИ И УЗБЕКИСТАНА

А.Т. Сабиров

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Аннотация. Статья характеризует развитие такого направления современных исторических исследований, как устная история сквозь призму белорусского и узбекского опыта. Автор показывает значимость использования устных исторических источников, выявляет специфику данных материалов в двух странах.

Ключевые слова: Устная история, социум, микроистория, антропология, интервью, респондент, беседа, воспоминания

Oral history in the research practice of Belarus and Uzbekistan

Abstract. The article characterizes the development of such a direction of modern historical research as oral history through the prism of the Belarusian and Uzbek experience. The author shows the importance of the use of oral historical sources, reveals the specifics of these materials in the two countries.

Keywords: Oral history, society, microhistory, anthropology, interview, Respondent, conversation, memories

Belarus va O'zbekiston tadqiqot amaliyotida og'zaki tarix

Annotatsiya. Maqola Belarus va o'zbek tajribasi nuqtai nazaridan og'zaki tarix kabi zamonaviy tarixiy tadqiqotlarning bunday yo'nalishini rivojlantirishni tavsiflaydi. Muallif og'zaki tarixiy manbalardan foydalanishning ahamiyatini ko'rsatadi, bu materiallarning xususiyatlarini ikki mamlakatda aniqlaydi.

Kalit so'zlar: Og'zaki tarix, jamiyat, mikro tarix, antropologiya, intervyu, respondent, suhbat, xotiralar

В современный период особое значение приобретает «живая» история традиции, транслируемая не представителями официальной исторической науки, а ее непосредственными носителями. Именно эта эмоционально окрашенная, пронизанная пережитым опытом современников, свободная от политической конъюнктуры, персонально определенная и

непосредственно представленная потомкам история традиции и обладает ничем не заменимой убедительностью, доступностью, легкой усваиваемостью.

Эту «живую» традицию и передает ставшая популярной к концу XX века и дисциплинарно оформившаяся к началу XXI века программа «история памяти» и её методологическая версия – «устная история». Устная история представляет собой не беспорядочные воспоминания очевидцев о событиях прошлой жизни, а регулируемый тематический опрос по различным методикам людей, непосредственно причастных к определенным событиям.

В эмпирических исследованиях устная история служит в качестве методологии и метода. Как метод она применяется в различных современных новых направлениях (история повседневности, локальная история, гендерная история, социальная история и т.д.). Уникальная особенность устной истории – это возможность для исследователей создавать тематически заданные документы, заполняющие лакуны в традиционном корпусе источников. [1, с. 139].

Сам термин «устная история» появился еще в 1838 г. в кругах западных интеллектуалов. Становление «устной истории» как научной дисциплины связывают с деятельностью американцев: историка Алана Невинса и журналиста Джо Гулда. Первый ввел в научный оборот термин «устная история» и стал инициатором создания базы устных воспоминаний политических деятелей США, второй объявил в 1942 г. о проекте по написанию книги «Устная история нашего времени», предполагающего составить ее из записей рассказов разных людей. Проект не был реализован, но сама его идея вызвала значительный резонанс. [2, с.8].

После войны «устная история» получила статус научной дисциплины.

Можно констатировать, что в последнее время устная история, следуя теории социальной памяти, развита до комплексно аргументирующего исследовательского направления.

При этом, четко определен вклад устной истории в историческую науку. Это:

- новые данные для истории
 - задает вопрос “почему” в отношении исторического опыта
 - акцент на субъективности, межсубъективности и усилении потенциала интервьюируемого
 - междисциплинарный подход
 - обеспечение контакта между академическими кругами и общественностью
- понимание и изменение общества [3].

Данное направление в области исторических исследований, в последнее время активно развивается и в Республике Беларусь.

Ещё в советский период на основе записей устных воспоминаний известные писатели А. Адамович и В. Колесник написали книгу «Я из огненной деревни», на основе устных воспоминаний написана работа С. Алексиевич «У войны не женское лицо» [4].

Белорусский исследователь Г.В. Васюк отмечает несколько учреждений, где в настоящее время проводятся исследования по устной истории. Это – Институт истории, Белорусский государственный университет, Европейский гуманитарный университет в Вильно. [5, с.141].

В 2006-2007 годах был реализован совместный российско-белорусский научный проект «Предвоенное и послевоенное десятилетия: трансформация культуры сквозь призму повседневных адаптивных практик (БССР, КФССР)», осуществившего коллективом ученых из Петрозаводского государственного университета, Белорусского государственного университета и Академии наук Республики Беларуси. Трансформация повседневной культуры в довоенные и послевоенные годы – тема чрезвычайно интересная и в то же время сложная для изучения. При этом, современное российское и белорусское общество во многом уходит корнями именно в этот период, особенности которого обусловлены сломом традиционной культуры, существовавшей до начала 1930-х гг., и теми культурными практиками, которые получили распространение в ходе грандиозных социальных и экономических реформ и потрясений 1930 -1950-х гг. Без понимания этих процессов не будет понятна вся эволюция советского строя и государства – отсюда актуальность и важность изучения трансформаций, произошедших в повседневной культуре советского общества в годы сталинского режима.

Итогом этой работы стал сборник из серии «Устная история в Карелии». Сборник основан на использовании сравнительно-исторического подхода к изучаемой теме. В сборнике представлены интервью с респондентами 1915 -1936 годов рождения, а также анализ собранных интервью и статьи, проблематика которых имеет прямое отношение к теме сборника. Имея разные географические рамки, интервью отличаются и по методике, лежащей в основе их создания. Белорусские участники проекта использовали форму биографического рассказа (life story),

предполагающую минимальное участие интервьюера в формировании источника, в то время как российские участники работали с респондентами по вопроснику [6].

В рамках международной программы «Трансграничное сотрудничество Латвия-Литва-Беларусь» финансируемого Европейским Союзом, в 2013-2014 гг. был реализован проект «Популяризация центров устной истории в приграничном регионе Латвии и Беларуси».

Проект был направлен на повышение осведомленности общества об охране общего культурного и исторического наследия в трансграничном регионе Латвии и Беларуси. Партнеры провели исследование методом «сбора устной истории», пообщавшись с более чем 200 жителями приграничных районов Латвии и Беларуси. Результаты исследования были обобщены и изданы в виде книги и диска. [7]. Главным результатом проекта стало создание «Электронного музея устной истории» (www.vitamemoriae.eu).

В июне 2016 г. была презентована исследование и книга немецко-американской исследовательницы Аника Вальке «Пионеры и партизаны: устная история нацистского геноцида в Беларуси» [8].

Опираясь на устные истории, видео свидетелей геноцида и воспоминания, собранные в бывшем СССР, автор показывает, как молодые советские евреи боролись за выживание, и что их память была сформирована межэтническими отношениями в контексте оккупации, немецкой политики уничтожения и советских усилий по конструированию патриотического единства советского народа. [9].

Интересными являются экспедиционные материалы, учеными Псковского и Полоцкого университетов, собранные на сопредельной территории – в Псковской области России и в Витебской области Белоруссии в рамках проекта «Великая Отечественная война в зеркале народной речи и фольклора». Полевые исследования показали, что в различных районах Витебщины, которые отличаются и разнообразием, и уровнем сохранности фольклорной традиции, особое место в коллективной и индивидуальной памяти старожилов занимает тема Великой Отечественной войны. Воспоминания о событиях Великой Отечественной войны прямо или косвенно присутствовали практически во всех рассказах сельчан, независимо от предмета разговора [10].

В 2017 г. в результате ряда экспедиций исследователей Белорусского архива устной истории, появилась книга Ольги Ивановой «Прамоўленая гісторыя. XX ст. у памяці жыхароў беларускай вёскі».

В книге исследовательница замечает отличительную особенность сбора воспоминаний в Беларуси. «Пытаясь пережить не пережитое нашими предками, понять самих себя, мы ищем ответы на вопросы кем они были?, как жили?, что думали?, о чем мечтали? Могут ли ответить на них архивные документы ЦК КП (б) или современные учебники? Вряд ли. И именно устная история дает здесь очень широкие возможности, так как каждое воспоминание может исследоваться с разных позиций, с использованием различных методологических подходов и на разных уровнях углубления» [11].

Здесь следует отметить, что особенно интересным для узбекских специалистов устной истории, представляется проект «Белорусский архив устной истории» - on-line хранилище электронных документов по устной истории Беларуси XX в., который реализуется с 2011 г. [12]. К материалам архива организован доступ с целью сохранения и содействия их широкому использованию в исследовательских и образовательных целях. История Беларуси XX в. фиксируется в воспоминаниях свидетелей времени, помогая сохранению памяти о новейший период истории, в том числе по малоисследованным и актуальным темам.

Задачи архива:

- сбор документов устной истории и формирование определенного комплекса источников для исторических и междисциплинарных исследований;
- организация хранения, поиска и использования устноисторических документов;
- содействие сохранению памяти о новейший период истории Беларуси
- методическая и образовательная поддержка в проведении устноисторических исследований любителями

- популяризация метода устной истории.

Узбекские историки, хотя не так широко но используют методы устной истории в своих исследованиях.

Практика сбора устных свидетельств активно стало использоваться с обретением Независимости Республики Узбекистан.

Специалистами Института истории АН Республики Узбекистан проводилось нарративное интервьюирование детей и других членов семьи участников антисоветских восстаний, репрессированных представителей узбекского дехканства, купцов, ремесленников, которые были депортированы на Украину, как социально опасные элементы [13].

Данные материалы стали систематизироваться и использоваться в экспозициях музея «Памяти жертв репрессий» Академии Наук Республики Узбекистан [14].

На основе глубинного интервью проводилась работа с представителями узбекской диаспоры в Турции, некогда бежавших от репрессий из Узбекистана в 20-30-х годах прошлого столетия и интервьюирование родственников и учеников, репрессированных ученых, живущих в Узбекистане [15].

Интересная работа по обмену опытом по методологии и методике устной истории, была организована Представительством Института по международному сотрудничеству германской Ассоциации народных университетов (*dvvinternational*) в Узбекистане, в рамках проекта «История и самосознание» [16].

Проект «История и самосознание» всегда опирался на принцип осознания истории через её личностное восприятие очевидцами событий, поэтому начальный этап характеризовался работой в махаллях - традиционном социальном институте с местным самоуправлением.

В результате появляется книга воспоминаний очевидцев о ташкентском землетрясении 1966 года [17].

С целью институционализации работы по сбору и анализу устных воспоминаний Институт истории Академии Наук Узбекистана в 2010-2011 гг. под руководством автора, был реализован исследовательский проект «Устная история Узбекистана XX века как метод и источник исторического исследования» [18].

В Ташкенте организуются несколько этапов тренингов, с участием местных и зарубежных экспертов по проблемно-тематическим консультациям навыкам работы с устной информацией. Уделяется внимание теоретическим и методическим аспектам устно-исторического исследования, соблюдению принципа комплексности в его организации, с учетом всех этапов подготовительного, полевого, архивного, аналитического и задач решаемых на каждом из них.

Проводится полевое пилотажное исследование по изучению повседневной жизни советского периода Узбекистана (60-80-е годы XX века), в трех областях Ферганской долины.

В результате, в республике, появляется сообщество научных работников, преподавателей студентов, музейных работников, всех интересующихся историей своего края по делу сохранения народной памяти о событиях, фактах, явлениях, которые составляют историческое прошлое страны, а также междисциплинарное взаимодействие, обмен методами и подходами, сформировавшимися в рамках разных научных областей.

Работа фокусируется на изучении социокультурной истории малых городов Узбекистана, чей уклад жизни постепенно исчезает в силу глобализации и миграции населения. В качестве объектов исследования выбираются, сельские регионы древних исторических центров узбеков Бухара и Самарканд, проблемный экологический регион страны Каракалпакия.

Этапы работы выглядели следующим образом:

1. Постановка проблемы исследования и определение конкретных задач, которые необходимо реализовать, чтобы достичь поставленной цели.

2. Подготовительный этап интервьюирования, который подразумевает инструктаж корреспондентов относительно этики проведения опроса, определение круга респондентов будущего опроса, составление вопросника.

3. Этап непосредственного сбора информации.

4. Этап обработки полученной информации, который связан с составлением базы данных проведенного исследования на цифровых носителях информации с возможным последующим размещением в сети Интернет (возможные варианты: аудиоархив, видеоархив, архив текстовых записей интервью).

5. Обобщение результатов исследования и оформление презентации проекта.

Результатом опыта устной истории становится книга «Устная история в Узбекистане», который включает публикации, посвященные теоретическим вопросам и результатам практических исследований по устной истории Узбекистана и зарубежный опыт *oral history* [19].

При содействии специалистов Центрального Государственного архива Узбекистана были проведены семинары по созданию архива устно-исторических источников, который открывает доступ исследователям и широкой общественности к зафиксированным индивидуальным

воспоминаниям свидетелей важных исторических событий двадцатого века в Средней Азии, в наглядной и доступной форме.

Можно констатировать, что на сегодняшний день в Узбекистане активно формируется сообщество устных историков, с определенными полевыми навыками и опытом аналитической работы.

Имеющийся опыт устно-исторических исследований свидетельствует, что oral history наиболее эффективна в тех случаях, когда необходимо заполнение лакун при отсутствии традиционных исторических источников. Особое значение эти исследования приобретают при научных изысканиях в области ментальностей, поведенческих структур, образа жизни, феномена индивидуальной и коллективной памяти и ее влияния на общественное сознание, то есть особенностей отражения в нем событий прошлого.

Большое значение приобретает ее применение как для изучения повседневной жизни народов в периоды стабилизации, так и в периоды кардинальных перемен (периоды переустройства деревни, ее быта, культуры), в т.ч. под воздействием, техногенных, социально-экономических и политических факторов.

В перспективе следует объединить усилия специалистов устной истории Беларуси и Узбекистана, обратив особое внимание на совместное участие в разработке методик и программ, инструкций и памяток по проведению полевых исследований, внедрение и апробирование их в конкретной обстановке работы в «поле».

При этом, как справедливо отмечает белорусский исследователь Г.В. Васюк акцентировать внимание на тех этапах устно-исторического исследования, которые начинаются уже после полевой работы. А именно: на архивировании интервью, на стратегических подходах и методиках анализа [20].

Литература

1. Г.В. Васюк Перспективы устной истории в Республике Беларусь // Развитие методологических исследований и подготовка кадров историков в Республике Беларусь, Российской Федерации и Республике Польша // Сборник научных статей / под научной редакцией доктора исторических наук, профессора А.Н. Нечухрина. – Гродно: ГрГУ, 2012.–С.139
2. С.В. Новиков Материалы «устной истории» как источник к изучению политической жизни Сибири // Омский научный вестник №5 (142) 2015. –С.8
3. Из материалов Четвертой Академии Образования взрослых «Устная история-как источник самосознания и развития нации» 23 июля-2 августа 2009 г. Иссык-Куль Кыргызстан
4. Алексіевіч, С. У войны не женское лицо... / С. Алексиевич. – Мінск Мастацкая літаратура. 1985. – 317 с.
5. Г.В. Васюк Перспективы устной истории в Республике Беларусь // Развитие методологических исследований и подготовка кадров историков в Республике Беларусь, Российской Федерации и Республике Польша // Сборник научных статей / под научной редакцией доктора исторических наук, профессора А.Н. Нечухрина. – Гродно: ГрГУ, 2012.–С.141
6. Устная история в Карелии: Вып. IV Карелия и Беларусь: повседневная жизнь и культурные практики населения-У808 ния в 1930 -1950-е гг. / Сост. и науч. ред. И. Р. Такала, А. В. Голубев, И. Н. Романова, И. С. Маховская. - Петрозаводск: Изд-во ПетрГУ 2008. - 400 с.
7. Электронный ресурс: http://www.enpi-cbc.eu/go.php/rus/1S_138_proekt_LLB_2_143/933
8. Anika W alke Pioneers and Partisans: An Oral History of Nazi Genocide in Belorussia», Oxford University Press, 2015.
9. Электронный ресурс: <https://www.facebook.com/events/195780867776039/>
10. Подробнее см. Лобач, В.А. Великая Отечественная война в воспоминаниях сельских жителей Витебщины (по материалам устной истории) / В.А. Лобач // Великая Отечественная война в зеркале народной речи и фольклора : Тексты. Исследования. Аудиоприложение / под общ. ред. Н.В. Большаковой ; составители : Н.В. Большакова, М.И. Муратова, Г.И. Площук, В.А. Лобач. – Псков : ЛОГОС, 2016. – С. 317-327
11. Электронный ресурс: <https://belsat.eu/ru/news/belorusov-uchili-ne-pomnit-i-ne-rasskazyvat-arhivu-ustnoj-istorii-nuzhna-pomoshh/>
12. Электронный ресурс: <http://www.nashapamiac.org/archive/aboutproject.html>
13. См. Зияева Д. Босмачиллик: Хақиқат ва уйдурма. (Басмачество: истина и мифы) Тошкент, 2002.

14. См. Фонд видео и аудиоматериалов архива музея «Памяти жертв репрессий» АН Республики Узбекистан
15. См. Там же
16. Прим.автора: Научный руководитель данной статьи участвовал в указанном проекте и дальнейшие материалы статьи основываются на его личном исследовательском опыте.
17. См.:Ташкентское землятрясение 1966 года. Воспоминания очевидцев. Ташкент 2008.
18. Сабилов А.Т. Опыт применения метода устной истории в российской и узбекистанской исторической науке//Вестник НУУз №1/5, 2017. –С.111
19. См.: Устная история в Узбекистане: Теория и практика. I Выпуск. – Ташкент, 2011.
20. Г.В. Васюк. Указ.соч. – С.142

UDK: 9(575.1):34

O'ZBEKISTONDA MILLIY – MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANTIRILISHI

Sh. Z. Sharipov

*Samarqand davlat universiteti
shaxriddin.domla@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda milliy – madaniy markazlarning vujudga kelishi uning bosqishlari, rivojlanish tarixi, va istiqbollari to'g'risida ma'lumotlar ilmiy manbalar asosida o'rganilib kerakli xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, milliy – madaniy markazlarni rivojlantirish, milliy – madaniy markazlarning mustahkam huquqiy asoslari va kafolatlarini yaratib beruvchi qonun hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, qonunlarning mazmun mohiyati to'g'risida ilmiy fikrlar yuritilib, ularning bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: millatlar, milliy – madaniy markaz, millatlararo totuvlik, Baynalminal Madaniyat markazi, madaniyat, til.

Формирование правовых основ деятельности национально-культурных центров в Узбекистане

Аннотация. В данной статье сделаны соответствующие заключения на основе изучения научных источников, касающихся этапов формирования, истории и перспективы развития национально-культурных центров Узбекистана. Ведётся научное рассуждение о сущности законов и других нормативно - правовых актов, укрепляющих правовую базу и гарантирующих развитие национально-культурных центров, а также сделана попытка раскрыть их актуальность на сегодняшний день.

Ключевые слова: нации, национально-культурный центр, межнациональное согласие, Интернациональный Культурный центр, культура, язык.

Formation of the legal framework for the activities of national-cultural centers in Uzbekistan

Abstract. This article draws relevant conclusions based on a study of scientific sources relating to the stages of formation, history and prospects of development of national-cultural centers of Uzbekistan. Scientific discussion is being conducted on the essence of laws and other regulatory legal acts that strengthen the legal framework and guarantee the development of national cultural centers, and an attempt has been made to reveal their relevance today.

Keywords: nations, national-cultural center, interethnic harmony, international cultural center, culture, language.

O'zbekistonda mustaqillik arafasida millatlararo totuvlikni ta'minlashga katta ehtiyoj yuzaga keldi. Sobiq Sovet davrida millatlararo munosabatlarga bir yoqlama yondashuv jiddiy muammolarni keltirib chiqargan edi.

XX asr millatlararo munosabatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu davrda ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm, milliy xususiyatlar bilan hisoblashmay, soxta baynalmilalchilik g'oyasiga asoslangan kommunistik g'oyasi ko'plab xalqlarning asoratga solinishiga olib keldi.

Millatlararo totuvlik qaror topmagan davlatda tajovuzkor millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tez tarqalishi va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi Sovet davlatining tanazzuli sabablaridan biridir.

O'zbekistonda sodir bo'lgan Farg'ona voqealari, millatlararo totuvlik borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklarning oqibati sifatida tariximizda og'riqli iz qoldirdi. Bunday og'ir vaziyatda O'zbekiston hukumati oldida Sovet davridagi g'ayriilmiy siyosatdan, siyosiy sinfiy yondashuvdan voz kechib, ular o'rniga haqiqiy baynalmilal, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, yangi munosabatlarni qaror toptirishi vazifasi turar edi.

Ko'p millatli demokratik jamiyatda ko'pincha millatlararo munosabatlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida nomoyon bo'ladi.

Bu borada dastlabki tashlangan qadamlardan biri sifatida 1989 yilda O'zbekiston madaniyat ishlari vazirligi qoshida Respublika Millatlararo madaniyat markazi tashkil qilinganligini ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida yashayotgan barcha millatlarning madaniyat markazlarini tashkil etish g'oyasini O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov boshlab bergan edi.

Davlat va jamoatchilik asosida milliy va turli ijtimoiy harakatlar tashkil etilishi millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda, mavjud muammolarni yechishda katta rol o'ynadi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov, milliy va ijtimoiy harakatlar tashkil etilishi haqida "Ular O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobiy rol o'ynamoqda"[1, 472] - deb ta'kidlagan edi.

O'zbekistondagi millatlararo munosabatlarga 1989 yilda saylangan respublikaning yangi rahbariyati alohida e'tibor qaratganini ta'kidlash lozim. Respublikamizda mavjud bo'lgan ko'p millatli tarkibni saqlab va mustahkamlash muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu vazifani amalga oshirishda barcha xalqlarning teng huquqliligini ijtimoiy adolat asosida ta'minlashga katta e'tibor berildi. Turli millatlar, elatlar o'rtasidagi hamkorlik mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri sifatida qaraldi.

Farg'ona voqealaridan so'ng, O'zbekistonning yangi rahbariyati millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor berdi. 1990 yilning oxirida O'zbekiston Prezidenti kengashida milliy - madaniy markazlar va ularning ishini takomillashtirish to'g'risida masala muhokama qilindi.[2, 672]

Mahalliy kengashlar, vazirliklar va idoralarga milliy - madaniy markazlar tomonidan qo'yilayotgan muammolarni hal etishda yordam berish va har bir xalqning madaniyatini, o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirishga millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning muhim omili sifatida qarash tavsiya qilindi.

O'zbekistonda milliy munosabatlardagi davlat siyosati millatlararo totuvlik ijtimoiy adolat mezonlari asosida amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq har bir xalqning madaniyati, o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirishga millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning muhim omili sifatida qaraldi. Shu nuqtai-nazardan hozirgi kunda milliy munosabatlar tarixini keng o'rganish, ilmiy taxlil etish, kerakli xulosalarni chiqarish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Milly - madaniy markazlarning shakllanishi va rivojlanishida 1992 yil 24 - yanvarda qabul qilingan Vazirlar mahkamasi qarori bilan «Baynalmilal Madaniyat Markazi» ning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublika Baynalmilal madaniyat markazining asosiy vazifasi vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish, milliy - madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o'ziga xos an'ana, urf odat va rasm - rusmlarni tiklash hamda rivojlantirishda ularga ko'maklashish deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Islohotlarning mazmuni va maqsadi O'zbekistonning har bir fuqarosi millatidan qat'i nazar, shaxs sifatida namoyon bo'lish, o'z qobiliyatini, iste'dodini namoyish etish, o'z hayotini yaxshiroq, munosibroq ma'naviy boyroq qilish imkoniga ega bo'ladigan zarur shartlarni yaratishdan iboratdir"[3, 217].

Millatlararo munosabatlarning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 4 - moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf - odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi»[4, 4] - deb asoslab qo'yilgan.

2007 yil 19 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 15 yilligi munosabati bilan milliy-madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to'g'risidagi PF-3847-son farmoni e'lon qilindi. Farmonda mamlakatimizda millatlararo do'stlik, hamjihatlik va totuvlikni yanada mustahkamlashga, yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik,

mustaqillik g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashga, milliy-madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirishga qo'shgan salmoqli hissasi uchun O'zbekiston Respublikasidagi bir qancha milliy - madaniy markazlarning raislariga «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi», «Do'stlik» ordeni, «Shuhrat» medali singari faxriy unvonlar berildi[5].

O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlar bilan do'stona munosabatlar va madaniy – ma'rifiy munosabatlarni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda milliy – madaniy markazlarning roli oshib bormoqda. 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan munosabatlarni yaxshilash bo'yicha aniq reja va dasturlarni ishlab chiqish belgilab qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8 – moddasida «O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishi»[4, 6] alohida ta'kidlab o'tilgan.

Bosh qomusimizning 18 – moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar»[4, 9] - deb keltirilgan.

Respublikamizda millatlararo munosabatlar tizimidagi dolzarb masalalardan biri bo'lgan ta'lim tarbiya masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Bu borada respublikamizda «10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koryes tilida ta'lim berish jarayoni yo'lga qo'yilgan»[6, 212].

2017 yil 24 yanvarda Respublika Baynalminal Madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati bilan katta bayram tadbiri o'tkazildi. Unda Prezident Sh.Mirziyoyev nutq so'zlab «Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Ularda o'z milliy madaniyati an'ana va urf odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan»[7] - deb ta'kidladi.

Prezident Sh.Mirziyoyev nutqi davomida «Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy - madaniy markaz yetakchi rol o'namoqda. Ular o'zlarining o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishga, har birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda»[7] - deb ta'kidlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishi sifatida «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar» belgilandi.

Harakatlar strategiyasining ushbu beshinchi yo'nalishi o'z navbatida yurtimizda fuqarolar xavfsizligi millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglikka e'tiborni yanada kuchaytirilganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 maydagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ - 2993-son qarori e'lon qilindi.

2019 yil 15 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Farmonda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan millatlararo munosabatlar tizimidagi islohotlarga alohida tuxtalib o'tiladi. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasida ushbu fikrlar keltirib o'tilgan.

«So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi»[8].

Shuningdek, Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasida milliy - madaniy markazlar faoliyatini samarali tashkil qilish uning ta'sirchanligini yanada mustahkamlash borasida ham tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Konsepsiyaning 8 bandida "Qo'mita manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyati takomillashtirilishini nazarda tutuvchi chora-tadbirlar kompleksini, milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga hamda millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatni amalga oshirishda ularning rolini kuchaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritin"[8] - deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda chet eldagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy davlatlar bilan do'stona munosabatlarni va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish Respublika baynalmilal madaniyat markazi, milliy - madaniy markazlar faoliyatining bosh vazifasi bo'lib qolmoqda.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi, milliy - madaniy markazlar faoliyatida yangi ijobiy o'zgarishlarning bosh mezoni sifatida, ushbu sohaga tegishli huquqiy asoslarning takomillashtirilib borilayotgani va tegishli davlat dasturlarining qabul qilinayotganligini ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar barqarorligining bir qancha sabablari mavjud.

Birinchidan, millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirishning asosiy sharti sifatida O'zbekiston hukumati mazkur masalani qonuniy-huquqiy jihatdan ta'minlay oldi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlari, Oliy Majlis va Vazirlar mahkamasining qator qaror va farmoyishlarida bir millatning boshqa millat ustidan huquqiy ustivorligi amalda yo'qqa chiqarildi va milliy masala O'zbekiston Respublikasida to'g'ri hal qilindi.

Ikkinchidan, O'zbekiston hukumati o'z siyosatini millatlararo munosabatlarning sobiq Sovet tizimi davrida shakllangan nazariy-metodologik jihatdan xato asnoda yurgizishdan voz kechib, uni jahonning yirik ko'p millatli davlatlarida qaror topgan nazariy-amaliy asosda olib borayotganligi O'zbekiston Respublikasida milliy masalani adolatli tarzda hal etishga ko'mak bermoqda.

Uchinchidan, mamlakatimiz siyosiy rahbariyatining bozor munosabat-lari sharoitida kuchli ijtimoiy siyosat yurgizayotganligi hamda bunday siyosatning asosini millatlararo barqarorlik totuvlik tashkil etganligi yurtimizdagi barcha millat, elatlar ijtimoiy taraqqiyotiga kafolat yaratmoqda.

To'rtinchidan, nafaqat qabul qilingan buyruq va farmonlar, shuningdek, o'zbek xalqining qadimdan shakllangan ma'naviy - ma'rifiy dunyosi, dunyoqarashidagi ijobiy holatlar, millatimizning azaldan kuchli qo'ni - qo'shnicilik an'analariga sodiqligi, boshqa millatlar shu jumladan, boshqa dinlarga, qadriyatlarga bo'lgan hurmat e'tibori millatlararo munosabatlarni ijobiy tomonga hal qilmoqda.

Beshinchidan, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan millatlararo munosabatlardagi yangi islohotlar bugungi kunlardayoq o'zining ijobiy samarasini bermoqda va kelajakda yanada katta natijalarni berishi aniqlashib bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar rivojida milliy - madaniy markazlar asosiy madaniy muassasalardan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Ular faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, ayniqsa huquqiy asoslarini mukammal tarzda shakllantirib boorish zamon talabi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida millatlararo munosabatlarni mustahkamlanib borishida va mamlakat tinchlik xotirjamligini ta'minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т. «Ўзбекистон», 1998. – Б. 472.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи қисм. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. Т. «Шарқ», 2001. – Б. 672.

3. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., 1997, - Б. 217.
4. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 4 – modda T. «O`zbekiston» 2014 yil. 4 - bet.
5. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007 y., 1-son, 24 modda
6. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o`rganish bo`yicha ilmiy –uslubiy risola. T. «Ma`naviyat» 2017 yil, 212 – bet.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag`ishlangan uchrashuvdagi nutqi
8. <http://xs.uz/uz/post/millatlararo-munosabatlar-sohasida-ozbekiston-respublikasi-davlat-siyosati-kontseptsiyasini-tasdiqlash-togrisida> 2019 yil 15 noyabr

UDK: 9 (575.1)

ROSSIYA IMPERIYASI MA`MURLIGI DAVRIDA TURKISTON O`LKASIDA SUV XO`JALIGI BOSHQARUV TIZIMI

O. O. Zaripov

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filiali
baqtria@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Rossiya Imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston o`lkasining suv xo`jaligida ma`muriy boshqaruv tizim shakli, tuzulishi va uning huquqiy maqomi muhokama qilingan. Rossiya hukumatining irrigatsiya tizimida o`lkada mavjud an`anaviy boshqaruv tizimni saqlagan holda uning yuqori tizimida rus vakillaridan bo`lgan mutaxassislarni qo`yilganligi, tizimdagi lavozimlar, ularning vazifalari mazkur davr qonunlari hamda mutaxassislari yozgan asarlar yordamida to`liq tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Turkiston general gubernatorligi, K.K. fon Kaufman, mirob, arik oqsoqoli, to`g`onchi, G.N.Cherdansev, irrigatsiya tarixi, uyezd boshlig`i.

Система управления водным хозяйством в Туркестанском крае в период правления Российской империи

Аннотация. В статье рассматриваются форма, структура и правовой статус системы административного управления в водном хозяйстве Туркестанского края в период правления Российской Империи. Российская правительства сохранила традиционную систему управления в стране, система управления ирригационных работ полностью проанализирована с помощью законов и трудов специалистов.

Ключевые слова: Туркестанское генерал-губернаторство, К.К. фон Кауфман, мираб, арик аксакал, туганчи, Г.Н.Черданцев, история ирригации Туркестана, начальник уезда.

Water management system in the Turkistan region during the reign of the Russian empire

Abstract. The article discusses the form, structure and legal status of the system of administrative management in the water economy of the Turkestan Republic during the reign of the Russian Empire. In the irrigation system of the Russian government, the traditional management system in the country was maintained, and its top system was fully analyzed with the help of works written by Russian representatives, positions in the system, their functions, laws of this period and specialists.

Keywords: Russian Turkestan, Konstantin von Kaufman, mirab, arik aksakal, tuganchi, G. N. Cherdantsev, history of irrigation of Turkestan, water law.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgach birinchi general-gubernator K.P. fon Kaufman o`lkada rus hukumati bosqinchilik siyosatini amalga oshirishda davom etib, Buxoro va Xiva xonliklarini yarim mustamlakaga aylantirdi. Shundan so`ng, bosh maqsad o`lka iqtisodiyotini Rossiya imperiyasi iqtisodiyoti manfaatlariga bo`ysundirishga qaratilgan mustamlakachilik siyosati amala oshirila boshlandi.

Jumladan, Turkiston o`lkasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida boshqaruv to`g`ridan-to`g`ri rus ma`murlari boshqaruviga o`tdi. Buxoro va Xiva xonliklarida ham rus hukumatining vakili hisoblangan siyosiy agentliklar orqali ta`sir o`tkazila boshlandi. Imperiya ma`murlari aksariyat hollarda boshqaruv tizimida “shariat”, odat va boshqa an`analar asosida mahalliy millatning vakillaridan boshqaruv ishlarida keng ko`lamda foydalanishgan.

Agrar soha o'lkaning asosiy tarmog'i hamda rus sanoatini xom ashyo bilan ta'minlashning muhim sohasi bo'lganligi uchun, mustamlakachilar bu tarmoqni boshqarishni yo'lga qo'yishni diqqat markazida tutganlar. O'rta Osiyo hududida dehqonchilik jazirama iqlim sharoiti tufayli sun'iy sug'orishni taqozo etadi. Shu tufayli asrlar davomida o'lkada irrigatsiya tizimlari paydo bo'lib, rivojlanib ularni boshqarish tizimi takomillashib kelgan. Suv taqsimoti munosabatlari, ayniqsa suv taqchilligi yillarida uni tartibga solish, adolatli suv taqsimoti kabi masalalar g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangi yuz bergan tarixiy sharoitda ham rus ma'murlari oldida suv taqsimoti masalasi birinchi galdagi masalalardan biri bo'lib qoldi.

O'rta Osiyoda sun'iy sug'orishning qanchalik ahamiyatli ekanligini rus ma'murlarining o'zlari ham e'tirof etishgan, masalan imperator topshirig'iga ko'ra Turkiston o'lkasini taftish etgan komissiyasining rahbari gofmeyster-graf K.K.Palen o'zining "Turkistonda sug'orish" asarida: "Turkiston o'lkasining issiq iqlimida qishloq xo'jaligi madaniyati sun'iy sug'orishga to'laqonli bog'liq. Turkiston asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi bo'lgani uchun, uning iqtisodiy hayotining asosini sug'orish ishlari tashkil qiladi." [1, 1 bet].

General-gubernatorlik irrigatsiya tizimida yangi tizim barpo etish uzoq vaqt va tajriba talab etishi sababli tarixan shakllangan an'anaviy tizimni saqlab qolishni va undan unumli foydalanishni ma'qul ko'rdi.

An'anaviy tizimda monarxiya sharoitida suv taqsimoti boshqaruv tizimida "ariq oqsoqoli" – bosh kanalda suv taqsimotini, "mirob" yoki "amin" – bosh kanalning tarmoqlari, ariqlardagi suv taqsimotini nazorat qilgan, "to'g'onchi" – daryodan to'g'onlar oraqali sug'orish kanlariga suv chiqsa, to'g'on va dambalardan suvning taqsimlanishi va ularning tozaligi va sozligi bilan shug'ullangan [2, 17-18 betlar]. Rossiya hukumronligi o'rnatilgandan so'ng, shu tizimdagi bosh bo'g'in hisoblangan ariq oqsoqoli lavozimiga harbiy-gubernator tomonidan tayinlangan, mirob esa qishloq aholisi yig'inida saylangan. Shu tariqa irrigatsiya tarmoqlarini boshqarish gubernator tomonidan tayinlangan lavozim orqali ma'murlar qo'liga o'tdi.

1867 yildan so'ng o'lkani boshqarishga doir qabul qilingan qator yuridik hujjatlarda suvdan foydalanish va boshqarish tizimining huquqiy asoslari o'z aksini topdi. Bunday hujjatlarning birinchisi 1877 yilda general-gubrnator K.P.Kaufmannning "Turkiston o'lkasida irrigatsiyaga oid muvaqqat qoidalar"i chiqarildi, bu farmoyish bilan Turkistondagi suv boshqaruvi to'liq rus hukumati qo'liga o'tgan bo'lsa. 1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tasdiqlagan "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom"ning 256-moddasida "Ariqlar, soylar, daryo va ko'llardagi suvlar aholiga odat bo'yicha foydalanishga beriladi" – deb belgilanib, nizomning 107-moddasi bilan suv taqsimotini nazorat qiluvchi instansiyalarning vazifalari mustahkamlandi. Unga ko'ra suv taqsimoti iyerarxiyasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

"Mirob" – boshqaruv piramidasieng eng quyi bo'g'inida turuvchi qishloq yig'ini tomonidan saylanadigan va ozod etiladigan yagona lavozim. Uning vazifasiga yon tarmoq ariqlarni boshqarish, boshqaruvga – jamiyat a'zolari o'rtasida suv taqsimoti, ariqlarni saqlash hamda ariqlar tizimida ta'mirlash ishlarini olib borish kirgan. 1) suv taqsimoti ishlarida mirob qishloq yig'ini qarorlariga asoslanib suvni taqsimlagan va bu ishda qishloq oqsoqoli yordamiga suyangan. 2) ariqlarni texnik holatini soz holatda saqlash uchun kerak bo'ladigan mablag' va ishchi kuchini mirob o'zi saylangan hudud jamoasidan so'ragan. O'zi saylangan hududda ariqlar ustidan mustaqil ravishda idora qilsada, ayrim bahsli masalalarda bilvosita "ariq oqsoqoli"ga bo'ysungan. Umuman G.N.Cherdansevning ta'kidlashicha "miroblar butunlay o'zi saylangan jamoa izmida edi. Aynan shu jamoa mirobning ish haqqini tayinlar va to'lardi. Ko'pgina aniq va jiddiy vazifalar, ularni bajarish mas'uliyati bilan birga mirob noaniq va yaxshi kafolatlanmagan cheklangan huquqlarga ega edi. Shu sababdan xizmat vazifasini bajarishda maxsus belgili formani kiyish huquqi mirob uchun katta yupanchiq bo'lganligi dargumon.(O.Z.)" Shu orada sun'iy sug'orish tizimi bo'lgan mamlakatlarda istiqomat qilgan kishiga ma'lum bo'lgan, aholi o'rtasidagi sug'orish masalasiga taaluqli kundalik to'qnashuvlar va bahslarning barchasi aynan shu rasmiy shaxs tomonidan tartibga solishi lozim edi. Suv taqsimoti masalasidagi nizolarni adolatli hal qilish uchun jamoa orasidan saylangan miroblik lavozimi – bizning yurtimizda asrlar davomida shakllanib, amalda bo'lib kelgan demokratiyaning o'ziga xos sharqona ko'rinishidir.

Shu o'rinda an'anaviy suv boshqaruvi tizimidan meros bo'lib qolgan yana bir lavozim "to'g'onchi"ga to'xtalib o'tsak, uning qonuniy maqomi faqatgina 1877-yildagi fon Kaufmannning chiqargan "Turkiston o'lkasida irrigatsiyaga oid muvaqqat qoidalar"ning 21-moddasida ko'rsatilgan. Unda "Irrigator hisobida yer o'lchovchi va ma'lum miqdordagi ariq oqsoqollar, miroblar va to'g'onchilar bo'lishi kerak" [3, 155 bet] deb belgilangan, ammo 1886 yildagi "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom"da bu lavozim umuman tilga olinmagan, shundan kelib chiqib "to'g'onchi" lavozimi huquqiy maqomini yo'qotgan deb xulosa qilish mumkin.

“Ariq oqsoqoli” – harbiy gubernator tomonidan tayinlanib, vazifasidan ozod etiladi. Unga bosh kanalda suv taqsimotini idora qilish vazifasi yuklatilgan. Mirolardan farqli o‘laroq ariq oqsoqoliga endi yozuv-chizuv, hujjat yuritish ishlari tushardi.

U uyezd boshlig‘iga:

– ishchilar sonini hisobi va ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan material miqdori;

– uning boshqaruvida bo‘lgan kanal yoki daryoning ta‘rifi;

– o‘zining amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi kundalik jurnal;

– suv sathining o‘zgarishito‘g‘risida;

– uyezd boshlig‘i va irrigatsiya mudirining fikr mulohaza va ko‘rsatmalari to‘g‘risida hisobot berib turgan.

Ariq oqsoqoli ustidan barcha shikoyatlar uyezd boshlig‘iga o‘z navbatida qishloq yig‘inlari hal qila olmagan masalalarda mirolar ustidan bo‘ladigan shikoyatlar ariq oqsoqoliga topshirilardi. Mirob kabi maxsus kiyim va nishonga ega bo‘lish bilan birga ariq oqsoqoli – harbiy gubernator tomonidan tayinlanadigan ish haqqi olgan. Maxsus nishonning bo‘lishi va uning majburiy ommaviy yig‘imlar hisobidan tayyorlanishi ham “Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi Nizom”ning 107-moddasi 2-eslatmasi bilan belgilab qo‘yilgan [4, 107 modda pr.2.].

G.N.Cherdansevning ma‘lumotiga ko‘ra ariq oqsoqoli volost yig‘ini belgilagan miqdorda yiliga 300 rubldan 500 rublgacha ya‘ni har oyda 50-75 rubl maosh olgan va undan tashqari kotib yo‘llash va xat jo‘natmalari uchun ham unga 300-400 rubl ajratilgan [5, 27 bet].

Yuqoridagi qayd qilingan ikki lavozim egalari mahalliy aholi vakillaridan bo‘lib, har ikkalasi ham rus ma‘murlariga bo‘ysunganligi Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan siyosatining mustamlakachilik mohiyatini ko‘rsatib turibdi.

1886-yilgi Nizomning 107-moddasida keltirilgan navbatdagi mas‘ul shaxs bu uyezd boshlig‘i. Irrigatsiya sohasining tashkilotchisi sifatida uyezd boshlig‘i uyezdagi suv xo‘jaligi ishlarini to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilib, favqulodda holatlarda qarorlar qabul qiladi. Uyezd boshlig‘i o‘zidan quyi instansiyadagi mas‘ullar bilan oblast irrigatsiya mudiri u bilan harbiy gubernator o‘rtasidagi ma‘muriy boshqaruv bo‘g‘ini hisoblanadi.

Irrigatsiya mudiri – bu oblastning maxsus yuqori lavozimi bo‘lib, u “oblastning irrigatsiyaning ilmiy va texnik masalalarini bilimdoni, sug‘orish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va uni kelajakda rivojlantirishni amalga oshira biladigan” – deb belgilab qo‘yilgan [5, 27 bet]. Irrigatsiya mudirining uning lavozim vazifasi xarakteridan kelib chiqib texnik hisoblanadi. Irrigatsiya ishlari mudiri lavozim vazifasiga: hudud xaritasini tuzish, tasvirga olish, sug‘oriladigan erlar maydonini hisoblash, suv miqdori, samarasiz suv sarflari shu bilan birga ortiqcha qolganini aniqlash, irrigatsiya bo‘yicha texnik yo‘riqnomalar, texnik loyihalar va smetalarni tuzish kirgan. Texnik vazifalar bilan bir qatorda unga keng qamrovli hisobot: hududdagi irrigatsiya ishlarining umumiy holati va ariq oqsoqollarining jurnallari asosida mas‘ullar faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot tayyorlash shu bilan birga o‘zining faoliyati haqida yillik hisobot taqdim etish yuklatilgan. Bundan tashqari u jurnal ham yuritgan. “Shunday qilib, irrigatsiya ishlari mudiri qog‘ozbozlik ishlariga ko‘milib ketgan.” [5, 27 bet].

XX asr boshlariga kelib paxta yetishtirish sohasining rivojlanishi va Turkistonni paxta etishtirib beruvchi asosiy bazaga aylantirish niyati rus hukumatini o‘lkada sug‘orish ishlariga katta e‘tibor qaratishga majbur etdi. Hatto 1910 yilda suv kodeksini qabul qilish rejasi ham paydo bo‘ldi. Ammo suv to‘g‘risidagi qonun loyihaligicha qoldi. Suv xo‘jaligiga oid loyihalarning amalga oshishiga asosiy to‘sqinlik qilgan sabab hukumatning moliyaviy qiyinchiliklarida edi. Loyihalarni amalga oshirish uchun talab etiladigan bir necha million rublni davlat xazinasi ajrata olmasdi. Bunday vaziyatda irrigatsiya sohasini rivojlantirish uchun hukumat doiralari va soha mutaxassislari tomonidan sug‘orish ishlarini tashkil qilishni xususiyashtirish, sug‘oriladigan erlarni sug‘orish ishlarini yuritish mas‘uliyatini xususiy shaxslarga berishni taklif qilindi.

Sug‘orish va suv inshootlarini xususiyashtirish Turkiston o‘lkasi uchun yangilik emas edi, xonlik davrida ham bunday tajriba bor edi. “Komissiya ixtiyorida bo‘lgan hujjatlardan ma‘lumki, davlat tomonidan suv manbalarining sotilganligi to‘g‘risidagi faktlar mavjud, suv manbaini sotib olganligi uchun shunday yorliqlarga ega bo‘lgan shaxslarning shu suv manбайдan sug‘oriladigan erlari to‘lovlardan ozod qilingan [6, 113 bet].

Nihoyat 1910-yil 21 mayda qabul qilingan qoidalar bilan Rossiya hukumati xususiy tashkilotlar sug‘orish faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat berdi. Qabul qilingan qoidalardan maqsad O‘rta Osiyoda yangi erlarini o‘zlashtirish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish edi. Irrigatsiya sohasini rivojlantirish uchun xususiy sarmoyani jalb qilish hech qanday samara bermadi. Buning sababi mahalliy sanoat

doiralarda yangi paxta erlariga o'z sarmoyalarini sarflash rag'batini yo'q edi, chunki bu ush o'ta qiyin va katta mablag'ni talab etardi. Shunday qilib sohani xususiyashtirish tashabbusi amalga oshmadi.

O'lkada irrigatsiya tarmoqlarini boshqarishni o'z tasarrufiga olish va o'z manfaatlarini yo'lga xizmat qildirish mustamlakachilik siyosatining markaziy masalasi ekanligini chuqur anglagan podsho ma'murlari Turkiston o'lkasida irrigatsiya tarmoqlarini boshqarishni butunligicha o'z qo'lga oldi. Turkiston general-gubernatorligining Buxoro amirligi va Xiva xonligiga tutash hududlarda har ikkala tomon o'rtasida suv taqsimotini o'z tasarrufida saqlab qolib Buxoro va Xivaga suv taqsimoti masalasida zo'rvonlik siyosatini amalga oshirdi. Aksar hollarda vegetatsiya davrida suv tanqisligi sezilganda imperiya manfaatlarini ustun qo'yilganligi Buxoro va Xiva hukumatlarining rus vakolatxonalarini orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri Turkiston general-gubernatoriga murojaatidan so'ngina ma'lum miqdorda suv yuborilgan. Akademik A.Muhammadjonovning "Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi" asaridagi quyidagi ma'lumot yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. "Amir Muzaffarning K.P.Kaufmanga yozgan maktubi Buxoroning suv masalasida Turkiston ma'muriyatiga qanchalik qaram bo'lib qolganini yaqqol namoyish qiluvchi tarixiy hujjatdir. Maktubda: "Joniral gubernator ad'yutant fon Kaufman Rusiya askarining sipoh solori va Turkiston lashkariyasining gubernator sardorig'a. So'z shulkim Buxoroyi sharif musulmonlari va beva bechoralari suv uchun ko'p mu'tal bo'lub tururlar. Suv vajhidin avvalg'a ham va'da bo'lib erdikim, suvning taqsimi boshdin na tariqaki bo'laturg'on bo'lsa, vaqti bo'lg'onda berib bo'latur [turiladi]. Endi bir oy savr suvi zarur bo'libdur..., davlat-u va muruvvatlu ulug' podshohning haqqiga beva-bechoralardan duo olib, va'da bo'lgan [qilingan] suvni bir oy berilsunkim, musulmonlarning ekinlari zoe bo'lmasun va yana kim musulmonlarga vaqtiga suv berilmasa beva-bechoralar bezovta bo'lub, bizg'a kelsalar, alarg'a ne javob ayturmiz. Fish shahri muharram 1207 [yil] amir Said Muzaffar" – degan so'zlar bitilgan edi." [7, 194-195 betlar].

Bu holat suv taqsimoti masalasida tizimning boshida podsho ma'murlari turganligini va ular har qanday vaziyatda ham imperiya istaklari keng xalq ommasining huquqlaridan yuqori qo'yanligini ko'rsatib turibdi.

Rossiya imperiyasi ma'murligi davrida Turkiston o'lkasida suv taqsimoti tizimining mustamlakachilik mohiyati 1917-yilgi oktyabridagi davlat to'ntarishigacha saqlanib keldi. 1917-yilgi to'ntarishdan so'ng rus ma'murlarining o'lkada suv taqsimoti tizimini mustamlakachilikning eng muhim quroli sifatida orttirgan tajribasi 20-30 yillarda yanada dahshatliroq tarzda yer-suv islohoti va jamoalashtirish kabi tadbirlarida namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar

1. Пален К.К. Орошение в Туркестане / СПб., 1910. – С. 1.
2. Бенцелевич Н.А. Водные пути Туркестана. / СПб., 1914. – С. 17-18.
3. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и в настоящем. Исторический очерк / А.И.Добросмыслов. Ташкент, 1912. –С. 155.
4. Свод Законов Российской Империи. В пяти книгах. Книга первая. Тома 1-3. Том 2. СПб., 1912. – С. 427-446.
5. Черданцев Г.Н. Водное право Туркестана в его настоящем и проектах ближайшего будущего / Г.Н. Черданцев. Ташкент, 1911. – С. 27.
6. Мухамедов Ш.Б. Особенности землевладения и водопользования в Средней Азии и Алжире в XIX в. // МИ. 2019. – С. 113
7. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha). T.: Fan, 1972. 194-195-betlar

UDK: 9(47)(575.141)

SAMARQANDLIK JANGCHILARNI FASHIZMNI TOR-MOR ETISHDAGI ISHTIROKI

[A. Bodirov], Z. Bodirova

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
a.bodirov@mail.ru.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Samarqand viloyati vakillarining urush frontlarida ona yurtlari uchun olib borilgan ayovsiz janglarda, dushmanga qarshi qonli urushda o'zbek xalqiga xos bo'lgan qahramonliklari va mardligi, qo'lida qurol bilan muqaddas zaminimizni himoya qilganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qahramonlik, mardlik, jasorat, himoyachi, mudofaa, gornizon, jangchi, fashizm, harbiy qism, harbiy texnika, partizan.

Участие бойцов-Самаркандцев при разгроме фашизма

Аннотация. В этой статье представители Самаркандской области во время Второй мировой войны сражались за родину в жестоких битвах за родину, за героическую и храбрость, присущую узбекскому народу в кровопролитной войне против врага, и защиту нашей земли с помощью оружия.

Ключевые слова: Геройство, мужество, храбрость, защитник, защита, горнизон, боец, фашизм, военный часть, военный техника, партизан.

The participation of Samarkand fighters in defeating fascism

Abstract. This article shows that the representatives of Samarkand region during the Second World War fought against the enemy during the bloody war in their native land in the brutal battles for their native land and the heroism and courage of the Uzbek people.

Keywords: Heroic, masculinity, courage, defender, defense, gornizon, warrior, fascism, military parts, military technical, guerrillas.

O‘zbekistonning boshqa viloyatlari aholisi kabi Samarqand viloyati vakillari ham Ikkinchi jahon urushi frontlarida ona yurtlari uchun olib borilgan ayovsiz janglarda, kuchli va makkor dushmanga qarshi qonli urushda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qahramonlik va mardlik, qo‘lida qurol bilan muqaddas zaminimizni himoya qildi. Ikkinchi jahon urushida O‘zbekistondan 1433230 kishi qatnashgan bo‘lsa [1], Samarqand viloyati bo‘yicha 152 mingdan ziyod kishi dushmanga qarshi kurash olib bordi [2].

Qo‘liga qurol olib bosqinchilarga qarshi kurashganlar safida yuz minglab samarqandliklar ham bor edi. Samarqandning jasur va mard o‘g‘lonlari Moskva ostonalaridagi hayot-mamot janglarda, Stalingrad (hozirgi – Volgograd) uchun bo‘lgan dahshatli to‘qnashuvlarda, Neva bo‘ylari va Kiev yaqinida, Xarkov uchun bo‘lgan janglarda, Brest qal‘asi va Odessa portlarida, Leningrad (hozirgi – Sank-Peterburg) janglarida, Yevropa xalqlarini ozod etishda faol qatnashdilar.

Fashist bosqinchilariga qarshi kurashda Vatan himoyachilarining fidokorona va qahramonona jasorati ramzi bo‘lib qolgan Brest qal‘asini mudofaa qilishda O‘zbekistonlik jangchilar ham faol ishtirok etdilar. Garnizonda o‘zbekistonlik jangchilar Ahmad Aliyev, Doniyor Abdullayev, Bobokomil Kashanov, Uzoq O‘tayev, Nurum Siddiqov, Madamin Hojiyev, Rahimboy Arslonboyev, Saidahmad Boytemirov, F.I.Loenvoklar qatorida samarqandlik Efim Liss, M.Ignatyuk, B.P.Kruglov, Ivan Gritsenko, Leond Mixaylov, Nikolay Svechnikov, Mixail Pelxer, Markoryan Savoneslar ham bor edi. [3]

Dahshatli 1942-yilning kuzida dushman Volga tomon yopirilib, Kavkaz uchun janglar avj olgan bir paytda o‘zbek xalqi o‘zbek jangchilariga 2412000 kishi qo‘l qo‘ygan maktubini yuboradi. O‘zbek xalqining o‘zbek jangchilariga yuborgan maktubi 1942-yil 31-oktabrda “Pravda” gazetasida o‘zbek va rus tillarda bosilib chiqdi. Markaziy va mahalliy front gazetalarda chop etilgan bu maktub o‘zbek jangchilarining jangavor ruhini ko‘tardi, ular bu maktubni o‘z xalqining muqaddas amri deb bildilar.

1942-yilning 4-noyabrida “Qizil O‘zbekiston” gazetasida o‘zbek xalqining o‘zbek jangchilariga maktubiga bag‘ishlangan “O‘zbek xalqining farmoni va qasami” nomli maqola chop etilgan bo‘lib, unda shunday so‘zlar bitilgan edi: “... O‘zbek xalqining maktubi-manfur dushmanni tor-mor keltirish uchun frontga har soat ko‘proq o‘q-dori, yarog‘-aslaha va oziq-ovqat yetkazib berish uchun barcha kuchlarni safarbar qilish to‘g‘risida xalqimizning bergan qasamidir:

Bu muqaddas qasamga sharaf bilan amal qilaylik. Bu qasam gullab turgan O‘zbekistonning mahsuldor vodiylarida, Volga adirlarida va Kavkaz tog‘larida, Koreliya o‘rmonlarida va Kaspiy dengizining to‘lqinli suvlarida – butun mamlakatda aks-sado bo‘lib eshitilsin. Bu qasam jang maydonlarida va mehnat frontida qahramonlik va fidokorlikni yanada avj oldirsin, dushmanni uzil kesil tor-mor keltirish paytini yanada yaqinlashtirsin”. [4]

1942-yil sentabr kunlarining birida Pastdarg‘om tumanining Qo‘qoniy qishlog‘ilik katta leytenant Jonquvvat To‘raqulov Koreliya frontida jang qilayotgan paytida 7 jangchi bilan razvetkaga boradi. Uning jangchilari sonidan 8 marta ziyod bo‘lgan nemislarining ikki vzvodi ro‘paradan kelib qoladi. Ular dushmanni tor-mor keltirib tepalikni qo‘lga oladilar. [4]

1943-yilning fevral oyining boshlarida O‘zbekistonga G‘arbiy frontdagi o‘zbek jangchilarining delegatsiyasi keladi.

Nemis bosqinchilariga qarshi olib borilgan janglarda va alohida o‘rnak ko‘rsatgan o‘zbek jangchilari va komandirlari o‘zlarining qahramonona ishlari to‘g‘risida raport berish uchun jonajon O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shahriga keladilar. Delegatlar orasida Oqdaryo tumanining farzandi mohir mergan va 107 nemisni yer tishlatgan, hamda 22 kishini mergan qilib tayyorlagan ordenli starshina Muhammad Elmurodov, yakka o‘zi bir rota nemislarning atakasini qaytargan Yangi yo‘l tumanlik avtomatchi Sayfiddin

Sattorov, efreytor Ro'ziyev, askar Do'stnazarov, gvardiyachi serjant Ahmadaliyev va boshqalar bor edi. Delegatsiyaga mayor Malla Abdullayev rahbarlik qiladi. Delegatsiya G'arbiy frontdagi o'zbek jangchilarining o'zbek xalqiga javob xatini olib keladi. [5]

Xatda: "Qimmatli otalarimiz, onalarimiz, xotinlarimiz, aka-ukalarimiz, opa-singillarimiz-jonajon o'zbek xalqiga!

Biz sizlarning xatlaringizni zo'r zavq va zo'r quvonch bilan o'qib chiqdik. Sizning muqaddas nasihat bilan aytgan har bir so'zingiz, qalbimizning eng chuqur joylarida g'oyat katta ta'sir qoldirdi. Jonajon xalqimizning xati, gullab-yashnagan Vatanimizga bo'lgan mehr-muhabbatimizni yanada oshirdi.

Ulug'bek va Navoiydek buyuk kishilarimiz yashagan va ijod bilan shug'ullangan tarixiy va yashnagan Samarqandimizni, nemis-fashist gazandalari tomonidan vayronaga aylantirilishga mutlaqo yo'l bermaymiz. Fashist haromzodalarining Toshkent, Farg'ona, Andijon va Namanganning gullab turgan ajoyib bog'larini bulg'ashga aslo yo'l qo'ymaymiz. Fashist odamxo'rlarining qirq kokil o'zbek qizini masxara va haqorat qilishiga hech qachon yo'l bermaymiz!" degan so'zlar bitilgan edi. [5]

Bu xat G'arbiy front qismlarida o'zbek jangchilari va komandirlarining mitinglarida muhokama qilinib, qabul qilinadi. Jangchilar va komandirlarning topshirig'iga muvofiq xatga 94 nafar jangchi imzo qo'yadi Ular orasida ordenli leytenant Ziyovutdinov, ordenli mayor Malla Abdullayev, kapitan Ibrohim Rahim, kapitan Hamid Fayz, katta serjant Adham Raxmat, uchinchi rang harbiy vrach Zaynab Isomiddinova, Oqdaryolik starshina, mergan Muhammad Elmurodovlar bor edi.

G'arbiy front delegatsiyasining a'zosi Muhammad Elmurodov Samarqandga keladi va 13 fevral kuni hamqishloqlari bilan uchrashish uchun Oqdaryoga boradi. [5]

Samarqandlik shoir Ra'no Uzoqova mergan jangchini qutlab "Xush kelding" she'rida shunday deydi:

G'azab otin G'arbga surgan Muhammad,
Himmat bilan jangga kirgan Muhammad,
Bir yuz yetti yovni qirgan Muhammad,
Rustam sifat qahramonim xush kelding!
Ko'kragingga boqqan ko'zlar qamashar,
Pogonlaring g'oz qaddingga yarashar,
Do'st quvonib, dushmanlaring yig'lashar,
Qo'sh ordenli pahlavonim xush kelding!

Oqdaryodan chiqqan aziz pahlavon,
Xalqim senga ofarin der ey shavvoz,
She'rim bo'lsin yo'llaringga poyonoz,
Mardi maydon navqironim xush kelding!
Jangchilarga salomimiz aytgaysan,
Mardlik bilan bizlarni shod etgaysan,
Ona yurtga shonlar quchib qaytgaysan,
O'zbeklarning dil-u joni xush kelding! [5]

Urush yillarida Samarqandda o'nlab jangavor qismlar tuzildi. 100-o'zbek otliq dviziyasi, 90-alohida o'zbek o'qchi brigadasi, 213-o'qchi polk, 83-kavaleriya, 78-o'qchi diviziyalari va boshqa qismlar shular jumlasidandir. [2] Bu jangavor qismlarda xizmat qilgan jasur va mard samarqandlik jangchilarning qadam izlari Polsha, Yugosloviya, Italiya, Norvegiya va boshqa ko'plab Yevropa mamlakatlarida qoldi.

Samarqandliklar xizmat qilayotgan harbiy qism 1941-1942 yil qishi davomida dushmanning motomexanizatsiyalashgan va tank qismlari bilan 21 marta og'ir mudofaa jangi qilib, fashist jangchilari va harbiy texnikasiga juda katta talofat etkazdilar. Chunonchi, Oryol viloyatining Chuxlovo shahri uchun 3 kun davom etgan jangda ular dushmanning 18 marta qilgan qarshi hujumini qaytaradilar. Bu jangda dushmanning kuchi ularning kuchidan to'rt baravar ko'p bo'lsa ham fashistlarning 3 tankini, 1500 ga yaqin askar va zobitini yer tishlatdi. [6] Jangchilarning qattiq turib mardonavor jang qilishi fashist bosqinchilarini mudofaaga o'tishga majbur etdi.

G'arbi-Janubiy frontda harakat qilayotgan jangchilar safida ham minglarcha o'zbek jangchilari va komandrlari jang qiladilar. O'zbek jangchilarining ko'pi urushning qahramonlariga xos so'nmas shuhratga erishdi. G'arbiy-Janubiy frontdagi o'zbek jangchilari o'zbek xalqiga yozgan maktubida shu to'g'risida gapiradilar.

Maktubda: "Sevikli xalqimiz shonli farzandlarining fashist zolimlariga qarshi qahramonlarcha jang qilayotganligi to'g'risidagi so'zlarni eshit. Sen azamat yigitlarningning nomlari leytenant Muqum Ahmedov dushmanga qarshi olib borilgan qattiq jangda nemis polkovnigini va uch ofitserini otib o'ldirdi. Ahmedov komandrlilik qilayotgan vzvod 38 nemis askarlarini asir oldi. Samarqandlik askar Jalilov og'ir yarador bo'lgan komandrini jang maydonidan olib chiqdi. O'zi qo'lidan yarador bo'lsa ham qattiq og'riqqa chidab, komandrini o'limdan saqladi va uni xavf-xatarsiz joyga yetkazib qo'ydi. U o'zini fashistlardan himoya qilib, dushmanni 7 askarini yer tishlatdi. [5]

Urush yillarida o'zbek xalqining yordami Yevropadagi qarshilik ko'rsatish harakatini avj oldirishda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Mutaxassislarining hisoblariga qaraganda, partizanlar tuzilmalarida, Yevropa davlatlaridagi yashirin qo'paruvchilik guruhlarida 40 mingdan ortiq sovet fuqarolari ishtirok etgan. Ulardagi solmoqli o'rinni ham yurtdoshlarimiz egallashgan. [1]

Masalan, Sloveniya, Bosniya-Gersogovina, Serbiya, Makedoniya hudularida fashistlarning saralangan dviziyalariga qarshi ayovsiz janglarda samarqandlik Lev Kolontarov, Golina Gritsenko, farg'onalik O'skanboy Xolmatov, kattaqo'rg'onlik Qulmamadaliyev, toshkentlik Yu.F.Rijok, andijonlik Mamatxon Jalilov va boshqa ko'pgina o'zbekistonlik o'g'lonlar va qizlar o'z nomlarini abadiy sharafiga burkadilar. [1]

Budapesht uchun olib borilgan janglardan birida dushman qo'shinlari qarshi hujumga o'tishadi. Jangchilar bu hujumni qaytarishadi. Fashistlar hujumini qaytarishda Jizzaxlik Mirzaqobil Bekov o'z to'pi bilan dushmanning ikki tankini yer bilan yakson qiladi. Pasdarg'omlik to'pchi Teshaboy Begimqulov bir transportyorni majaqlab tashlaydi. Kattaqo'rg'onlik Halim Ahmedov o'z miltig'ida o'q uzib, nemislarning uch bronemashinasini ishdan chiqardi. [7]

Ikkinchi jahon urushi yillarida samarqandliklar fashizmga qarshi olib borilgan janglarda mardlik va shijoat namunalari ko'rsatdilar. Samarqandda ham milliy qo'shin birlashmalari tashkil qilinib, frontga jo'natildi. 1941-yil noyabrda alohida milliy o'qchi brigada va 1943-yil iyulda 17-alohida Samarqand bataloni tuzildi. A.Matrosov shijoatini takrorlab mardlarcha halok bo'lgan samarqandlik Sovet Ittifoqi Qahramoni Qudrat Suyunovning, Brest qal'asi himoyachilaridan M.Hamroyev, K.Mixaylov va boshqalarning jasorati tillarda doston bo'ldi. [8]

Ikkinchi jahon urushi yillarida Samarqand viloyatining minglab farzandlari fashistlarga qarshi olib borilgan janglarda mardlik va jasoratlik namunalari ko'rsatdi. Viloyatdan 152 mingdan ziyod kishi SSSR territoriyasi va Yevropaning ko'plab mamlakatlarida kechgan janglarda qatnashdi. Afsuski, samarqandlik o'g'lonlardan 73 ming nafariga ona yurtiga qaytib kelish nasib etmadi. Nemis-fashist bosqinchilari bilan olib borilgan janglarda mardlik va shijoat ko'rsatgan samarqandliklardan 49573 kishi orden va medallar bilan mukofotlandi, ulardan 52 kishiga Sovet Ittifoqi Qahramoni degan yuksak unvon berildi, 8 kishi "Shuhrat" ordenining uchala darajasiga ham musharraf bo'ldi. Biz bu insonlarni samarqandlik qahramonlar deb atar ekanmiz, ular ko'rsatgan mardlik, jasurlik to'g'risida farzandlarimizga va kelgusi avlodlarga hikoya qilib berishimiz kerak.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида // Тузувчилар: М. Жўраев, Р.Нуриллин, С. Камолов ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.463.
2. Аминов.Х., Иброҳимов Н. Самарқанд – фронтга. – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – Б. 12.
3. Алескерев Ю.Н. Годы, Равные веком. Страницы истории Самарканды. – Т.: Узбекистан, 1973 – С. 246.
4. “Ленин йўли”. 1942 йил 5 ноябрь. №261(3785), 7 ноябрь. №263 (3287).
5. “Ленин йўли”. 1943 йил 31 январь. №25(3354), 9 февраль. №32 (3360). 14 февраль. №37(3366), 16 февраль. №38(3367), 13 февраль. № 33 (4355).
6. Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том. Маъсул муҳаррир. И.Мўминов. – Т.: Фан, 1970. – Б. 196.
7. “Ленин йўли”. 1943 йил 10 апрель. №78 (3406).
8. Голованов А.А, Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. Часть I-II. –Самарқанд: Изд. СамГУ., 2006. – С. 170.

UDK: 9(575.171)

QAYTA QURISH YILLARI VA XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI TARIXIGA YANGICHA YONDASHUVLAR

N.Sh.Raximov

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
raximov.n_1990@list.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada qayta qurish yillari va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tarixiga yangicha yondashuvlar va talqinlar haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada XX asrning 80- yillarining oxiri – 90- yillaridagi tadqiqotlarda sovet tuzumi davrida qaror topgan qarashlardan qochishga, tarixiy voqealarni birlamchi manabalarga tayanib, xolis o'rganishga intilish kuzatila boshlagan edi. Bu davrda butun Sovet ittifoqi bo'ylab boshlangan “qayta qurish” harakatlari natijasida har bir millat o'zining tarixini chuqurroq va haqqoniy o'rganishga bel bog'laganligi to'g'risidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qayta qurish, yondashuv, Turkiston, Amir Temur, qadriyat, milliy davlatchilik, mustaqillik, istiqloq, partiya.

Годы перестройки и новые подходы к истории Хорезмской народной советской республики

Аннотация. В данной статье представлен научный анализ идей о новых подходах и интерпретациях в годы перестройки и истории Хорезмской Народной Советской Республики. Статья также начала концентрироваться на исследованиях в конце 1980-х и 1990-х годов, чтобы избежать стереотипов советской эпохи и объективно изучить исторические события на основе первоисточников. В течение этого периода в результате усилий по «перестройке», начавшихся по всему Советскому Союзу, утверждалось, что каждая нация привержена более глубокому и точному изучению своей истории.

Ключевые слова: перестройка, подход, Туркестан, Амир Темура, ценности, национальная государственность, независимость, партия.

The years of reconstruction and new approaches to the history of the Khorezm people's soviet republik

Abstract. This article presents a scientific analysis of ideas about new approaches and interpretations during the years of reconstruction and the history of the KhSPR. The article also began to concentrate on research in the late 1980s and 1990s, in order to avoid the stereotypes of the Soviet era and objectively study historical events based on primary sources. During this period, as a result of the “reconstruction” efforts that began throughout the Soviet Union, it was argued that each nation was committed to a deeper and more accurate study of its history.

Keywords: Reconstruction, approach, Turkestan, Amir Temur, values, national statehood, independence, party.

XX asrning 80-yillarining oxiri 90-yillaridagi tadqiqotlarda sovet tuzumi davrida qaror topgan qarashlardan qochishga, tarixiy voqealarni birlamchi manabalarga tayanib, xolis o'rganishga intilish kuzatila boshladi. Bu davrda butun Sovet ittifoqi bo'ylab “qayta qurish” harakatlari boshlangan bo'lib, har bir millat o'zining tarixini chuqurroq va haqqoniy o'rganishga bel bog'ladilar. Bu davr 1986-1991 yillar orasidagi qisqa bir vaqtni o'z ichiga olsa-da, Yevrosiyo tarixida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o'ta muhim bir davr sifatida tarixda qoldi.

Sovet davrida sinfiy yondashuv, biryoqlama o'rganish, qariyb yetmish yildan beri asosiy mavzu sifatida xalqqa yetkazib kelingan kommunistik partiya tarixi, Rossiya tarixining ikir-chikirlarini o'rganishning o'rniga har bir xalq o'z milliy tarixini, milliy qahramonlari tarixini yoritish old planga chiqdi. Xususan, qayta qurish va mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston tarixining kam yoritilgan yoki qoralanib kelgan tomonlariga qayta ko'rib chiqilib, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya tomonidan bosib olinishi[1], Turkiston jadidlarining ma'rifatparvarlik harakatlari[2], Turkistonning parchalanishi va uning o'rnida milliy respublikalarning tashkil etilishi, o'zbek davlatchiligining qadimiy tarixiy ildizlari[3], tarixiy manbalar tarjimasi[4], Amir Temur va Temuriylar davrining mintaqa siyosiy va ijtimoiy-madaniy tarixida tutgan o'rni kabi masalalar dolzarblik kasb eta boshladi. Qisqasi, qayta qurish yillarida tarixga yangicha va xolisona yondashish, tarixni milliy qadriyatlarining bosh mezonlaridan biri deb qarash kuchayib, sinfiylik nuqtai nazaridan voz kechish, tarixni oq va qora dog'larga bo'lib o'rganish kabi salbiy illatlar tanqid ostiga olindi va yangi tarixchilar avlodi o'rta chiqdi.

Qayta qurish yillarida Yu. Paporov, V. Germanovlarning qator maqolalari[5] diqqatni jalb qilib, ularda Turkiston o'lkasida, xususan, Xorazm Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar va siyosiy jarayonlarning asl mohiyati to'g'risida yangicha qarashlar sezildi[6: –Б. 6.]. XXSR tarixi bo'yicha bu davrda chop etilgan ilmiy nashrlarning salmog'i ancha katta hajmni tashkil etmasa-da, o'sha yillarda izlanishlar olib borilib, mustaqillikning ilk yillarida nashr qilingan ishlar ancha zalvorlidir. Ularda asosiy e'tibor Yosh xivaliklar partiyasi faoliyati, sovet hokimiyatiga qurolli qarshilik ko'rsatish tarixiga yangicha yondashuv, sovet davrida qoralanib kelgan shaxslar faoliyati va boshqa masalalarga yangicha nuqtai nazardan yondashishga harakat qilingan[7].

1986–1991 yillar orasida davom etgan yangicha siyosat tarixiy voqealarga ob'ektiv yondashishga anchagina sharoit yaratib berishi natijasida XXSR tarixini u yoki bu darajada yorituvchi ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar nashr yuzini ko'rdi. Ular turli-tuman mavzularni qamrab olib, bir vaqtlar qoralanib kelgan shaxslar faoliyati, qatag'on yillari qurbonlariga aylangan xorazmlik ziyolilar, markaz va XXSR orasidagi munosabatlarning ko'p yillar davomida xalqdan yashirib kelinayotgan jihatlari, Xorazm vohasida Sovet qo'shinlari tomonidan amalga oshirilgan harbiy amaliyotlar va ularning oqibatlarini, jamoa xo'jaliklarining barpo etilishi va an'anaviy xo'jalik turlarining inqirozi, mahalliy hunarmandchilikka sovetlar munosabati va uning salbiy tomonlari va boshqa ko'plab mavzular birin-ketin ilmiy jurnal va gazetalarda chop etila boshladi. Ularning sezilarli bir qismi rus tilida nashr qilingan bo'lsa, bir qismi esa

o'zbek, qoraqalpoq tillarida chop etildi. Agar besh yildan ortiq davom etgan qayta qurish yillaridagi nashrlar ko'lamiga va mavzularning turlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, deyarli o'tgan har bir yilda Xorazm va uning yon-atroflari tarixiga bag'ishlangan monografiya, risola, maqola va tezislarning ham salmog'i oshgani, ham yoritilayotgan mavzularning borgan sari oshkoralik ruhida yozila boshlagani ko'zga tashlanadi. Ular orasida 1987 yilda nashr qilingan R. Hasanning "Badirkent – Junayidxon va Junayidlar orti" [8], S.N. Klimovning "XXSR va BXSRRning harbiy qurilishi tarixiga doir" [9], B. Koshanov va M. Seytnazarovlarning "Inqilob? To'ntarish? Xiva xonligidagi voqeliklar (1918-1924 yy.)" [10], A. Abdullaevning "Dohiy nishoni (V.I. Leninga taqdim etilgan Xorazm Xalq Sotsialistik respublikasining mehnat ordeni)" [11: 4 6.] kabi maqolalarda Sovet davrida yozilgan anchagina farqlanuvchi yondashuvlar ko'zga tashlanib, biryoqlamalikdan anchagina voz kechilgani payqaladi. Ularning bir qismida ilmiy yondashilgani, bir qismida esa ilmiy-ommabop uslub ustuvor qilgani sezilsa, o'sha yillarda B.A.Axmedov va A. Djalilov hammuallifligida yozilgan "XIX– XX asr boshlarida qoraqalpoqlar tarixidan" maqolada [12: C72-73.], shuningdek, ko'pmualliflik "Xorazm tarixi" nomli monografiyada [13] arxiv materiallariga foydalanish va ular asosida haqqoniy tarix yozishga harakat qilinganligi diqqatga sazovordir. 1988 yilda J. Rahimovning "U Lenin bilan uchrashgan edi (Boboovun Salimov haqida)" [14] esa uzoq yillar davomida Xiva tarixining mavhum bo'lib kelayotgan jihatlar yoritilib, bir shaxs taqdiri orqali XXSRda yuz bergan siyosiy jarayonlarning asl qiyofasi ochib berildi.

1989 yilda A. Shayxova tomonidan "Huquqiy hujjatlar XIX – XX asrlar boshlarida Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy (asosan agrar) aloqalar tarixi bo'yicha manba sifatida" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasining himoya qilinishi [15] ham bu davrda qo'lga kiritilgan ilmiy yutuqlardan biri bo'ldi. 1990 yilda esa I.B. Zokirovning "BXSRR va XXSRning sotsializmga o'tish yo'lida fuqarolik huquqining o'rni haqida" [16: C. 32-40.], X. Ziyoevning "Xorazm va Buxoro xonliklarining chorizm tomonidan bosib olinishi" [17: C. 30-39], F.X. Qosimovning "Xorazm va Buxoroda 1920 yilgi inqilobning eng yangi tarixshunosligining ayrim masalalari" [18: C 44-48], M. Matkarimovning "Agrar islohot samaralari (Xorazm Sovet Xalq Respublikasida yerga egalik xuquqi)" [19], J. Rahimovning "Lenin bilan uchrashgan edi" [20: 91 6.], P. Rahmonov "Inqilobning hur yog'dusi" [21], B. Ro'zimuhammadning "Uyg'onish alomatlari: (Xorazm tarixini o'rganish haqida)", N. Solaevning "Xorazm degan bilan ...", "Dunyo talpinadi senga Xorazm! Xivani ilojsizlik iskanjasidan kim qutqazadi?" [22], U. To'xtaxonovning "RSFSRRning Xorazm xalqiga yordami (yigirmanchi yillar)" [23], R.M. Xudoyberganovning "Inqilob quyoshi" [24: B. 3.] kabi risola va maqolalarda XXSR tarixining ochilmagan qirralari ko'rsatib berildi. Ular orasida ayniqsa X. Ziyoev Xiva xonligining Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganini birinchilardan bo'lib ilm ahli va ommaga yetkazib berganligi bilan alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, keltirib o'tilgan nashrlarning ayrimlarida hali ham sovetcha yondashuv, kommunistik mafkura ruhi, Xorazmda inqilob amalga oshishida rus xalqining "do'stona ko'magi" va shunga fikrlar ustuvorlik qilgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mustaqillik arafasida XXSR tarixini yoritish yanada kuchayib, R. Jumaniyozov [25], Ye.A. Priluskiy [26], V. Germanov [27: B. 41-48.], N. Sodiqova [28], O. Sultonov [29], P. Shermuhammadov [30: B.77], S. Navruzov [31] va yana bir qator tarixchi, adabiyotshunos va boshqa ijtimoiy soha mutaxassislari, publitsistlar tomonidan o'nlab maqola va tezislari chop etildi. Ular orasida V.A. Germanovning ishlari o'zining ilmiyligi, arxiv materiallaridan keng foydalanilgani bilan ajralib turadi. Tarixshunos mutaxassis sifatida u inqiloblar va to'ntarishlar davrida Turkiston o'lkasi tarixini yoritish bilan birga XXSR tarixiga obyektiv yondashgan bo'lib, sovet bu masalada sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib bera olgan. Bu davr tarixiga, ayniqsa, Chor Rossiyasi va Sovet davlatining ilk yillarida mamlakatimizdan olib chiqib ketilgan moddiy va ma'naviy boyliklarimizga bag'ishlangan bir qator maqolalar e'lon qilindi. Jumladan, N. Sodiqovning "O'g'irlangan milliy boyligimiz", "Talon-taroj qilingan mulk" kabi publitsistik maqolalarida bu masalaga alohida to'xtalib o'tildi.

Qayta qurish yillari XXSRning tuzilishida faol qatnashgan va uning zamonaviy davlatga aylanishi uchun jon kuydirgan shaxslar faoliyatiga bag'ishlangan o'nlab ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar nashr yuzini ko'rgani bilan xarakterlanadi. Ular orasida yuqorida keltirib o'tilgan J. Rahimovning "U Lenin bilan uchrashgan edi (Boboovun Salimov haqida)" [32], O.Sultonovning "Polvonniyoz Yusupov" [33] kabi risola va maqolalari o'zining o'sha davrda Xorazm vohasida kechgan voqeliklarga obyektiv va yangicha yondashilgani bilan qayta qurish yillari tarixshunosligida muhim o'rin tutadi. Ushbu nashrlar orqali nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki xalq ommasi sovet yillarida yomonotliq qilib kelingan shaxslarning yurt kelajagi yo'lida olib borgan kurashlarning asl mohiyati bilan tanishdilar.

Shuningdek, bu davrda sovet yillarida doimo salbiy obraz sifatida tarixiy ilmiy asarlarda va badiiy adabiyotda qoralanib kelgan Junayidxon shaxsi bo'yicha yangicha talqinlar e'lon qilina boshlagani diqqatni tortadi. Masalan, R. Hasanning "Badirkent – Junayidxon va Junayidlar orti" [34] shular sirasiga kiradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Junayidxon o'ta murakkab shaxs bo'lib, uning faoliyatida ham ijobiy, ham salbiy

tomonlari bor edi. Biroq sovet yillarida u to'la qora bo'yoqlar bilan tasvirlanib, Qizil askarlar tomonidan aholiga o'tqazilgan tazyiqlarga qarshi kurashuvchilarni birlashtiruvchi siyosiy-harbiy kuch sifatida o'rta chiqqan jihatlaridan ko'z yumildi. Sovet tarixshunosligida Junayidxon shaxsiga nisbatan biryoqlama yondashuv natijasida, shuningdek, badiiy adabiyotda uning "bosmachi", "kallakesar", "o'g'rilar to'daboshisi", "talonchi" biror mafkura va strategiyaga ega bo'lmagan zolim kishi bo'lgani to'g'risida uqtirib kelindi va xalq orasida u va uning yonida bo'lgan xorazmlik ma'rifatparvarlar, xususan, "Yosh xivaliklar"ga nafrat uyg'otishga urinishlar bo'ldi[35: B. 36 – 43].

Xullas, qayta qurish yillarida XXSR tarixiga bo'lgan munosabat bilan tarixshunoslik nuqtai nazaridan qisqacha tanishib chiqish shuni ko'rsatadiki, bu davrda yetmish yildan beri shakllantirib kelingan yondashuvlarning biryoqlama ekanligi aytilib, ilmiy jamoatchilik va xalq ommasidan yashirib kelingan, qora bo'yoq chaplanib kelingan siyosiy va jamoat arboblari shaxsiga yangicha va obyektiv yondashuv kayfiyati ustuvorlik qila boshladi. Qayta qurish yillari tarixshunosligi ilm-fan uchun nafaqat ilmiy ahamiyat kasb etdi, balki mahalliy aholi uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda e'lon qilingan ilmiy va ilmiy-ommabop risola va maqolalar orqali xalq o'zining haqqoniy tarixini o'rganib, milliy qadriyatlar va davlatchilik an'analarini anglab yetdi, mustaqil davlatga ega bo'lish yo'llarini izlay boshladi va nihoyat bunga erishdi.

Adabiyotlar

1. Каримов Б. Қафасдаги куш орзуси. – Тошкент, 1991; Ҳидоятлов Г. А. Менинг жонажон тарихим. – Т.: Ўқитувчи, 1992; Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз: шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.
2. Қахҳор Т. Хур Туркистон учун // Туркистон. 1992 йил 26 феврал; Тошқулов Ж. Ёш хиваликлар: сиёсий қарашларнинг тадрижий ривожланиши // Халқ ва демократия. 1992. №3-4; Абдурасулов А., Ҳасан Р. Отилғонлар ва сотилғонлар (Полвонниёз Ҳожи Юсупов, Назар Шоликоров ва бошқалар ҳақида // Туркистон. 14. 15. II. 1992; Алимова Д.А. Исторические мировоззрения джадидов и их проекция будущего Туркестана // "Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан" китобида. – Тошкент: Фан, 1996.
3. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т.: Фан, 1990.
4. История атГабари. Избранные отрывки (Перевод с арабского В. И. Беляева. Дополнения к переводу О. Г. Большакова и А. Б. Халидова). – Т.: Фан, 1987; Абулғозий. Шажарайитурк. Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б. Аҳмедов. Нашрга тайёрловчилар: Қ. Муниров, Қ. Маҳмудов. – Т.: Чўлпон, 1992; Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
5. Папоров Ю. Белое солнце пустыни // Юность, №1, 1990. – С. 80-85; Германов В. Новый документ по истории Советского Туркестане начале 20- годов // ОНУ, №4, 1991; Ўша муаллиф. Меморандум для Ленина // Диалог, №4, 1991.
6. Полвонов Н.Т. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924 йиллар).– Тошкент: Akademnashr, 2011. –Б. 6.
7. Тошқулов Ж. Ёш хиваликлар сиёсий қарашларининг тадрижий ривожланиши // Халқ ва демократия. №3-4, 1992; Ҳамидхўжаев А. Ўзбекистон сиёсий тарихини ўқитишда ёш хиваликлар ҳақидаги материаллардан фойдаланиш методикаси // Ўзбекистон сиёсий тарихини ўқитишнинг муҳим муаммолари. Конференция материаллари. Тошкент, 1992. Б. 18 – 20; Абдуллаев К. Ёш хиваликлар // Хива, №2-3, 1993; Маткаримов М.М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. Урганч, 1993; Кошанов Б.А. Право вторжение (неизвестные страницы истории Каракалпаки и Хорезма в 1919 – 1920 гг.). Нукус, 1993.
8. Хасан Р. Бадиркент – Жунайидхон ва Жунайидлар орти // "Туркистон" газетаси 1987 й., 29 декабр сони. – Тошкент, 1987.
9. Климов С.Н. К истории военного строительства в ХНСР и БНСР // ОНУ, №2. – Тошкент, 1987. – С. 43-47.
10. Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? Вторжение? События в Хивинском ханстве (1918-1920 г.г.). Рецензенты: Ш.Б.Бабашев, К.С.Сарыбаев. // Нукус, «Билим», 1987.
11. Абдуллаев А. Дохий нишони. (В.И. Ленинга тақдим этилган Хоразм Халқ Социалистик республикасининг меҳнат ордени). // Совет Ўзбекистони санъати, 1987, №11, 4 б.
12. Аҳмедов Б. А. А. Джалилов.Из истории каракалпаков XIX - начала XX вв. (На основе государственного архива Хивы) // ОНУ. 1987, №8.– С. 72-73.
13. Хива хонлигининг тугатилиши. Хоразм халқ Республикасининг ўрнатилиши (1917-1925 й.) / Хоразм тарихи. II-жилд, 1- боб. – Урганч, "Хоразм", 1987.

14. Жумабой Р. У Ленин билан учрашган эди (Бобоохун Салимов ҳақида). – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1988.
15. Шайхова А. Юридические документы как источник по истории социально-экономических (преимущественно аграрных) отношений в Хивинском ханстве в XIX – нач. XX вв. Дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 1989.
16. Закиров И.Б. О роли гражданского права Хорезмской и Бухарской НСР в осуществлении их перехода к социализму //1990, №2. – С. 32-40.
17. Зияев Х. Завоевание Бухарского и Хивинского ханств чаризмом. //1990, №8. – С. 30-39.
18. Касымов Ф.Х. Некоторые вопросы новейшей историографии нарядных революций 1920 года в Хорезме и Бухаре// Общественные науки в Узбекистане. -1990. –№1. –С 44-48.
19. Маткаримов М. Аграр ислоҳот самаралари (Хоразм Совет Халқ Республикасида ерга эгалик ҳукуқи) // Хоразм ҳақиқати. 1990, 1 февраль.
20. Раҳимов Ж. У Ленин билан учрашган эди. – Т.: “Ўзбекистон”, 1990. – 91 б.
21. Раҳмонов П. Инқилобнинг хур ёғдуси // Хоразм ҳақиқати. – 1990. – 27 янв.
22. Солаев Н. Хоразм деган билан ... // Хоразм ҳақиқати, 1990, 28 август; Солиев Н. Дунё талпинди сенга Хоразм! Хивани иложсизлик исканжасидан ким кутқазади? // Хоразм ҳақиқати. 1990, 25 апрель.
23. Тохтаханов У. Помощ РСФСР народом Хорезма (в двадцатых годах) // Хорезм.правда. – 1990. – 25 янв.
24. Худойберганова Р.М. Хоразм тарихида шонли сана: Хива ва халқ инқилоби ва Хоразм Халқ Совет респ. ташкил топганлигининг 70 йиллигига бағишлаб, шу йил 1 фев. ўтказилган тантанали йиғилишда обл. парт. ком. Биринчи секретарларининг қилган докл. // Хоразм ҳақиқати. – 1990. – 6 февраль.; Худойберганов М. “Инқилоб қуёши” нашрлари // “Хоразм ҳақиқати”. – Урганч, 1990-йил, 23-январь. – Б. 3.
25. Джуманиязов Р. Хорезм. Краткий очерк политической и социального-экономической истории. 1920-1990 г.г. –Ургенч.изд-во «Фан», 1991.
26. Прилуцкий Е.А. Национально-государственное строительство в Туркестане, 1918-1920 г.г. – Автореф. дисс....канд.ист.наук. –Ташкент, 1991.
27. Германов В.А. Григорий Исаакович Бройдо // Революцией призванные биографические очерки. Вып. Второй. – Тошкент. 1991. – С. 61-83; Германов В.А. Меморандум для Ленина // Диалог. 1991, №4. – С. 43-48; Германов В.А. Новый документ по истории Советского Туркестана начала 20-годов // ОНУ. 1991. №4. – 41-48.
28. Содиқова Н. Ўғирланган миллий бойлигимиз // “Фан ва турмуш”. – Тошкент, 1991. – № 9. 20-21; Содиқова Н. Талон-тарож қилинган мулк // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Тошкент, 1991, 19 июль.
29. Султонов О. Полвонниёз Юсупов. Тарихга назар (Хоразм воҳасида бўлиб ўтган инқилобий воқеаларда жуда катта роль ўйнаган “ёш хиваликлар” партияси ва унинг фаолларидан Полвонниёз Юсупов) // Хоразм ҳақиқати. 1991, 21 сентябрь.
30. Шермухамедов П. Тарихнинг бир сабоғи. // Хивада Совет ҳокимияти ўрнатилиши ҳақида. // Мулоқот. 1991, №9, 77 бет.
31. Наврузов С. Социально-экономическая и культурная жизнь в Хивинском ханстве в исторической, историко-географической литературе XIX – XX вв. Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1991.
32. Жумабой Р. У Ленин билан учрашган эди (Бобоохун Салимов ҳақида). – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1988.
33. Султонов О. Полвонниёз Юсупов. Тарихга назар (Хоразм воҳасида бўлиб ўтган инқилобий воқеаларда жуда катта роль ўйнаган “ёш хиваликлар” партияси ва унинг фаолларидан Полвонниёз Юсупов) // Хоразм ҳақиқати. 1991, 21 сентябрь.
34. Хасан Р. Бадиркент – Жунайидхон ва Жунайидлар орти // “Туркистон” газетаси 1987 й., 29 декабр сони. – Тошкент, 1987.
35. Ражабов Қ. Хоразмда истиқлолчилик ҳаракати ва Жунайидхон // Жамият ва бошқарув. 2000. №1. – Б. 36 – 43.

UDK: 9(575.1)

SOVET DAVLATIDA GREKLARNING KO'CHIRILISHI TARIXIDAN: SABAB VA OQIBAT

H. U. Gadoyev

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 20-50 yillarida sobiq Sovet davlatining hududlari, jumladan: Kavkaz va Qora dengiz bo'ylarida yashovchi grek millatiga mansub kishilarning Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va hatto Uzoq Sharq hududlariga majburan ko'chirilishi yoritilgan. Ishda asosiy e'tibor Davlat xavfsizlik xizmatlarining maxsus qarorlari, sanalar, raqamlar va ularning manbalariga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Greklar, Kavkaz, Qora dengiz, majburiy ko'chirish, SSSR, NKVD, GULAG, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Ozarbayjon, Gretsiya, Gruziya, Ikkinchi jahon urushi.

Из истории смещения Греков в советское государство: причина и последствие

Аннотация. В данной статье освещается проблема насильственного переселения в 20-50-х годах XX века представителей греческой нации, проживавших в бывшем Советском Союзе, на территории кроме Кавказа и Чёрного моря, а именно: в Казахстан, Киргизию, Узбекистан и даже на Дальний Восток. Основное внимание в работе уделено специальным приказам и другим указаниям Органов Государственной Безопасности, на основании указанных в них цифр сделаны определённые обобщения.

Ключевые слова: Греки, Кавказ, Черное море, Вынужденная миграция, СССР, НКВД, ГУЛАГ, Россия, Казахстан, Киргизия, Узбекистан, Азербайджан, Греция, Грузия, Вторая мировая война.

From the history of the displacement of the Greeks into the soviet state: cause and effect

Abstract. This article highlights the problem of forced displacement in the 20-50-ies of XX century the representatives of the Greek nation, lived in the former Soviet Union, except in the Caucasus and the Black Sea, namely, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Uzbekistan, and even the Far East. The main attention is paid to special orders and other instructions of the State Security, on the basis of their numbers made some generalizations.

Keywords: Greek nation, Caucas, Black Sea, Forced migration, the USSR, NKVD, GULAG, Russia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Uzbekistan, Azerbaijan, Greece, Georgia, The Second World War.

XX asrning 20 – 40 yillari davomida O'zbekiston ham Sovet davlati tarkibida majburan ko'chirilgan ko'plab xalqlar vakillarini qabul qilib olgan edi. Bugungi O'zbekistonning ko'p millatli mamlakatga aylanishi, uning yuzdan ortiq millat va elatlar uchun ikkinchi vatan yoki ona vatanga aylanishi albatta o'tgan asrning 20-40 yillarida Sovet davlatida amalga oshirilgan ko'chirish siyosatining natijalaridan biri sifatida ham ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

O'zbekistonda yashab, boshqa xalqlar bilan yelkama-yelka yurtimiz rivoji va taraqqiyoti uchun mehnat qilib kelayotgan xalqlardan greklarni ham alohida ko'rsatib o'tish zarur. Ularning yurtimiz hududlariga ko'chirilishi va joylashishi ko'rib o'tilayotgan davrda amalga oshirilgan majburiy ko'chirish siyosatining natijasi deyishimiz ham mumkin. Ammo greklar mintaqaga ancha qadimdan turli sabablar bilan kelib qolishgan.

Sovet hukumatining majburiy ko'chirish siyosatidan albatta faqatgina greklar jabr ko'rishmagan. Bunday xalqlarning soni va nomini uzoq davom ettirish mumkin.

Umuman greklarning o'zlari yashab turgan hududlardan boshqa joylarga ko'chirilishi bir necha sabab va omillarga bog'liq ekanligi faktlarni o'rganish mobaynida aniq bo'ladi.

Mazkur jarayon bir necha sabablar va xolatlar natijasida yuz berganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ularning ko'chirilishi bir necha sabablarga ko'ra amalga oshirilgan edi. Albatta sovet davlati ma'murlari mazkur siyosatni turlicha tushuntirishgan va asoslashgan bo'lsada, ammo tarixda bu siyosat umuman oqlab va asoslab bo'lmaydigan voqeyelik sifatida tan olinadi.

Taxminan miloddan avvalgi VI – IV asrlarda Qadimgi Gresiya aholisining bir qismi o'zlari yangi o'zlashtirgan hududlarga ko'chib o'ta boshlashgan. Albatta bu kabi xolatlar mamlakatda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Aniqroq qilib aytganda greklarning ma'lum qismi ko'chib ketishga majbur bo'lishgan.

Shu bilan bir qatorda Qora dengiz bo'ylari va Kavkaz hududlariga ham ko'chib kelib o'rtnashgan va asrlar davomida mazkur hududlarning mahalliy aholisiga aylanib ketgan. Ularning avlodlari esa XX asrning birinchi yarmida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar natijasida o'z yashagan joylaridan majburan ko'chirilgan.

Greklarning deportasiya (Deportatsiya – lot. deportatio - quvish, ko'chirish. Keng ma'noda biror shaxs yoki butun bir xalqning davlat yoki hudud miqyosida bir joydan boshqasiga majburan ko'chirilishi tushuniladi. Tarixchi Pavel Polyan o'zining "He по своей воле... История и география принудительных миграций в СССР" asarida deportasiya atamasi bilan birga yalpi deportasiya atamasini ham qo'llagan va bu atama bir davlat hududida yashagan butun bir xalqning boshqa hududlarga majburan ko'chirilishini anglatgan) qilinishi bu xalqning boshiga tushgan og'ir musibatlar bilan birga bo'lgan. [6; 11-12]

Umuman XX asrda SSSRda greklar uch xil ko'rinishdagi qatag'onlarning qurboniga aylanishgan.

Birinchi – 1929 – 1935 yillardagi quloqlashtirish siyosati bo'lib, u milliy va boshqa sabablar bilan birga olib borilgan.

Ikkinchi – 1937 – 1938 yillarda NKVD tomonidan olib borilgan greklar operatsiyasi.

Uchinchi – 1940-yillardagi ommaviy deportatsiyalar.

Greklar sovet davlati hududlarida yashagan yirik xalqlardan biri sifatida ko'rib kelingan va ularning oxirgi ko'chirilishi 1949-yilning 13-iyun kuni amalga oshirilgan.[2] Aynan o'sha kuni Qora dengizi bo'ylarida yashagan greklarning 40 mingdan ortiq oilalari O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalari hududlariga majburan ko'chirilgan.

Stalin boshqaruvi yillariga qadar ham milliy masalalar yoki xalqlarni bir hududdan boshqasiga ko'chirish ishlari boshlab yuborilgan edi. Greklar ham Stalin talqini bilan aytganda 2 guruhga ajratildi. Bunda ba'zi bir greklar burjuaziya vakillari va yana bir guruh greklar (asosan SSSR dagi greklar) proletarlar sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur hududlarda yashovchi greklar provaslav mazhabida bo'lib, ular o'zlarining ota-bobolarining madaniyat va urf-odatlarini saqlab, ularga amal qilib kelishgan. Hukumat greklarning qisqa muddat ichida mahalliy halqlar bilan aralashib ketishini ta'minlay olmas edi.

XX asrning 30 – yillarida har bir halqning ziyoli qismiga nisbatan qatag'on siyosati amalga oshirilgan bo'lsa, 40-yillarda butun bir xalq xalq dushmani sifatida alohida ajratila boshlagan.

O'zbekistonga greklarning birinchi ko'chirilishi 1942-yil nemis fashistlarning Kuban va Kerch hududlariga bostirib kirishi bilan izohlanadi. Shu vaqtda Qrimda yashagan greklarning bir qismi O'zbekistonga ko'chirilgan.

1949-yil 29-may kuni partiya tomonidan greklarning deportasiya qilinishi bo'yicha maxsus №2214 – 856cc sonli qarori qabul qilindi.

Umuman 1942 – 1949 yillarda jami 60 mingdan ortiq greklar ko'chirilganligi ko'rsatib o'tiladi.[2]

1930-yillarning o'rtalaridan SSSRning chegara hududlarini va yirik shaharlarini "ijtimoiy xavfli unsurlar" dan tozalash tadbirlari boshlanib ketgan edi.[4]

Dastlab 1935-yil 4-mart kuni qabul qilingan qarorga ko'ra finlar, polyaklar va nemislar ko'chirila boshlagan. Tarixchi Pavel Polyanning ma'lumotlariga ko'ra 1935 – 1941 yillar oralig'ida SSSRning g'arbiy hududlaridan 380-390 ming kishi ko'chirilgan.

1942-yil 4-aprel kuni Lavrentiy Beriyaning Stalinga bergan ma'lumotlarida greklar Qrim, Kavkazda – Kerch, Temryuk, Taman yarim oroli va ularga qo'shni hududlarda yashashlari ko'rsatilgan va 1942-yilning 29 -may kuni bergan ma'lumotlarida Maykop, Armavira kabi hududlarda ham greklarning yashashlari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga ularning orasida antisovet "unsurlar" ko'pligi bois ularni mamlakatning ichki hududlariga ko'chirish zarurligi ham ta'kidlab o'tilgan.[4]

1944-yilning may – iyun oylarida O'zbekistonning Farg'ona viloyatiga Kranodar o'lkasidan 8300 nafar va Kavkaz Respublikalaridan 16375 nafar greklar ko'chirib keltirilgan.[4]

1937-yilning 15-dekabridan 1938-yilning 7-yanvariga qadar hibsga olingan 4-5 ming nafar grek millatiga mansub kishilarning 96 % i oliy jazoga tortilgan.[5; 62]

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Greklar Stalinga nima uchun yoqmagan?. A.Vatlinning fikricha I.Stalin o'zining boshqaruvi davrida barcha xalqlarni va shu jumladan greklarni ham kuchli nazoratda ushlab turishni istagan. Ammo Gresiya SSSR bilan umumiy chegaraga ega bo'lmagan va shu sababli Stalin SSSRda yashovchi greklarga Gresiyaning ta'sirini yanada kamaytirishni rejalashtirgan va ularga nisbatan «katta terror» siyosatini olib borgan.[1; 6]

1944-yilning 29-may kuni Stalin L.Beriya maxsus maktub yuboradi va unda "greklar Qrimning asosiy rayonlarida yashashadi va ular dengiz sohillarida yashaganlari uchun savdo va mayda ishlab chiqarish bilan shug'ullanishadi. Nemis hukumati greklar bilan savdo va boshqa ko'rinishdagi aloqalarni yo'lga qo'yishga harakat qilmoqda....." degan jumlar bor edi.[5; 63]

Shu o'rinda Qrim greklarining majburan ko'chirilishiga boshqa, alohida sabablar bor edi.

Birinchiidan – Qrimning strategik muhim va chegara oldi hududda joylashganligi uchun boshqa millat vakillaridan, jumladan Qrim tatarlari, bolqorlar, armanlar va shu bilan birga greklardan mintaqani tozalash bo'lgan

Ikkinchiidan – “An’anaviy quloqlashtirish”. Davlat tomonidan o'ziga “qul” lar yoki ishchi kuchi zurur hududlarga ma'lum bir aholi qismini ko'chirish. GULAGlar ularni zarur joylarda majburan ishlatish uchun tashkil etilgan. Urush davrida esa aholining katta qismi harbiy ishga jalb qilingani sababli ishchi kuchiga bo'lgan talab har doimgidan ham ko'p bora ortib ketgan edi.

Uchinchiidan – “haqiqiy greklar” masalasi bo'lib, 1937-yil taxminan 20 % greklar Gresiya fuqoroligida qolib ketgan edi. 1937-yildagi greklar deportatsiyasi ham shu sababli amalga oshirilgan edi.

To'rtinchiidan – I.Stalinning Gresiya borasidagi navbatdagi muvaffaqiyatsizlik uchun o'ch olish rejasi.

Parallel ravishda Gresiya va SSSRning ichki siyosiy rivojlanishi bir necha muhim omillar bilan ajralib turadi. SSSRdagi ko'pgina xolatlarda aslida I.Stalinning kayfiyatiga bog'liq edi. 1944-yilning aprel-iyun oylarida yuz bergan voqyealar Gresiya masalasini va Bolqon yarim orolidagi geosiyosiy jarayonlarni ham o'zgartirib yubordi. 1944-yil may oyining oxirlarida urushdan keyin Bolqondagi ta'sir doiraar masalasida SSSR va Buyuk Britaniya kelishib oldi va I.Stalin tushundiki, Gresiya masalasida yon berish kerak.

1943-yil Gresiyada fuqorolar urushi davom etayotgan bir paytda uchta siyosiy guruh hokimiyat uchun kurash olib bordi va ular: ELAS – so'llar, EDES – o'nglar va qirol qo'shinlari yoki «monarxist – fashistlar» (SSSRda ular shunday nom bilan nomlangan) edi. Sovet davlati ELASni qo'llab-quvvatladi. Bu esa ikki davlat munosabatlariga salbiy ta'sir etdi.

Bu borada SSSRning Gresiyadagi elchisi N.Novikov o'z esdaliklarida “1944 -yil aprelda sovet – grek munosabatlari eng past haroratgacha tushib ketdi” deb yozgandi.[3; 113] 1944-yil 18-may kuni Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirligi Londondagi sovet elchisi Mayskiy bilan AQShning Yevropadagi manfaat doiralari borasidagi takliflarini yetkazdi. Unga ko'ra Ruminiya sovetlarning va Gresiya inglizlarning manfaat doirasi bo'lishi kerak edi. Bu holatda taqsimlanish I.Stalinni qanoatlantirmas edi. Oxir – oqibat “Gresiya uchun kurash” greklarning Qrimdan ko'chirilishi bilan yakunlangan. Qrimdan 3 mingdan ortiq greklarning ko'chirilishiga nisbatan Gretsiyaning savollari I.Stalin tomonidan javobsiz qoldiriladi.

Greklarning ommaviy ko'chirilishi urush yakunlangandan 4 yil o'tib yuz berdi va 1949-yilda greklarning ko'chirilishi sabablari arxiv ma'lumotlarida ham aniq ko'rsatib berilmagan. Garchi sabablar ko'p bo'lsa-da, ammo aniq bir ma'lumot yo'q.

1949-yilning iyunida Gruziyaning yuqori doiralari va shaxsan Stalinning diqqatida greklarning ko'chirilishi masalasi ham bor edi. Shu bilan birga SSSR va Gresiya munosabatlari ham muammoli edi.

Urush yillarida chegara hududlari va mamlakat ichkarisida ijtimoiy xavfli “unsur” lar masalasi alohida sabab sifatida keltirilgan, ammo urushdan keyingi yillarda vaziyat o'zgargan va avvalgi xatar va boshqa sabablar yo'q edi. Ammo mamlakatning yuqori doiralari Turkiya bilan chegaralardagi vaziyat va Qora dengizi sohillarining xavfsizligi kabi geosiyosiy masalalarni sabab sifatida ko'rsatib o'tishgan. Gretsiyada SSSRning maqsadlari va ularning amalga oshmay qolganligi borasida U.Cherchill «kommunizm rus frontidagi g'alaba natijasida bosh ko'tardi va uning himoyachisi Rossiya». [7; 113-114] degan edi.

Angliya Gresiyani o'zining Bolqondagi tayanchi sifatida ko'rardi va U.Cherchill taxtga qirol Georgios II ni qaytarishni rejalashtirgan edi. T.Ruzvelt va I.Stalin o'rtasidagi kelishuvdan keyin Gresiyaga 12 ming kishilik askarlar kiritildi. Bu esa ELAS singari kommunistik harakatlarga qarshi turish uchun zarur edi.

Moskvada I.Stalin va U.Cherchill o'rtasidagi uchrashuvda Cherchill «Keling Bolqondagi ishlarimizni tartibga solib olamiz. Sizing armiyangiz Ruminiya va Bolgariyaga joylashadi. To'g'ri u yerlarda bizning ham qiziqishimiz, missiya va agentlarimiz bor, ammo bu uchun nizoga bormaylik.... Yugoslaviyani teng ikkiga bo'lib olamiz» [7; 116] I.Stalin manfaat doiralari borasidagi bu taklifni qabul qildi.

ELAS Gretsiyada o'z ortida SSSRning turganiga ishonchi hosil qilgan holda kurashni davom ettirgan, I.Stalinning I.Tito bilan nizolardan keyin Shimoliy Gresiyaga qurol yetkazib beruvchi koridor faoliyat ko'rsatmay qo'ydi va ELASning ahvoli bir necha haftada yomon tomonga burildi. 1949 yilning yozida I.Stalinning Gresiyadan chiqib ketishi uchun juda qulay payt yuzaga keldi va I.Stalin «o'zining» greklarini olib chiqib ketdi.

Demak, Qora dengiz bo'ylarida yashovchi greklarning ko'chirilishiga quyidagilarni sabab sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchi sabab – I.Stalinning Gretsiyani sovetlashtirishdagi omadsizligi.

Ikkinchi sabab – urushdan keyingi davrdagi xalq xo'jaligini tiklash, ishlab chiqarishni yanada oshirish kabilarni o'z ichiga olgan ulkan ishlarning bir qismi.

1949-yil 29-may kuni partiyaning № 2214 – 856cc raqamli hujjatida 13-16 iyun kunlari Qora dengiz bo'ylaridan 37.5 ming nafar greklarni Qozog'istonga ko'chirish to'g'risidagi qarori qabul qilinadi.[4]

Shu sababli greklarning ko'chirilishi bilan bog'liq barcha amaliyotlar to'g'ridan-to'g'ri Gretsiya bilan bog'liqligini ko'rish mumkin.

Umuman SSSRda 1937-yildan 1949-yilga qadar umumiy hisobda 80 – 85 ming nafar greklar majburan ko'chirilgan. Ammo bu raqamlar yanada ko'p bo'lishi ham mumkin.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, butun bir xalqning o'zining yashab turgan, kindik qoni to'kilgan yurtidan majburan ko'chirilishi dunyoning kamdan-kam davlatlarida yuz bergan. Bu kabi holatlarni hech bir sabab va bahoni bilan oqlab bo'lmaydi. Shu bilan birga greklar Qora dengiz bo'ylarida ming yillar davomida yashab kelishgan va mazkur mintaqadagi ko'plab shahar va qishloqlar ularning tug'ilib o'sgan, ona vatanlariga aylanib qolgan.

Adabiyotlar

1. Ватлин А.Н. Огонь по своим. Бутовский полигон. 1937-1938. – М., 2003.
2. Василий Ченкелидис. 13 июня 1949: Депортация греков Причерноморья в Азию. <http://www.pontos-news.gr/ru/article/135845/13-iyunya-1949-deportaciya-grekov-prichernomorya-v-aziyu>
3. Новиков В.Н. Пути и перепутья дипломата. – М.: Наука, 1976.
4. Принудительное переселение (депортация) народов в СССР. <https://ria.ru/spravka/20140421/1004857138.html>
5. Попов Г.Х. С точки зрения экономиста. (О романе А.Бека «Новое назначение»). Наука и жизнь. 1987. № 4. С. 62.
6. Полян П.М. Не по своей воле... История и география принудительных миграций в СССР. – М., 2001.
7. Черчилль Уинстон. Вторая мировая война. Т. 6. Триумф и трагедия. –М.: ТЕРРА-Книжный клуб. 1998. – С. 113-114.

UDK: 9(575.1)

СОЗДАНИЕ ЖИЛИЩНО-СТРОИТЕЛЬНЫХ КООПЕРАТИВОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В 20-30-Е ГГ. XX В.

Т. Р. Шадманов

Филиал Российского государственного университета нефти и газа (НИУ) имени И. М. Губкина в г. Ташкенте

Аннотация. В данной статье автором сделана попытка анализа политики советской власти в отношении жилищного строительства в период 1917-1941 гг. Особое внимание уделено поискам форм решения жилищного вопроса советской властью при том, что она провозгласила государственную собственность на жилище в качестве основного средства своего управленческого воздействия на гигантские массы населения. Замена государственным жилищным сектором частного была лишь вопросом времени. Лишь неспособность власти справиться с острым жилищным кризисом, отладить процессы хозяйственного ведения жилища и развернуть массовое жилищное строительство оттягивали решение о полном запрещении частного владения жилищем. Все годы своего существования советская власть вынужденно мирилась с нестратегическим присутствием в городах кооперативного жилищного строительства, а также индивидуальной застройки и допускала частное жилище.

Ключевые слова: жилищная политика, жилище, жилищно-арендные кооперативные товарищества; рабочие жилищно-строительные кооперативные товарищества, кооперативное жилищное строительство.

XXasrning 20-30-yillarida O'zbekistonda uy-joy kooperativlarining tashkil etilishi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Sovet hukumatining 1917-1941 yillarda uy-joy qurilishi sohasida yuritgan siyosatini tahlil qilishga harakat qilgan. Sovet hukumatining uy-joy masalasini hal qilish yo'lidagi urinishlarining bir ko'rinishi bu uy-joyini davlat mulkiga aylantirish orqali ko'p ming sonli aholi ustidan nazoratni amalga oshirishda namoyon bo'lganligiga e'tibor qaratish muhim. Xususiyl mulkni davlat sektoriga aylantirish masalasi vaqtincha ko'rilgan tadbirlardan biri bo'ldi. Hukumatning yuzaga kelgan uy-joy masalasi bilan bog'liq inqirozli holatni bartaraf etish, xo'jalikni boshqarish jarayonini yaxshilash hamda keng ko'lamda uy-joy qurilishi ishlarini boshlash borasidagi tadbirlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olmaganligi va samarasiz siyosati xususiyl uy-joyini to'liq tugatish masalasi bilan bog'liq qarorning ortga surilishiga sabab bo'ldi. Shu yillar davomida Sovet rahbariyati mazkur masala bo'yicha yakdil qarorga kela olmagan tufayli shaharlarda kooperativ, xususiyl uy-joylar qurilishiga e'tiroz bildirmadi.

Kalit so'zlar: uy-joy masalasi, uy-joy qurilishi siyosati, ijara kooperativ mulkdorlari, kooperativ uy-joy sheriklik ishchilari, kooperativ uy-joy qurilishi

Creation of housing construction cooperatives in Uzbekistan in the 20-30s. XX century

Abstract. In this article, the author attempted to analyze the Soviet government policy about housing construction in the cities of Uzbekistan in 1917-1941. Particular attention is paid to the search of forms of solving of housing issue by Soviet power despite the fact that it declared the state ownership of the dwelling as the primary means of their administrative influence on the vast masses of the population. Replacing of private sector by public housing was only a matter of time. Only the inability of the soviet authorities to cope with the acute housing crisis, debug the processes of economic management of housing and to develop mass housing construction delayed the decision to ban completely private home ownership. All the years of its existence, the Soviet government had to put up with the nonstrategic presence in the cities of cooperative housing construction, as well as individual development and allowed private dwellings.

Keywords: housing policy, housing, housing and rental cooperative partnerships; workers housing cooperative partnerships, cooperative housing

Советская власть с первых дней своего существования проводила жилищную политику, кардинально отличавшуюся от дореволюционной. Главной ее особенностью было то, что власть провозгласила государственную собственность на жилище, в качестве основного средства своего управленческого воздействия на гигантские массы населения, приводимого в движение коллективизацией и индустриализацией. Замена государственным жилищным сектором частного была лишь вопросом времени. Советской власти необходимо было вытеснить и уничтожить частного владельца жилья, так как в индивидуальном жилище она видела источник мелкобуржуазного быта – основу капитализма.

Самой важной в первые годы советской власти была жилищная проблема, которая обострялась в связи с неуклонным ростом городского населения. По данным переписи 1921 г., в новгородской части Ташкента было 6.228 домов с общей жилой площадью 180.242 кв. саженей (сажень – 2,1336 метра). Из общего числа указанных домов 39 % было занято под торговые помещения и учреждения. На каждого жителя города в среднем приходилось не более 1 кв. сажени жилья[1].

К середине 1921 г. жилищный вопрос обострился настолько, что под квартиры для рабочих было использовано более 450 вагонов-теплушек, а около 500 семей вообще жили под открытым небом [2].

Развертывание советского жилищного строительства имеет свою историю лишь с 1924 г., т.е. с момента национально-территориального размежевания Средней Азии с выделением Узбекистана в самостоятельную республику. За период 1924/25-1928/29 г. на жилищное строительство в городах было вложено 25,1 тысяч рублей[3]. В последующие годы капиталовложения на развертывание жилищного строительства возрастали и если в 1928/29 гг. на эти цели было выделено 8,9 тыс. руб., то к 1935 г. этот показатель составлял 27,0 тыс. руб.

По данным правительственного отчета, городская жилищная площадь к моменту начала работы IV съезда Советов УзССР в 1928/29 г. определялась в размере 4.459.100 кв.м. По данным инвентаризационного бюро наркомата коммунального хозяйства (НККХ), общая жилая площадь в городах и районных центрах по состоянию на 1 января 1936 г. определялась в размере 5.825,4 кв.м., по нему норма на 1 человека по УзССР составляла 3,8 кв.м. (в 1926/27 гг. норма на 1 человека по УзССР составляла 3,65 кв.м.)[4].

Лишь неспособность власти справиться с острым жилищным кризисом, отладить процессы хозяйственного ведения жилищем и развернуть массовое жилищное строительство оттягивали решение о полном запрещении частного владения жилищем. Власть вынужденно мирилась с нестратегическим присутствием в городах индивидуальной застройки и допускала частное жилище. Она породила государственную, ведомственную, кооперативную, ведомственно-коммунальную и другие формы собственности на жилье. Но при всех этих формах право владения, управления, распоряжения жилищем оказались подконтрольными НКВД, который выступал, фактически единственным генеральным субъектом хозяйственного ведения жилищем. Другие субъекты, такие как жилищные отделы, управления недвижимым имуществом, жилищные, коммунальные и домовые тресты, домоуправления, завдомами/управдомами и др.), законодательно, организационно и финансово входили в систему органов хозяйственного ведения жилищем, которой руководила и контролировала НКВД.

НКВД совместно с коммунальной секцией Госплана составляли пятилетний план жилищного строительства на основе количества городского населения. Например, по переписи 1926 г. (903031 чел.) размер жилой площади составил 4416345 кв.м., при этом был учтен прирост городского населения, который в 1927/28 г. составил 4.26%, а в последующие годы по 5.86%, был учтен фактический прирост жилплощади за прошедшие годы и таким способом выявлена потребность в жилплощади[5]. При этом из данных вычислений явствовало, что к 1927 г. средний размер жилплощади на одного человека составлял 4,85 кв.м., к 1928 г. 4,69 кв.м., а к 1929 г. 4,47 кв.м.[6].

Потребность в жилищном строительстве в связи с развитием колхозов и совхозов указанным планом не учитывалась. При составлении плана за основу не брали никаких производственных

принципов. А взят был исключительно фактор прироста городского населения, что свидетельствует о сугубо формальном подходе к его составлению.

В соответствии с установленным планом намечалось охватить кооперированием рабочих кожевенной, пищевкусовой, силикатной, полиграфической, текстильной, швейной и шелкообрабатывающей промышленности, а кооперирование таких отраслей промышленности, как маслобойная, хлопкоочистительная, металлообрабатывающая, являвшихся крупнейшими отраслями промышленности в Узбекистане не предусматривалось.

Процент охвата рабочих, 2819 из общего количества в 16875 человек, занятых жилищной кооперацией в Госпромышленности в 1929г., составлял 16,7%, т.е. процент охвата кооперированием был весьма незначительным[7].

Темп охвата кооперированием служащих, т.е. группы со значительно большим средним заработком чем рабочие, также был недостаточным, в 1929 г. он составлял 1911 чел.[8].

Кооперативный тип хозяйственно-бытового освоения жилого пространства массово возник в условиях реализации новой жилищной политики (1921-1924 гг.), создавшей законодательные, экономические и организационные стимулы для стихийно возникновения жилищной кооперации. Вводя новую жилищную политику и создавая жилищную кооперацию, власть вовсе не преследовала цели полномасштабного обеспечения населения жильем. Жилищная кооперация была нужна ей, всего лишь как еще один рычаг привлечения дополнительных сил и средств населения к работе по хозяйственному попечительству о жилище. Реализация государственной жилищной политики предполагала, что все без исключения процессы – возведения, распределения, перераспределения жилища, инфраструктурного обеспечения, технического обслуживания, эксплуатации и ремонта жилища, наказания и поощрения посредством жилища и др., должны сосредотачиваться исключительно в руках власти. Самостоятельные неподконтрольные жилищные кооперативы, способные независимо от власти обеспечивать людей жильем, способные отстаивать свои права (даже в рамках дискриминационно-протекционистского законодательства) были власти не только не нужны, но даже очень вредны, так как мешали в формировании единого общегосударственного механизма «контроля, руководства и подчинения» посредством жилища. Советская власть совершенно ясно осознавала потенциальную угрозу своей жилищной политике со стороны жилищных товариществ и абсолютно четко представляла себе возможную степень размывания, в результате деятельности жилищной кооперации, собственных организационных усилий по формированию и использованию жилища как средства управления людьми. И поэтому, в противовес «старой» жилищной кооперации, советская власть создала систему «новых» жилищных кооперативов, т.н. ЖАКТ, РЖСКТ), которыми руководила за счет опосредованного подчинения жилищных кооперативов государственным органам осуществления жилищной политики, за счет принятия соответствующего законодательства и принудительного приведения в соответствие с ним уставных документов существующих жилищных кооперативов, а также за счет выработки абсолютно подконтрольной и направляемой процедуры выборов органов руководства жилищной кооперацией.

Планирование жилищного строительства, которое производилось теми или иными организациями было весьма условно. Вся плановость в этом вопросе заключалась в составлении перечней потребного количества кредитов и материалов. Перечни источников получения средств, перечни предполагаемого строительства с указанием количества домов и квартир и т.п. Да и подобного вида планы, строящиеся организации и, в частности, жилищно-строительная кооперация, считали условными показателями и очень часто их не придерживались. Это видно на следующем примере – согласно пятилетнего плана одной из организаций УзССР, в данном случае Узжилсоюза, в 1928/29 г. намечалось построить 193 дома на 538 квартир, фактически же ими было построено домов 255 на 727 квартир[9].

Советская власть считала, что существовавшая система кооперативного жилищного строительства развивала в большинстве случаев не социалистический бытовой уклад, а укрепляла старые индивидуально-обособленные формы быта. Строительство одно-двух квартирных домов в которых каждый квартирант имел свой отдельный двор, огороженный от двора соседа, она воспринимала как абсолютный индивидуализм при полном отсутствии каких-либо элементов коллективизма. Тем не менее, следует отметить, что Узжилсоюзом в 1929 г. было все же построено 5 одноквартирных домов [10].

Говоря о кооперативные жилищные строительства в старых и новых городах необходимо отметить, что в этом вопросе у вышеупомянутого Узжилсоюза не было какой-либо твердой установки – организация РЖСК происходила стихийно. По их данным 8 из 36 РЖСК были расположены в старых городах. В Самарканде 1 из 11 РЖСК находился в старом городе[11].

В г. Самарканде в указанный период существовало 11 ЖАКТ, которые объединяли 145 домов, с 34234 кв.м. жилой площади. По данным инвентаризации, произведенной в 1928/29 гг, Самаркандским Горместхозом, в их ведении находилось 1207 жилых строений, с полезной жилой площадью, насчитывавшей 131326 кв.м. Сравнивая данные Горместхоза с данными Узжилсоюза, можно увидеть, что жилплощадь муниципализированного фонда по городу Самарканду была освоена ЖАКТ только в объеме 26,06%. Указанные цифры ставят под большое сомнение правильность данных, которые были

предоставлены Узжилсоюзом об освоении ЖАКТ 60 процентов муниципализированного фонда по республике [12].

Жилищное строительство в СССР было прерогативой госорганов, которые должны были решать, что, где, в каких количествах, какой формы и какого качества строить и принимать решения, определяемые существовавшей в тот период государственной идеологией, политикой и нормативными актами. Лишь неспособность власти справиться с острым жилищным кризисом, отладить процессы хозяйственного ведения жилища и развернуть массовое жилищное строительство оттягивали решение о полном запрещении частного владения жилищем. Все годы своего существования советская власть вынужденно мирилась с нестратегическим присутствием в городах кооперативного жилищного строительства, а также индивидуальной застройки и допускала частное жилище.

Литература

1. ГАТО, ф. 10, оп. 1, д. 360, л. 135.
2. ЦГА РУз, ф. Р-17, оп. 1, д. 1112, л. 25.
3. ЦГА РУз, ф. Р-2182, оп. 1, д. 192, л. 9.
4. ЦГА РУз, ф. Р-1, оп. 1, д. 682, л. 302.
5. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 79.
6. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 80.
7. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 82.
8. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 82.
9. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 86.
10. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 87.
11. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 88.
12. ЦГА РУз, ф. Р-95, оп. 1, д. 1892, л. 90.

UDK: 9(575.1): 312

JANUBIY O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA 1897-1940-YILLARDAGI DEMOGRAFIK JARAYONLAR

M. T. Turopova

Termiz davlat universitet

Annotatsiya. Demografik jarayonlarda aholi soni, qishloq va shaharlardagi aholining o‘shishi, janubiy hududlardagi mirigatsion holati, aholini tarkibiy qismi, turmush tarzi bilan bog‘liq aholini ko‘payish omillari, janubiy hududlardagi yirik shaharlardagi demografik holatni taqoslash ilmiy bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: demografik, shahar, qishloq, tabiiy, dinamika, iste‘mol milliy, vabo, o‘lat, chechak, yaroqli, ijtimoiy.

Демографические процессы в южных регионах Узбекистана в 1897-1940 гг.

Аннотация. В данной статье приводится научный анализ численности населения в демографических процессах, рост городского и сельского населения, миграционное положение на южных территориях, составная часть населения, факторы роста числа населения, связанные с образом жизни, а также сравнение демографического положения в крупных городах южных территорий Сурханского оазиса.

Ключевые слова: демографический, город, деревня, естественный, динамика, потребление, национальный, холера, чума, оспа, годный, социальный.

Demographic processes in the southern Uzbekistan regions (1897-1940)

Abstract. This article provides a scientific analysis of the population in demographic processes, urban and rural population growth, the migration situation in the southern territories, a part of the population, population growth factors related to lifestyle, and a comparison of the demographic situation in large cities of the southern territories of the Surkhan oasis.

Keywords: demographic, city, village, natural, dynamics, consumption, national, cholera, plague, smallpox, suitable, social.

Demografik jarayonlarini ilmiy o‘rganishda mehnatga yaroqli aholi sonini aniqlash va ishga joylashtirish masalalari ham muhimdir.

Demografik jarayonlarining ilmiy tahliliga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida aholi soni 1897-yili 3948 ming kishi bo‘lib, shundan 743 ming kishi shaharlarda, 3205 ming kishi qishloqlarda

yashagan, ya'ni umumiy aholining 18,8 foizi shahar, 81,2 foizi qishloq aholisini tashkil etgan. O'zbekiston hududida 1913-yil 4334 mln aholi bo'lib, shundan 1060 ming kishi shaharlarda, 3274 ming kishi qishloqlarda yashagan, demak, aholining 24,5 foizi shaharda, 75,5 foizi qishloqlarda istiqomat qilgan. 1924-yil O'zbekistonda aholi soni 4258 ming nafar bo'lib, shundan 866 ming kishi shaharlarda, 3392 ming kishi qishloqlarda yashagan, ya'ni aholining 20,3 foizi shaharliklar, 79,7 foizi qishloqliklar bo'lgan. Demografik jarayonlar ilmiy tahlilida ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonda 1926-yili aholi soni 4621 ming kishi bo'lgan, shundan 1012 ming nafari shaharlarda, 3609 ming nafari qishloqlarda yashagan, demak, aholini 21,9 foizi shaharliklar, 78,1 qishloqliklar edi. O'zbekiston hududida aholi soni 10 foizga, o'rtacha yil bo'yicha 0,6 foizga o'sdi [1].

O'zbekiston aholisining 1926-1939-yillarda o'rtacha yillik o'sishi 226,0 ming kishini tashkil etdi. Bu o'sish 1913-1926 yillarga nisbatan 7,5 marta ko'pdir [2]. 1939-yil 17 yanvarda olingan ma'lumotga qaraganda Qashqadaryo viloyati aholisi 1926 yilga nisbatan 9 foizga o'sgan [3]. O'zbekistonda aholi sonining oshib borishini va ijtimoiy turmush darajasini aniqlashda quyidagi tarixiy ma'lumotlar ham qo'l keladi [4].

SSSR da aholining o'rtacha har 1000 kishi hisobiga tug'ilishi, o'lim va tabiiy o'sishining holatini ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash mumkin. 1926-yilda har 1000 kishi hisobiga 44,0 tug'ilish, 20,3 o'lim, 23,7 tabiiy o'sish; 1928-yilda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 44,3, o'lim 23,3, tabiiy tug'ilish 38,7, o'lim 18,9, tabiiy o'sish 19,2 kishiga [5] to'g'ri kelgan. 1913-1940 yillarda O'zbekiston aholisi yiliga o'rtacha 1.5 foizdan o'sib, bu davrda aholi dinamikasidagi eng yuqori sur'atlariga to'g'ri keladi. Aholi dinamikasi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston aholisi ancha tez ko'payib, 1926-1990 yillar orasida 436.1 foizga o'sdi [6]. Aholi sonining muttasil va ancha yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi natijasida, 1926- yilda O'zbekistonning sobiq Ittifoq aholisi salmog'idagi ulushi 3.1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1940-yilda 3.4 foizni tashkil etdi [7]. Surxondaryo viloyatidagi shaharlar va shaharchalarda aholining tabiiy va migratsiyaviy o'sishi 1930-yil 2,1, 1939 yil 2,7 foizni tashkil etdi [8].

O'zbekistonda 1935-1940-yillar aholining mehnat resurslarini, maktabgacha hamda maktab yoshidagi bolalarni, nafaqadagilarni aniqlash bo'yicha tahlillar o'tkazib, aholi soniga qarab iste'mol mollari ishlab chiqarish rejalashtirildi. O'zbekiston aholisining jinsiy va yosh tarkibida o'ziga xosliklar bo'lib, inqilobdan oldingi davrlarda O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida erkaklar ayollarga nisbatan ko'pchilikni tashkil yetib kelgan. Bu hol, avvalo, o'sha davrda oiladagi uy-ro'zg'or yumushlarining asosiy qismi ayollar zimmasiga tushishi, odatga ko'ra, qizlarni barvaqt erga berish va ko'p bolalilik, tibbiyot xizmati hamda onalikni muhofaza qilishdagi qoloqlik ayollar o'rtasida o'limning yuqori bo'lishiga va oqibat natijada ularning kam umr ko'rishiga olib kelgan. O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibidagi bunday xususiyatlar 1939- yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati ma'lumotlarida ham aks etgan edi. O'sha yili respublika aholisining 51,6 foizi erkaklar va 48,4 foizi xotin-qizlardan iborat edi [9]. O'sha yili Surxondaryo viloyatida jami aholining 52,1 foizni xotin-qizlar, 47,9 foizni erkaklar tashkil qildi [10].

O'zbekiston aholisi ko'p millatliligi bilan ajralib turardi. Bu yerda 1935-1940 yillarda 120 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilgan. 1924-yilgacha aholi ro'yxatlari o'tkazilmaganligi uchun, O'zbekiston aholisining milliy tarkibi haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida O'rta Osiyoning mahalliy xalqlarida, shu jumladan, o'zbeklarda milliy shakllanish jarayoni to'la tugallanmagan edi. Shu sababli 1926-yilgi va hatto 1939-yilgi aholi ro'yxatlarida "millati" degan savolga o'zbeklarning "qipchoq", "qo'ng'iro't", "qurama", "turk" kabi qadimiy yirik urug'lari nomlarini (joylashgan viloyatlar va tumanlariga qarab) qayd qilishgan. Shuning uchun ham O'zbekiston aholisining milliy tarkibi, unda yashaydigan turli millatlarning soni, salmog'i hamda ularning dinamikasi bilan keyingi aholi ro'yxatlari ma'lumotlari orqali tanishamiz. XIX asrning oxirida O'zbekistonda hammasi bo'lib, 3730 ming aholi yashab, demografik vaziyatga 1914-1918 yillardagi Birinchi jahon urushi hamda 1918-1920 yillardagi fuqoralar urushi juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan, 1924 yilda bu yerda 1913 yilga nisbatan aholi soni ikki marta kamayib ketdi [11]. Surxondaryo viloyatida fuqoralar urushi davrida aholi soni keskin kamaydi, bunga sabab o'zaro urush natijasida aholi o'rtasidagi o'lim, ochlik, qashshoqlik hamda chet elga ketish holatlari bilan izohlanadi. 1920-1925-yillarda mavjud aholi soni 2,9 martaga keskin kamayib ketdi [12].

Aholi qatlami turli tomondan: yoshi, jinsi, ijtimoiy-sinfy mansubligi, millati, ma'lumoti bo'yicha o'rganiladi. Aholi jinsiy tarkibiga urushlar jiddiy o'zgarishlar kiritdi. 1917-yil arafasida O'zbekiston aholisi tarkibida erkaklar 52,9, ayollar 47,1 foizni tashkil etdi. Ushbu nisbat to'urushgacha deyarli saqlandi. Urush yillarida erkaklar va ayollar nisbati bo'yicha nomutanosisblik boshqa tomonga o'zgardi. Urushning aks-sadosi u tugagandan keyin ham davom etdi. Mamlakat

aholisi tarkibida 14 yoshgacha bo'lgan (14 yosh ham shunga kiradi) o'smir va qiz bolalar soni va ulushi o'sib bordi, 1926-yilda shu yoshdagi guruhning aholi tarkibidagi ulushi 34,4 foiz bo'ldi [13]. Shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo shaharlar aholisi tahliliga ko'ra, aholi yosh qatlamining o'sish sur'ati ijtimoiy- iqtisodiy sabablarga ko'ra, tug'ilish kamayib, yoshlar guruhi jami aholining 29,2 foizni tashkil qildi [14].

Janubiy hududlarda aholining milliy tarkibi sovet hokimiyati davrida tez o'zgarib, asosan ko'chib keluvchi rusiyzabon aholining hisobida o'sa borganligi seziladi. Masalan, 1926-yilda Surxondaryo hududidagi jami aholining 63,5 foizini o'zbeklar, 32,1 foizini tojiklar, 3,2 foizini turkmanlar, 0,1 foizini qozoqlar, 0,2 foizini arablar, 0,5 foizini ruslar, 0,1 foizini armanlar, 0,1 foizini tatarlar, 0,2 foizini boshqa millat vakillari, Qashqadaryo hududidagi jami aholining 85,1 foizini o'zbeklar, 9,3 foizini tojiklar, 1,4 foizini turkmanlar, 0,3 foizini qozoqlar, 3,4 foizini arablar, 0,5 foizini yahudiylar tashkil etgan. Aholining milliy tarkibidagi o'zgarishlar tug'ilish jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, milliy madaniy taraqqiyot rivojiga hissa qo'shgan [15].

Tadqiqotda Sovet Ittifoqda aholini o'rtacha o'sishini har 1000 kishi hisobiga tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sishi bo'yicha taqqosli tahlillar keltiriladi. Chunonchi, 1926-yilda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 44,0, o'lim 20,3, tabiiy o'sish 23,7 kishiga; 1928-yilda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 44,3, o'lim 23,3, tabiiy tug'ilish 38,7, o'lim 18,9, tabiiy o'sish 19,2 kishini [16] tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston aholisi 1939-yilda 6 million 440 ming kishini tashkil etgan [17]. 1940- yilda O'zbekistonda har ming kishi hisobiga tug'ilish 33,8, o'lim 13,2, tabiiy o'sish 20,6 kishini tashkil etdi. Hududga demografik jarayonlarini o'rganishda aholining tabiiy o'sishi bilan bog'liq manbalar muhim ahamiyatga egadir. Ushbu jarayon jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblandi [18]. Surxondaryo va Qashqadaryo hududlarida 1924-1925 yillarda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 39,5, tabiiy o'sish 21,2 kishiga, 1938-1939 yillarda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 45,2, tabiiy o'sish 36,2 kishiga to'g'ri keldi, chunki 1939 yillardagi tinch turmush tarzi hamda iqtisodiy ahvolning biroz yaxshilanishi natijasida aholining tabiiy va migratsiyaviy o'sishga imkoniyat yaratdi [19].

SSSR da aholini tug'ilishi, o'limi va tabiiy ko'payishi o'rtacha 1000 kishi hisobiga o'sib borishi quyidagi tarixiy ma'lumotlarda aks etdi. Rossiyada 1913-yilda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 45,5, o'lim 29,1, tabiiy ko'payish 16,4 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1940-yilda SSSRda har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 31,2, tabiiy o'sish 13,2 kishini tashkil etdi [20]. Ushbu jarayon Surxondaryo hududi har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 45,6, tabiiy o'sish 24,3 kishini tashkil etgan. Chunki bu davrda tinchlik hamda iqtisodiy o'sish aholini ko'payish uchun ma'lum sharoitlarni vujudga keltirdi [21].

SSSR da aholining o'rtacha har 1000 kishi hisobiga tug'ilishi, o'lim va tabiiy o'sishini o'rtacha quyidagi raqamlar bilan taqqoslab ko'rish mumkin. 1926-yilda har 1000 kishi hisobiga 44,0 tug'ilish, 20,3 o'lim, 23,7 kishi tabiiy o'sish, 1928-yilda har 1000 kishi hisobiga 44,3 tug'ilish, 23,3 o'lim, 1940-yilda har 1000 kishi hisobiga 38,7 tabiiy tug'ilish, o'lim 18,9, tabiiy o'sish 19,2 kishiga [22] teng. Aholining o'sish jarayoni Buxoro amirligi, Rossiya mustamlakasi hisoblangan hududlarda XX asr boshlarida kamayib bordi. Bunga ochlik, qashshoqlik, vabo, o'lat, chechak, moxov kabi ommaviy kasalliklar hamda o'zaro ziddiyatlar, urushlar asosiy sabab bo'ldi. Masalan, 1913-1926 yillarda aholining o'rtacha yillik o'sishi 30 ming kishini tashkil etdi [23]. 1913-yilda O'zbekiston aholisi 4 million 336 ming kishini, 1939-yilda 6 million 440 ming kishini tashkil etdi [24].

SSSRda mehnatga yaroqli aholi mamlakat bo'yicha jami aholining 1926-yilda 42,7 foizini, 1939 yil 53,5 foizini tashkil etgan. 1926-1959-yillarda mehnatga yaroqli aholi soni o'rtacha 14,7 foizga o'sdi. O'zbekistonda aholi son boshiga mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, aholining kundalik talab-ehtiyojlarini qondirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, sovet hukumati davrida ushbu masalaga bir tomonlama, Markaz manfaatlarini nuqtai nazaridan e'tibor berildi. Ma'lumot va tahlillarda ko'rish mumkin. SSSRda 1940-yilda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, yangi mehnat resurslarining ishga solinishi tufayli, mehnat unumdorligi o'sib, milliy daromad 33,5 milliard so'mga yetdi, aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish 174 so'mni tashkil etdi. Jami aholining 49,2 millioni mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, o'rtacha mahsulot ishlab chiqaruvchi har bir kishiga 681,5 so'mga to'g'ri keldi. Mehnatga yaroqli aholi 102 million kishi bo'lib, milliy daromad ulushi har bir mehnatga yaroqli odamga 329 rublni tashkil etdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aholi jon boshiga o'rtacha milliy daromad o'sishi 1940-yilda 1928-yilga nisbatan 3,8 marta oshdi, material ishlab chiqarish bo'yicha ish o'rinlarni egallash 5,1 martaga, mehnat unumdorligi 3,1 martaga o'sdi [25]. Biroq ushbu qayd etilgan manbalar umumdavlat manfaatlarini nuqtai-nazardan tahlil etilgan bo'lsa-da, ushbu ma'lumotlar O'zbekiston, jumladan, janubiy hududlarda amalda o'z mazmunini bermaganligi tarixiy dalillarda o'z isbotini topdi.

1940-yili O'zbekistonda 25 ta shahar hamda 19 ta shahar tipidagi manzillar, jumladan; Shuningdek, 1 ta avtonom respublika, 5ta oblast, 116 ta rayon, 1387 ta qishloq mavjud edi. Bu davrga kelib, aholining ijtimoiy –iqtisodiy turmush tariz uchun ma'lum imkoniyatlar yaratildi. Surxondaryoda 2 ta (Termiz viloyat miqyosidagi va Denov rayonga bo'ysunuvchi shahar hamda Sherobod, Sharg'un, Sho'rchi shaharchalari [26]), Qashqadaryoda (Behbudiy viloyat miqyosidagi, Shahrisabz rayonga bo'ysunuvchi) shahar hamda G'uzor, Kitob shaharchalari mavjud edi [27]. Biroq mahalliy aholini milliy kamsitish, milliy urf-odatlarini, an'analarni poymol qilish hamda millatchilik g'oyalari keng targ'ib qilindi [28]. Janubiy hududlardagi shaharlar aholisining milliy tarkibida ma'lum ma'noda o'zgarishlar bo'ldi. Masalan, Qashqadaryo hududidagi shahar aholisining milliy tarkibiga e'tibor berilsa, Behbudiy shahar aholisining 11,705 nafari o'zbeklar, 138 nafari tojiklar, 136 nafari arablar, ya'ni jami aholining 97,7 foizini o'zbeklar, 1,2 foizini tojiklar, 1,1 foizini arablar tashkil etgan. Shahrisabz shahri aholisining 9,755 nafari ya'ni, 90,9 foizini o'zbeklar, 1,01 foizini yahudiylar tashkil qilgan. Yakkabog' shahri aholisining 1,296 tasini o'zbeklar, ya'ni 100 fozini o'zbeklar tashkil etgan [29].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida qayd etilgan siyosatda mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilish, aholining soni va salmog'ini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy turmush darajasini yaxshilash masalasida qonuniy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar qilinmaganligi tarixiy manbalarda o'z isbotini topdi. Qashqadaryo va Surxondaryo aholisining milliy tarkibi va joylashuvini o'rganishda sovet ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi davrida aholi o'sishi qonuni demografik vaziyatga bevosita ta'sir ko'rsatganligini XX asrning 20-yillaridagi voqea-hodisalardan mukammal bilib olish mumkin. Demografik jarayonlarining borishi, aholining turmush darajasi, nikoh, ajralish, oilaviy munosabatlarning tadrijiy taraqqiyoti bilan ham bog'liq hisoblanadi. Bu davrda o'zbek oilalarida ajralish hollari juda kam, oila-nikoh inson hayotidagi eng muqaddas ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat tomonidan, islom aqidalari, urf-odatlar, qadriyatlar orqali juda qadrlangan. Nikohning bekor etilishi esa qoralangan. Aholi sonining o'sishi, milliy tarkibining ko'payishi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini o'zgarishiga kundalik ehtiyojlarini oshib borishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Из. Узбекистан. – Ташкент, 1974. – С. 27.
2. Салимов Х. Население Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1975. – С. 8
3. Советский Узбекистан за 40 лет, статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1964. – С.12.
4. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1977 году. Статистический ежегодник. – Т.: Узбекистан, 1978. – С.360
5. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari. – Toshkent: Fan, 1991. – B.14.
6. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1978 году. Статистический ежегодник. – Т.: Узбекистан, 1979. – с.336
7. SVDA. Fond-361,2-ro'xat,124-hujjat,36 v.
8. Итоги Всесоюзной переписи населения 1970 года. ВИИ том, Москва: Статистика. 1974. С. 226; Народное хозяйство В. 1975 г. Статистический ежегодник: – Ташкент: Узбекистан, 1976. С.54
9. SVDA.fond-361.2-ro'xat.125-hujjat.25 v.
10. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. – Toshkent: O'qituvchi. 1994. B.4.
11. SVDA. Fond-361.2- ro'xat,125-hujjat, 76 v.
12. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. – Toshkent: O'qituvchi. 1994. B.8.
13. SVDA.fond-45,1-ro'xat.36-hujjat. 5 v.
14. «Материалы для статистики Туркестанского края» Ежегодник издан. Туркестанского статистического комитета под ред. Н.А.Маева, СПб., 1879,- с.110
15. Материалы пораёнированию Средней Азии. Территория населения Бухарии Хорезма. Кн. 1.-2 – Ташкент: 1926. Ч.1 С. 37-39.
16. Бодирев В.А. Экономический закон населения присоциализме. – Москва: Мисл. 1968. – С. 81.
17. Салимов Х. Население Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан,1975. – С. 11.
18. Салимов Х. Население Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1975. – С.11.
19. SVDA. Fond-45,1-ro'xat.25-hujjat.15-16 v.
20. Бодирев В.А. Экономический закон населения присотсиолизме. Москва: Мисл. 1968. – С. 77.
21. SVDA. FOND-45,1-ro'xat, 32-hujjat,5-6 v.
22. Бодирев В.А. Экономический закон населения присоциализме. Москва: Мисл. 1968, – С. 81.
23. Салимов Х. Население Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан. 1975. - С.8.

24. Салимов Х. Население Средней Азии. –Тошкент: Узбекистан. 1975. – С.11.
25. Бодирев В.А. Экономический закон населения. при социализме. – Москва: Мисл. 1968. С.66.
26. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 40.
27. SVDA.fond-45,1-ro'xat,42-hujjat. 23 b.
28. Материалы по районированию Средней Азии. Территории населения Бухарии Хорезма. Кн. 1.-2.-Ташкент: 1926. Ч.1. С. 36.
29. Материалы по районированию Средней Азии. Территории населения Бухарии Хорезма. Кн. 1.-2. -Ташкент: 1926. Ч.1. С 39.

UDK: 9:323

**XX ASRNING IKKINCHI YARMI – XXI ASRNING BOSHLARIDA SIYOSIY
PARTIYALARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ISHTIROKINING O'RGANILISHI
MASALALARI: ASOSIY BOSQICHLAR VA YONDOSHUVLAR**

B.S. Yakubov

*O'zbekiston Milliy Universiteti
byakubov@mail.ru*

Annotatsiya. Siyosiy partiyalarning jamiyatda kechayotgan modernizatsion jarayonlarda faol ishtiroki ko'p jihatdan islohotlarning muvaffaqiyatli borishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu nuqtai-nazardan rivojlangan davlatlar misolida siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi jarayonlarda tutgan o'rni va ishtirokini tahlil qilish amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmidan XXI asrning boshlarigacha bo'lgan davrda g'arb davlatlari misolida jamiyatlar duch kelayotgan dolzarb masalalar siyosiy partiyalarga bo'lgan yondoshuvlar va talablarni qanday o'zgartira borganligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: islohotlar, yangilanish jarayonlari, siyosiy tizimlar, davlat, jamiyat, siyosiy partiyalar.

**Проблемы изучения участия политических партий в развитии общества во второй половине
XX века - начале XXI века: основные этапы и подходы**

Аннотация. Активное участие политических партий в происходящих модернизационных процессах в обществе во многом напрямую влияет на успех реформ. В связи с этим анализ роли и участия политических партий в жизни общества на примере развитых стран имеет практическое значение. В данной статье с охватом периода со второй половины XX века до начала XXI века анализируются проблемы, с которыми сталкиваются общества на разных этапах своего развития, изменяющиеся подходы и требования к деятельности политических партий.

Ключевые слова: реформы, процессы модернизации, политические системы, государство, общество, политические партии.

**The problems of studying the participation of political parties in the development of society in the
second half of the XX century - the beginning of the XXI century:
the main stages and approaches**

Abstract. The active participation of political parties in the ongoing modernization processes in society in many respects directly affects the success of reforms. In this regard, the analysis of the role and participation of political parties in society by the example of developed countries is of practical importance. This article, covering the period from the second half of the twentieth century to the beginning of the twenty-first century, analyzes how the problems faced by societies at different stages of their changing approaches and requirements for the activities of political parties.

Keywords: reforms, modernization processes, political systems, state, society, political parties.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida milliy parlamentimiz timsolida yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida aynan siyosiy partiyalar oldida turgan vazifalarga alohida urg'u bergan edi [1]. Bu bejiz emas, albatta. Chunki har qanday demokratik davlat siyosiy hayotida partiyalar alohida o'rin tutadi va ularning jamiyatda kechayotgan modernizatsion jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash ko'p jihatdan islohotlarning muvaffaqiyatli borishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Islohotlarda va umuman jamiyat taraqqiyotida siyosiy partiyalarning rolini anglab olish uchun turli davrlarda ularning o'ynagan roli va har bir rivojlanish bosqichida ular oldida turgan masalalar xususiyatini o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada g'arb davlatlari olimlari tomonidan katta ilmiy baza shakllantirilgan.

G'arb davlatlari taraqqiyot bosqichlariga nazar solar ekanmiz, o'tgan XX asrning o'rtalaridan, aniqrog'i, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o'rnini o'rganish borasida bir nechta alohida davrni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladiki, ularning qiyosiy tahlili bugun jamiyatni yangilash va yanada demokratlashtirish yo'lidan borayotgan O'zbekiston va mamlakat siyosiy hayotida tobora faolroq o'rin egallashga urinayotgan siyosiy partiyalar uchun jiddiy ahamiyatga ega.

Xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o'rnini tahlil etishda yangicha bir davr boshlandi deyishga bizda qator asoslar bor. Bunga bir qator omillarni misol sifatida ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa davlatlarida mazkur urushni vujudga keltirgan asoslar, jumladan, bitta g'oyaning hukmron bo'lib qolishi oqibatida nafaqat Germaniya, balki jahonning siyosiy va iqtisodiy tizimi butunlay izdan chiqib ketishiga sabab bo'lgan omillarni anglab yetish va shu orqali bundan keyin shunga o'xshash vaziyatlarning har qanday shaklda yuzaga kelishining oldini olish istagi;

ikkinchidan, bunga yo'l qo'ymaslikning muhim sharti aynan fikrlar plyuralizmiga keng imkoniyatlar yaratish bilan bog'liqligi va o'z navbatida fikrlar hilma-xilligining tashkiliy asosi sifatida aynan ko'ppartiyaviylik tizimini rivojlantirish zaruriyati;

uchinchidan, demokratiyaning rivojlanishida aynan vakillik demokratiyasining muhim o'rin tutishini tushunib yetish, o'z navbatida vakillik demokratiyasini rivojlantirishning hal qiluvchi tashkiliy asosini aynan siyosiy partiyalarda ko'rish;

to'rtinchidan, siyosiy partiyalarning bu davrga kelib aksariyat G'arb davlatlari siyosiy hayotida tutgan o'rni yanada mustahkamlanib, G'arb demokratiyasi asosan partiyaviy demokratiya sifatida in'ikos qilina boshlanganligi va boshqalar.

Bu davrda yaratilgan va siyosiy partiyalarni o'rganish nazariyasiga juda katta ta'sir ko'rsatgan tadqiqot bu M.Dyuverjening "Siyosiy partiyalar" asari bo'ldi [2]. Bir muncha oldinroq e'lon qilingan bo'lsa-da, aynan ana shu davrda mashhur bo'lgan asarlardan yana biri Y. Shumpeterning "Kapitalizm sotsializm va demokratiya"sidir [3]. Y.Shumpeter hech bir transformatsiyani, tuzumni faqat iqtisodiy tushunchalar doirasida to'la ochib berish mumkin emasligi, iqtisodiy jihatlar bilan birga siyosiy, ijtimoiy va boshqa sabablarni kompleks tarzda tahlil qilish orqaligina o'zgarishlarning to'laqonli qiyofasini yaratish mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga Y.Shumpeter ungacha J. Brays, R. Mixelslar tomonidan shakllantirilgan har qanday demokratik davlatning muhim elementi bo'lmish partiyalararo kurash masalalarini o'z tadqiqotlarida yanada rivojlantiradi. Asosiy faoliyati ushbu davrga to'g'ri kelgan "ratsional tanlov" maktabi vakili bo'lmish E.Dauns ham faol ilmiy tadqiqotlar olib borib, o'z izlanishlarida partiyalararo raqobatni iqtisodiy kategoriyalar, aniqrog'i, bozor raqobati yondoshuvlari asosida tahlil qilishga harakat qiladi [4].

Ushbu davrda vakillik demokratiyasining muhim elementi sifatida siyosiy partiyalar imkoniyatlarini har tomonlama o'rganishga qaratilgan muhim tadqiqotlar bo'lmish, D.Iston, Z.Noyman, O.Renney, V.Kendal kabi o'z davrining yirik tadqiqotchilari qalamiga mansub izlanishlar natijalari e'lon qilinadi [5]. Ushbu tadqiqotlarda boy empirik materialga tayangan holda partiyalarning vujudga kelish asoslari, tashkiliy tuzilmalari, faoliyat yo'nalishlari va uslublari, jamiyat va davlat institutlari bilan o'zaro munosabatlari va eng muhimi, davlatning rivojlanish ustuvorliklarini belgilashga ta'sir ko'rsatish yo'llari atroflicha tahlil etiladi.

Bu davrda T.Parsons, R.Aron, J.Blondel, R.-J.Shvartsenberg, B.de Juvenel, sal keyinroq e'lon qilingan J.Beshler asarlarida demokratiya, vakillik demokratiyasi tahlili va ularda siyosiy partiyalarning tutgan o'rni atroflicha tahlil qilindi [6].

Sohani tadqiq qilishda keyingi 60-70 yillar ham o'z sermahsulligi bilan alohida ajralib turdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davrni ajratib turgan ustuvor xususiyatlar asosan quyidagilardan iborat bo'ldi:

Birinchidan, mavzuni o'rganish bo'yicha ko'plab yangi va iqtidorli tadqiqotchilar maydonga kirib keldi. Ular orasida siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarni o'rganishda o'ziga xos iz qoldirgan tadqiqotchilardan J.Sartori, S.Lipset, S.Rokkan, A.Leypxart, K.Janda, J.Lapalombara, G.Almond, K.Stromva boshqalarni keltirib o'tish mumkin [7].

Ikkinchidan, ushbu davr mavzuni o'rganishda ixtisoslashuv darajasining yanada oshishi, muammoni o'rganishda avvalgi tarixiylik va institutsionalizm asosidagi yondoshuvlar barobarida mutlaqo

yangi – tarkibiy-funksional hamda bixevioristik yondoshuvlarning fanga joriy qilinishi va shu davrga kelib, yuqori pog‘onaga chiqishida o‘z aksini topdi. Bularning barchasi siyosiy partiyalar faoliyatining turli jihatlarida xususida keng ko‘lamli empirik materiallarning to‘planishiga, nazariy yondoshuvlarning chuqurlashuviga olib kelganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Ushbu davr bir tomondan siyosiy partiyalarga doir turli masalalarni o‘rganishda o‘ziga xos ixtisoslashuvning yuzaga kelganligi bilan xarakterlansada, ikkinchi tomondan, partiyalarning umumiy nazariyasini shakllantirishga bo‘lgan dastlabki harakatlar (Dyuverje) davri bo‘lganligi bilan ham ajralib turadi. Qolaversa, aynan shu davrda turli partiyaviy tizimlarni solishtirma tahliliga asos solindi (Sartori, Leypxart, Almond, Janda). Qolaversa, bu davr siyosiy partiyalarning keyingi rivojiga muhim turtki bergan “ijtimoiy konflikt” (Darendorf), “chegaralanish (klivaj)” nazariyasi (Lipset, Rokkan) kabi yangi yondoshuvlarning ilmiy doiralarga kiritilganligi bilan ajralib turadi.

XX asrning 80-90 yillari va yangi asr boshlari ham siyosiy partiyalar faoliyatini o‘rganishda bir qator yangicha yondoshuvlarning fanga kiritilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu davrda jamiyat taraqqiyotining bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi yoki avtoritar turdagi rejimlardan demokratik jamiyatlarga o‘tish kabi sifat o‘zgarishlarini aynan siyosiy partiyalar nuqtai nazaridan yondoshgan holda tahlil qilishga ilmiy doiralarda qiziqish kuchayib borganligini ko‘rish mumkin. Xususan, ushbu masalalar X.Lins, O‘Donnell, A.Pshevovski, S.Xantington[8]kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida katta o‘rin tutdi. Fransuz sotsiologi Ch. Endreyn, shuningdek, P.Burdening izlanishlarida jamiyatdagi o‘zgarishlarda siyosiy partiyalarga o‘ziga xos, yangicha qarashlarni (siyosiy partiya makon ichidagi submakon sifatida) kuzatish mumkin[9].

XXI asr arafasidagi so‘nggi o‘n yilliklar dunyoda ro‘y bergan global o‘zgarishlar ta‘sirida siyosatshunoslikning ko‘plab yo‘nalishlari kabi demokratik davlat qurilishi va unda siyosiy partiyalarning roliga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga olib keldi. Albatta bu qiziqish siyosiy partiyalar faoliyatining turli qirralarini yanada chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar barobarida umuman yangilanayotgan jamiyatlarda siyosiy partiyalarning taqdiri qanday kechadi – egallagan o‘rinlari mustahkamlandimi yoki aksincha, o‘z o‘rnini boshqa demokratik institutlarga bo‘shatib beradimi degan savollar atrofida ham kechganligini ko‘rish mumkin.

Bularning barchasi siyosiy partiyalar faoliyatini o‘rganish jarayonlarini nafaqat yangi empirik materiallar bilan, balki yangi nazariy qarashlar va yondoshuvlar bilan ham boyitdi. Masalani o‘rganishda yangicha yondoshuvlar taqdim etgan P.Meyr, O.Kirkxmayer, R.Dalton, A. Panebyanko, N.Petro, P.Fassino, V.Merkel, V.Kruassan, R. Gyunter, L.Daymond, T. Poguntke, K. Louson, M.Dogan, D.Pelassi, D.Iston, S.Volinets, R.Kats va boshqalarning tadqiqotlar aynan ushbu davrda yaratilgan [10].

Ushbu mualliflarning tadqiqotlarida avvalgi bosqichlarda boshlangan bir qator yo‘nalishlarni yanada chuqurroq tahlil qilinganligi bilan birga, yana bir muhim jihatga qo‘l urilgan.

Xususan, postindustrial davrning xususiyatlaridan biri sifatida O.Kirkxmayer ilk bor o‘tgan asrning 60-70 yillarida siyosiy partiyalarning ilgari aniq bir ijtimoiy qatlam nomidan chiqadigan kuch sifatida o‘zgarib, “umumqamrov partiyalari”ga aylanayotgani to‘g‘risidagi qarashni o‘rtaga tashlagan edi. Aynan ikki asr chegarasida ushbu qarash partologlar doirasida eng bahstlab mavzulardan biriga aylandi va hozirgi davrda ham bu borada ko‘plab izlanishlar amalga oshirib kelinayotganligi ahamiyatga molikdir.

Bu davrda muammoni o‘rganishga katta ta‘sir qilgan g‘oyalardan yana biri Kats va Meir tomonidan ilgari surilgan “partiyalarning kartellashuvi” nazariyasi bo‘ldi. Siyosiy partiyalarning nafaqat o‘z a‘zolari va tarafdorlari bilan ish uslubi, balki hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarda ham yuz bergan sifat o‘zgarishlari, ularning fikricha, bugun siyosiy partiyalar mazmun-mohiyatini, ayniqsa davlat organlari bilan munosabatlardagi mavjud ahamiyatli jihatning o‘zgarib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Albatta o‘tgan asrning oxirgi yillarida yuzaga kelgan bunday qarashlar o‘sha davrda ham, hatto hozirgi kungacha ham partiyashunoslar o‘rtasida juda katta tortishuvlar, fikr almashuvlarga sabab bo‘lmoqdaki, bu o‘z navbatida siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o‘rni, mavqeiga bo‘lgan yondoshuvlarning yanada rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Albatta bu kabi muhim masalalar tahlili jarayonida o‘z rivojlanish bosqichida O‘zbekistonga o‘xshash, ya‘ni o‘zining yaqin o‘tmishida totalitarizm siyosatidan chiqib, bugungi kunda demokratiyaga asoslangan tamoyillarni shakllantirayotgan davlatlar tajribasi alohida qiziqish uyg‘otadi.

Bu borada gap borarkan, Germaniya, sharqiy Yevropa davlatlari, qolaversa, MDH mamlakatlarida siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o‘rni masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni alohida ko‘rsatib o‘tish zarur.

Germaniyada siyosiy partiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi rolini o‘rganish borasida o‘ziga xos maktab yaratilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yo‘nalishda Germaniyada amalga oshirilayotgan tizimli tadqiqotlar nafaqat mamlakat, balki dunyo partologiyasiga ham o‘ziga xos hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Bu

avvalo, Germaniya siyosiy tizimida siyosiy partiyalarning nihoyatda muhim mavqe va nufuzga egaligi, xususan, bugun “kansler demokratiyasi” yoki “partiyaviy davlat” nomi bilan dovruq qozongan nemis davlat boshqaruvida aynan siyosiy partiyalarning markaziy o‘rin tutayotganligi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Bugun ushbu maktab vakillaridan bo‘lmish bir qator tadqiqotchilar o‘z o‘rganishlarini izchil davom ettirishmoqda. Aynan Germaniya siyosat maydonida, xususan, mamlakat partiyaviy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilayotgan olimlardan A.Mintsel, O.Nidermayer, R.Shtyoss, P.Lyosh, X.Fenske, K.Niklauss, G.Lembrux, V.Bleyeklarning ilmiy izlanishlarini misol sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Germaniya siyosiy partiyalarining bugungi kundagi qiyofasi va rivojlanish bosqichlariga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi tadqiqotlarni amalga oshirgan G.Langtut, F.Valter, Yu.fon Blyumental, K.Arsxaymeralarni, mamlakat partiyaviy faoliyatining qator jihatlarini o‘z tadqiqotlarida yoritayotgan V.Kalteflyayter, B.Lyubke, F.-U.Pappi, F.Brettshnayderlarni sanab o‘tish mumkin. Bugun nafaqat nemis, balki dunyo partologiyasida o‘ziga xos nufuzga ega bo‘lgan germaniyalik tadqiqotchilar safida K.fon Boyme, K.Poguntke, G.Oberoyterlar ajralib turadi [11]. Umuman bu davlatdagi partiya qurilishi borasidagi tajribalar boshqa davlatlarda ham katta qiziqish markaziga aylanib ulgurgan [12].

O‘z tarixiy taraqqiyotida demokratik rivojlanish yo‘liga o‘tgan Sharqiy Yevropa davlatlari siyosiy partiyalari faoliyatining turli yo‘nalishlariga, xususan, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tish, ya‘ni, jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlarida siyosiy partiyalarning roliga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi [13].

Rossiyalik siyosiy tadqiqotchilar tomonidan ham o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab mazkur mavzuda jiddiy izlanishlar amalga oshirildi. O‘tgan qariyb 30 yillik davr oralig‘ida Rossiyaning siyosiy tahlilchilari siyosiy partiyalar faoliyatining turli yo‘nalishlariga oid o‘nlab alohida monografiyalar, to‘plamlar chop etdi, doktorlik va nomzodlik ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi.

Mavzuga doir tizimli ishlarni amalga oshirgan rossiyalik olimlardan S.Ye.Zaslavskiy, G.Golosov, Yu.G.Korgunyuk B.A.Isayev, S.S.Sulakshin va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin [14]. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar hozirgi vaqtda xam davom ettirilmoqda [15].

MDH davlatlarida, xususan, Markaziy Osiyo respublikalarida ham bu davrda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o‘rni, ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tishning ahamiyatiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar amalga oshirildi [16].

Yuqoridagi tahlillardan shuni ko‘rish mumkinki, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘z taraqqiyotida demokratik yo‘lni tanlagan davlatlarda siyosiy jarayonning muhim elementi sifatida siyosiy partiyalar faoliyatini o‘rganishga katta ahamiyat qaratilgani va bu borada ibratli nazariy materiallar va amaliy tajriba to‘planganligidir.

Albatta o‘z taraqqiyot yo‘lining yangi bosqichiga kirgan va jamiyat hayotining barcha qatlamlarini qamrab olishga qaratilgan izchil siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan O‘zbekiston uchun bu boradagi xalqaro tajribalarni har tomonlama tahlil qilish va biz uchun foydali, kerakli jihatlarini o‘z amaliy faoliyatimizda qo‘llash siyosiy partiyalarning jamiyatdagi nufuzini yanada kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. “Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айланиши, ислохотларнинг ташаббускори ва асосий ижроچиси бўлиши керак”. Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидадаги маъруза, 2017 йил 12 июль // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.:“Ўзбекистон”, 2017. - 539-586 бб.
2. Дюверже М. Политические партии. М.: Академический проект, 2018. -544 с.
3. Шумпетер Й. Капитализм социализм и демократия. М.: Экономика, 1995. -612с.
4. Даунс Э. Экономическая теория демократии. М., 1996 -320 с.
5. Easton D. The Political System: An Inquiry into the State of Political Science. - New York, 1953; Neumann S. Towards a comparative study of political parties // Modern political parties. Approaches to comparative politics. Chicago, London, 1956; Ranney A., Kendall W. Democracy and the American party system. New York, 1956.
6. Парсонс Т. Система современных обществ. М.:Аспект-пресс,1998. -270 стр.; Арон Р. Демократия и тоталитаризм. М.:”Директ-медиа”, 2007.-510 стр.; Жувенель Б.де. Власть. Естественная история ее возрастания. М.: Мысль, 2011. – 546 с.
7. Сартори Дж. Партии и партийные системы. М., 2002; Липсет С, Роккан С. Структуры размежеваний, партийные системы и предпочтения избирателей. Предварительные замечания // Политическая наука. 2004. -№4.- С. 204-234; Лейпхарт А. Демократия в многосоставных обществах: сравнительное исследование. М.: Аспект Пресс, 1997; Джанда К. Сравнение политических партий: исследование и теория // Современная сравнительная политология. Хрестоматия. - М., 1997; La Polambara J. Political parties and political development Princeton. 1966; Алмонд Г., Пауэлл Дж., Стром К., Далтон Р. Сравнительная политология сегодня: Мировой обзор. М.:Аспект Пресс. 2002.- 537 с.

8. Линц Х. Тоталитарные и авторитарные режимы // Неприкосновенный запас, 2018, № 4; Пшевворски А. Демократия и рынок. М.: РОССПЭН, 2000; O'Donnell G. Delegation Democracy / O'Donnell G. // Journal of Democracy. 1994. Vol. 5, № 1. – P. 55-69; Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах. М., 2004.
9. Эндрайн Ч. Сравнительный анализ политических систем. М.: Весь мир и Инфра. 2000; Бурдые П. Социология социального пространства. М.: Институт экспериментальной социологии; Спб.: Алетейя, 2007.
10. Kirchheimer, O. The catch-all-party / O. Kirchheimer // The West European Party system / ed. by P. Mair. – Oxford : Oxford university press, 1990. – С. 376; Далтон Р Структура политических связей // Партии и выборы. Хрестоматия. Ч. I. М., 2004; Panebianco A. Political Parties: Organisation and Power. Cambridge, 1988; Лоусон К. Новый подход к сравнительному исследованию политических партий // Политическая наука. 2010. №4. Стр 29-48; Katz R.S., Mair P. The cartel party thesis: A restatement // Perspectives on politics. – Cambridge: Cambridge univ. press, 2009. – Vol. 7, N4. – P. 753–766.
11. Бойме К. фон. Партии // Политология вчера и сегодня. Вып. 4.- М., 1992; Poguntke T. The europeanization of national political parties: power and organizational adaptation/ New York. 2007; Бубе М. Партии в Германии: история и современность // Обозреватель – Observer. 2014. №5. Стр. 112.
12. Саломатин А.Ю. Корякина А.С. Партии в условиях федеративного государства (конструктивный опыт ФРГ) // Известия высших учебных заведений. 2018. №2. Стр. 67-76; Стр.55-77; Ночвина Б.А. Влияние гражданских инициатив на трансформацию партийной структуры ФРГ // Власть. 2018. №9. Стр. 201-205; Юлина Т.В. В поисках политического центра: новое профилирование германских партий и борьба за понятия // Актуальные проблемы Европы. 2019. №4.
13. A. Rommele Cleavage structure and party systems in East and Central Europe // Cleavages, parties, and voters: Studies from Bulgaria, the Czech Republic, Hungary, Poland, and Romania / Ed. by Lawson K., et. al. – Westport etc.: Praeger 1999. – P. 3–17; Kitschelt H. The Formation of Party Systems in East Central Europe // Politics and Society. 1992. № 20; Елсаков А.С. Основные характеристики партийной системы Хорватии на современном этапе // Регионоведение. 2018. Т.26. №1. Стр. 28-67; Кандель П.Е. Босния и Герцеговина во время и после всеобщих выборов // Научно-аналитический Вестник Института Европы РАН. 2019. №2. Стр.73-78;
14. Заславский С.Е. Политические партии: Проблемы правовой институционализации. - М, 2003; Голосов Г. Партийные системы России и стран Восточной Европы. М.: Весь мир, 1999. -152 с.; Коргунюк Ю.Г. Партийная система современной России: основной вектор развития // Актуальные проблемы Европы. 2018. №2. Стр. 202-224; Сулакшин С.С. Современная российская многопартийность: видимость и сущность. – М.: Мысль, 2001. – 207 с.; Исаев Б.А. Характеристики партийных систем и вычисление некоторых показателей партиом // ПОЛИТЭКС. 2016. Том 12. №1. Стр. 29-51; Курочкин А.В. Общие и специальные компоненты правовой институционализации политических партий в Российской Федерации // Актуальные проблемы российского права. 2017. №7. Стр.11-18.
15. Дзахова Л.Х. Современные тенденции развития партийности в модернизации политической системы России (политологический анализ): автореф. дис. ... докт.полит.н. Ростов-на-Дону, 2011; Шашкова Я.Ю. Партийная система в процессах политической трансформации и выборов в Российской Федерации (на примере регионов юго-западной Сибири): автореф. дис. ... докт.полит.н. Чита 2011; Тимошенко В.И., Салыков Д.Н. Становление партий и партийной системы современной России // PolitBook. 2017. №3. Стр. 184-193; Гайсина А.В. Политические партии и партийная система России: к вопросу о классификации // Вестник Забайкальского государственного университета. 2019. №2. Стр. 63-71; Растишенина Т. В. Партийная система современной России и особенности ее функционирования // Экономические и социально-гуманитарные исследования. 2017. №3. Стр.132-138; Мирзаджанов Т.Э. Жизненный цикл: как появляются и исчезают доминантные партии в демократиях? // Вестник МГУ. Сер. 12. Политические науки. 2018. № 3. Стр.63-84.
16. Романовский И.Ф. Становление и развитие партийной системы в Республике Беларусь // Праць гістарычнага факультэта БДУ: Навук. зб. Вып. 4. Минск: БГУ, 2009. стр. 50–59; Боцан И. Многопартийность в Республике Молдова: энтропия развития // Политическая наука. М., 2006. - №1. - с. 168-214; Абзалбеков Б.С. Особенности становления казахстанской партийной системы в постсоветский период // Вестник Омского университета. Серия «Исторические науки». 2018. № 2 (18). С. 208–214; Курбанов Р.Г. Политические партии в Республике Таджикистан: становление, проблемы, прогноз: автореф. дис. ... канд. полит.н. Душанбе, 2014; Кольсариева Н.Ш. Политические партии как ключевой элемент гражданского общества // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2016. №2-4. Стр. 178-18; Кыдыралиев Б.М. Сущность и понятие политической партии // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2018. №3. Стр. 103-106.

УДК: 9(575.1):9(595)

РАЗВИТИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ ГОСУДАРСТВАМИ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ В СФЕРЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ**Г. У. Шарипова***VOSIQ International school and Kindergarden*
guzal.Sharipova@yandex.ru

Аннотация. В статье приводится теоретический анализ научной литературы, посвященной проблеме раскрытия поэтапного развития сотрудничества между государствами Узбекистана и Малайзии в сфере науки и образования. Были рассмотрены различные подходы к пониманию и изучению образования и его виды анализа. Теории и концепции образовательных программ Узбекистана и Малайзии были детально рассмотрены и проанализированы. Также автор показывает тенденцию и развитие науки в двух странах, сравнивает и выделяет похожие стороны.

Ключевые слова: Меморандум, развитие, наука, образование, программа.

Development of cooperation between the states of Uzbekistan and Malaysia in the field of science and education

Abstract. The article provides theoretical analysis of scientific literature devoted to the problem of disclosing the step-by-step development of cooperation between the states of Uzbekistan and Malaysia in the sphere of science and education. Different approaches to understanding and studying education and types of analysis have been considered. Theories and concepts of educational programs of Uzbekistan and Malaysia were considered and analyzed in detail. The author also shows the trend and development of science in the two countries, comparing and highlighting similar trunks.

Keywords: Memorandum, development, science, education, program.

O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasida fan va ta’lim sohasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston va Malayziya davlatlari o‘rtasida fan va ta’lim sohasida hamkorlikning bosqichma-bosqich rivojlanishini ochib berish muammosiga oid adabiyotlar nazariy tahlil qilingan. Fan va ta’lim sohalaridagi hamkorlik aloqalarini o‘rganishga oid turli yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston va Malayziyada ta’lim dasturlarining nazariyalari va tushunchalari atroflicha tahlil qilingan/ Muallif ikki mamlakatda ham ilm-fanning tendensiyasi va rivojlanishini ko‘rsatib, o‘xshash tomonlarini taqqoslaydi.

Kalit so‘zlar: Memorandum, taraqqiyot, fan, ta’lim, dastur.

Наука и образование являются неотъемлемой частью культурного развития каждой страны. Развитие науки и образования тесно связано и зависит от развития экономики и социальной жизни любого развивающегося государства. На сегодняшний день правительство республики Узбекистан делает все возможное для развития этих отраслей культуры.

Узбекистан на полноправной основе входит в состав самых авторитетных и влиятельных международных организаций, налаживает дружеские связи с десятками стран на всех континентах мира, тесно сотрудничает с крупнейшими банковскими и финансовыми органами, негосударственными и неправительственными организациями. В республике аккредитовано более 80 иностранных представительств, действуют свыше 20 межправительственных организаций и неправительственных организаций. За прошедшие годы республика присоединилась ко многим важнейшим международным конвенциям [12].

Неоценимый вклад в развитие не только узбекской науки, но и мировой цивилизации в целом внесли наши знаменитые ученые аль-Хорезми, Беруни, Авиценна, Мирзо Улугбек.

Несомненно, XXI век, ориентирован на глобализацию в международных отношениях, и процесс интеграции рассматривается как историческая неизбежность [8].

В развитии взаимоотношений в области науки и образования немаловажная роль принадлежит Академии Наук Республики Узбекистан. На сегодняшний день Академия Наук Узбекистана является ведущим научным центром республики, где собраны все последние достижения гуманитарных и естественных наук. С составе Академии Наук Узбекистана ведут свою деятельность несколько десятков институтов, научных центров, объединений и музеев. Здесь работают тысячи деятелей наук страны.

Достижения института ядерной физики, геофизики, электроники, аэрогидромеханики и газодинамики применяются во многих отраслях народного хозяйства. По многим направлениям

науки, таких как ботаника, геология, сейсмология, биофизика и другие в нашей стране достигнуты большие успехи. Большая исследовательская работа ведется в области гуманитарных и общественных наук.

Современные ученые Узбекистана, продолжая традиции наших предков, вносят посильный вклад в мировые научные открытия. Для более широкого развития научных знаний необходимо быть в курсе последних мировых открытий и достижений, быть в тесном контакте с ведущими научными учреждениями. В связи с этим в период независимости в нашей стране созданы все необходимые условия. В последние годы Узбекистан установил взаимоотношения со многими странами мира в области науки и образования. Среди них одно из прогрессивно развивающихся в экономическом и культурном отношении государство Юго-Восточной Азии – Малайзия.

В 1995 году в Ташкенте состоялась встреча ученых Академии Наук Республики Узбекистан и Малайзии, на которой были рассмотрены организационные вопросы проведения совместных исследований ученых точных наук двух стран, создание условий для внедрения совместных разработок в действительность, осуществление с этой целью обменом информации и взаимное посещение ученых двух стран научных центров, занимавшихся разработкой этих программ. Также на встрече было оговорено об обмене опытом молодых ученых Узбекистана и Малайзии, и проведение взаимных исследований. Особое внимание на состоявшейся встрече было уделено установлению постоянных связей между научными и учебными заведениями, ведущими свою исследовательскую и научную работу при Академии Наук Узбекистана и Малайзии.

В связи с общими интересами направлений исследований и взаимовыгодных установлений таких научных связей между двумя государствами был подписан Меморандум об установлении и развитии научных взаимоотношений [10].

Опираясь на подписанный Меморандум, несколько ученых институтов двух стран установили прямые связи. Так научно-производственное объединение «Кибернетика» Республики Узбекистан установило связи с Малазийским научно-исследовательским институтом для решения актуальных на сегодняшний день научных проблем. Республиканское научно-производственное объединение «Академприбор» и институт стандартизации «СИРИМ БЕРХАРД» Малайзии начали совместные исследования [6]. Ими принято решение о продвижении разработок Института ядерной физики на рынках Азиатского-Тихоокеанского региона. Учеными из Узбекистана успешно провели в Малайзии испытания своей новой разработки портативной установки по обеззараживанию питьевой воды, очистке воздуха. В настоящее время ученые Физико-технического института НПО «Физика Солнца» совместно с коллегами Университета Малайзии проводят научные исследования в области теории твердого тела и нелинейных оптических эффектов, холодных квантовых газов, по квантовой оптике.

На сегодняшний день данные научные центры ведут совместные исследования на тему «Преобразование и усовершенствование автоматических систем». Кроме этого продолжаться исследования, между двумя научными центрами в области практического применения лазерных технологий.

Обсуждены приоритетные направления научно-технологического и инновационного сотрудничества с Малайзией.

Весной 1995 года группа Малазийских ученых во главе с доктором наук Ахмадам Тосиром посетили Узбекистан, итогом визита было подписан договор о совместных научных исследований между институтом кибернетики при Академии Наук Республики Узбекистан и корпорации «Телеком Берхард» [3].

Ответный визит ученых Узбекистана в Малайзию состоялся осенью 1995 года. Группу Узбекских ученых возглавлял и.о. Президента Академии Наук Республики Узбекистан. В ходе визита в свою очередь ознакомились с деятельностью научных центров Малайзии, ближе узнали о направлении деятельности научно-исследовательских институтов и учебных заведений. По итогам встречи были приняты решения о продолжении совместной работы в области точных наук, а также и в других направлениях научной деятельности.

В рамках подписанного Меморандума в совместной деятельности между двумя странами были установлены тесные деловые связи между Национальной Библиотекой имени Навои Республики Узбекистан и Национальной Библиотекой Малайзии.

В апреле 2004 года делегация Малайзии во главе с директором Национальной библиотеки Малайзии Дато Заявих Баба прибыла в нашу республику. В составе делегации были представители института рукописей Малайзии, представители из отдела исследовательских работ Национальной библиотеки и другие. В ходе визита малазийцы посетили и поближе ознакомились с деятельностью

Национальной Библиотеки имени Навои, Институтом Рукописей Институтом Востоковедения Республики Узбекистан с Фондом библиотеки города Самарканд, СамГУ, посетили комплекс Имама Аль-Бухари, Фундаментальную библиотеку Академии Наук Республики Узбекистан, библиотеку Ташкентского исламского университета с рукописями главного управления мусульман.

Для гостей была составлена специальная культурная программа, в ходе которой гости смогли наиболее подробно изучить, хранящиеся у нас рукописи и ознакомиться с деятельностью ученых-философов. Также гости посетили главные достопримечательности города Самарканд и Ташкент [6].

Малазийская программа Технического Сотрудничества, помогает специалистам участвовать в обмене опытом с ведущими странами мира.

В начале специалисты по этой программе обменивались опытом внутри своего государства, затем в программе Технического Сотрудничества стали участвовать представители стран Тихоокеанского региона, Карибского бассейна, Африки, Центральной Америки, Центральной Азии, Восточной и Западной Азии.

В период с 2004 по 2007 года пять специалистов из Узбекистана прошли переподготовку в Малайзии.

Наука и образование служат на сегодняшний день мощным катализатором в экономическом, политическом и научно-техническом развитии государства. В связи с этим руководство государства с первых же дней начала строительство нового демократического государства уделяет огромное внимание этому направлению развития страны. С этой целью в республике в 1997 году был принят «Закон об образовании» и «Программа по подготовке национальных кадров» [5].

Однако, подготовка собственных специалистов без изучения и учета опыта развитых стран мира практически невозможна. Здесь нельзя не учитывать особенности нашего края. В связи с этим в подготовке нового поколения обязательно учитывается опыт других стран. Для реализации в жизнь Закона об образовании и программы по подготовке национальных кадров со стороны Министерства высшего и среднего специального образования, и Министерства народного образования проводится огромная работа. Перечисленные выше структуры заключают двухсторонние соглашения со многими странами мира, в частности с Малайзией. В этих соглашениях предусмотрена отправка учащихся, учителей школ, студентов и преподавателей ВУЗов в Малайзию с целью обмена опытом и повышения квалификации. Участие наших представителей на международных конференциях, симпозиумах и семинарах.

Сотрудничество Республики Узбекистан с Малайзией в области образования с успехом развиваются и способствуют решению безотлагательных вопросов развития образования. Большое число договоров и соглашений подписанных в ходе официального визита делегации Узбекистан в Малайзию в 1992 году являются ярким примером взаимного сотрудничества двух стран. В рамках данных соглашений велись переговоры между Министерством высшего и среднего специального образования республики Узбекистан и малазийской компанией «Ретонг Берхард». В результате переговоров при Ташкентском Государственном Университете (нынешний Национальный Университет) был открыт факультет руководства бизнесом. Факультет, рассчитанный на сто студентов начал свою работу в 1994 году. Занятия на факультете проведены преподавателями из Малайзии и других стран на английском языке. Прием на факультет осуществляется по результатам тестового отбора. Факультет готовит специалистов по направлению «маркетинг», «финансы и кредит» [8; p.34]. Обучаемые на этом факультете специалисты будут вести свою деятельность на промышленных объектах республики. Вместе с тем, подготовленные специалисты должны будут в будущем участвовать в совместных программах и разработках, подписанных между республикой Узбекистан и Малайзией в области добычи нефти, горнодобывающей промышленности и гостиничного сервиса.

Обеспечение факультета современным техническим оборудованием взяла на себя компания «Ретонг Берхард». Компания представила факультету необходимую литературу, современное техническое оборудование, кроме того, компания взяла на себя обязательство выплачивать оплату преподавательскому составу и стипендии студентам.

Здесь уместно будет отметить совместное предприятие «УзМалОил», которое является надежным партнером компании «Ретонг Берхард». Предприятие, с целью обеспечения учебного процесса необходимым техническим оборудованием предоставила для Ташкентского Технического Университета мебель, учебники, компьютеры, принтеры, оргтехнику и аудиотехнику, в общей сложности на сумму в 2 мил. Долларов [2].

В Ташкентском Техническом Университете помимо внимания учебному процессу, большое внимание уделяется вопросам культурно- просветительским мероприятиям. В частности, на факультете ежегодно проводится мероприятия, посвященные национальным праздником Малайзии. В честь Дня Независимости Малайзии в библиотеке факультета была проведена выставка на тему: «Народные традиции и обряды Малайзии». Одна из учебных групп факультета занимается изучением истории, культуры, жизни народов Малайзии, а также изучением политического и социально- экономического развития страны на данном этапе. В октябре 1995 года данная группа на встрече с председателем Общества Дружбы широко обсуждала вопросы взаимного сотрудничества между Республикой Узбекистан и Малайзией на сегодняшний день и перспективы на будущее. В итоге встречи студенты этой группы получили приглашение стать членами Общества Дружбы.

Помимо сотрудничества двух стран в области образования и подготовки кадров, существуют и другие виды сотрудничества. Например, по программе Технического Сотрудничества Малайзии ежегодно специалисты из Узбекистана проходят переподготовку и повышение квалификации в Малайзии.

На основе Меморандума о взаимопонимании подписаны между Узбекским агентством связи и информатизации, Ташкентским Университетом Информационных Технологий и Мультимедийным Университетом Малайзии, а также фондом «Истеъдот» и Малазийским Открытым Университетом расширяются взаимоотношения и обмен опытом. В 2005 году во время официального визита узбекской делегации в Малайзию был подписан Меморандум. На основе подписанного документа при Ташкентском Университете Информационных Технологий был открыт факультет магистратуры Малазийского Университета Мультимедиа. Ежегодно студенты, аспиранты и докторанты проводят совместные исследования и повышают педагогическое мастерство. Помимо этого, проводятся совместные семинары и конференции, происходит обмен учебными программами, учебно- методической литературы по спец предметам [4].

2 июня 2020 года в г. Куала-Лумпуре состоялась встреча Посла Узбекистана с Министром науки, технологий и инноваций Малайзии [12]. В ходе прошедшей беседы были обсуждены приоритетные направления дальнейшего развития Узбекско-Малазийского взаимодействия.

На сегодняшний день в Узбекистане осуществляются масштабные реформы, направленные на дальнейшую либерализацию и модернизацию экономики, развитие науки, технологий и инноваций.

17 ноября 2008 года сторонами подписан Меморандум о сотрудничестве между правительствами Республики Узбекистан и Малайзии в области науки и технологий [10]. В частности, малазийская сторона заинтересована в проведении совместных научно-исследовательских работ в области медицины, фармацевтики и других направлениях.

3 июня 2020 года при содействии Посольства Узбекистана в Малайзии состоялась торжественная церемония онлайн-подписания соглашений религиозных научно-исследовательских учреждений нашей страны с Институтом исламского понимания Малайзии [1]. Соглашение позволит ученым обеих стран исследовать историю и культуру исламского наследия наиболее плодотворно.

Таким образом, имея высокий научный потенциал, Узбекистан имеет широкую возможность устанавливая взаимоотношения в области науки со многими странами мира. Такое сотрудничества помогает ученым стран мира делать новые открытия и изобретения. Развитие международного сотрудничества между государствами Узбекистана и Малайзии в сфере науки и образования укрепляет доверие и дружбу между странами.

Литература

1. (Institute of Islamic Understanding Malaysia - IKIM). *Узбекистан. Малайзия > Внешнеэкономсвязи, политика. Образование, наука > uzdaily.uz, 4 июня 2020 > № 3405854*
2. Интернет ресурс: <http://www.ebrd.com>
3. Интернет ресурс: <http://www.infoCom.uz>
4. Интернет ресурс: <http://www.uzreport.com>
5. Информационно-поисковая система Национальной базы данных законодательства Республики Узбекистан. www.lex.uz
6. Итальянское торговое агентство ИТА www.ice.it
7. Каримова Г.И. Глобализация мировой экономики и основные вопросы постепенного вхождения Узбекистана в данный процесс// Экономика и статистика. – 1996г. №6, с.67.

8. Материалы АО «Узбексугурта-0Хауден-Лиху». Ответы на вопросы Межбанковской информационной рейтинговой компании «Банк-информ рейтинг» 34 стр.
9. Национальное информационное агентство Узбекистана www.uza.uz
10. Сборник международных договоров Республики Узбекистан, 2008 г., № 3–4.
11. Тюриков В., Шагулямов Р. По пути независимости. – Т., 2000.
12. Узбекистан. Малайзия > Внешэкономсвязи, политика. Образование, наука > uzdaily.uz, 2 июня 2020 > № 3406124

UDK: 9(575.1)

QAYTA QURISH YILLARIDA O‘ZBEKISTON ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATIDAGI XUSUSIYATLAR (1985-1991 YILLAR)

A.A.Ermetov

O‘zbekiston milliy universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada XX asr 80- yillarning ikkinchi yarmida Ittifoq miqyosida tanglik holatining yuzaga kelishi sharoitida, jamiyatda boshlangan qayta qurish siyosati ham kutilgan natijani bermagandan so‘ng, respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda tushkunlik holati kuchayganligi tahlil etilgan. Bu davrda aholi orasida jinoyat sodir etish ko‘payganligi, hatto ichki ishlar tizimida ham qonunbuzarlik holatlari kuzatilgani, bunday sharoitda insonlarning xavfsizligini ta‘minlash va mol-mulkini himoya qilish borasida militsiya organlarining faoliyatida yuzaga kelgan murakkabliklar birlamchi manbalar va ommaviy axborot ma‘lumotlari asosida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, Ichki ishlar ministrligi, militsiya, struktura, tizim, jinoyat, sud-huquq tizimi, prokuratura, vazifa.

Особенности деятельности органов внутренних дел Узбекистана в годы перестройки (1985-1991 гг.)

Аннотация. В статье анализируется нарастающая депрессия социально-экономических процессов в республике после того, как политика перестройки общества начатая в Союзе во второй половине 1980-х годов, не дала ожидаемых результатов. Также в этот период наблюдался рост преступности среди населения, наблюдаются даже нарушения закона в системе внутренних дел. Были исследованы трудности в деятельности милиции возникавшие в обществе по обеспечению безопасности людей и защиты собственности на основе первоисточников и средств массовой информации.

Ключевые слова: общество, Министерство внутренних дел, милиция, структура, система, преступление, судебная-правовая система, прокуратура, задача.

Features of the activities of the internal affairs bodies of Uzbekistan during the years of restructuring (1985-1991)

Abstract. The article analyzes the growing depression of socio-economic processes in the republic after the policy of social reconstruction, launched in the Union in the second half of the 1980s, did not give the expected results. Also, over the years, there has been an increase in crime among the population, there are even violations of the law in the system of internal affairs. The difficulties encountered in the police activities to ensure the safety of people and protect property in society were investigated on the basis of primary sources and the media.

Keywords: the society, the ministry, the Ministry of internal Affairs, administration, militia, structure, system, court-legal system, crime, Office of Public Prosecutor, a problem, national structure, the union, territory, task.

XX asrning 80-yillariga kelib, Ittifoq miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy tanglik holatlari kuchayib ketdi. Jamiyat hayotida yuzaga kelgan bunday vaziyatdan chiqish uchun barcha sohalarida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirish zarurligi taqozo etilardi. 1985 yilning bahorida KPSS Markaziy Komitetining aprel plenumi sovet jamiyatini tubdan qayta qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloh qilish yo‘lini e‘lon qildi. Plenumda “qayta qurish” sovet jamiyatini rivojlantirishning ob‘ektiv ehtiyoji, unda yashovchi millatlar va xalqlar manfaatlarini taqozo etgan hayotiy zarurat sifatida ta‘riflandi [1. 627].

Qayta qurishning tarkibiy qismlari sifatida jamiyat hayotini demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazishdir, deb e‘lon qilindi [2. 146-147]. Jamiyatda boshlangan qayta qurish natijasida

iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirish, ijtimoiy hayotni yaxshilash, mafkuraviy-siyosiy va ma'naviy sohalarida bir qator islohotlar o'tkazishga urinishlar bo'lishiga qaramay, jamiyatda yuzaga kelgan tanglik holatini yaxshilab bo'lmadi. Bu davrda O'zbekistonda ham yuzaga kelgan murakkab sharoit, barcha sohalarida mavjud bo'lgan muammolar ijobiy echimini topmadi. Xullas, jamiyat hayotini tubdan isloh qilish uchun qilingan urinishlar ko'zlangan samarasini bermadi.

Jamiyatda yuzaga kelgan muammolar ichki ishlar organlarining faoliyatiga ham ta'sir qilmasdan qolmadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu davrda turli sohalarida boshlangan o'zgarishlar jarayonida ichki ishlar tizimini rivojlantirish borasida ham qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 1987 yil 3 fevralda KPSS Markaziy Komitetining "Militsiya uchastka inspektorlarining ishini takomillashtirish va ularning moddiy ta'minotini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi [3. 1-4].

Bu davrga kelib, respublika ichki ishlar idoralari tizimi faoliyatidagi kamchiliklar qatorida uchastka inspektorlari tomonidan yo'l qo'yilgan ko'plab qonunbuzarlik holatlari ham kuzatildi. Xususan, birgina Andijon viloyatida 1986 yilda 44 nafar uchastka inspektorlari nisbatan xizmat tartib-intizomini buzganlik uchun turli ko'rinishdagi jazolar qo'llanilib, ularning 5 nafari ishdan bo'shatilgan edi [4. 2].

Shu o'rinda qayd etish joizki, ichki ishlar idoralari faoliyatidagi tartibsizliklar, kamchiliklar va boshqa nuqsonlar faqat respublikaga xos xususiyat bo'lmay, balki bu davrda Sovet Ittifoqining boshqa joylarida ham shunday vaziyat yuzaga kelgan edi. "Maxfiy" grifi ostida berilgan statistik ma'lumotlarda keltirilishicha, 1956 yildan 1985 yilgacha (30 yilda) ittifoq miqyosida ro'yxatga olingan jinoyatlarning soni 2,9 martaga oshgan. Jumladan, 1956 yilda 713.800 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 1985 yilda 2.085.000 ta jinoyat ish ro'yxatga olingan [5. 180].

Ichki ishlar tizimida yuzaga kelgan vaziyatni yaxshilash yoki o'zgartirish maqsadida, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibidagi muammolar, ularning faoliyatidagi kamchiliklar bilan bog'liq masalalar yuzasidan 1982-1986 yillarda SSSR Ichki ishlar ministri V.V.Fedorchuk ko'rsatmasi asosida ittifoq miqyosida 88 000 nafar turli lavozimdagi xodimlar ishdan bo'shatilgan [6. 143]. Lekin keyingi yillardagi ma'lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, masalaga bunday yondashuv bilan militsiya organlarining faoliyatida ijobiy natijalarga erishib bo'lmadi, qilingan ishlar samarasiz bo'lib, keyingi yillarda ham bu tizimning faoliyatida o'zgarishlar sodir bo'lmagan.

Xususan, ichki ishlar idoralari faoliyati bilan bog'liq masalalar 1988 yil sentyabr oyida SSSR Ichki ishlar ministrligi kollegiyasida muhokama etilganda ham tizimdagi vaziyat, ularning faoliyatiga tegishli muammolar ochiqchasiga tahlil qilingan bo'lib, yig'ilishda quyidagi faktik materiallar keltiriladi: "SSSR Ichki ishlar ministrligi markaziy apparati tomonidan Moldaviyada o'tkazilgan tekshiruv natijalari juda yomon, mahalliy organlarga amaliy yordam berilishiga qaramay sotsialistik qonunchilikni buzilish holatlari respublika bo'yicha 3 baravarga ko'paygan. Kishinev shahrida esa jinoyat sodir etish holatlari 5 baravarga oshgan. Xuddi shunday vaziyat Ukrainaning ko'plab viloyatlarida ham kuzatilgan bo'lib, ro'yxatga olingan jinoyatlarning uchdan biri fosh etilmagan" [7. 3].

Ichki ishlar organlari tizimidagi bunday vaziyat yuzasidan o'sha davrdagi SSSR Ichki ishlar ministri A.Vlasov: "Ichki ishlar organlaridagi kamchilik va muammolar faqat bu tizimga xos xususiyat emas, balki butun jamiyatda mavjud bo'lgan muammolar bilan bog'liq bo'lib, jamiyatni qayta qurish, huquqiy davlat barpo etish jarayonida birinchi navbatda, militsiya to'g'risida qonunni qabul qilib, ichki ishlar idoralari xodimlarining huquqlari, burchlari va faoliyat chegarasini aniq belgilab olish, ikkinchidan, jinoyatning oldini olish va fosh etish bo'yicha kompleks davlat dasturini qabul qilish zarur. Bunda sodir etilgan jinoyatlar haqidagi statistik ma'lumotlarni oshkoraligini ta'minlash kerak. ...Haqiqatdan ham bugungi kunda militsiya darajasidagi dogmatizm va konservatizm – bu birinchi navbatda tezkor chora-tadbirlar o'tkazish zarur bo'lgan vaziyatda xodimlar tomonidan tegishli qarorni aniq va qisqa fursatda qabul qilmaslik, kasbiy mahoratning etishmasligi sababli muammolar echimini qiyin topilishi, bunday sustkashliklar oqibatida jinoyatlarni kam ko'rsatish holatlari ham uchrayapti"[8. 2] - deya ta'kidlaydi.

Oradan bir yil o'tib, xuddi shu masalalar yuzasidan yangi lavozimga tayinlangan SSSR Ichki ishlar ministri V.Bakatin bilan bo'lgan suhbatda ham vaziyat o'zgarmay (1989 yilda), aksincha undan ham mushkullashganini ko'rish mumkin. U mamlakatdagi vaziyatni quyidagicha izohlaydi: "Jinoyatlarning oldini olish va bartaraf etish borasida berilayotgan statistik ma'lumotlar to'g'ri va aniq bo'lmasa ham, vaziyat ravshan, sababi 1988 yil davomida jinoyatchilik sodir etish holatlari oyma-oy oshib borib, jinoyat qidiruv yo'nalishi bo'yicha 16,9 %ni tashkil etdi. Bu jarayonda shaxsiy mulkka tajovuz qilish va o'g'rilik sodir etilishi uch baravarga ko'payib ketdi. Ayrim hududlar, jumladan, Latviya, Estoniya, Moldaviya SSRda, Kurgan, Irkutsk, Rostov viloyatlarida hamda Primore o'lkasida jinoyat sodir etilishi eng yuqori darajada ekanligi aniqlandi [9. 2]. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, ichki ishlar tizimi faoliyatida mavjud bo'lgan vaziyat keyingi yillarda ham o'zgarmay, aksincha, yanada mushkullashdi. Xususan, ittifoq miqyosida jinoyat sodir etilishi holatlari keyingi davrda ham yana yildan-yilga oshib borib, yiliga o'rtacha

35%ni tashkil etgan [10. 182]. Xuddi shunday vaziyat O‘zbekistonning turli hududlarida ham yuzaga kelib, birgina Surxondaryo viloyati misolida tahlil etiladigan bo‘lsa, ma‘lumotlarda 1990-yilda 2065 ta jinoyat qayd etilgan bo‘lsa, uning og‘ir turlari – 21,6 %ga oshganligi, og‘ir tan jarohati etkazish bilan bog‘liq jinoyatlar – 50 %ga, bezorilik – 42,8 %ga oshganligi ko‘rsatiladi [11. 106].

Keltirilgan dalillardan ko‘rinib turibdiki, bu davrga kelib ichki ishlar idoralari tizimi faoliyatida ko‘plab xato va kamchiliklar mavjud bo‘lgan. Buning sabablari ko‘p bo‘lib, bu davrda sovet jamiyatida olib borilgan qayta qurish siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonidagi uzilishlar, ijtimoiy qiyinchiliklar, siyosiy va mafkuraviy qarashlarning o‘zgarishi natijasida jamiyatda yuzaga kelgan muammolar negizida o‘tgan yillarga nisbatan jinoyatlarning soni oshib ketdi.

Ittifoq miqyosida ichki ishlar idoralari faoliyatini yaxshilash maqsadida SSSR Oliy Soveti tomonidan 1989-yil 4-avgustda “Jinoyatga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi [12. 194].

1990-yil 17-noyabrda SSSR Oliy Sovetining sessiyasida qonunchilik komiteti vakili YU.Kalmikov so‘zga chiqib: “... mamlakatda avj olgan uyushgan jinoyatchilik va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish vazifasini SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasiga topshirish hamda ittifoqdosh respublikalarning Ichki ishlar vazirliklari va prokuraturasini SSSR prokuraturasiga (SSSR prokuraturasining maqomi va nufuzini yanada mustahkamlab) so‘zsi bo‘ysunishini ta‘minlash kerak” [13. 2] – deb ta‘kidlaydi.

SSSR Oliy Sovetida bildirilgan bunday fikrlarning asl mohiyati shundan iboratki, markaz doimiy ravishda huquq-tartibot organlarini o‘z tizginida ushlab turib, bu orqali o‘sha paytda jamiyatda yuz berayotgan turli ko‘rinishdagi tartibsizliklar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, siyosiy va ma‘naviy o‘zgarishlar negizida paydo bo‘lgan ziddiyatli holatlar, milliy mojarolarni o‘z vaqtida to‘xtatish yoki ularga nisbatan turli choralarni ko‘rish yo‘lidan bordi.

Mavzu doirasida ichki ishlar idoralari faoliyatini tahlil etish jarayonida o‘sha davrda O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy jarayonlar, xususan militsiya organlarining faoliyati bilan ham bog‘liq bo‘lgan yana bir muhim masalani, jumladan, jahon nazarida turgan tarixiy voqealar: “paxta ishi” va “o‘zbek ishi” nomlari bilan olib borilgan tergov jarayonlari haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda olib borilgan “paxta ishi” va “o‘zbek ishi” kampaniyalari davomida qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar oqibatida ko‘plab insonlar hibsga olinib, ularga nisbatan turli muddatlarga qamoq jazosi va boshqa jazolar qo‘llanildi. Bu jarayonni yanada kuchaytirish maqsadida davlat boshqaruvining rahbar lavozimlariga ko‘plab xodimlar yuborilgan bo‘lib, asosan 1984-1989 yillarda “O‘zbekistonda sotsialistik qonunchilikni tiklash” shiori ostida respublika huquq-tartibot idoralari barchasiga markazdan minglab odamlar jo‘natildi. Bu idoralar orasida shaxsiy tarkibi, harakatlanish hududi va ta‘sir kuchi nuqtai nazaridan eng yirigi hisoblangan O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligiga Markazdan hammasi bo‘lib 150 nafar xodim keldi. Yillar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, 1984-yilda 5, 1985- yilda 33, 1986-yilda 86, 1987 -yilda 27, 1988 yilda 2, 1989-yilda 3 nafar “osoyishtalik posboni” O‘zbekistonga tashrif buyurgan [14. 266-267].

Tergov guruhiga katta vakolat va imtiyozlar berilgan. Guruh respublikada ish boshlagan birinchi kunlardanoq “O‘zbekistonda hamma pora oladi va pora beradi” [15. 194] degan soxta tamoyilga asoslangan holda qonunsizlik yo‘liga o‘tib, tergov jarayonlaridan tuhmat, ig‘volar uyushtirish, faktlarni soxtalashtirish, kishilarni soxta ma‘lumotlar berishga majbur etish, o‘zlariga yoqmagan kishilardan o‘ch olish vositasi sifatida foydalanganlar. Guruhning dastlabki ishi bo‘lgan Buxoro viloyatidagi tekshiruv ishida A.Do‘stov militsiya polkovnigi, Sh.A.Rahimov, A.Muzaffarov, V.V.Mulin militsiya podpolkovnigi, T.R.Ochilov militsiya mayori unvonlaridan mahrum qilinadi.

Guruh vakillari tomonidan olib borilgan keyingi tergov jarayonlari natijasida vaziyat butunlay o‘zgarib ketdi. Birgina o‘sha davrda Buxoro viloyati ijroiya komiteti Ichki ishlar boshqarmasi jamoat (sotsialistik) mulkini o‘zlashtirish hamda chayqovchilik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga qarshi kurashish (OBXSS) boshqarmasi boshlig‘i lavozimida ishlagan A.Muzaffarov bog‘liq jinoiy ish yuzasidan ichki ishlar tizimida faoliyat yuritgan bir nechta xodim hibsga olinadi. A.Muzaffarov 61 nafar odamdan 456.324 rubl pora olishda, mansabni suiste‘mol qilishda, lavozimda o‘tirgan rahbarlarga pora berishda va boshqa jinoiy ishlarda ayblanadi. A.Muzaffarovga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoiy ishda (1983-yil 27 aprelda hibsga olingan), u tomonidan Buxoro viloyat partiya komiteti birinchi kotibi A.Karimovga, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vaziri K.Ergashevga, vazir o‘rinbosari G.Davidovga, Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i lavozimida ishlagan Norov va Do‘stovlarga, umumiy hisobda 9 kishiga 201.561 rubl pora berganligi ko‘rsatiladi [16. 6]. Bulardan tashqari Sh.Rahimov (Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida ishlagan), V.Mulin (Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida ishlagan) [17. 118-120], B.Gafarov (Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi BXSS boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari; 1983 yil 4 mayda hibsga olingan), A.Jumaev (Buxoro viloyati Ichki

ishlar boshqarmasi BXSS boshqarmasi bo'lim boshlig'i), S.Buranov (ichki ishlar boshqarmasi shoferi, pora olib kelishda ishtirok etganlikda ayblangan) kabi xodimlar, shuningdek, Sh.Qudratov, J.Sharipov va boshqa ko'plab fuqarolar (savdo xodimlari, ishlab chiqarish korxonalari va trest direktorlari) ham shu jinoiy ish orqali jinoiy javobgarlikka tortilgan [18. 79].

Arxiv ma'lumotlarda keltirilishicha, tergov ishlari tugatilgandan so'ng A.Muzaffarovning ishi sudga oshiriladi va unga sud tomonidan o'lim jazosi belgilanadi [19. 3].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mazkur jinoiy ish bilan bog'liq holatda bir nechta ichki ishlar xodimlari ham uzoq muddatlarga ozodlikdan mahrum etilgan [20. 9-10].

Bu davrda O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan bir qator faol xodimlar, jumladan, general-leytenant Q. Ergashev, general-mayor G.Davidov, polkovnik S.Kolustyan, general-mayor I.Sattarov, polkovnik U.Tadjixonov, general-mayor O.Muhamadiev, polkovnik T.Xaitov, polkovnik YO.Norbekov, polkovnik A.Xojimurotov, S.Sattarov, V.Izzatov va boshqalar hibsga olindi.

O'zbekistonda "paxta ishi", "o'zbek ishi" kabi kampaniyalar asosida olib borilgan jinoiy ishlar bir-biriga zanjirsimon ko'rinishda ulanib, bu jarayonning ichki ishlar bilan bog'liq tomonining eng yuqori bosqichi sifatida ko'rsatilgan jinoiy ishlar 1988 yilda Moskvada bo'lib o'tgan sud jarayonida tahlil qilindi. O'sha davrda e'lon qilingan ommaviy axborot vositalarining birida bu masala quyidagicha ko'rsatiladi. "O'tgan yilning keyingi 4 oyi mobaynida SSSR Oliy sudining Harbiy kollegiyasi yustitsiya general mayori M.Marov raisligida Ichki ishlar ministriligining sobiq rahbar xodimlari ustidan poraxo'rlikda va boshqa jinoyatlarda ayblab qo'zg'atilgan jinoiy ishlarni ko'rib chiqdi. Sud oldida 9 kishi javob berdilar: SSSR Ichki ishlar ministrining sobiq o'rinbosari YU.CHurbanov, sobiq O'zbekiston Ichki ishlar ministri H.Yahyayev, ikki sobiq ministr o'rinbosari – G.Begelman va T.Qahramonov, O'zbekiston IIM oblast ichki ishlar boshqarmasining besh sobiq boshliqlari – J.Jalolov, Y.Muxammajonov, H.Norbo'tayev, M.Norov, S.Sobirov. Sud CHurbanovni – 12 yilga, Norbo'taevni – 10 yilga, Norov va Begelmanni – 9 yilga, Jamolov, Muhammajonov va Sobirovni – 8 yilga ozodlikdan mahrum etdi. Ularning barchasining mol-mulki musodara qilinib, jazoni kuchaytirilgan rejimdagi mehnat tuzatish koloniyalarida o'taydigan bo'ldi. T.Qahramonov aybi isbotlanmagani uchun oqlandi va ozod qilindi. YAhyayevning ishi alohida ishlab chiqarishga ajratilib, qo'shimcha tergovga qaytarildi [21. 2]. (Ushbu maqola "Moskovskie novosti" gazetasining 1989 yil 8 yanvar sonida e'lon qilingan bo'lib, maqola muallifi RSFSRda xizmat ko'rsatgan yurist, huquqshunoslik fanlari doktori Oleg Temushkin bo'lgan).

Xuddi shu sud jarayoni haqidagi ushbu maqolada: "...Ayblanuvchini tergov jarayonida qamoqda asrashning qonun tomonidan ko'rsatilgan eng ko'p muhlati – 9 oy. Yuqoridagilar esa yillar davomida qamoqda saqlanganlar: Churbanov – 2 yilga yaqin, Yahyayev – 3 yildan ziyod, Qahramonov esa 4 yilga yaqin o'tirgan. Xo'sh gap nimada? Javob aniq: Tergovlarda malakani etishmasligi, ularning ishlari ustidan kerakli kontrol va prokuror nazoratining yo'qligi bunga sababdir. Sud ushbu ishni tekshirishda yo'l qo'yilgan qator qo'pol qonunbuzarliklarni o'z hukmida qayd etdi" [22. 3] – deya ta'kidlanadi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu davrda jinoiy ishlarni qo'zg'atish, tergov olib borish, xususan tergov jarayonining belgilangan muddati, guvohlarning tergov qilinishi, ayblanuvchiga va uning yaqin qarindoshlariga nisbatan o'tkazilgan turli tazyiq va qo'rqitishga asoslangan usullarning qo'llanishi va boshqa qator tartibsizliklarga yo'l qo'yilganligi o'sha davrdayoq tegishli bahosini ola boshladi. Ayniqsa Moskvada ichki ishlar tizimida yuqori lavozimni egallagan 9 kishi ustidan olib borilgan sud jarayonida T.Qahramonovning oqlanishi va H.Yahyayevning ishi qayta tergovga yuborilishi sovet sud-huquq tizimi uchun sharmandali holat edi. Chunki bu sud jarayonida nafaqat mahalliy ommaviy axborot vositalari, balki ko'plab chet ellik jurnalistlar ham qatnashib, ular jarayonlarni xorijiy gazeta va jurnallarida chop etib borgan edi.

1989-yil may oyida Markazda bo'lib o'tgan SSSR xalq deputatlari birinchi s'yezdida "o'zbek ishi" va "paxta ishi" bilan bog'liq jarayonlarga berilgan baho, ishtirokchilar orasida turli xil bahs-munozaralarning yuzaga kelishi, shuningdek, ittifoq miqyosida millatlararo munosabatlarda tahlikali vaziyatning kuchaygan paytida, O'zbekiston SSR siyosiy rahbarligi lavozimiga I.A.Karimov kelganidan so'ng, jamiyat hayotining barcha sohalarida o'zgarishlar boshlanib, bu jarayonda "paxta ishi" va "o'zbek ishi" kabi kampaniyalar davomida nohaq qamalgan insonlarning jinoiy ishlari qayta ko'rib chiqilib, ushbu kampaniyaning qurboni bo'lgan ko'plab aybsiz insonlarning nomi oqlanib, ular o'z oilasiga qaytdi [23. 5721-5723].

Xususan, I.A.Karimov 1991-yil yanvar oyida "Izvestiya" gazetasi muxbiri bilan bo'lgan suhbatda ham bu masalaga to'xtalib: "Paxta bilan bog'liq 24 mingta jinoiy ish qo'zg'atilganda, haqiqiy jinoyatchilar bilan birga ularning qurbonlari ham barobariga qamoqqa olindi. ...Aybsiz ta'qib etilganlar esa yuzlab va minglab kishilardir. Biz faqat keyingi paytning o'zida aybsiz hukm qilinganlarga, hozir esa qamoqdan ozod

etilganlarga, oqlanganlarga 1,5 million rubl tovon puli to'lashga majbur bo'ldik" [24. 264] – deb ta'kidlagan edi.

Arxiv hujjatlari tahlili va shu davrda ommaviy axborot vositalarida ichki ishlar idoralari faoliyatiga oid e'lon qilingan ma'lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, XX asr 80-yillari va 90-yillarining boshlarida militsiya organlarining faoliyati o'ta murakkab va ziddiyatli kechgan. Bunday holatlarning sababi o'sha davrdagi birlamchi manbalarda militsiya xodimlarining davlat tomonidan talab darajasida himoya qilinmasligi, militsiya to'g'risidagi qonunning yo'qligi, ishning ko'lami va chegarasi belgilanmaganligi, oldingi yillarga nisbatan jinoyatchilikning haddan tashqari o'sib ketganligi bilan izohlangan.

Tadqiq etilayotgan yillarda, jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri – bu voyaga etmaganlar orasida jinoyat sodir etilishi holatlari bo'lib, uni kamaytirishga qaratilgan bir qator tadbirlar o'tkazilishiga qaramay, 1989-1990 yillarga kelib respublika miqyosida yoshlar va o'smirlar orasida huquq-tartibotni buzish holatlari kuchayib ketdi. Bu masalaning ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ahamiyat kasb etishi, bunday holatlarni tez orada bartaraf etish zarurligi haqida 1989- yilda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari to'xtalib: "Jinoyatchilikning, ayniqsa yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning o'sib borayotganligi tashvish tug'dirmoqda" [25. 94] – deya ta'kidlagan bo'lsa, u 1990-yil O'zbekiston Kompartiyasining XXII s'ezdida so'zlagan nutqida: "Biz jinoyatchilikka qarshi kurashish yuzasidan favqulodda choralar ko'rar ekanmiz, salbiy hodisalarni vujudga ketirayotgan, odamlarni, ayniqsa, yoshlarni huquqqa xilof xatti-harakatlar ko'chasiga kirishga majbur etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy sabablarni, ildizlarni topish, ularni bartaraf etish lozim" [26. 3] – deb ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, bunday nohush holatlar respublikaning boshqa joylariga nisbatan Toshkent shahrida ancha kuchayib, 1990-yilning 9 oyi davomida birgina Toshkent shahrining Kuybishev rayoni ichki ishlar bo'limiga turli ko'rinishdagi qonunbuzarliklarni sodir etgan 1081 nafar o'smir ushlab olib kelingan. Bu davr mobaynida voyaga etmaganlar tomonidan 158 ta jinoyat sodir etilgani ro'yxatga olingan bo'lib, ularda 163 o'smir ishtirok etgan (bu raqam 1989 yil shu davrga nisbatan 78 taga ko'p). Ular orasida shaxsiy mulkka tajovuz qilish (17 tadan 71 taga ko'paygan), avtotransport o'g'riligi (3 dan 7 taga ko'paygan), bezorilik (6 tadan 9 taga oshgan) kabi jinoyatlar ko'proq sodir etilgan [27. 14-16].

Xulosa qilib aytganda, tahlil etilayotgan yillar O'zbekistonning hayotida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan juda murakkab jarayonlar yuz berdi. Xususan, jamiyat hayotini tubdan o'zgartirish uchun boshlangan qayta qurish siyosati o'zining ijobiy natijasini bermadi.

Bu davrda ichki ishlar organlari faoliyati ham bir qator tartibsizliklar, kamchiliklar va muammolar bilan kechdi. Militsiya xodimlari orasida xizmatga sovuqqon munosabat, poraxo'rlik va boshqa qonunbuzarlik holatlari kuchayib ketdi. Oqibatda jamiyatda yildan-yilga jinoyat sodir etilishi holatlari ko'payib bordi.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz bo'lgan bir jihat, o'sha davrga oid hujjatlar tahlili shundan dalolat beradiki, jamiyatda jinoyat sodir etilishining haddan tashqari o'sib ketishi bu faqat ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyatini sust olib borishi bilan bog'liq bo'lmay, bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va siyosiy boshqaruvdagi tartibsizliklar, jumladan, ijtimoiy muammolarning o'z vaqtida yechimini topilmasligi, ishsizlikning ko'payishi, moddiy ta'minotdagi uzilishlar (xalq xo'jaligining barcha sohalarida), taqchilikning kuchayishi, jamiyatda korrupsiya va boshqa illatlarning avj olishi, insonlar dunyoqarashining tubdan o'zgarishi, turli xil g'oya va qadriyatlarining kirib kelishi, yoshlar orasida ta'lim-tarbiya masalasidagi muammolar, ittifoq va respublikaning turli hududlarida sodir bo'lgan millatlararo munosabatlardagi ziddiyatli holatlar bilan ham izohlanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ilmiy muharrir N.Jo'rayev. -Toshkent: Sharq. 2000. - B. 627.
2. Боффа Дж. От СССР к России. История неоконченного кризиса. 1964-1994: Пер. с ит. Хаустовой Л.Я. - Москва: Международные отношения, 1996. - С.146-147.
3. O'zR PDAning Andijon viloyati hokimligi bo'limi, 3-fond, 18-ro'yxat, 27-ish, 1-4-varaqlar.
4. O'zR PDAning Andijon viloyati hokimligi bo'limi, 3-fond, 18-ro'yxat, 27-ish, 2-varaq.
5. Бакатин В.В. Дорога в прошедшем времени. - Москва: ЗАО Издательство Центрполиграф, 2015. - С. 180.
6. Бакатин В.В. Дорога в прошедшем времени. - Москва: ЗАО Издательство Центрполиграф, 2015. - С. 143.

7. Черненко А. Испытание демократией. Размышления о роли милиции // Правда, 25 сентября 1988 г.
8. Правда, 25 сентября 1988 г.
9. Правда, 19 сентября 1989 г.
10. Бакатин В.В. Дорога в прошедшем времени. - Москва: ЗАО Издательство Центрполиграф, 2015. - С. 182.
11. Boboev M., Soatov A. Surxondaryo militsiyasi. - Samarqand; Sug'diyon, 1998. - B. 106.
12. Бакатин В.В. Дорога в прошедшем времени. - Москва: ЗАО Издательство Центрполиграф, 2015. - С. 194.
13. Правда, 19 ноября 1990 г.
14. Azizxo'jaev A. Chin o'zbek ishi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. - B. 266-267.
15. Yunusova X. "Paxta ishi" qatag'onlari haqida ba'zi mulohazalar. / O'zbekistonda sovet davrida amalga oshirilgan siyosiy kampaniyalar va ularning fojiali oqibatlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017. - B.194.
16. O'zR MDA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 6480-ish, 6-varaq.
17. O'zR MDA, 1714-fond, 10-ro'yxat, 4201-ish, 118-120-varaqlar.
18. O'zR MDA, 1714-fond, 10-ro'yxat, 4201-ish, 79-varaq.
19. O'zR MDA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 6480-ish, 3-varaq.
20. O'zR MDA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 6480-ish, 9-10-varaqlar.
21. Hukm chiqarildi, muammolar turibdi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, № 3, 13 yanvar 1989 yil. (Moskovskie novosti. 8 yanvarya 1989 g.).
22. Hukm chiqarildi, muammolar turibdi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, № 3, 1989 yil, 13 yanvar.
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi arxivi, 358-ish, 5721-5722-5723-varaqlar va b.
24. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. - B.264.
25. Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanaylik (O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlangan nutqdan 1989 yil 28 noyabr) // O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. - B.94.
26. Sovet O'zbekistoni, 1990 yil, 5 iyun.
27. O'zR MDA, 1714-fond, 9-ro'yxat, 666-ish, 14-16-varaqlar.

UDK: 1:796

O‘ZBEKISTONDA TURISTIK KLASTERLAR VA ULARNING IJTIMOY-FALSAFIY MASALALARI**Sh. J. Xashimov***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda turistik klasterlarning tashkil topishi, ularning jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan o‘zaro bog‘liqligi, klasterga tizimli yondashuv kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy turizm, turistik klasterlar, tizimli yondashuv, turizm infrastrukturasi, turizm klasteri va ijtimoiy institutlar.

Туристические кластеры и их общественно-философские вопросы в Узбекистане

Аннотация. В статье анализируются вопросы возникновения туристических кластеров, их взаимосвязь с другими сферами общественной жизни и системный подход к туристическому кластеру.

Ключевые слова: Национальный туризм, туристические кластеры, системный подход, инфраструктура туризма, кластер туризма и общественные институты.

Tourist clusters and their social-philosophical questions in Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the emergence of tourism clusters, their relationship with other areas of public life and a systematic approach to the tourism cluster.

Keywords: National tourism, tourism clusters, system approach, tourism infrastructure, tourism cluster and public institutions.

Bugungi kunda O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirishdan iboratdir. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasida yagona davlat siyosatini o‘tkazishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilib, sohadagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, turistlar uchun viza va ro‘yxatga olish tartib-taomillarini soddalashtirish, yangi turistik marshrutlarni yaratish, turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta‘minlash, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, turizmni rivojlantirish bo‘yicha maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston mintaqalarida turistik klasterlarning shakllantirilishi turistik resurslardan to‘liq foydalanish zamirida yangi turistik firmalar ochilishiga va mavjudlarining ishini yanada faollashtirishga turtki beradi va yangi turdagi turistik mahsulotlarning yaratilishiga asos bo‘ladi.

“Klaster” bir-biri bilan uzviy bog‘langan, hamda raqobatbardoshligining o‘sishiga o‘zaro ko‘maklashuvchi tashkilotlar uyushmasi bo‘lib, “klaster” ingliz tilida “bir shingil”, “to‘p”, “to‘plam” degan ma‘nolarni bildiradi. “Klaster” tushunchasini birinchi bo‘lib, fanga Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter kiritgan bo‘lib, Porterning fikriga ko‘ra, “klaster – bu bir-biri bilan raqobatlashuvchi, lekin shu bilan birga butun klasterning raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida o‘zaro hamkorlikda faoliyat yurituvchi, geografik jihatdan yaqin joylashgan tashkilotlarning o‘zaro bog‘langan guruhleri, ular faoliyatiga ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatish tashkilotlari, jihozlar etkazib beruvchi tashkilotlar, ularga hamroh tarmoq tashkilotlari, shuningdek ularning faoliyati bilan bog‘liq turli soha tashkilotlari (ilmiy-tadqiqot institutlari, OO‘YUlar, standartlashtirish bo‘yicha agentliklar, savdo uyushmalari va h.k.) va boshqa bir qator tashkilotlar guruhidir”. [1]

O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-549-son yangi tahrirdagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunining 4-bobi Turistik zonalar va turistik klasterlar deb nomlangan. Qonunning 19-moddasi Turistik klaster, deb nomlangan bo‘lib, ushbu moddaga ko‘ra, Kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan boshqa qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui turistik klasterdir. Turistik klasterlar kompleks turistik xizmatlar ko‘rsatish, turistik faoliyatning raqobatbardoshligi va sifatini oshirish maqsadida turistik mahsulotni shakllantiradi, targ‘ib etadi va realizatsiya qiladi. [2]

Oxirgi yillarda turizmdek muhim soha kompleks rahbarining zarur darajadagi e‘tiboridan chetda qolib ketdi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoev, - Bu xatoni so‘zsiz va eng muhimi, natijali ravishda to‘g‘rilash kerak. Biz hozir faqat turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan tuzilmaga doir masalalarni tasdiqladik. Bu choralar turizmning O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga qo‘shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy

qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar bilan kuchaytirilishi zarur. [3]

O'zbekistonda "klasterlar" bo'yicha respublika miqyosida 44 ta hudud tanlab olinib, turistik klasterlar tashkil etilmoqda. Turkiyaning IdeallIST kompaniyasi bilan Xorazm, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida turistik klasterlar tashkil qilish bo'yicha shartnomalar imzolandi. "CHorvoq" erkin turistik zonasini rivojlantirish bo'yicha Fransiya hukumatining 800 ming evro grant mablag'lari hisobiga master-reja ishlab chiqildi. Indoneziyaning Sahid Group kompaniyasi bilan hamkorlikda Imom al-Buxoriy kompleksi atrofida 2019 yilda ikkita mehmonxona qurish, Buxorodagi "Modarixon" madrasasini "Xalol" standarti bo'yicha mehmonxonaga aylantirish bo'yicha restavratsiya ishlarini olib borish masalasida shartnomalar imzolandi. Bo'stonliq tumanida "Amirsoy" tog'-chang'i kompleksi barpo etilmoqda. Toshkent shahrida golf-klub va "Golf rezort" golf-akademiyasi qurilmoqda. Buxoro va Xorazmda madaniy meros ob'ektlarini saqlab qolish, mehmonxonalarni rekonstruksiya qilish ishlarini mablag' bilan ta'minlash masalalarida hamkorlik qilinmoqda. O'zbekistonning Urganch, Toshkent shaharlari va Farg'ona viloyatida turizm hududlari tashkil etilmoqda. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tog' klasterlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Tashkil etilayotgan turizm hududlari va tog' (tog'oldi) turizm klasterlariga chet el sarmoyadorlari jalb qilinib, yangi mehmonxonalar qurish uchun O'zbekistonga yetakchi mehmonxona brendlari taklif qilinadi hamda mamlakatimizdagi mehmonxona xo'jaliklari ular boshqaruviga topshiriladi. Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon tog' massivida mehmonxona majmuasi barpo etiladi. Shuningdek, Navoiy viloyatida To'dako'lning janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko'l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etiladi. [4] So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, Toshkent shahrida "Hyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Hotel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar ochildi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'lar tashkil etildi, "Angren-Pop" temir yo'li ochildi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurur poezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochildi.

O'zbekistonda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Turizmni jadal rivojlantirish, turistlarga munosib infratuzilma yaratish, xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning turistik salohiyatidan unumli foydalanish va yangi ish o'rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar davom ettirilmoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoev, - Mehmonxonalarning infratuzilmasi, dam olish maskanlari va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun 2 trillion 300 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi. Buning natijasida minglab yangi ish o'rinlari yaratish mo'ljallanmoqda. [5]

O'zbekistonda turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish, xususan talabni inobatga olgan holda, yangi joylashtirish vositalarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda yondosh infratuzilmani (umumiy ovqatlanish ob'ektlari, transport-logistika tuzilmalari, ko'ngilochar maskanlar industriyasi, madaniy va sport muassasalari, turistik namoyish obyektlari va boshqalarni) rivojlantirishga qaratilgan turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, mehmonxonalar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini qurishga oid loyihalarni amalga oshirish mexanizmini soddalashtirish, tadbirkorlarga o'z xizmatlarining sifatini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, jahonga mashhur mehmonxona biznesi brendlari O'zbekistonga jalb qilishni rag'batlantirish, joylashtirish vositalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, yirik, o'rta, kichik mehmonxonalar va xostellarni qurishni rag'batlantirish hamda mavjud mehmonxonalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratish, zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ko'cha infratuzilmasini (o'tish yo'llari, trotuarlar, kichik arxitektura shakllari, sanitar-gigienik shoxobchalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun obodonlashtirish elementlari va boshqalarni) shu jumladan turizm-rekreatsiya markazlarda yaratish, turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, ko'chalarda, hududlarda, turizm namoyishi obyekti hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil yo'llarida turizm navigatsiyaning unifikatsiyalashtirilgan ko'rsatkichlarini o'rnatish [6] masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish O'zbekistonda turizm klasterlarini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Mamlakatda milliy turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda klaster ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishda keng imkoniyatlar mavjuddir. Mintaqalarning turistik klasteri uning tarkibiga kiruvchi

xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Mazkur subyektlar uchun axborot almashinuvi va yangiliklarni joriy etish imkoniyati kuchayadi, hamkorlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish masalasi engillashadi, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi infrastruktura obyektlaridan hamkorlikda foydalanish imkoniyati tug'iladi. [7]

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyot hamda turizmga nisbatan klasterli yondashuv globallashuv va internatsionallashuv sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Turizm industriyasiga nisbatan klasterli yondashuvning zarurligi masalasi avvalo M.Porter tomonidan nazariy asoslab berilgan bo'lsa, keyinchalik D.Jekson va P.Merfi mahalliy bozorlarning kengayishi, mintaqada ishbilarmonlik strukturalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishi klasterlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini asoslashdi. Turizm industriyasiga nisbatan klasterli yondashuv masalasi bir qator chet el va rus olimlari tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, ularga K.Z. Adamov, A.YU. Aleksandrov, A. Almeyda, M.Benner, E.A. Boyko, B.E. Viks, A.A. Vlasenko, M.A. Gritsay, F. Gunfadurdoss, B.B. Dondakov, A.N. Dunets, S. Ivanovik, N.Kim, O.D. Kol, O.N. Kostyukova, V. Long, D.P. Mayevskiy, A. Malakauskayte, YU.A. Markova, N.S. Martishenko, K. Mikinak, A.D. Osminkina, N.N. Pidgurskaya, B.I. Rassadin, D. Salxab, K. Santos, D. Tarabay, A. Tekseyra, I. Fernando, D. Ferreyra, X. Xanna, A. N. Xvadja, K. Esteveo kabi olimlar taalluqlidir. Ushbu olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turizm industriyasiga nisbatan klasterli yondashuvning nazariy, ijtimoiy-falsafiy masalalari, tizimli yondashuv, "turizm klasteri" tushunchasining obyekt, subyekt, turistik klasterlar mavjudligining maqsadi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy-geografik omillar tahlil qilingan. Klasterlarning zamonaviy muammolari masalalari hozirgi davrda skandinaviyalik tadqiqotchilar T. Andersson va O. Salvella, daniyalik, P. Maskella, italiyalik Gereri va Petrobelli, rossiyalik tadqiqotchilar V. Knyagina, L. Markova, M. Abalkina, L. Myasnikova va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilmoqda.

Klaster nazariyasi M.Porter tomonidan ishlab chiqilganida, u barcha klasterlarni bir xilda qo'llab-quvvatlash lozim, chunki qay bir klaster jadalroq rivojlanadi, qay biri sustroq kechishini oldindan bilish mumkin emas, degan fikrni bayon qilgan bo'lsa, uning shogirdi M. Enrayt o'zining mintaqaviy klaster nazariyasida "Mintaqaviy klaster – bu shunday klasterki, bunda unga a'zo firmalar geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan bo'ladi, yoki "mintaqaviy klaster bu – xo'jalikning bitta yoki bir nechta o'zaro bog'liq tarmoqlarida faoliyat yurituvchi firmalar aglomeratsiyasi"[8], deb hisoblaydi.

Jamiyat hayotida raqobat kurashi sharoitida klasterga asosiy e'tibor qaratilib, klasterlar bozor iqtisodiyotining boshqa institutlari, xususan hukumat, universitetlar, kompaniyalar, turagentliklar, turoperatorlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda klasterlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda turizm yanada rivojlantirilib, turistik klasterlar tashkil etilishiga katta e'tibor qaratilayotgan ekan, mamlakatda turizmning barcha turlarining tizimli faoliyat ko'rsatishi, mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish va turistlarning ushbu yo'nalishdagi ehtiyojlarini qondirish uchun turli turistik obyektlar, sanatoriyalar, dam olish muassasalarining sonini va ularning sifatini ko'tarish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning barcha turistik hududlarida turistik, turistik rekreatsiya klasterlarini shakllantirish va turistik majmualarni barpo etish hamda ularni jahon talablari darajasida baholanishini ta'minlash mamlakatimizda turizm infrastrukturasi yanada taraqqiy etishiga, odamlar turmush darajasining oshishiga, fuqarolar ongi va madaniyatining yanada yuksalishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Портер М. Конкуренция. Пер. С англ. М.,Издательский дом «Вильямс», 2005.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Turizm to'g'risida. 7/16/ Lex. uz. /docs/ 4428097
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. <http://uz24.uz/society/urganch-toshkent-shaharlari-va-farg'ona-viloyatida-turizm-hududlari-tashkil-etiladi>.
5. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 69 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5 yanvar PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova. 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi. Lex. uz. / docs/ 4143188
7. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2016l.
8. Mirzaev A. Rekreatsiya-turizm klasterlarini yaratish yohud ular orqali hududlarda sayyohlik tizimini rivojlantirish istiqbollari". "Business – ekspress" jurnali. № 12. 2017.

UDK: 1:08

INSON MA'NAVIY BORLIG'I VA GO'ZALLIK KATEGORIYASINING FALSAFIY TAHLILI

S. T. Abdullayev

*Samarqand davlat universiteti,
abdullayevsardor27@gmail.com*

Annotasiya. Ushbu maqolada, tabiat, jamiyat hayotida inson ma'naviy borlig'ini rivojlanish, shakllanish omillari, uning o'zni, muammolari tahlil qilindi. Inson ma'naviy borlig'ini yuksaltiruvchi ob'yektiv va sub'yektiv ta'sirlariga e'tibor qaratildi. Ma'naviyat, ezgulik va go'zallik insonning zoxiriy va botiniy hayotida o'ziga xos ta'siri o'rganildi. Shu bilan birga, go'zallik kategoriyasiga oid ayrim qarashlar va uning inson ma'naviy hayotidagi o'rni falsafiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: borliq, inson ma'naviy borlig'i, ma'naviyat, go'zallik, ezgulik, madaniyat, mavjudlik, substansiya, obyektivlik, subyektivlik.

Философский анализ духовного бытия человека и категории красоты

Аннотация. В статье анализируются природа, развитие духовного существования человека в обществе, факторы становления. Акцент был сделан на объективные и субъективные эффекты, улучшающие духовное существование человека. Духовность, добро и красота изучались на предмет их специфического воздействия на внешнюю и внутреннюю жизнь человека. В то же время философски освещаются некоторые взгляды на категорию красоты и ее место в духовной жизни человека.

Ключевые слова: бытие, человеческое духовное существо, духовность, красота, добро, культура, существование, сущность, объективность, субъективность.

Philosophical analysis of human spiritual existence and beauty category

Abstract. In this article, nature, the development of human spiritual existence in society, the factors of formation are analyzed. Emphasis was placed on the objective and subjective effects that enhance a person's spiritual existence. Spirituality, goodness and beauty have been studied for their specific effects on the external and internal life of man. At the same time, some views on the category of beauty and its place in human spiritual life are philosophically illuminated.

Keywords: being, human spiritual being, spirituality, beauty, goodness, culture, existence, substance, objectivity, subjectivity.

Har bir odamning ost ongida borliqning haqiqat, ezgulik va go'zallik bilan birligiga azaliy ishonch yashaydi. Bizning borlig'imiz o'z manbasi va inson bo'lishdan iborat bo'lgan asosiy vazifasiga ko'ra uyg'unlik, hayotni quvonch bilan idrok etish, adolatga intiladi. Shu bois borliqni «shakl-shamoyilsiz kosmik muayyanlik» sifatida emas, balki inson ruhida kechadigan alohida psixologik holat nuqtai nazaridan tahlil qilish bugungi muhim muammolardan biridir. Borliq ekzistensial salmoqqa ega bo'lgan alohida kategoriyadir. U mavjudlik va substansiya masalasining umumiylikiga asoslanadi. Bunda, bir tomondan, narsa va hodisalar mavjudligining rang-barang ko'rinishlari, boshqa tomondan - ularning mohiyati, ma'nosi va ahamiyati asosidagi borliqning o'ziga xos xususiyatlarini vujudga keltiradi. Umuman, borliq, substansiya va mavjudlikka asoslanadi. Biroq, afsuski, borliqni anglashda to'liq mushtaraklikka erishish deyarli mumkin emas. Bunda ko'pincha mavjudlik moduslari haqiqiy mohiyatdan ancha uzoqda turadi. Bunda bor narsani borliq deb qabul qilishga to'g'ri keladi, natijada borliq aniq bir narsa sifatini kasb etadi va moddiylik maqomiga ega bo'ladi. Bu mavjud hamma narsa borligini anglatadi, «borliq» tushunchasi esa empirik mavjudlikni qayd etish bilan teng darajaga tushib qoladi.

Ma'naviy borliqni anglash subyektning o'z-o'ziga oqilona munosabati va o'zining betakror qobiliyatini his qilish orqali amalga oshadi. Ma'naviy voqelikni anglash usuli subyektning o'ziga xos qadriyat, ma'naviy hissiyotlarini bilish asosida yuz beradi. Ma'naviy rivojlanish alohida sub'yektning shakllanishi bilan bog'liq va shuning uchun ham u tomonidan ma'naviy tajriba jarayonida qo'llanilishi, uning o'ziga xos atributiv xususiyatini aks ettirishi mumkin. Shuningdek, rivojlanish jarayonida ma'naviyat odamlar tafakkurining tizimli o'zgarishlariga olib keladi, ushbu hodisa orqali esa dunyoning tizimli bog'lanishlari ham amalga oshiriladi. Bunda ma'naviy borliq o'zini hayotda tasdiqlash mexanizmi, inson borlig'ining ontologik haqiqatining universal mezoni, dunyo va madaniyatning antropologik o'lchami sifatida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat va ma'naviy borliq boshqa, jismoniy va ijtimoiy tizimlardan

tamoman farq qiluvchi koordinatlar tizimini yuzaga keltiradi, va aynan shunda ma'naviyat hodisasining qiymati yorqin namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy hayotda ma'naviyat mezoni oliy maqsadga muvofiqlik bilan xarakterlanadi. Ma'naviy borliqni muayyan maqsadlar tizimi sifatida ilmiy anglash uchun metodologiyani o'zgartirish, anglash predmeti haqidagi tasavvurlarni kengaytirishni talab etadi. Ma'naviyat va ma'naviy borliq qisman, manfaatparastlik, makkorona emas, umumiy, global oqillik demakkdir. Xuddi shunday ma'naviyat fenomeni dunyo va madaniyatning, unga tegishli bo'lgan manaviy rivojlanish yo'nalishlari sifatidagi ontologik o'lchamga ham ega.

Ma'naviyat – bu hayotning oliy maqsadga muvofiqligini amalga oshirishga yo'naltirilgan tafakkurdir. Shuning uchun ham faylasuf olim Ibrohim Karimov "...o'sib kelayotgan yosh avlod o'zi yashashi lozim bo'lgan jamiyat qonun-qoidalari, odob-axloq normalari doirasida yashash ko'nikmalarini hosil etish uchun astoydil kurash jarayonidagina u komillik martabasiga erishishi mumkin"[1, C.162-163]. deb yozadi. Bu jarayondagi o'zaro tushunish insonning bu hayotdagi muayyan maqsad va vazifani ishlab chiquvchi, tartiblashtirilgan dunyoqarashni yaratish qobiliyatidan kelib chiqadi. O'z navbatida bu insonning ideallarga o'tish yo'li bilan odatiy insoniy imkoniyatlar chegarasidan chiqqan holda doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirib borishga undaydi.

Ma'naviyat insonda ham, jamiyatda ham ma'naviy tajriba orqali takomillashtirilib boriladi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, ma'naviyatning mavjudligi va uni egallashni yaratuvchanlikka – ma'naviy borliqning yangi shakllarini yuzaga kelishiga imkon beradi. Ma'naviy borliqning o'sish jarayoni umumiy obyektiv qonuniyatlarga ega: rivojlanishga intilish, hayotdan ma'no izlash, qadriyatga oid tasavvurlarni ishlab chiqish va o'zlashtirish, ma'naviy borliq shakllarini tizimlashtirish va shakllantirish, ularni tanlab olish va boshqalar shular jumlasidandir. Shu ma'noda, ma'naviyat ko'p vazifalarni qamrab oladi. U falsafiy-dunyoqarashga oid, madaniyat yaratuvchi, integrativ, bilishga oid, kreativ, aksiologik, boshqaruvchi vazifalarga ega.

Ma'naviyat insonni shakllantirish usuli hamdir. Chunki aynan "Inson aynan ijtimoiy muhitda o'z ehtiyojlarini qondirish va o'z imkoniyatlaridan foydalanish yo'lini topadi. U aynan shu yerda o'z his-tuyg'ularini, tabiat ato qilgan samimiylik, do'stlik mehribonlik, bag'rikenglik va iztirob chekish fazilatlarini ko'rsatadi"[2, C.63]. Hozirgi davrda inson ma'naviy borlig'ini ilmiy va falsafiy jihatdan jiddiy o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qanday xulq-atvor maqsadga muvofiq bo'lishini anglash uchun insoniyat ma'naviyatini rivojlanishining eng muhim darajalarini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Bu kabi imkoniyat – komil insonni voyaga yetkazish bilan xarakterlanadi. Uni tarbiyalash insoniyatning va har bir individning jismoniy, texnik va manaviy jihatlarining to'liq paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Hozirgi davrda ma'naviy borliq subyektiv voqelik sifatida inson mohiyati sifatini tadqiq qilishda muhim metodologik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, ma'naviy borliq subyektiv voqelik sifatida uchta ontologik darajaga ega – kechinmalar darajasi, anglash darajasi va o'zaro munosabat darajasi (ya'ni, hissiylik, intellekt, iroda). O'zaro munosabat darajasidagi ma'naviy borliq subyektning tafakkuri va irodasi bilan, uning doimiy refleksiya va shaxsiy Menining konstruktleri va maqsadli konsepsiyalarini shakllantirish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Ushbu jarayonning asosi – bu subyekt kechinmalarini uning o'ziga ma'lum bo'lgan ma'naviy dasturlarini ang'ay olishi bilan belgilanadi. Ayni shu ma'noda, "... har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi"[3, C.342].

Ma'naviy borliq subyektiv voqelik sifatida makro va mikrokosmlarni subyekt orqali, har bir fenomenning o'ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda namoyon bo'ladigan betakror hodisalar tizimidir. Shuningdek, subyekt tomonidan ma'naviy qadriyatlarga munosabatining bipolarligini (ikki qutbliligini) anglanishi va ushbu mezonni kundalik hayotga tadbiq qilinishi dunyo manzarasini shaxsning ma'naviy qonunlari bilan bog'lash usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda inson va jamiyatning kelgusidagi rivojlanishi uchun ma'naviyat muammosini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu masalaning naqadar dolzarbligini Birinchi Prezident I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida har tomonlama asoslab, "...hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rsa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishni, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlash va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur"[4, C.125-126], deb yozadi. Insonning noyobligi aynan ma'naviyatda yorqin namoyon bo'ladi. Biroq bunga qaramasdan ko'plarga ma'naviyat insonni ziynatlovchi bezak, ayrim hollarda esa uningsiz ham yashash mumkin bo'lgan o'ylab topilgan narsa bo'lib tuyuladi. Ma'naviyat hodisasini o'rganish bizni har bir

kishida ma'naviyat muammosini yuzaga keltiruvchi ekzistensial talablar va obyektiv omillarni tushunishga olib keladi. Ertami kechmi biz ma'naviyat haqida o'ylab qolamiz, va u biz uchun ifodalanishning u yoki bu shakliga ega bo'ladi. Ma'naviyatdan tashqarida inson oddiy obyektga, narsaga, qo'polroq qilib aytganda hayvonga o'xshab qoladi.

Falsafada inson ma'naviy borlig'i va go'zalligi muammosi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, go'zallik inson ma'naviy borlig'ining oliy maqsadga muvofiqlikka intilishini anglatadi. Haqiqatan ham go'zallik vositasida "oliy maqsadlar"ga intilish jamiyatning sog'lomligi ko'rsatkichidir. Aks holda inson o'zining ijtimoiylik maqomidan mosuvo bo'lardi. Shu sababli jamiyatning rivojlanishi va shaxsning har tomonlama shakllanishi go'zallikning asosiy vazifasi bo'lib qolishi lozim.

Go'zallik kategoriyasi estetika ilmi tarixida markaziy tushuncha sifatida turli rakurslarda o'rganilib kelindi. Xususan, inson go'zalligi yoki nima go'zal degan savolni o'rta qo'yilishi, insonning ob'yekt va sub'yekt munosabatini shakllanishiga olib kelgan. Insonning tabiiylikka intilishi, olam haqidagi falsafiy qarashlari, uning sun'iy ong, muhitni yaratishi bu tushunchaga nisbatan fikrlarni rang-barangligini rivojlantirgan.

Insonlarning borliqqa nisbatan estetik munosabatlari nihoyatda murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Kishilarning ijtimoiy hayotida sodir bo'ladigan estetik hissiyotlar, kechinmalar faqat sezgilarimiz, ongimizga bog'liq bo'lmay, balki obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar bilan bevosita bog'liq. Inson sezgilari, hissiyoyotlari uning ruhiyatiga ta'sir etib, borliqdagi bir-biridan go'zal manzaralarini his qilishda katta ahamiyatga ega.

Inson o'zining estetik idrokidagi go'zallik kategoriyasiga eng yaqin bo'lgan chiroylilik tushunchasi yaqinroq bo'lib, bularning farqi go'zallikning eng yuqori (mutlaq) darajasidir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda go'zallik tashqi va ichki go'zallikka bo'lingani, insonning ma'naviy borlig'ini tashkil etgan hissiyot, idrok, lazzatlanish, qoniqish singari aprior tushunchalar bilan bog'langanligi, shunday ekzistensial bo'shliqqa olib keladi. Shu bilan birga, go'zallik ko'proq umumiy va ko'p qirrali tushuncha sifatida chiroylilikdan farq qiladi. Inson ma'naviy olamida juft tushunchalar sabab mezon, chegara paydo bo'lgan va uning teskarisi, antonimi tushunchani o'zligini bildiradi. Go'zallik kategoriyasi ham xuddi shunday. Uning antonimi xunuklik, beo'xshovlilikdir.

Falsafa ensiklopedik lug'atida "Go'zallik tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg'ulari hosil qilishga qodir bo'lgan xususiyatlarini ifodalaydi"[5, C.86]", deb ta'rif berilgan. Yana bir manbada "go'zallik – bu markaziy mezoni tushuncha (*kategoriya*) bo'lib, unda borliqdagi narsa hodisalarning shakl va mazmun uyg'unligi, mukammalligi va insonning ularga bo'lgan ma'naviy-ruhiy lazzatlanishi bilan shartlangan munosabati ifodalanadi"[6, C.38], deyilgan. Inson ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqeya-hodisalarni go'zal jihatlarini mehr-muhabbat, zavq-shavq, erkinlik tuyg'ulari bilan his etadi. Inson olamda yuz berayotgan jarayonlarni o'zining his-tuyg'ulari, kechinmalari orqali bilib olishga intiladi. Ana shu intilishlarda kishining avvalo, go'zallikni his etishga bo'lgan qiziqishlari sodir bo'lib, nima go'zalu, nima xunukligini bilish jarayoni voqelikni idrok etishda yuz beradi. "Go'zallik – bu tabiat va jamiyatdagi estetik ong va faoliyat asosida vujudga keladigan subyektning voqelikni idrok etish qobiliyatidir"[7, C.57].

Obyektning xususiyati, jihatlarini kishi tomonidan estetik subyekt sifatida qayd etilgan birliklar o'lchovida idrok etilgan paytda unda ma'naviy lazzatlanish his-tuyg'ularini (*ruhiy forig'lanish-poklanish, zavqlanish, shodlik*) uyg'otadi. Go'zallikning mohiyati borliqning barcha sohalarida (*tabiat, jamiyat, inson, san'at*) turli shakl, xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Abulfatx Umar Hayyomning «Navro'znoma» asarida go'zallikning ma'naviy-axloqiy ahamiyati haqida bayon etilgan mana bu fikrlar e'tiborga molikdir: «Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi. Dunyoda yaxshi narsalar ko'p, ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuz o'rnini bosa olmaydi, chunki go'zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kelolmaydi. Aytadilarki, go'zal yuz dunyoga saodat sababchisidir. Agar go'zal yuz yana yaxshi xulq bilan uyg'unlashsa, baxt-saodatning eng yuqori darajasi bo'ladi. Agar odam ham tashqi ko'rinishdan, ham tabiati bilan yaxshi bo'lsa, Xudo va odamlar uchun sevimlidir. Go'zal yuz to'rt fazilatga egadir. Ulardan biri shuki, go'zal yuz uni ko'rgan odamning shu kunini xayrli etadi, ikkinchisi, hayotdan bahramand bo'lish onlarini shirin qiladi, uchinchisi, u odamni ochiq ko'ngilli va olijanob etadi, to'rtinchisi boylikni ko'paytiradi va yuqori mansab ato qiladi»[8, C.54].

Ibn Rushd esa olam go'zalligini "ilohiy go'zallik"ning aksi deb biladiki, bunda Arastu ta'siri yaqqol seziladi. Ibn Rushdga ko'ra, Xudo — mutlaq go'zallik, olam go'zalligining, jami moddiy va ma'naviy go'zallikning ibtidosi, manbaidir. Ibn Rushd olam go'zalligini pokiza qalb bilangina ko'rish, idrok etish mumkin deb biladi. Biroq bu o'rinda hissiy idrok haqida gap borayotgani yo'q. Zero, olam

go'zalligi — tartibotda. Xudo olamdagi jamiki narsalarni miqdori, hajmi, vazniga qarab shunday mutanosib joylashtirganki, mukammal uyg'unlikdagi tartibot vujudga kelgan. Bu darajadagi uyg'un tartibotni faqat oliy ong — Xudogina yarata oladi. Shunday ekan, bu tartibotni ko'ra olish, uning mohiyatiga yaqinlashish uchun donishmandlik talab etiladi. Zero, olamdagi hamma narsaning o'zaro mutanosibliigi, bog'liqligi va shu asosda yuzaga keluvchi butunlikni Xudoning o'zi bergan aql, donishmandlik bilangina idrok etish mumkin. Ibn Rushdga ko'ra, haqiqiy mo'jiza — olam va odamning yaratilishi. Olamda yuz berishi mumkin bo'lgan mo'jizalarning hiech biri olamning yaratilishidek mo'jiza emas, inson yaratishi mumkin bo'lgan mo'jizalarning hiech biri insonning yaratilishidek mo'jiza emas. Bu mo'jizalarning yaratuvchisi ham, qanday yaratilgani ham inson uchun sir, tugal anglash mumkin bo'lmagan jumboq bo'lib qoladi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, islom dini insonni ruhiy, jismoniy poklanish yo'li bilan kamolotga yetaklab Allohga yaqinlashish yo'lida ijtimoiy faollikka, ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. Jism va nafs halol mehnat tufayli poklanadi, degan g'oya bilan insondagi asosiy illatlardan qutulish yo'llari ko'rsatiladi. Negaki dunyodagi eng oliy poklik, eng oliy go'zallik Allohning o'zidir. Inson hamisha ana shu oliy poklik, oliy go'zalikka ma'naviy va amaliy jihatidan intilishi shart. Shu tufayli, Maxdumi A'zam "islom-ma'rifatli kishilargagina o'z sirini ochadi, din va muqaddas kitoblar inson uchun va insonni axloqiy kamolotga yetkazish uchun berilgandir: inson din uchun emas, balki din inson uchun yaratilgandir,"[9, C.5]. - deb tushuntirgan.

Butunlik tushunchasi estetikada muhim o'rin tutadi. Kant fikriga ko'ra, "butunlik — har qanday go'zallikning shakli"dir. Aksariyat faylasuf olimlar olam yaratilishida ko'rilgan mukammal, uyg'un butunlikni o'ziga xos etalon deb biladilar, shuning uchun ham har qanday go'zallik qismlarning o'zaro simmetrik, har jihatdan mutanosib joylashuvi asosida yotadi deb hisoblaydilar. Masalan, Kant butun va qism munosabatiga to'xtalarkan, o'zicha go'zal qism butundan ajratib olinsa go'zalligini yo'qotadi, aksincha, o'z holicha go'zal bo'lmagan narsa go'zal butunlik tarkibiga kirganida go'zallashadi deb biladi. Shu xil qarashdan kelib chiqib, Kant olamni nomukammal deguvchilarni mozaikaga uning bittagina parchasiga qarab baho berayotgan, parchalar hosil qilayotgan butunlikni ko'rishga noqobil kishilarga o'xshatadi.

Kant go'zallikni qabul qila olish uchun qalb bilan go'zal predmet orasida monandlik bo'lishi, ya'ni qalbnig go'zal bo'lishi zarur, inson qalbida go'zallikka nisbatan beg'araz muhabbatning bo'lishi go'zallikni qabul qila olishning muhim shartidir deb biladi. Shuningdek, u go'zallikni qabul qilishda ongning ahamiyatini yuqori qo'yadi. Unga ko'ra, go'zallikning asosi bo'lmish mutanosiblik sezgilar bilan emas, ong bilan idrok etiladi. Shunday ekan, sezgilar go'zallik masalasida oliy hakamlikka da'vo qilolmaydi. Zero, sezgilar ongga berayotgan ma'lumotlardan estetik butunlik hosil bo'lmaydi. Aksincha, butunlik tushunchasi estetik baho berishga kirishayotgan inson ongida avvaldan mavjud, shu tufayli ham u o'zi kuzatayotgan narsadan shunga (ya'ni, tasavvuridagi butunlik tushunchasiga) mos butunlikni qidiradi.

Xulosa qilib aytganda, go'zallik haqidagi paydo bo'lgan g'oyalarning inson ma'naviy hayotidagi darajasi, go'zal narsalar tushunchasi va go'zallik kategoriyasi o'rtasidagi farqni anglashga imkoniyatini beradi. Mumtoz paradigmaga asoslangan qarashlarda go'zallik odatda transsendental tamoyillarga tegishli bo'lib, narsa o'zida (*apriori*) g'oyasidan kelib chiqqan bo'lib, go'zallik muayyan narsalar va hodisalarda go'zallikning timsoli va namoyon bo'lishi sifatida talqin qilingan. shunday qilib, go'zallik - bu insonning estetik ob'yektga bo'lgan munosabati natijasidir. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biron bir utilitar maqsad va foyda yo'qligidir. Go'zallikning konstruktiv ahamiyati shundaki, go'zallik inson ma'naviy-ruhiy dunyosini ma'lum bir semantik yaxlitlikda taqdim etish imkoniyatini beradi, shaxsning go'zalikka bo'lgan ontologik qarashlarini bir tizimga solishga ko'maklashadi, real dunyodagi narsa-hodisalar, tabiiylikni ma'lum idealga to'liq moslashga katta hissa qo'shadi. Inson sof estetiklik borasida chetga chiqmaslik, gedonistik, sof utilitaristik kayfiyatini go'zallik ma'nosiga chuqur singib ketmasligi uchun ideal modeli yaratiladi.

Manaviy borliq va go'zallik masalalari bugungi kunda bevosita ontologiya muammolari bilan bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Ya'ni inson ma'naviyatining ontologik tabiati, uning makon va zamon bilan bog'liq mezonlari, milliy va umuminsoniy, shaxsiy va jamoaviy qadriyatlarining o'zaro nisbati masalalari bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Manaviy borliq va go'zallik muammosini o'rganish amaliy idrokni yuqori darajada ishga solishni, aniq maqsadli va ularga mos usullar iyerarxiyasini qurishni talab etadi.

Ma'naviy borliq va go'zallik fenomeni madaniyat yutuqlarini o'stirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq voqeliklardir.

Adabiyotlar

1. Karimov I.Noosfera: geosiyosat va mafkura. –T. Fan, 2007.- B.162-163.
2. Istoriya v ensiklopedii Didro i D.Alamperi.-M.: Nauka, 1978.- B.63.

3. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000. -B.342.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.- B.125-126.
5. Falsafa ensiklopedik lug'at. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – B.86.
6. Olloyorov M. Estetikaning asosiy kategoriyalari. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – B.37-38.
7. G'aybullayev O. Estetika. AL va KHK uchun uslubiy qo'llanma.– Samarqand: SamDU nashri, 2004. – B.57.
8. Hayyom Umar. Navro'znoma. -T.: Mehnat, 1990. –B. 54.
9. Xojagiy Ahmad Kosoniy. Risola - ye boburiya // Tarj. B.To'rayev, F. Muxammadjonova. Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagi Kosoniy Maxdumi A'zam. -T.: Navro'z, 1995. – B.5.

UDK: (32.01.303.)

YOSHLARDA MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA AXLOQIY-ESTETIK TAFAKKUR TRANSFORMASIYASI

D. I. Xudayqulov

*Samarqand davlat universiteti
dilyorxudayqulov@email.ru*

Annotatsiya. Ma'naviy sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishda mutolaa muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada yoshlarning mutolaa madaniyatini shakllantirishning axloqiy-estetik jihatlari tadqiq etilgan. Unda jamiyatda mutolaa madaniyati transformatsiyasining falsafiy yo'nalishlari ilmiy va estetik nuqtai nazardan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Mutolaa madaniyati, estetik ong, kitob, o'qish, tushunish, yoshlar, matn, savodxonlik, jamiyat, tizimlashtirish, transformatsiya.

Трансформация нравственно-эстетического мышления в развитии культуры чтения молодежи

Аннотация. Чтение играет важную роль в научных исследованиях в духовной сфере. В статье рассматриваются этические и эстетические аспекты формирования культуры чтения молодежи. Исследуются философские направления трансформации культуры чтения в обществе с научной и эстетической точек зрения.

Ключевые слова: культура чтения, эстетическое сознание, книга, чтение, понимание, молодежь, текст, грамотность, общество, систематизация, трансформация.

The transformation of moral and aesthetic thinking in the development of a reading culture of youth

Abstract. Reading plays an important role in scientific research in the spiritual field. The article explores the ethical and aesthetic aspects of shaping the reading culture of young people. It studies the philosophical directions of the transformation of the culture of reading in society from a scientific and aesthetic point of view.

Keywords: reading culture, aesthetic consciousness, book, reading, comprehension, youth, text, literacy, society, systematization, transformation.

Hozirgi davrda mutolaa madaniyati kitobga qiziqishni shakllantirish, kishilarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, oshufta qilish, ko'p kitob o'qigan yoshlarni rag'batlantirish ishlari olib borilmoqda. Yoshlarni kitob mutollasiga qaytarish yoki qiziqtirish murakkab jarayondir. Kitobxon yoshlarni shakllantirish maqsadida oddiy mutolaa qilish ham maxsus bilimlarga tayanishi, shuningdek, axborot-resurs manbalaridan foydalana olish qobiliyati mavjud bo'lishi, foydalanishda yo'riqnomalar shakllantirilgan bo'lishi kerak. Madaniyatning turi bo'lgan mutolaa madaniyati yoshlarga o'tmish va kelajakning bir butunligini, millat ma'naviy merosiga egalik hissini, tarixiy manbalarni qadriyatli tomonlarini, eng avvalo kitobga mehr-muhabbatni shakllantirib, so'z boyligini orttiradi.

Yoshlarning axloqiy va estetik ongida konstruktiv ahamiyat kasb etgan "mutolaa madaniyati har bir tarixiy madaniy muhit, etnohududiy o'ziga xosliklar ta'sirida tarkib topuvchi hodisa sifatida yuzaga chiqib" [1. 2] avlodlararo ma'naviy-axloqiy tajribalarni transformatsiyasiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Darhaqiqat, "mutolaa" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, diqqat bilan o'qish, o'qib tushunib olish [2. 655], degan ma'noni anglatib, oddiy kitob o'qish tushunchasidan keskin farq qiladi. Mutolaa – bu jamiyatning ilk

savodxonlik davridan so'ng paydo bo'lgan madaniy jarayoni bo'lib, unda kishilar olamni manba orqali, ilmiy bilish metodlari orqali angladilar, kitob mahsulotlarini ishlab chiqarish kengayishi jamiyat uchun ijtimoiy guruhlar, institutlar shakllanishiga olib keldi. Taniqli sosiologik olim A.Umarov ta'kidlaganidek, "... mutolaa ko'nikmasi ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar asosida yuzaga keladi" [3. 33]. Mutolaa insonning savodlilik darajasini oshishiga, ishining sifatini ortishiga, an'anaviy tafakkurdan kerativ tafakkurga o'tishda ko'prik vositasi rolini o'tab kelmoqda.

Yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirishda, ularni yuksak ma'naviyatli, vatanpavar, jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har tomonlama rivojlanmagan shaxs qilib tarbiyalashda kitobni o'rni beqiyosdir. Kitob va uni mutolaasi har qanday davrda ham yoshlarning aqliy-naqliy bilimni rivojlantiruvchi va ularda axloqiy-estetik immunitetini shakllantiruvchi muhim vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. Abu Ahmad ibn Muhammadning "Jovidoni xirad" asarida ta'kidlanganidek, "Ey, aziz, kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdoshyo'qdir. Kitob fasohat, balog'at va latofatda tengi yo'q, munofiqlardan xoli hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor-u, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarda yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan kishiga malolli ketmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi va yuragini siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilmaydi. U barcha yerda barcha bilan oshno, dardli kishilar diliga davodir" [4. 60]. Kitob mutolaasi to'g'risida o'tmish allomalarimizning juda zalvorli fikrlari, teran aytilgan ilmiy qarashlari ham mavjud.

Shunday qilib, mutolaa yoshlarda kitob bilan ishlash uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar tizimi sifatida o'qish madaniyati, olam haqidagi g'oyalarni asta-sekin rivojlantiradi va ularda quyidagi sifatlarini tarkib toptiradi: 1) nima o'qish, qanday o'qish va kitobni tanlab olish qobiliyati; 2) kitob nashr qilish narxi, nashriyotlar haqida ma'lumot manbalarini qidirish; 3) o'qish, o'qish, tushunish, idrok qilish, analiz-sintez qilish qobiliyatini o'sishi; 4) badiiy matndan real hayotiy tahlil qilishga o'tish va tanqidiy o'qish qobiliyatini shakllanishi; 5) o'qish jarayonini tashkil qilish qobiliyati (*eslatma yozish, tezislar, ko'chirmalar tayyorlash, daftar hoshiyasiga bitiklar yozish va hk*); 6) muomala va gigiyenik madaniyatni o'zlashtirish, hayotiy bilimlarini uqish; 7) matnni o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish, so'z boyligi ortishi va nutqni ravonlashishi, mantiqiy erudisiya qobiliyatini o'sishini shakllantiradi. Mutolaa kitobni va matnlarni o'qish, tushunish va tushuntirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladigan insoniyatning madaniyatidir.

Mutolaani kitob o'qish, tinglash, kitobxona qiroati, kitobxonlik madaniyati sifatida olib borilgan tadqiqotlar shaxsga yo'nalitirilgan, faoliyatli antropologik, falsafiy, pedagogik, sotsiologik yo'nalishlarda bo'lib, ularni predmet va obyektiga, o'rganadigan muammosiga nisbatan tizimlashtirish mutolaani tadqiq etilishi mumkin bo'lgan jabxalarni keltirib chiqaradi. Ya'ni mutolaa pedagogikasi (*o'smir, o'quvchi, yoshlar ta'lim tizimida og'zaki va yozma matnni o'qish, nutq boyishi, kompetensiya, erudisiya, oilaviy, sinf va sinfdan tashqari mutolaa*), mutolaa sosiologiyasi (*mutolaa jamiyatni institusional, funksional shakllanishiga, qatlam, guruhlar, respondentlarga ta'sirini o'rganuvchi so'rovnomalalar*), mutolaa madaniyati (*mutolaa kishining o'zlashtirgan madaniyatini turi, axloqiy va estetik immunitetini shakllantiruvchi, idrok etuvchilik xususiyati, bahoviy, tanqidiy tafakkurni shakllantiradi*), mutolaa – savodxonlik belgisi (*yozuv, belgi, nutq va savodxonlikning evolyutsiyasi, qog'ozli matndan virtual-sensorli matngacha jarayonni o'z ichiga oladi*), mutolaa – kutubxonachilik faoliyati (*kitob, nashriyot, kitob savdosi, kitobxonlik faoliyatida kitobxonani tizimli tashkil qilish*) va h.k. Inson ilk savodxonik davridan to hozirgacha o'zlashtirgan va shu orqali ehtiyojlarni qondirib kelayotgan, yaratuvchilik faoliyatini bir ko'rinish bo'lgan kitob mutolaasi jamiyatning institusional o'zgarishlari tufayli insonning ichik va tashqi olamini boytishiga qarab o'z vazifalarini ham o'zgartirmoqda. Bu o'zgarishlar mutolaani ta'riflarida ham aks etib, har bir soha tadqiqotchisi o'z qarashlarini bayon etib kelgan.

Kitob o'qishni konstruktiv jihatlarini o'zi ichiga olgan mutolaa tushunchasiga bir qator nominal va real ta'riflar berilgan. Shaxs mutolaasining sosiologik tadqiqotini olib borgan A.Umarovning fikricha, "Mutolaa – bu faoliyatning bilish, o'rganish, ilm olish hodisasidir. Buning zamirida faollik, maqsad sari yunaltirilgan, o'qish va ijtimoiy subyektning turlichiyojlariga qarab matndagi ma'lumotni egallashi yotadi" [5. 88]. Mutolaa kim tomonidan olib borishidan qat'iy nazar faoliyat turiga kiradi. Lekin bu faoliyat boshqalaridan faqrli ravishda o'quvchini dunyoqarashini boytishi, hayotni ma'nosi va yashashdan maqsadlarini anglashi, olamni go'zallik orqali qabul qilishi va umuman aytganda o'quvchining (*yoshi va jinsidan qat'iy nazar*) ideali shakllanish jarayonlarini qamarab oladi. Shulardan xulosa qilgan holda mutolaaga quyidagi ta'rifni berish o'rinli deb bilamiz. *Mutolaa – o'quvchi shaxsining savodxonligini rivojlantiruvchi, ichki axloqiy-estetik immanent va tashqi kreativlik sifatlarini shakllantiruvchi, hayotiy maqsad, motivlarni aniqlovchi jarayon bo'lib, matndagi bilim, axborotni o'quvchi ongiga transformasiyalovchi madaniyat turidir.* Umumlashtirib aytganda, mutolaa – bu inson bilan kitob

o'rtasidagi muloqotning bir turi bo'lib, muomala jarayonida insondan tirishqoqlikni, aql va qalbni birlashtirishni, diqqatni jamlashni talab qiladigan muloqot turidir. Mutolaa jarayonida har qanday aqliy-intellektual va vaqt sarf-xarajatlari olingan taassurotlar va ortirilgan bilim bilan boyib boradi.

Har bir davrda mutolaani inson hayoidagi o'rni, uning mexanizmlari va usullari aniq tasavvurlar shakllantirilgan. Asosiysi yoshlar va umuman o'quvchi auditoriyasini o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga xosdir. Har qanday savodli kishi uchun bu kitob o'qish, mutolaa deganda ko'p qirrali, ijodiy jarayon sifatida doimiy hayotini asosiy qismini tashkil qiladi. Sotsiolog olim S.N.Plotnikov mutolaa qiladigan odam (Homo legens)ning intellektual rivojlanishidagi asosiy farqlarni alohida ajratib ko'rsatgan. Bu farqlar odamlarni faol mutolaada namoyon bo'ladi:

- 1) hayotiy muammolar toifalarga ajratish, fikr yuritish, hodisalarni to'liq anglash va ziddiyatli munosabatlarni aniqlash; vaziyatga adekvat baho berish va tezda to'g'ri yechimni topish;
- 2) katta hajmdagi xotiraga va faol ijodiy tasavvurga ega bo'lish;
- 3) nutq ravonligiga erishi: yanada ifodali o'qish, fikrda qat'iylik va so'z boyligida yuksak;
- 4) faktlarni aniqroq shakllantirish va erkinroq yozish;
- 5) yoqimli chiqishlar qilish, mutoqotda erkinlik, yoqimli tassurot uyg'otish;
- 6) mustaqillik va ichki erkinlikka, tanqidiy, fikr va xatti-harakatlarga nisbatan ko'proq ehtiyojga ega bo'lish [6. 272].

Mutolaa qilish insonning madaniy taraqqiyotida muhim vositani o'tab, sivilizatsiyaning har qanday bosqichida bu orqali bilim, axborot, boshqaruv vositasi sifatida foydalanib kelindi. Madaniyat nazariyasi nuqtai-nazaridan qaraganda mutolaa insonning madaniy-antropologik jihatdan o'zgartirib yuborgan kashfiyot sifatida baholanadi. Xo'sh, mutolaa madaniyati qanday tavsiflanadi, uni qanday ta'riflari mavjud. Tadqiqotchi A.Umarov ilmiy adabiyotlarda mutolaa madaniyatigaberilgan ta'riflarni mazmuni, umumiy mohiyatiga ko'ra tasniflab to'qqiz turini [1.2] ko'rsatgan. Mutolaa madaniyati kishilik jamiyatining tadrijiy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan insoniyat kashfiyoti bo'lib, kishilar ehtiyojlariga mos mahsulotlar, tovarlar, munosabatlar, axborotlarni oshib borishi bilan takomillashib borgan. Axborotlashgan jamiyatda insoniyat ongi, xotirasining ikkilamchi vositasi yaratilishi, mutolaa madaniyatining ko'lamini o'zgartirib yubordi.

Tadqiqotimiz predmetiga ko'ra mutolaa madaniyatini avlodlararo axloqiy-estetik tafakkuridagi transformatsion jihatlarining falsafiy tahlil qilishni maqsad qilib olganmiz. Shuning uchun yoshlar axloqiy-estetik immunitetini shakllantirishda mutolaa madaniyatini o'rni va rolini falafiy antropologik, pedagogik, psixologik tadqiqotlardan farqli ravishda, mutolaa madaniyatini yoshlar axloqiy va estetik madaniyati sifatida, ma'naviy-mafkuraviy ahamiyati sifatida olib borishimiz kerak. Lekin yuqorida aytilgan tadqiqot sohalarining ma'lum bir yutuqlarini tizimlashtirishimiz kerak. Chunki, insonning faoliyati va ijodkorligi ta'lim-tarbiya sohasidagi paradigma, tamoyillar, nazariyalar bilan belgilanar ekan, tadqiqotlarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- mutolaa madaniyatini shaxsning ma'naviy o'sishiga qaratilgan faoliyatli yondashuv sifatida tahlil qiluvchilar (V.A. Borodin, A.V. Bruilinskiy, S.A. Trubnikov, A.Umarov, A.Abdulazizov va boshqalar);
- mutolaa madaniyatining kitobxonlik va kutubxona faoliyati asosida tizimlashtirish asosida o'rganuvchilar (V.Yu. Kramarenko, V.S. Kreidenko, N.V. Ogursova, Zbarovskaya N. V. Yu.M. Tugov va boshqalar);
- mutolaa madaniyatining shaxs tafakkur jarayonlari, savodxonligi va axborot faoliyati bilan o'zaro bog'liqligi nazariyasi asosida o'rganuvchilar (A.A. Bratko, A.I. Kochergin, I.S. Ladenko, M.Yu. Gudova va boshqalar);
- mutolaa madaniyatini ta'limni optimallashtirish va faollashtirish nazariyalari asosida o'rganuvchilar (S.G. Versxlovskiy, Ye.D. Jabko, N.F. Nevolin, M. Tokatlyan, A.V. Tugarov va boshqalar).

Ushbu tadqiqotlarni tanlagan yo'nalishi, predmetiga qarab tizimlashtirishda mutolaa madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarning qariyb hammasida "kitob-kitobxon-kutubxona" tizimida fikr yuritilgan. Mutolaa madaniyatining eksvertiv, tashkiliy qismi tahlil etilib, idrok qiluvchi (subyekt)ning obyekt o'rtasidagi munosabatiga asoslangan.

Keng ma'noda mutolaa madaniyati kitob bilan ishlashda bir qator masalalarni qamrab oladi. Birinchidan, o'qish uchun zarur bo'lgan juda ko'p nashrlarni tanlash, tanlash imkoniyatidir. Buning uchun bibliografiya asoslarini bilishni, adabiyotlar indeksleri bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishni, kutubxonalarda sistemali ishlashni va fayl resurslarini navigasiya qilishni, o'z shaxsiy kutubxonaga ega bo'lishini talab qiladi.

Tor ma'noda mutolaa madaniyati – matn bilan tanishish, matnning o'qishning maqsadi va usullarini bilish, izohlardan foydalanish, muallifning matnini to'ldiruvchi va aniqlashtiradigan kirish so'zlari, so'zboshilar, uni yaxshi tushunishga yordam beradi. Mutolaa madaniyati kitob mazmunini chuqur anglash, undagi barcha qimmatli narsalarni arxeolog kabi qazib olish va ma'naviy o'zlashtirish, kitobning ilmiy metodi va o'ziga xos

mos yozuvlar apparatlaridan foydalanish, yozuvlarni olib borish, o'rganilgan asarlarning rejalari va xulosalarini tuzish qobiliyatidir.

Kitobni yaratilishi, kitobga mos badiiy, ilmiy tafakkur rivojlanishi yosh avlodni keksa avlod yaratgan og'zaki va yozma ijodidan bahramand bo'lishga imkoniyat yaratdi. Kitobxonlik madaniyatini taraqqiy etishi o'z navbatida ijtimoiy-siyosiy, diniy-axloqiy munosabatlarni tartibga solishda kitobga bo'lgan ehtiyojni shakllantirdi va ilmiy tafakkurga asoslanishiga olib keldi. Demak, kitob – kiobxonlik – kitobga ehtiyoj – mutolaa madaniyati tizimi shakllandi. O'z davrida I.Kant yaratilgan barcha kitoblarni to'rt guruhga ajratgan: 1) bilimimizga bilim qo'shib, yanada boyitadigan kitoblar; 2) axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalaydigan, yaxshilanishga hissa qo'shadiganlar kitoblar; 3) til, nutq va uslubni yaxshilashga hissa qo'shadigan kitoblar; 4) turli tomosha, o'yin-kulgiga bag'ishlangan kitoblar.

Shunday qilib, har bir tarixiy davr o'qish va yozishga bo'lgan munosabatni shakllantirdi. Ijtimoiy munosabatlar o'zgarib borib, dunyoviy va diniy ishlar ilmiy tushunchalar asosida taraqqiy etib, kitobga, yozma, bosma nashrga ehtiyojni oshirib borgan. Hozirgi paytda ma'naviy-qadriyatli mo'ljal, yo'nalishlari o'zgartirmoqda, yangi falsafiy yo'nalishlar shakllanmoqda. Lekin insonni rivojlanishi uchun kitobga bo'lgan ehtiyoj, mutolaa madaniyati, kitob orqali tarbiyasi o'zgaraydi.

Ayrim tadqiqotlarda shaxs mutolaa madaniyati algaritmik ketma-ketlik sifatida bog'langan uch qism yoki fazalardan iborat: oldkommunikativ (*tanlash, saralash sohasi*), kommunikativ (*idrok qilish doirasi*) va postkommunikativ (*baholash sohasi*) [7. 28]. Bu yerda mutolaa madaniyati bir-biri bilan bog'liq tanlov madaniyati, estetik idrok etish madaniyati va axloqiy baholash madaniyatini qamrab oladi. Mualliflar estetik idrok mutolaa madaniyatida uch guruh bilan tavsiflanishini e'tirof etib, estetik idrokning yaxlitligi, moslashuvchanligi, bosma mahsulotning obyektiv xususiyatlariga mosligi, matnni tushunish va umumlashtirishga bo'lib chiqishadi. Demak, badiiy matnni estetik idrok etishda mutolaa jarayoni uch xilda jarayon kechadi. Birinchisida o'qilayotgan matnni tushunmaslik; ikkinchisida o'qib tushunish yoki uqish; uchinchisida nafaqat o'qib tushunish, balki, matnda hatto yozilmagan, chuqur ishoralarni ham anglab yetish, kognitiv tafakkurni shakllantirishdir.

Umuman olganda, yoshlarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishda transformasiya jarayonlari kitobga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishi, badiiy-ilmiy tafakkur rivojiga xizmat qilishi tabiiydir. Shunday ekan, jamiyatda kitob mutolaasi yoshlar axloqiy-estetik tafakkurining boyib borishiga, zamonaviy bilimlar rivojiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Умаров А. Мутулаа маданияти: китоб инсон учунми ёки инсон китоб учун? // Хаёт ва конун газетаси, 2004-№ 6. 2-бет.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2015, 655-бет.
3. Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутулаанинг роли. Соц.фан.док...диссертация автореферати. – Т.: 2005.33-бет.
4. Odobnoma. – Т.: O'zbekiston, 2015. 60-бет.
5. Умаров А. Мутулаа маданияти: шахс, жамият тараққиёти. -Т.: Фан, 2004. 88-бет.
6. Плотников С. Н. Читательская культура в России // HomoLegens. Памяти Сергея Николаевича Плотникова (1929–1995 г.). М.: Дом интеллектуальной книги, 1999. - С. 272.
7. Шулер И. В. Развитие читательской культуры личности в условиях современной информационной среды (на материале обучения в вузе): дисс.канд. пед. наук. Тюмень, 2011. 1ф56 с; Трубников С.А. Культура чтения как критерий общей типологии читателей // Советское библиотековедение. 1980. № 1. – С. 28.

UDK: 1(575.1): 61

O'ZBEKISTONNING MILLIY YUKSALISHIDA TIBBIYOT XODIMLARINING KASB AXLOQINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY QONUN-QOIDALARINING FALSAFIY TAHLILI

M. S. Yusupov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizning milliy tiklanishdan -milliy yuksalishga o'tish davrida tibbiyot xodimlari kasb axloqini shakllantirish va rivojlantirish zarurligi bayon etilib, bunda axloq, kasb axloqi, xususan, tibbiyot xodimlarining kasb axloqi tushunchalariga falsafiy ta'riflar berilgan. Shuningdek, maqolada jamiyatning tibbiy hayoti va unda tibbiyot xodimlari kasb axloqining amal qilish va rivojlanish qonuniyatlarining mavjudligi masalasi haqida bahstlab fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: inson salomatligi, tibbiyot, jamiyatning tibbiy hayoti, axloq, kasb axloqi, tibbiyot xodimlarining kasb axloqi, tibbiyot xodimlari kasb axloqini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlari.

Философский анализ основных правил формирования и развития профессиональной этики медицинских работников при национальном подъеме Узбекистана

Аннотация. В настоящей статье излагается необходимость формирования и развития профессиональной этики медицинских работников в период национального возрождения нашей страны, даются философские определения этики, профессиональной этики, в частности профессиональной этики медицинских работников. Также в статье высказаны мысли требующие обсуждения о проблемах существования законов развития медицинской жизни общества и существование профессиональной этики медицинских работников.

Ключевые слова: здоровье человека, медицина, медицинская жизнь общества, этика, профессиональная этика, профессиональная этика медицинских работников, законы формирования и развития профессиональной этики.

Philosophical analysis of the basic rules for forming and developing professional ethics of medical workers at the national rise of Uzbekistan

Abstract. This article outlines the need for the formation and development of professional ethics of medical workers during the national revival of our country, gives philosophical definitions of ethics, professional ethics, in particular professional ethics of medical workers. Also, the article expresses thoughts requiring discussion on the problems of the existence of the laws of development of the medical life of society and the existence of professional ethics of medical workers.

Keywords: human health, medicine, medical life of society, ethics, professional ethics, professional ethics of medical workers, laws of the formation and development of professional ethics

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng mamlakatimiz aholisining salomatligini saqlash sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar esa o'zining insonparvarlikka yo'g'irilgan mohiyati bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonning salomatligi - oliy qadriyat maqomiga ega bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois sog'liqni saqlash sohasiga katta mablag'lar ajratilib, shifoxonalar yangi zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan ta'minlanayotgan bir paytda, bu xayrli ish shifokorlardan ham axloqan pok, o'ta ma'naviyatli bo'lishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar qoidalariga og'ishmay amal qilishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz milliy taraqqiyotining tiklanish bosqichidan yuksalish bosqichiga o'tayotgan hozirgi davrda har bir tibbiyot xodimining axloqiy madaniyatini yangicha mazmun bilan boyitish, uni rivojlantirishning asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizning milliy tiklanishdan - milliy yuksalishga o'tishdek mas'uliyatli davrida tibbiyot xodimlarining kasb axlokini shakllantirish va rivojlantirish masalasining dolzarbligi: birinchidan, mamlakatimizda yashayotgan jami 33,5 mln. aholining salomatligini saqlash; ikkinchidan, yiliga aholi tabiiy ko'payishi sonining 533,4 ming kishiga yoki 1,8 % ga o'sib borayotganligi, bu esa sog'lom inson naslini ko'paytirish zarurligi; uchinchidan, yiliga vafot etayotganlarning 61,2% qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli hayotdan ko'z yumayotganligi; uchinchidan, sog'liqni saqlash tizimida korrupsiya-poraxo'rlikning ildiz otganligi; to'rtinchidan, tibbiyot xodimlarining deontologiya prinsip va normalariga amal qilmasligi; beshinchidan, mamlakat miqyosida tibbiy madaniyat masalasiga bag'ishlangan salmoqli alohida ilmiy-ommabop risola, kitoblarning kamligi, ularning ko'pchilligi biznes qilish uchun chop etilayotganligi; oltinchidan, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning past darajada tashkil etilganligi; yettinchidan, jamoat joylarida (ayniqsa, bozorlarda) aholining oddiy sanitariya-gigiyena qoidalariga muntazam ravishda amal qilavermasligi va shu kabilarni bartaraf etish bilan belgilanadi.

Respublikamizda sog'liqni saqlash sohasidaga muammolar xususida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "...bugun zamon o'zgarmoqda, odamlarning talabi oshib bormoqda. Xalqimizning tibbiy madaniyati yuksalib, eng so'nggi usul va rusumlardagi tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishni istaydi. Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish - taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir... Tizimni mutlaqo o'zgartirish - davr talabi" [1],- degan fikrlarni ilgari surdi. Demak, tizimni o'zgartirish kerak. Buning uchun esa tibbiyot xodimlarining kasb axloqi va estetik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasini to'g'ri yo'lga qo'yish zarurdir. Chunki, axloqiy poklik bo'lmagan joyda jismoniy va ma'naviy majruhlikka keng yo'l ochilib, u "bezgak" dek xuruj qila boshlaydi. Bu esa jamiyatimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan "sog'lom inson kapitali"ni voyaga yetkazishdek ishning ildiziga bolta urib, milliy taraqqiyotimizning yuksalishi yo'lidagi qilayotgan olamshumul ishlarimizga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Kasb axloqi umumiy axloqning ajralmas xususiy mazmunga ega bo'lgan qismi hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek: "Axloq - insoniyat kamolotining sarchashmalaridan biri, har bir odam u orqali o'zining jamiyatdagi o'rnini anglaydi, hayotining mazmunini belgilab oladi. Demak, kasb axloqi - jamiyat tomonidan kabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisosligiga nisbatan amalda tatbiq etuvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb koridagi o'ziga xos ko'rinishidir"[2]. Ushbu mulohaza ta'rifdan kelib chiqqan holda tibbiyot xodimlarining kasb axloqiy tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Tibbiyot xodimlarining kasb axloqi - bu dini, tili, irqi, millatidan qat'iy nazar har bir odamning chalinishi mumkin bo'lgan har xil yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish, bemorlarni davolash, ularga tibbiy yordam ko'rsatish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini joriy etish borasida jamiyat tomonidan o'rnatilgan umuminsoniy axloq qonunlari, prinsiplaridan kelib chiqqan holda moddiy va ma'naviy qadriyatlar normalariga mos ravishda, qo'yilgan rasmiy maxsus talablar asosida qilinadigan muomala, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakatlar sodir etish odoblari tizimidir.

Tibbiyot xodimlarining kasb axloqi o'ziga xos qonun-qoidalar asosida shakllanib va rivojlanib boradi. Tibbiyot xodimlari kasb axloqining asosiy qonun-qoidalari deb jamiyatning ma'naviy ongida ishlab chiqilgan, insonning sihat-salamatligini saqlash, xasta vujudiga shifo topish maqsadida, ular bilan muloqotga kirishayotgan shifokorlar faoliyatining umumiy yo'nalishini ko'rsatib beradigan va muayyan xulq-atvor normalariga asos bo'lib xizmat qiladigan bosh g'oyalar tizimiga aytiladi. Bunday qonun-qoidalar tizimiga quyidagilar kiradi: Birinchi qonun-qoida – bu odamning jismoniy va ma'naviy vujudiga ziyon-zarar yetkazmaslik bo'lib, buning ma'nosi agar davolash qo'lingdan kelmasa, kasalni o'z xohishiga qo'yib ber, bilar-bilmas harakat qilib, uning tanasiga zarar, ma'naviy vujudiga ziyon yetkazmaslik demakdir. Demak, bemorni davolash har qanday shifokordan bilim va tajribali bo'lishni talab qiladi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy tabiblar to'g'risida, bilimli va tajribali tabib Iso payg'ambardan ham kuchlidir, o'quvsiz va uquvsiz tabib esa jalloddan ham battardir. Chunki jallod gunohkor odamni qatl etadi, o'quvsiz va uquvsiz tabib esa begunoh odamni o'ldiradi, degan edi [3]. Bu yerda shuni unutmaslik kerakki, shifokorning o'z xizmat burchiga sovuqqonlik bilan qarashi inson salomatligiga katta, tuzatib bo'lmaydigan ziyon-zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham shifokor bemorni davolashda aql bilan ish yuritib, har ehtimolga qarshi xavfsizlik chora-tadbirlarini ko'rib qo'yishi shart.

Ikkinchi qonun-qoida – bu odamlarga, ayniqsa, bemorlarga yaxshilik qilish bo'lib, u bemorga o'ta mehribonlik bilan muomala qilgan holda, tezlikda uning xastaligi sabablarini aniqlash va davolash chora-tadbirlarini ko'rish demakdir. Shifokorga biron-bir xastalik orqali murojaat qilayotgan inson, albatta, undan yaxshilik kutadi. Shifokorning unga nisbatan qilgan ezgulikka yo'g'rilgan muomalasi, paysalga solmasdan tezlikda ko'rgan chora-tadbirlari, bergan qimmatli maslahatlari bemor uchun yaxshilik hisoblanadi. Aksincha, bemorga nisbatan qilingan qo'pollik yoki tamagirlik, shifokorning ma'naviyatsiz shaxs ekanligidan darak berib, uning kasbini «oq xalatdagi - qora dog'»ga aylantiradi.

Uchinchi qonun-qoida – bu bemorning mustaqil shaxs ekanligini hurmat qilish bo'lib, to'g'ri qo'yilgan tashxislardan keyin qanday muolajalarni qabul qilishni aqli raso bemorning ixtiyoriga qo'yib berish demakdir. Bu axloqiy qonun-qoidaga ko'ra bemor unga qo'yilgan tashxis va davolash usullari, kelib chiqadigan oqibatlari haqida xabardor qilinadi. Agar bemor rozi bo'lsa, unga qo'yilgan tashxis asosida davolanadi. Ammo bu qonun-qoidani yosh bolalarga, ruhiy xastaliklarga chalinganlarga, sud qarori bilan muloqotga layoqatsiz deb topilganlarga, narkoman-bangilarga, inson uchun har xil xavfli kasalliklarni yuqturuvchi-tarqatuvchilarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi.

To'rtinchi qonun-qoida – bu bemorga nisbatan adolatli bo'lish bo'lib, u hammaga tili, dini, kelib chiqishi, ijtimoiy ahvoli, jinsi, yoshi, husni-jamoli qanday bo'lishidan qat'iy nazar bir xilda munosabatda bo'lish demakdir. Bu qonun-qoidaning mohiyati - shifokor uchun bemorning nasl-nasabi yoki jamiyatda egallagan mavqeyi emas, balki, uning xastalik darajasi, qanchalik tibbiy yordamga muhtojligi bilan belgilanadi. Ushbu qoidaga amal qilmaslik, adolat tamoyilining buzilishiga va jamiyatda sog'liqni saqlash xodimlariga nisbatan ishonchsizlikning paydo bo'lishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday axloqiy qonun-qoidalarni buzayotgan ba'zi bir insofsiz shifokorlar ham uchrayotganligi ajablanarli holdir. Ularga jazo muqarrardir.

Beshinchi qonun-qoida — haqqoniylik bo'lib, bu bemorni mazkur kasallik haqida to'liq xabardor qilish demakdir. Bu masalani hal etish shifokorning axloqiy-ma'naviy jihatdan bilimdonligiga bog'liq. Agar bu masala shifokor tomonidan bilimdonlik bilan hal etilsa, bemorning shifokorga nisbatan ishonchi kundan-kunga kuchayib, u shifokor tavsiyalariga qat'iy ravishda amal qilib, uning tezlikda tuzalib ketish imkoniyati ortib boradi, aniqrog'i, yashashga bo'lgan ishtiyogi kuchayib, tezlikda shifo topishiga ruhiy kuch-quvvat bagishlaydi.

Oltinchi qonun-qoida – bu shifokor tomonidan sir saqlash, ya'ni bemorning xastalik darajasini, intim va oilaviy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik demakdir. Bu masalaning hal etilishi fuqaroning tibbiy yordam olish uchun qilgan murojaati, patsent sog'ligining qanday darajada ekanligi, kasallik tashxisi va uning kelgusidagi kechish jarayonlari; bemorning aniq qanday kasallikka chalinganligi, uning oqibatlari, jarrohlik amaliyotining natijalari, o'tkazilgan reanimatsion chora-tadbirlar, bemorni tekshiruvdan o'tkazish ishlari; bemor organizmining funksional xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar, jismoniy nuqsonlari, zararli odatlari, ruhiy xarakteri, psixotrop dori-darmonlarni qabul qilish qilmasligi kabi holatlarning oshkor etilmasligi bilan ifodalanadi. Bu haqda Gippokrat qasamyodida: « Davolash jarayonida yoki usiz kishilarning hayotida oshkor qilinishi mumkin bo'lmagan va sir saqlangan nimaiki ko'rgan yoki eshitgan bo'lsam, bu haqda hech kimga hech narsa aytmayman», [4] - deb yozilgan. Bu qoida «O'zbekiston shifokorining qasamyodi»da ham o'zining aksini topgan. Ushbu qoidani buzish esa jinoyat hisoblanib, uni buzgan shifokorga nisbatan jinoiy jazo qo'llanilishi qonunlarimizda belgilab qo'yilgan.

Yettinchi qonun-qoida - bu kasallik haqida berilgan ma'lumotlar asosida bemorning shifokorlar tomonidan davolash amaliyotini amalga oshirish uchun o'z ixtiyori bilan rozilik berish bo'lib, uning mohiyati bemorning haq-huquqlarini hurmat qilishni ta'minlash, shifokorga bo'lgan ishonchni oshirish, shuningdek shifokorning qonuniy xatti-harakatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Shifokorlarning yuqorida bayon qilingan qonun-qoidalarga amal qilishi, bir tomondan, ularning kasbiy mahoratining yuksalishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan esa tibbiyotning shifokor uchun nafaqat kasb, balki turmush tarzi ekanligini ham unutmazlikni uqtiradi. Shu tariqa, o'zbek shifokorining axloqiy-ma'naviy qiyofasi - bu birinchidan, soglom turmush kechiruvchi; ikkinchidan, chekmaydigan va alkogolli ichimliklarni ichmaydigan; uchinchidan, har qanday sharoitda ham bemorga yordam qo'lini cho'zadigan oliyjanob, mehribon, najotkor inson sifatida xalqimiz ko'z oldida gavdalanishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish - kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim vazifamizdir// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston, NMIU, 2017. –B.185-187.
2. Muhammadiyev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. Darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B.14.
3. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub.–T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B.25.
4. Gippokrat qasamyodi // Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. Darslik. – T.: Ibn Sino nashriyoti, 1993. – B.65-66.

УДК 1.101.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Ф. З. Юсупова

*Навоийский государственный горный институт
effm@mail.ru*

Аннотация. В статье приводится социально-философский анализ инновационной активности молодежи, позволяющий понять своеобразность инновационных свойств молодежи с учетом их природной способности к творческой деятельности и повышения своего инновационного потенциала. Определяются значимые особенности инновационных свойств молодежи на фоне различных толкований значения понятий «инновация», «инновационная активность».

Ключевые слова: молодежь, инновация, инновационное свойство, инновационная активность, интеллектуальный потенциал.

Social-philosophical analysis of innovative youth activities

Abstract. The article provides a socio-philosophical analysis of the innovative activity of youth, which allows us to understand the peculiarity of the innovative properties of youth, taking into account their natural ability to be creative and increase their innovative potential. Significant features of the innovative properties of youth are determined against the background of various interpretations of the meaning of the concepts “innovation”, “innovative activity”.

Keywords: youth, innovation, innovative property, innovative activity, intellectual potential.

Yoshlar innovatsion faolligining ijtimoiy-falsafiy tahlili

Annotatsiya. Maqolada yoshlar innovatsion faolligining ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan bo'lib, ularning tabiatdan ijodiy faoliyatga bo'lgan qobiliyati va innovatsion salohiyatini oshirish xususiyatlarining o'ziga xosligi yoritilgan. Yoshlarning innovatsion xususiyatlari "innovatsiya", "innovatsion faollik" tushunchalariga turlicha izoh berish fonida aniqlanadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, innovatsiya, innovatsion xususiyat, innovatsion faollik, intellektual salohiyat.

Одной из актуальных проблем социальной философии является осмысление роли инноваций в сфере социально-экономической жизни общества. Анализ своеобразных черт инноваций доказывает актуальность данного вопроса, так как наследуемый социальный опыт прошлого поколения является фундаментом для инноваций в нынешнем веке, включая нововведений во всех сферах общества – социальной, культурной, духовной, политической, экономической и интеллектуальной. Общество как единое социальное целое постоянно подвергается обновлению, при этом сохраняя гармонию в своей структурной организации, старается оптимизировать свои связи с условиями и требованиями социальной среды. Президент Республики Узбекистан в своем послании Парламенту в 2017 году особо подчеркнул, что «Инновация – значит будущее. Если мы сегодня начинаем строить наше великое будущее, то должны делать это, прежде всего, на основе инновационных идей, инновационного подхода». [1].

Что же следует понимать под «инновацией» и «инновационным потенциалом»? Рассмотрим понятие «инновация» в разных контекстах. Например, значение слова «инновация» в Новейшем философском словаре объясняется следующим образом: инновация - (позднелат. *inovatio*, англ. *innovation* - нововведение) - явления культуры, которых не было на предшествующих стадиях ее развития, но которые появились на данной стадии и получили в ней признание («социализировались»); закрепившиеся (зафиксированные) в знаковой форме и (или) в деятельности посредством изменения способов, механизмов, результатов, содержаний самой этой деятельности. [2]. В словаре финансовых терминов термину «инновация» дается следующее определение. Инновация - буквально инвестиции в новации, вложение средств в разработку новой техники, технологии, научные исследования. [3]. В словаре экономических терминов слово «инновация» трактуется как 1) вложение средств в экономику, обеспечивающее смену техники и технологии; 2) новая техника, технология, являющаяся результатом достижений научно-технического прогресса. Определяющим фактором инновации является развитие изобретательства, рационализации, появление крупных открытий. [4]. В современном энциклопедическом словаре дается следующее толкование. Инновация - (от английского *innovation*), то же, что нововведение. [5].

Ряд толкований термина «инновация» можно продолжить. Интересно значение самого слова «нововведение», как составляющего суть «инновации». В новейшем философском словаре нововведение означает комплексный, заверченный, целенаправленный процесс создания, распространения и использования новшества, ориентированный на удовлетворение потребностей и интересов людей новыми средствами, что ведет к определенным качественным изменениям состояний системы (или области, где реализуется новшество) и способствует возрастанию ее эффективности, повышению стабильности и жизнеспособности. Объективной основой появления нововведения являются закономерные тенденции и процессы, свойственные конкретному историческому этапу развития общества и конкретным социальным ситуациям. Под их воздействием в различных сферах жизнедеятельности людей формируются определенные потребности и интересы, которые не могут быть удовлетворены с помощью старых средств и способов деятельности. Исходя из системно-деятельностной концепции нововведения, становится возможным представить нововведение как процесс разрешения объективных проблем общественного развития путем инновационной деятельности людей, которая выполняет функцию развития культуры как совокупности способов жизнедеятельности человека. Главной функцией инновационной деятельности в обществе является функция изменения, развития способов и механизмов его функционирования во всех сферах жизнедеятельности. [4].

По результатам изучения понятия «инновация», можно сформулировать, что инновация - это новшества, нововведения в обществе при изменяющихся социально-экономических реформах страны, приводящих к росту эффективности процессов или продукции, продиктованное рыночной экономикой. Наука об инновациях развивается в двух направлениях: теоретическом и прикладном,

цель каждой из которых состоит из формирования новых знаний, идей, новых технологий, изобретений, открытий с обязательным условием активного внедрения их в социально-экономической жизни общества. А понятие «инновационная активность» - это, можно сказать, своеобразный ресурс личности, позволяющий ему при определенных условиях проявить себя как фактор инновационной активности. Содержание формы активности, подразумевающую выход за границы принятых рекомендаций и стереотипов поведения составляет наличие как субъективных факторов, так и социальных факторов. Если под субъективными факторами понимаются инновационные возможности индивида, то под социальными факторами понимаются наличие среды, обеспечивающую реализоваться этим возможностям и создающую условия для их успешной реализации.

В результате изучения и сравнения смысла слов «новация» и «инновация» можно предложить такой вывод, что новация, одним словом, – это процесс зарождения или создания новой идеи, концепции, проекта, технологии и т.п., а инновация – это уже процесс внедрения новаций в жизнь.

Актуальным становится в современном Узбекистане вопрос актуализации включения молодежи страны в этот процесс обновления и повышения у них мотивации в инновационной деятельности, создание условий для повышения их инновационной активности с учетом их интеллектуального потенциала. Это требует, в первую очередь, необходимости социально-философского анализа исследования специфических особенностей и перспектив инновационного потенциала молодежи. Это определяет актуальность исследования того, что является толчком или препятствием в активном участии молодежи в инновационной и научной деятельности. Следует устранить существующее противоречие между потребностью общества в повышении инновационного потенциала и интеллектуального потенциала молодежи с заметным уровнем отсутствия интереса у самих молодых людей, способных плодотворно применять свой творческий и интеллектуальный потенциал в научно-исследовательской и конструкторской инновационной деятельности.

Научная проблема изучения факторов повышения интеллектуального потенциала и инновационной активности молодежи требует исследования в разрезе с такими научными проблемами как образование и воспитание гармонично развитого поколения, социальная активность молодежи, человек и общество, социально-духовный прогресс.

Научно-методологические вопросы данной научной проблемы в отечественной литературе рассматривались с философской, социологической и этической точек зрения в работах таких ученых как Э.Юсупов, А.К.Валиев, С.Шермухамедов, Ж.Я.Яхшиликков, Н.Э.Мухаммадиев, Э.Бобомуратов, З.Кадырова, Х.Шайхова, И.Саифназаров, С.Аъзамходжаева, Н.Шермухамедова, Н.Х.Хакимов Г.Наврзуова, и др., с социально-педагогической, психологической точек зрения в трудах О.Мусурмоновой, К.Гозиева, В.Каримовой, Р.Махмудова. Нучно-, теоретико-концептуальные идеи и выводы этих ученых явились основанием при правильном определении проблем молодежи и их решении, при эффективном применении исследовательских методов.

Например, академик Э.Юсупов, исследуя духовный мир молодежи с точки зрения национальной идеи и идеологии, приходит к выводу, что формирование у них научного мышления и мировоззрения является гарантом прогресса Узбекистана. [6].

Ж.Я.Яхшиликков, Н.Э.Мухаммадиев указывая организационно-организаторские особенности активизации идеологического воспитания молодежи, подчеркивают, что основной целью организации просветительских занятий является повышение духовно-идеологического уровня молодежи на основе знакомства их с современными знаниями, достижениями науки и техники, социально-политическими изменениями в жизни и новостями, происходящих в мире. [7]

Э.Бобомуратов исследует психологию молодежи в разрезе с их социальной, духовной, научной деятельностью. По его мнению, именно философско-психологические факторы помогают научным путем разрешать проблемы социальной активности молодежи. [8].

З.Кадырова изучает вопросы развития у молодежи социальной активности с социально-философской точки зрения. Согласно ее выводам, социальная активность как присущая человеку качество, формируется специальными педагогическими технологиями и средствами. [9].

Изучение вопросов повышения инновационной активности молодежи указывает, что факторы повышения интеллектуального потенциала и инновационной активности молодежи недостаточно рассмотрено как специальная научная проблема. Осуществляемая сегодня в стране модернизация во всех сферах общества требует эффективного использования интеллектуальных сил, особенно молодежи, поднятия на новый уровень человеческий потенциал и активность, что

является новой задачей как с научной, так и практической точки зрения. Следовательно, вопросы повышения интеллектуального потенциала и инновационной активности молодежи как новая научная проблема требует нового концептуального подхода в соответствии требованиям реального мира и социального прогресса.

Философские идеи, выводы и научные рекомендации встречаются и в работах зарубежных исследователей (Ломброзо, Карлейль Паскаль, Ницше, Гадамер, Кун, Маслоу, Л.В.Выготский, А.Н.Леонтьев, Б.Г.Ананьев, В.Попова). Концептуальные идеи в этих работах являются важным научным основанием для данного исследования.

Для проработки основной задачи инновационного потенциала молодежи с учетом ее способности реализоваться в действительности, следует рассмотреть сущность понятия «инновация», «инновационный потенциал молодежи» в разрезе с такими понятиями как «новационные свойства» и «инновационные возможности молодежи».

Характеристика новационных свойств молодежи позволит понять своеобразие инновационного потенциала молодежи среди потенциала другого возрастного поколения. Свообразие молодежи выражается в том, что новационные свойства ее активизируются именно в тот момент, когда чувствуется, что нет возможности опереться на жизненный и социально-культурный опыт прошлого поколения. Это объясняется тем, что молодежи присуща способность легче придумать новое, чем найти что-либо в социокультурной истории прошлого. Свойство молодых людей больше рассчитывать на себя побуждает их к риску в своем поведении, отражающуюся в природной их способности к творческой деятельности и повышению своей инновационной активности. Присущее молодежи способность рисковать, отсутствие в сознании боязни ошибиться – главная черта новационных свойств молодежи.

С учетом новационных свойств молодежи можно дать следующее определение инновационному потенциалу молодежи – это направленность ее готовности и цели внести проектные изменения в сфере мышления или инновационной деятельности с целью внесения перемен в жизни людей и общества. Под инновационным потенциалом молодежи подразумевается наличие мотивации к инновации, установки точной цели и определения масштабов участия молодежи в инновационной сфере.

Обязательным условием реализации новационных свойств молодежи является расширение инновационных возможностей молодежи, под которыми подразумеваются поощрение инноваций обществом и поддержка государством молодежи, создание необходимых условий для активизации их инновационной активности.

Таким образом, научная проблема развития интеллектуального потенциала и повышения инновационной активности личности, особенно молодежи, является наиболее актуальной на фоне изменяющихся мировых политических и экономических реалий. Так как, молодежь получает и обрабатывает, в своей повседневной деятельности, огромное количество знаний и информации.

Одна из ключевых стратегических задач, которые необходимо решить для инновационного развития страны, включает механизмы выявления талантливой молодежи на всех этапах образования, начиная с максимально ранних, сквозную систему подготовки и повышения квалификации студентов, стажеров-исследователей, эффективные механизмы передачи научных знаний. Решение этой задачи предполагает создание благоприятных условий и стимулов для прихода в науку талантливой молодежи, склонной к исследовательской работе. [9]. Актуализация задачи максимального включения молодежи в преобразовательные процессы страны инновационного характера, оптимального использования ее интеллектуального потенциала имеет важное значение в определении роста экономического, политического, социального, культурного потенциала общества, что обуславливает развитие каждой отдельной страны и мира в целом.

Исходя из вышесказанных и учетом актуальности задачи развития интеллектуального потенциала и повышения инновационной активности молодежи предлагаются следующие пути повышения перспективы участия молодежи в инновационной сфере страны:

-во-первых, 60 % населения, проживающего в республике Узбекистан, составляет молодежь до 30 лет. Использование этой силы и потенциала является гарантией социально-экономического развития страны;

-во-вторых, молодежь с духовно-нравственной и психофизиологической точки зрения стремится активно жить, ищет новые пути решения проблем и применения своих творческих способностей во имя развития страны. Эту их активность и целеустремленность следует направить на развитие национальной демократии;

-в-третьих, внедрение в жизнь научных знаний, современного мировоззрения и научно-технических инноваций, усвоение быстро нарастающего социального опыта и духовного богатства требует от человека специальной подготовки и инновационной активности;

-в-четвертых, следует развивать интеллектуальный потенциал и инновационную активность молодежи путем активного применения социопедагогических методов и новых средств педагогической технологии при подготовке их к социальной жизни;

-в-пятых, сам процесс подготовки молодежи к социальной жизни ставит особой задачей повышения интеллектуального потенциала и инновационной активности, требует применения научно доказанных технологий, обоснованных на этнопедагогическом и этнодуховном наследии;

-в-шестых, интеллектуальный потенциал и инновационная активность исходит из требований модернизации общества, производства, социального управления. Поэтому следует внедрять в связи с целями и задачами модернизации.

Литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису 23.12.2017 г. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://dd.gov.uz/ru/news/534>
2. Новейший философский словарь. 2012. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://slovar.cc/fil/slovar>
3. Словарь финансовых терминов. 2012. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://slovar.cc/ekon/fin>
4. Словарь экономических терминов. 2012. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://slovar.cc/ekon/term>
5. Современный энциклопедический словарь. 2012. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://slovar.cc/enc/sovremenniy/1839598.html>
6. Юсупов Э. Маънавий камолот асослари. – Чимкент, 1997.
7. Яхшиликлар Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя - тараққиёт стратегияси: монография. - Тошкент: «Фан», 2017. -424 б.
8. Бобомуратов Э., Бобомуродова М. Ўзбекистон ёшларининг психологик жиҳатлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
9. Қодирова З. Ёшлар ижтимоий фаоллигини ривожлантириш масалалари. – Тошкент: Фан, 1998.
10. Концепция инновационного развития Республики Узбекистан на 2012-2020 гг. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://uzb69.blogspot.com>

UDK: 1 (2):141.336

NAQSHBANDIYA TARIQATIDA XALQ BILAN MULOQOT QILISHNING TASAVVUFIY-FALSAFIY ASOSLARI

X. U. Samatov

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
samatov_1084@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada naqshbandiya tariqatida xalq bilan muloqot qilish tamoyillari Qur’oni karim va hadislarida keltirilgan din, tasavvuf, axloq, qalb, adolat to’g’risidagi so’zlarning mazmun mohiyati hamda shariat, tariqat va futuvvat uyg’unlashtirilgan holda ochib berilganligi bayon etilgan.

Kalit so’zlar: din, tasavvuf, hadis, ahloq, qalb, adolat, xalq, muloqot, tamoyil.

Суфийские и философские основы диалога с народом в тарикате Накшбандизма

Аннотация. В статье описывается, принципы диалога с народом в тарикате Накшбанди, обосновываясь на смыслах слов религия, мистика, мораль, сердце и справедливость, представленных в Коране и хадисах.

Ключевые слова: религия, суфизм, хадис, мораль, сердце, справедливость, народ, диалог, принцип.

Sufi and philosophical foundations of dialogue with the people in the tariqat of Naqshbandism

Abstract. This article describes the principles of dialogue with the people in the Tariqah Naqshbandi, basing on the meaning of the word religion, mysticism, morality, heart and justice, presented in the Qur'an and Hadith in a harmonious manner.

Keywords: religion, sufism, hadith, morality, heart, justice, peoples, dialogue, principles.

Jahon ijtimoiy taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilib, demokratik o'zgarishlar kuzatilayotgan bir davrda, xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash, jamiyatda demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda Sharq falsafiy-tasavvufiy merosi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda buyuk allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo'nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. «Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analoriga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz» [1;13].

Naqshbandiya tariqati har bir davrda xalq bilan birga bo'lish, Qur'oni karim va hadislariga amal qilish orqali kishilarni ezgulikka, yaxshilikka targ'ib etib kelgan. Tarixdan shu narsa ayonki, naqshbandiya tariqati pirlari bu dunyoda faqat o'zlari uchun emas, balki o'zgalarga yaxshilik qilish yo'lida yashagan. Ularning qalbida odamlarning ma'naviy-ma'rifiy olamini har tomonlama rivojlantirish shukhi yotadi. Tariqat pirlari o'zlarining qalb qo'ri, tafakkur qudrati bilan kishilarni yorug' va saodatli kunlar sari boshlaydi. Ayniqsa, ularning tinchlikparvar faoliyati, ilmiy-ma'naviy, axloqiy konsepsiyalari, gumanistik ijtimoiy g'oyalari mamlakatimizda xalq bilan muloqotni ta'minlash, jamiyatda demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu borada tariqatning nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida e'tirof etilgan "dil ba yoru dast ba kor", bag'rikenglik, xalq bilan muloqot qilish, ma'naviy ogohlik, gumanizm va ma'rifiy islom qadriyatlariga rioya etish, komil insonni tarbiyalash kabi g'oyalarining mazmunini ilmiy asosda ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, islom dinida xalqqa xizmat qilish ulug' fazilatlardan biri bo'lib, Parvardigori olamga qilinadigan xizmat bilan tenglashtirilgan [2;5]. Zero, dunyoning obodligi ham ana shu xizmat tufayli amalga oshadi. Xalqning g'am-tashvishi bilan yashash, dardiga malham bo'lish, ommaning manfaatini ko'zlash naqshbandiya tariqati ta'limotida asosiy o'rinda turadi.

Ahli tasavvuf orasida «Avval Qur'oni karim, sunnatda tasavvuf» degan aqida tasodifiy aytilgan fikr yoki dunyoni ilohiy ko'rishning natijasigina emas, balki tasavvuf ilmi va amaliyotida ham tasdiqlangan holatdir. Chunki, avvali ilm Qur'oni karimdadir, amal payg'ambarning sunnatlarini davom ettirmoq, ixlosning boshi esa iymondir. Allohning yagonaligiga, biru borligiga iymon keltirish – kalimai shahodat («La ilaha illallohu Muhammadu-r-rasululloh», ya'ni «Allohdan boshqa iloh yo'q, Muhammad uning elchisi»)ni bilish va anglashdan boshlanadi.

Naqshbandiya tariqatida xalq bilan muloqot mavzusi haqida so'z borar ekan, uni avvalo Payg'ambarimiz (s.a.v)ning siymolari va siyratlari misolida o'rganish ayni muddaodir. Ul zotga ilk vahiy nozil bo'lganda Hadicha onamiz (r.a) Varaqa ibn Navfalning oldiga boshlab boradi. Keksayib, ko'zlari ko'rmay qolgan bu inson Tavrot va Injildan xabardor bo'lgan. Varaqa ibn Navfal Payg'ambar (s.a.v)ni gaplarini eshitib, "Qavmingiz sizni yolg'onchiga chiqaradi, sizga aziyat beradi, tug'ilib-o'sgan yurtigingizdan quvib chiqaradi", deydi. Shunda payg'ambarimiz hayajonlanib, "Hali qavmim meni shahrimdan quvib chiqaradimi?" deb hayron bo'ladilar. [2;9]

Ko'rib turibmizki, Payg'ambarimiz (s.a.v) hali Vatanidan haydalisini, ko'p ozor va aziyatlar yetishini bilib tursalar ham o'z qavmini jaholatdan qutqarishni, ularga xizmat qilishni, uning tashvishi bilan yashashni, hech kimga qo'shilmasdan tog'u toshlarda, xilvatlarda gunohdan chetlanib yashashdan afzal sanagan. Xalqparvarlik uchun aslida shu ta'limot va shu ta'rifning o'zi yetarli. Islom dinida rahboniya, ya'ni tarkidunyochilik yo'q, chunki har bir inson bir-biriga xizmat qilishi kerak, bir-birini og'irini yengil qilishi kerak. Dinimizda ko'rsatilgan barcha ibodatlarining mag'zi ham shundandir. [2; 5]

Alloh taolo bandalariga Islomni din deb rozi bo'lgan ekan, O'zining so'nggi va mukammal dinini bashariyatga yetkazish, shu dinga muvofiq e'tiqod va amal qilishni o'rgatish uchun ular orasidan eng munosib va afzal zotni payg'ambar ularoq tanlab oldi. Nima uchun bu yuksak maqomga ulug' sifatlarga ega bo'lgan inson tanlandi? Chunki, payg'ambar Alloh taoloning elchisi va vahiyini bani basharga omonat holda yetkazuvchi ishonchli vakildir. Bu oliy maqom vakilning asosiy vazifasi, esa xalq bilan muloqot qilish, ularga Haqni yetkazish va hidoyatga boshlashdir. Shuning uchun ham xalq bilan muloqot qilish og'ir, mas'uliyatli va ayni paytda sharafli vazifadir.

Naqshbandiya tariqati piri Maxdumi A'zam Kosoniy mas'uliyat va chin dildan xizmat qilishda hikmat ko'p, deb ta'kidlaydi. Chunki, "kimki xizmat va g'ayrat qilsa, xususan, jamoat uchun xizmat qiluvchi bo'lsa va uning xizmatidan boshqalar manfaat ko'rsa, undaylarga olam ul-g'aybdan ko'p fayzlar yetadi. Kimki, jamoat manfaatlari uchun xizmat qilib, olam ul-g'ayb fayziga musharraf bo'lgan bo'lsa, bunday kishi saodatli-baxtli kishidir". [3; 55]

Naqshbandiya tariqatida Xoja Ahror Valiy boshlab bergan xalqqa xizmat qilishni Maxdumi A'zam davom ettiradi. U xalq manfaatini ustun qo'yib, faoliyatida shu nuqtai nazaridan yondashadi. Xoja Ahror Valiy quyidagi baytni yoddan o'qurdilar, deb eslaydi. Muhammad Qozi:

Himmat turo ba kungurai kibriyo kashad.

In saqfi kohro beh az in nordbon maxoh.

Mazmuni: *Himmat seni falakning yuqori pog'onasiga ko'taradi. Bu baland dunyo, osmonga chiqmoqni xohlasang, bundan (himmatdan) yaxshiroq narvon bo'lmas.*

Maxdumi A'zam bu baytni birinchi misrasi avvalidagi "himmat" so'zini, "xizmat" so'zi bilan almashtirib, talqin qiladi:

Xizmat turo ba kungurai kibriyo kashad,

Mazmuni: *Xizmat seni falakning yuqori pog'onasiga ko'taradi.*

Xalqqa xizmat qilish insonni obro'-e'tiborini oshiradi. Shundan kelib chiqib, ikkinchi misra sharhlansa, unda "bu baland osmonga (obro'-e'tibor, hurmatga) chiqmoqchi bo'lsang, xizmat qilishdan yaxshiroq narvon bo'lmas" degan ma'no kelib chiqadi. Maxdumi A'zamning bayti mazmunan bizning bugungi zamonamizga mosligi ham o'z-o'zidan ayondir.

Bayt:

Xizmat tu kuni, go'y zi maydon bibari,

V-ar tu nakuni har ki kunad, o' bibarad.

Mazmuni:

Agar sen xizmat qilsang, to'pni maydondan olib chiqasan. Bo'lmasa, har kimki bu ishni qilsa, u g'olib bo'ladi [3;55].

Shu jihatdan, Haq subhona va ta'olo Hazrati Odamni uning o'zidan tug'ilgan farzandlariga xalifa va podshoh qilib sayladi. Necha vaqtlar Hazrati Odam bu dunyoda o'z farzandlari ustidan xalifalik qilgan bo'lsa, shuncha vaqt dunyo ma'mur va obod bo'ldi. So'ng Hazrati Odamni (Xudovand) yana O'zining nazdiga eltdi.

Bayt:

Go'y davlat on barad to peshgoh,

K-o' barad az chonu dil farmoni shoh.

Mazmuni:

Kimki shoh farmonini sidqi dildan bajarsa,

U davlat to'pini nishongacha yetkazadi.

Hazrati Odam o'z kamoli bandalıkları va niyozmandliklari tufayli davlatmandlik hamda Xudoning rahmatiga musharraf bo'ldi.

Naqshbandiya tariqatining muhim asoslaridan biri so'fiyning o'z ma'naviy holini yashirishi, shuhrat va riyodan qochishidir. Shu maqsadda ular xalq orasida orif bir so'fiy sifatida yurgandan ko'ra, el qatori oddiy bir inson bo'lib yurishni ixtiyor etgan. Riyodan saqlanish uchun karomatlarini sir tutishgan. Baland ovoz bilan (jahriy) zikr qilishdan, tariqatga mansubligini ko'rsatadigan maxsus kiyim kiyishdan, hatto takya – xonaqoh barpo etmoqdan saqlangan. Tariqat marosimlariga ahamiyat berilmagan. Futuvvatda esa fidokor va jo'mard bo'lgan. Tariqat pirlari asosan, qo'l mehnati bilan kun kechirishga ahamiyat berishgan. Bu xususiyatlar xojagon-naqshbandiya tariqatini xalq bilan yaqinlashtirishga xizmat qilgan.

Naqshbandiya tariqatiga oid manbalarga ko'ra, tariqat pirlari xalq bilan muloqotda qo'yidagi tamoyillarga amal qilishgan [4;9]:

1) *el qatori bir inson kabi yurish, tariqat belgisini bildiruvchi maxsus kiyim kiyimaslik va shuhratdan saqlanish.* Naqshbandiyalar o'z ma'naviy ahvolini yashirish uchun so'fiyona xirqa va toj o'rniga savdogar yo ulamolar kiyimini kiyishni ixtiyor etgan. Xojagon va naqshbandiyaning ilk davrlariga nazar solinganda, maxsus bir andoza va rangda xirqa yo toj kiyishning mavjud bo'lmaganligi ko'rinadi.

Har bir tariqatda bo'lgani kabi mazkur tariqatda ham ba'zi bir o'zini naqshbandiyan deb da'vo qiluvchilar o'zgalardan ajralib turish uchun maxsus qora salla kiyib yurishgan. Bu hozirgi kunimizda ham uchrab turadi. Bu holat mutlaqo xato va asossiz bo'lib, tariqat g'oyalariga zid ekanligini ta'kidlash joiz. Qora salla kiyib yurish hych vaqt tariqatning bosh qoidasi bo'lmagan. Aksincha, barcha naqshbandiya shayxlari boshqa ulamolar kabi oddiy salla o'ragan. Husayn Vassof ham bu xususida quyidagilarni ma'lum qiladi: "Naqshbandiya tariqatida boshqa tariqatlarda bo'lganidek maxsus bir libos yo'q. (Ularda) har kim

o‘z ilmiy darajasiga ko‘ra kiyinadi. Naqshbandiya mashoyixi esa, asosan, ulamo qiyofasida yuradilar...”. Zero, xojagon-naqshbandiya shayxlari: “Bizga ko‘ra xirqa emas, hirfa (maslak, kasb-hunar) muhimdir” degan [4; 10].

2) *Xilvat*. Tariqatning eng muhim asoslaridan biri shuhratdan qochishdir. Bahouddin Naqshband va u zotning shogirdlari “xilvatda shuhrat bor, shuhratda ofat” fikri bilan xilvatga ko‘p ahamiyat bermagan va “xalq orasida Haq bilan bo‘lish” deya ta’riflangan “xilvat dar anjuman” qoidasini qabul qilishgan. Abdulxoliq G‘ijduvoni “xilvat eshigini yop, suhbat eshigini och”, Bahouddin Naqshband esa “yo‘limiz suhbat yo‘lidir, xilvatda shuhrat, shuhratda ofat bor” deganlar [5;10]. Rivoyat qilinishicha, Sayyid Amir Kulolning o‘g‘li va xalifasi Sayyid Amir Hamzadan bir shayx: “Tariqatingizda nima uchun xilvatda o‘tirishga kam e‘tibor beriladi?” deya so‘raganida, Amir Hamza: “Xilvatda ham suhbat qurish uchun bir rafiq kerak”, – deya javob bergan ekan. Bu shayx Amir Hamzaga xilvatda rafiq bo‘la olishini aytganida, Amir Hamza: “Sizning xilvatingiz qanday?”, – deya so‘radi. Shayx: “Bir ko‘za suv va qirq dona mayiz bilan qirq kunni o‘tkazamiz”, – deydi. Amir Hamza: “Bizning xilvatimiz esa bir tahorat bilan xilvatga kirish, har kuni bir qo‘y yeyish va qirq kun o‘sha tahorat bilan namoz o‘qishdir”, – deydi. Xoja Naqshband Amir Husaynning savoliga javoban tariqatida xilvat va samo‘ning o‘rniga “xilvat dar anjuman” qoidasi borligini aytgan. [4;10].

Jamiyat orasida tanho bo‘lish degan ma‘noni bildiruvchi “xilvat dar anjuman” atamasi so‘fiyning bir chekkada o‘tirmasdan, xalq orasida bo‘lishi, lekin jisman odamlar orasida bo‘lsa ham, botinan ulardan uzoqda, Alloh bilan birga bo‘lishni bidiradi. Zohirda xalq bilan, haqiqatda esa Haq bilan, “Dast ba kuru dil ba Yor” – qo‘l ishda, ko‘ngil Yorda, “tan dar bozoru dil ba Yor” – tan bozorda, qalb yorda kabi shiorlar xuddi shu mazmunda qo‘llanilgan. “Xilvat dar anjuman” qoidasi: “Erta-yu kech U zotni poklaydigan kishilar bordirki, ularni na tijorat va na savdo (ishlari) Allohning zikridan, namozni barkamol ado etishdan va zakot berishdan chalg‘ita olmas” (Nur, 37) oyatiga ko‘ra qabul qilingan. Bahouddin Naqshband hajga borganida Mino bozorida bir o‘smirning besh ming dinorlik savdo qilayotganini, lekin qalbining bir lahza bo‘lsa ham Allohdan g‘ofil bo‘lmaganini mushohada etib, u haqda faxr bilan so‘zlagan ekan.

Abdulxoliq G‘ijduvoniyaning shogirdlaridan Avliyo Kabir “xilvat dar anjuman”ni izohlarkan, shunday degan: “Doimiy zikr qilgan odam zikrdan hosil bo‘lgan vajdu istig‘roq bilan shunday bir martabaga yetadiki, zikr qalbini qurshab olganidan zikir bozorga kirsam ham hech qanday ovozni eshitmaydi”. Xoja Ubaydulloh Ahror ham zikrga berilgan soliklarning besh-olti kun shunday holni his qilganliklarini, xalqning shovqinini zikr sadolaridek eshitganlarini bayon etadi [6;16].

Naqshbandiya tariqatining buyuk islohotchisi Maxdumi A‘zam Ahmad Kosoniy fikricha, “xilvat dar anjuman”ning botiniy ma‘nosi kasratda vahdatni (ko‘pchilik orasida birlikni) mushohada etmoqdir. “Bandam menga nafl ibodatlar bilan yaqinlashadi, oqibatda uni sevaman. Uni sevgach, uning eshitadigan qulog‘i, ko‘radigan ko‘zi, gapiradigan tili va ushlaydigan qo‘liga aylanaman. Men bilan eshitadi, men orqali ko‘radi...” mazmunidagi qudsiy hadisda “xilvat dar anjuman” qoidasi ilgari surilgan. Shu jihati bilan bu qoida o‘rta darajali so‘fiylarning emas, tasavvufiy tarbiyasi nihoyasiga yetganlarning maqomidir. Xalq orasida Haq bilan birga bo‘lish, ya‘ni so‘fiyning dunyoviy ish bilan mashg‘ul bo‘lishiga qaramay, el qatori bir inson sifatida yashashi, shu orqali ma‘naviy holini atrofidaqilardan maxfiy tutishini bildiruvchi bu qoida naqshbandiya tariqatining shioridir.

3) *Ma‘naviy holni yashirish, riyo bo‘lmasligi uchun karomatni izhor etmaslik*. Naqshbandiyalar riyo va shuhratdan qochganlari bois karomatni sir tutishga alohida ahamiyat berganlar. Bahouddin Naqshbandning aynan shu holatni ifodalashga qaratilgan quyidagi bayti uning suhbatlarida o‘qilgan ekan:

*Az darun shav oshino vaz berun begonavash,
In chunin zebo ravish kam mebuva andar jahon* [6;121].

(Ko‘ngilda Haqqa oshno bo‘l, zohirda esa begonadek ko‘rin. Bunday go‘zal bir usul jahonda kam topiladi).

4) *raqsu samo‘ va jahriy zikrdan qochmoqlik*. Ma‘naviy hollarini izhor aylashdan saqlangan naqshbandiyalar ko‘pincha raqsu samo‘ (zikrni raqsu musiqa bilan bajarish) va baland ovoz bilan zikr qilishdan uzoq bo‘lishni ixtiyor etganlar. Bahouddin Naqshband hazratlari: “Samo‘ni inkor etmaymiz, unda qatnashmaymiz ham”, deganlar. Xoja Bahouddin Naqshband samo‘ qilmagan va muridlarini ham samo‘ majlisida o‘tirishdan qaytargan.

Abdulxoliq G‘ijduvoniyaning shogirdlariga: “Samo‘ majlislarida ko‘p o‘tirma, zero nifoq hosil bo‘lib, samo‘ning ortig‘i dilni o‘ldiradi. Lekin samo‘ni inkor etma, samo‘ qiluvchilar ko‘p. Samo‘ faqat qalbi tirik va nafi o‘lik kishigagina joiz. Bunday holga erishmagan kimsaga samo‘ halol va muboh emas”.

Xojagon va naqshbandiya shayxlari asosan maxfiy zikrga riyo qilib kelganlar. Zero, Abdulxoliq G‘ijduvoni Xizr alayhissalomning tavsiyasi bilan hovuzda, suv ostida zikri xafiy boshlab bergan.

5) *xizmat ahli, fidokor va jo'mard bo'lmoq*. Naqshbandiylik futuvvat tushunchasi ta'siri ostida shakllangani bois fidokorlik va xizmatga alohida ahamiyat beradi. Naqshbandiyalar xalqqa xizmat qilishadi, lekin o'zlariga xizmat qilinishini istamaydilar. Ular insonlardan yordam so'ramaydilar. Hamdun Qassor: "Yaratilmishning yaratilmishdan yordam so'rashi zindondagi kishining zindondagi kimsadan yordam so'rashi demakdir", – deydi. Xojagon-naqshbandiya vakillari ham xalqqa xizmat qilishga alohida ahamiyat berishgan, lekin o'zlari uchun iltifot ko'rsatilishini xohlamas edilar. Bu haqda Abdulkholiq G'ijduvoniyni: "Insonlardan biron narsa tama' qilma!" va "Javonmard, saxiy bo'l. Alloh taolo senga in'om etgan ne'matlardan xalqqa ehson qil!" kabi tavsiyalari namuna bo'la oladi. Shuningdek, "Rashahot" muallifining otasi, naqshbandiyalardan Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy" nomli maxsus asar yozganligi xojagon ta'limotida futuvvat nash'asiga nechog'li e'tibor berilishining qat'iy bir dalilidir.

Abdulkholiq G'ijduvoni vasiyatlarida: "Mashoyixga badaning bilan jismonan xizmat qil!", – deydi. Bahouddin Naqshband ham ustoz Amir Kulol xonaqohida yelkasida o'tin tashigan. Xoja Ali Romitaniyning "Do'stimning kelishiga vosita bo'lgan bu hayvondir" deya do'stidan oldin uning ulovini yedirib-ichirgan. Bahouddin Naqshbandning uyiga ziyoratchi yo mehmon kelsa, izzat-ikrom ko'rsatardi. Bir safar betob bo'lib qolganida, Buxorodan muridlari kelishgan. Bemorligiga qaramay, mehmonlarni tabassum bilan kutib olgan, hatto mehmonlar uchun muridlari bilan bozordan qo'y olib kelishayotganida hazrat Naqshband qo'yni yelkasida ko'tarib kelgan ekan. Bular xojagon-naqshbandiya shayxlarining xalqqa xizmat qilishga ko'rsatgan ahamiyatlaridan dalolat beradi.

6) *halol mehnat bilan tirikchilik qilish*. "Bir mo'minning halol mehnat qilmasligi tilanchilikda ilgariylashi demakdir", – degan Hamdun Qassor Naqshbandiyalar mehnat qilib kun kechirishgan va topganlarini faqirlarga ehson qilishga ahamiyat bergan.

Xojagon-naqshbandiya shayxlari ishsiz insonlarni shogirdlikka qabul qilmagan, o'zlari albatta biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganlar. Xoja Ali Romitaniy to'qimachi, Muhammad Bobo Samosiy bog'bon, Amir Kulol kulol, Bahouddin Naqshband naqqosh – to'qimachi va chorvador, Amir Kulolning o'g'li Amir Hamza ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror chorvador va savdogar bo'lishgan. Bahouddin Naqshband tavakkul holi halol mehnat qilish bilan birga bo'lmog'i lozim degan edi. Bahouddin Naqshbandning uvaysiy piri Hakim Termiziy (vaf. 320/932 y.) ham mehnat bilan kun kechirishga ahamiyat bergan mutasavviflardan bo'lib, bu mavzuda hatto "Bayon ul-kasb" nomli asar bitgan ekan.

Muhammad Porso xojagon-naqshbandiya tariqati Boyazid Bistomiy, Salmoni Forsiy va Abu Bakr Siddiq vositasida hazrat payg'ambarga tutashishi, bu uch zotning ham mehnat ahlining buyuklaridan bo'lganligini ifodalaydi. Xoja Ubaydulloh Ahrorning shogirdlaridan Abdulloh Ilohiy (vaf. 896/1491 y.) bunday deydi: "Naqshbandiyalar toifasining maqomi jami maqomotdan balanddir... Sunnati muakkada va farzlarni cho'zmaydilar. Ortiqcha amallardan ko'p umid qilmaydilar, balki Haq taoloning fazlidan umidvorlar" Bahouddin Naqshbandning: "Biz Allohning lutfiga bog'langanlarmiz" va "Bizni lutf eshigidan kirgazdilar. Vazifamiz farz, vojib va sunnati muakkadalarni ado etmoqdir" kabi so'zlari bir-biriga muvofiqdir.

Umuman olganda, naqshbandiya tariqatida jamiyatda yashash, kishilarga xizmat qilish, Allohga chuqur e'tiqod tariqat pirlarining ilmiy-falsafiy va ijtimoiy-axloqiy merosining bosh da'vati bo'lgan. Mutasavviflarning risolalarida ilohiy tartiblar bayon qilingan Qur'oni Karim va hadislar inson hayotini yaxshilashini, uni ma'naviy, axloqiy yetuk qilishini asoslab bergan. Shuningdek, naqshbandiya tariqati pirlari podshohlar va xalq o'rtasida ziddiyat yuzaga kelmasligi uchun o'z vaqtida podshohlarni o'z ishiga adolat ustuvor bo'lishligi va oddiy fuqarolarni esa adolatli hukmdorga bo'ysunishi lozimligini ta'kidlab kelishgan. Tariqat pirlari o'z g'oyalari va amaliy ishlari bilan, xalqdan ajralmagan holda, ularning dardi bilan yashashga boshqa tariqat pirlariga namuna bo'lishgan.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. // <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/>
2. Sayyid Rahmatulloh Termiziy. Xalq dardi bilan yashaylik. (Matn). – Toshkent: "Movarounnahr", 2017. – B.5
3. Sultonmurod Olim. "Dil – ba yor-u, dast – ba kor"lik mohiyati. <http://uza.uz/oz/society/dil-ba-yer-udast-ba-kor-lik-mo-iyati-01-10-2018>
4. Navro'zova G. Hazrat Bahouddin Naqshbandning hayoti va tasavvufiy qarashlari. <http://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/xoja-naqshband-al-avrod-parcha.html>
5. Komilov N. Ma'naviy kamolot ilmi // Ilmiy tahliliy axborot. – T.: Toshkent islom universiteti, 2003. №2. – B.10.
6. Maqomati Xoja Bahouddin Naqshband. Forsiydan tarjima, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. "O'zbekiston" NMIU, – T.: – 2019. – B.121.

7. Zoirov E.X. Maxdumi A'zamning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari. –T.: «Turon zamin ziyo», 2015. –B.52
8. Maxdumi A'zam. «Zubdat us-solikin va Tanbiyat us-salotin» (Tarjimonlar Valixo'jayev B, K.Kattayev). –Samarqand. «Sug'diyona», 1994. –B.55.
9. Maxdumi A'zam. Risolai Boburiya.// Juzjoniy A.Sh. Tasavvuf va inson. –T.:Adolat, 2001. –B.56.

УДК 323(575.1)316:1

GLOBALLASHUV VA MAFKURAVIY O'ZGARISHLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI

A. Z. Sharipov

*Buxoro davlat universiteti
abduhakim-83@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davrning eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan globalizatsiya hodisasi va uning mafkuraviy o'zgarishlarga ta'siri, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklar ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Yangi O'zbekiston milliy g'oyasini rivojlantirishda mafkuraviy transformatsiyaning amalga oshirilishi yuzasidan ayrim o'ziga xos jihatlar o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarilgan. Yurtimizda tinch-totuvlikni asrash, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhini qaror toptirishning g'oyaviy asoslari tadqiq etilib, bu boradagi kelgusi vazifalar haqida mulohaza yuritilgan. Jahonda kechayotgan mafkuraviy kurash maydonlarida o'zbek xalqining g'oyaviy raqobatbardoshligini ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shadigan yangi avlodini tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, mafkuraviy jarayonlar, ommaviy madaniyat, global muammo, yangi O'zbekiston, g'oyaviy transformatsiya

Взаимосвязь глобализации и идеологических изменений

Аннотация. В статье предоставлен социально-философский анализ феномена глобализации и его влияния на идеологические изменения, одного из важнейших проявлений современности, а также взаимосвязи между ними. В процессе разработки национальной идеи нового Узбекистана были изучены некоторые специфические аспекты реализации идеологической трансформации и получены соответствующие выводы. Изучены идеологические основы поддержания мира в нашей стране, дух верности нашим национальным ценностям, рассмотрены будущие задачи в этом направлении. Служит воспитанию нового поколения, которое внесет достойный вклад в идеологическую и идеологическую конкурентоспособность узбекского народа в мире идеологической борьбы.

Ключевые слова: глобализация, идеологические процессы, массовая культура, глобальная проблема, новый Узбекистан, идеологическая трансформация.

The relationship between globalization and ideological change

Abstract. This article provides a socio-philosophical analysis of the phenomenon of globalization and its impact on ideological changes, being one of the most important aspects of modern times. In the development of the national idea of the new Uzbekistan, some specific aspects of the implementation of ideological transformation have been studied and relevant conclusions have been drawn. The ideological bases of maintaining peace in our Homeland, the spirit of loyalty to our national values have been studied, and future tasks in this occasion have been considered. It serves to bring up a new generation of the Uzbek people, who will make a worthy contribution to the ideological-notional competitiveness of the Uzbek people in the world of ideological struggle.

Keywords: globalization, ideological processes, popular culture, global problem, new Uzbekistan, ideological transformation

Bu yo'nalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak. Buni ma'naviy hayot, g'oyaviy-mafkuraviy ish deb qo'yibdi. Bu bizga g'alla yoki chigit ekish emas, urug'ni tuproqqa tashladik, bo'ldi, endi kutamiz, deb qarab o'tirsak. Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi.

Shavkat Mirziyoev

Ayonki, har qanday demokratik davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Globallashuv darida g'oyaviy himoya va mafkuraviy immunitet masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Darhaqiqat, hozirgi zamonda dunyoning ayrim hududlarida yuz berayotgan siyosiy inqirozlar, antigumanistik xatti-harakat va yovuzliklar, avvalo, kishilar ongida g'oyaviy bo'shliqni vujudga kelganligi tufayli sodir bo'lmoqda.

Ba'zi adabiyotlarda keltirilishicha, "globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes revyu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo'llanilgan. Dastlab mazkur atama ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Ya'ni globallashuv yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulotlar bozorining birlashuv jarayonlari bilan uzviy bog'liq deb qaralgan. Bizning nazarimizda, globallashuv insoniyat hayotining yaxlit manzarasini aks ettiradi. Shuning uchun ham A.Ochildiev: "...eng umumiy ma'noda, globallashuv, bir tomondan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Yer yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga dahldor ekanini anglatadi" deb ta'kidlaydi [1. B.64]

Globallashuv jarayoning o'ziga xos jihatlaridan yana biri "... hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani"dir [2. B.112]. Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'yimoqda" [3. B.45-46].

Globallashuvning axloqiy mezonlari tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liqdir. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi dunyoqarash prinsiplari ham, u bilan bog'liq axloqiy mezonlarning o'zgarishiga olib keladi. Chunki jamiyat ijtimoiy-madaniy strukturasi sodir bo'lgan yangi o'zgarishlar natijasida yangi axloqiy qadriyatlar yaratiladi. Shu ma'noda bu madaniyat maqbul turmush kechirish usullarini shakllantiradigan axloqiy irodaning ifodasi bo'lib maydonga chiqadi. Prezident Sh.Mirziyoev - "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim", ekanligini ta'kidlab o'tadi [3. B.27].

Globallashuv haqiqatda insonning nafaqat moddiy hayot tarziga, shu bilan birga ma'naviyati, ruhiy olamiga ham sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Har kuni virtual makonda bir necha milliondan ziyod axborot resurslarining paydo bo'lishi, uning hosili daqqa sayin o'sib borayotganidan dalolat beradi. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning insoniyat madaniyatiga tug'dirayotgan xavf-xatarlari to'g'risida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Bu noxush g'ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqdagi axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish bo'yicha imkoniyatlardan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to'g'ri yo'ldan burish, o'zlari targ'ib etayotgan nopok g'oya va manfaatlar tomon yo'naltirish uchun ularga axborot yetkazish borasida olib borayotgan harakatlari bilan bog'liqdir. So'zsiz, bunday ta'sirga internet auditoriyasining eng faol, eng ko'p qismi tafakkuri yetilib, dunyoqarashi puxta shakllanib ulgurmagani yoshlardir. Taasufki, ana shunday jiddiy muammoni mukammal va tizimli o'rganishga yetarli e'tibor berilmayapti. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, g'iyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani - ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi" [4.].

Globallashuvning milliy ma'naviyatimiz, an'ana va marosimlarimiz, yoshlarimiz tarbiyasiga o'tkazayotgan ta'sirini o'rganishga esa hali kirishilganicha yo'q. Bu sohadagi hulosalar «Seriallar yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda», «Uyatsiz epizodlarni televideniya ko'rsatmaslik kerak», degan umumiy gapdan nariga o'tmayapti. G'arb mamlakatlari televideniya yuzasiga emas, atrofimizdagi ba'zi mamlakatlar televideniya yuzasida ham ko'rsatilayotgan yoki G'arbdan translyasiya qilinayotgan dasturlarga solishtirsak, televideniya yuzasidagi o'ta behayo deb atalayotgan ko'rsatuvlar juda beozor va risoladagidek ko'rinadi. Bu holat o'ta behayo deyilayotgan ko'rsatuvlarning yangi to'lqinini kutishimiz kerakligini anglatadi. Ma'naviy globallashuv xorijdan faqatgina o'shanday behayo tomoshalarning kirib kelishini bildiradimi? Bu savolga javob topishimiz uchun ma'naviyat sohasidagi globallashuvning tarixiga va mohiyatiga nazar tashlashimiz lozim [5. B.172].

Globallashuv turli mintaqadagi mamlakatlarning o'zaro ta'siri kuchayishi jarayoni ekan, unda iqtisodiy va ma'naviy ta'sir ko'pincha birgalikda kechishi kuzatiladi. Faqatgina, ayrim hollarda ular nisbatan mustaqil tarzda kechadi. Globallashuv tarixiga qarasak, qadim zamonlarda ham iqtisodiy va ma'naviy ta'sirlar yonma-yon kechganligini kuzatamiz. Masalan, o'rta asrlarda yurtimiz Buyuk Ipak yo'lining markazida bo'lganligi sababli ham G'arbnig, ham Sharqning ta'sirida bo'lgan. G'arbdan Sharqqa, Sharqdan G'arbg'a borgan savdogarlar ham yurtimiz orqali o'tgan.

Savdo mollari bilan birga G'arb va Sharqning urf-odatlarini, an'ana va marosimlari ham o'lkamizga kirib kela boshlagan. Globallashuv tendensiyasi ana shu tarzda yuzaga kelgan. Ma'naviy jihatdan G'arbdan qolishmaydigan Sharq nima uchun ko'proq ta'sir o'tkaziladigan mintaqaga aylanib qoldi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy ta'sir o'tkazish uchun iqtisodiy jihatdan boy bo'lish kerak. Biroq, ma'naviy ta'sir o'tkazish uchun ma'naviy boylikning o'zi kifoya qilmas ekan. Masalan, dunyoda eng qadimgi tamaddunlar o'lkasi bo'lgan Iroq keyingi yarim asr davomida, globallashuv jarayonida uzoq mamlakatlar u yoqda tursin, yon atrofdagi mamlakatlarga ham sezilarli ta'sir o'tkaza olmadi. Ma'naviy globallashuv jarayonlarini o'rganar ekanmiz, ma'naviy ta'sir o'tkazishning muhim sharti ma'naviy faollik degan xulosaga keldik [6. B.67-68].

Demak, globallashuv jarayonida sivilizatsiyalararo muloqot o'sib borayotgan bir sharoitda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda zamonaviylik bilan tarixiylikning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, ya'ni texnika, texnologiya, axborot kommunikatsiyalari yutuqlari asosida yoshlar tafakkurini boyitishning ajdodlar ma'naviy merosi ne'matlaridan o'zaro aloqadorlikda foydalanish ko'nikmalarini ularda hosil qilish zarur.

Bugun yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorijiy ma'naviy-madaniy oqimlar ta'siriga ko'proq ishtiroqmand bo'lib, milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmoqda. Inson qadri, mas'uliyati, axloqiga bepisandlik ba'zi yoshlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. U.Saidovning ta'kidlashicha: "globallashuvning zamonaviy "liberal"lari "demokratiya", "inson huquqlari" kabi muqaddas qadriyatlarni niqob qilib, soddadil xalqlarni milliy manfaatlari, azaliy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va ko'p asrlik an'analaridan izchillik bilan uzoqlashish siyosatini qo'llab-quvvatlamog'da" [7. B.4-9]. Bizning nazarimizda inson qadriyati uning axloqiylikka yo'nalgani bilan belgilanishi kerak.

O'zgarishlarga qanchalik qarshilik ko'rsatilmasin, ular bari bir hayotimizga kirib kelaveradi. Ayniqsa, globallashuv jarayonidan o'zining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanuvchi kuchlar bor ekan, bu o'zgarishlardagi salbiy jihatlar ham kuchayib boradi. Binobarin, globallashuv jarayonining asosiy sub'yekti va harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlarga hizmat qiladigan bunday sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan an'anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy jihatdan yagona tamaddun hukmronligini o'rnatishidan iborat. Bunday sa'y-harakatlarning xatarli jihati shundaki, uning boshqa tamaddunlar, xalqlar va davlatlar uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi, masalan, yaqindagina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning milliy manfaatlari, an'ana va qadriyatlariga qay tarzda ta'sir etishi mumkinligi global hukmronlikka intilayotgan kuchlarni u qadar tashvishlantirmaydi [8. B.16].

Mafkura maqsadli qarashlar va ideallar yig'indisi bo'lib, u asosan jamiyatda alohida shaxslarning o'zaro munosabatlarini boshqarishga xizmat qiladi. Mafkura bu bir tomondan jamiyatda qabul qilingan, rag'batlantiriladigan va ilgari suriladigan, boshqa tomondan esa shaxs va jamiyatning o'z-o'zini tashkillashtirishga undovchi dunyoqarash me'yorlari yig'indisidir.

Mafkura alohida shaxs uchun millatning o'ziga xos vakili sifatida his qilishiga yordam beradi. Mafkura nihoyat fuqarolik huquqlariga ega bo'layotgan har bir odamga: "Nima uchun Biz – yagona jamiyatimiz?", "Biz kimmiz?", "Nima uchun biz ular emasmiz?" (o'ziga xos masalasi) degan savollarga javob bera olishi lozim, ya'ni uning milliy va siyosiy identikligini shakllantirishga yordam bera olishi kerak. Milliy mafkura millatning psixologik portretiga xos bo'lgan uning anglanmagan g'oyalari, hissiyotlari, tug'ma tasavvurlari, olamni idrok qilishdagi stereotiplarining ratsionallashuvidir. Mafkura fuqaroga ijtimoiy borliqda muayyan maqsadli yo'nalish topib yashashiga yordam beradigan tushunchadir. U jamiyatda milliy identiklik va o'ziga xos dunyoqarash matritsasini shakllantiradi.

Hozirgi paytda mafkuraning ijtimoiy omillarini o'rganishda ikki asosiy yondashuv: qiziqish nazariyasi va bosim nazariyasi mavjud deb ta'kidlaydi. Bu nazariyalarni tahlili qilar ekan birinchisining mafkurasini "niqob va quroli" bo'lsa, ikkinchisi uchun simptom va dori-darmondur. Qiziqish nazariyasida mafkura foyda uchun umumiy kurash fonida olib qaralsa, bosim nazariyasida – ijtimoiy-psixologik beqarorlikni tartibga solishning o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Birinchisida "odamlarning doimiy hukmronlikka intilishi; ikkinchisida doimo vahima-xavotirdan xalos bo'lishi kuzatiladi". O'z navbatida mazkur nazariyalar o'rtasida qarama-qarshilik bo'lishi ham shart emas deb qaraladi. Chunki jamiyatning mafkuraviy tuzilmasi uning boshqa tuzilmalariga singib "ijtimoiy qatlamga" kirib boradi. Mafkura

falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy ong darajasini belgilab, “siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va falsafiy qarashlar tizimi va odamlarning ijtimoiy reallikka munosabati sifatida baholanadi”.

Olmon sotsiologi K.Mangeym mafkurani ijtimoiy hayot mahsuli deb ta’riflaydi, umuman hamma narsa va voqea-hodisalar ijtimoiy asosga ega bo’ladi. U mafkuraning ikki darajasini: individual va individualdan ustun (guruhli, sinfli, milliy va hokazo) jihatlarini asoslashga harakat qiladi [9. B.358]. Shunday qilib zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda mafkura o’ziga xos ma’naviy hodisa sifatida ta’rif va tasnif etilib, insonda ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat, jamiyatning tarixiy istiqboli kabi masalar yuzasidan ijtimoiy dunyoqarashni barqaror rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Globalizatsiya rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga chuqur hissa qo’shib kelmoqda.

Birinchidan, iqtisodiy omil har doim barcha boshqa omillarning taraqqiyoti va istiqbolini belgilab bergan. Bu taraqqiyotning yuksak bosqichiga erishgan mamlakatlarning jahondagi endi rivojlanish sari qadam qo’yayotgan boshqa mamlakatlar ustidan nafaqat iqtisodiy hukmronligining ta’minlanishiga olib kelishi, balki, jahon siyosatiga sezilarli ta’sir o’tkazuvchi qudratli kuchga aylanishiga hamda etnos va millatlarning urf-odati, an’ana va qadriyatlariga zid bo’lgan soxta demokratik qadriyatlarni singdirish imkoniyatlarini kengaytirishga erishishini ta’minlaydi.

Shu ma’noda, globallashuvning bunday salbiy jihatlariga milliy g’oya va mafkura agar iqtisodiy taraqqiyotni o’zida aks ettirsagina munosib javob bera oladi.

Ikkinchidan, mazkur jihat taraqqiyotga erishgan mamlakatlar o’rtasida iqtisodiy ustunlikni qo’lga kiritishi uchun nayrangona kurashni kuchaytiradi. Uning xatarli tomoni, oddiy xalq va millatlar bu kurash qurboniga aylanishadi. Chunki rivojlanish sari qadam qo’yayotgan yoki rivojlanayotgan davlatlardagi tabiiy zaxiralar va moddiy boyliklar qo’lga kiritilishi asosiy maqsad qilib belgilanadi. Hozirgi davrda bu gumanitar yordam ko’rsatish, iqtisodiyotini g’arazli niyatda o’zlarining investitsiyalariga qaram qilib qo’yish, “himoya” qilish maqsadida o’z qurolli kuchlarini kiritish kabi yo’nalishlarda namoyon bo’lmoqda.

To’g’ri, bu omillar taraqqiyot uchun nihoyatda dolzarb va zarur bo’lsa-da, bularning o’zi yangi global muammoni keltirib chiqarayotganligini ko’rishimiz mumkin. Shuning uchun yangi O’zbekiston milliy g’oyasini rivojlantirishda tashqi siyosatda teng huquqli hamkorlik va xavfsizlik, millatni asrash va totuvlik tamoyillariga kuchli amal qilish kerak bo’ladi.

Uchinchidan, agar globallashuvni iqtisodiy vosita orqali millatni barbod etayotgan ummonga o’xshatsak, uning ijtimoiy munosabatlarga o’tkazayotgan ta’siri qatorida millatning o’zligidan mahrum etishga bo’lgan ta’sirini dahshatli tus olishini ko’rishimiz mumkin. Intellektual salohiyati va iqtisodiy imkoniyatlari yuqori mamlakatlar bu ummonga millatlarning o’ziga xosligi, o’zligini ko’rsatib beruvchi, urf-odat, an’ana, qadriyatlarini «g’arq» bo’lib ketish xavfini kuchaytirmoqda. Bu esa o’z navbatida yuksak taraqqiyotga erishmagan bironta millat va xalqqa ta’sir o’tkazmasdan qolmayapti. Iqtisodiy omillar, zamonaviy axborot vositalari va boshqalar yoshlarning milliy ongi, tafakkuri va dunyoqarashini o’zgartirib yubormoqda. Gegemonlikka da’vogar mamlakatlar shu imkoniyat va vositalar yordamida jahon xalqlari ongi, dunyoqarashi va turmush tarzini bir qolipga solishni o’zlari shakllantirayotgan “ommaviy madaniyat”ni singdirishni bosh strategik siyosatga aylantirayotganligi hech birimizni befarq qoldirmaydi albatta.

Ana shunday sharoitda globallashuv jarayoni, uning milliy ma’naviyatga o’tkazayotgan salbiy ta’siri, oqibatlar va uning oldini olish omili sifatida milliy g’oyani rivojlantirish yangi O’zbekiston jamiyatini shakllantirish, taraqqiyotga bezavol erishtirish va asrash uchun nihoyatda zarurdir.

Shuning uchun odamlarimizda yuksak ma’rifatni shakllantirish bu jarayonning rivojlanishiga qarshi tura oladigan ilmiy salohiyatni shakllantirish bu kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida mafkura vositasida muayyan millat yoki elatning an’anaviy dunyoqarashi va qiziqishlarini tartiblashtirib muayyan tizimga soladi, shu tarzda yagona ijtimoiy o’z-o’zini tashkillashtiruvchi tizim yaratiladi. Odamlar ommasi mafkuraning attraktorlik (jalb qiluvchi) xususiyati orqali yagona maqsadga qaratilgan faoliyat olib boradi. Mafkura ko’zga ko’rinmas iplar bilan ijtimoiy shaxslarni yagona maqsad asosida birlashtiradi. Bu mazkur muammoning nafaqat respublikamiz xalqi, balki butun insoniyat oldida turgan eng muhim muammo ekanini teran onglashning samarasi bo’lib, u bugungi kunda nafaqat har bir davlat mafkurasining tub asosini tashkil etadigan, har qaysi inson va butun jamiyat dunyoqarashining shakllanishida kalit rolini o’ynaydigan, balki oxirgi o’n yilliklarga kelib butun jahon madaniyati va sivilizatsiyasi hayotida ham dolzarb o’ringa chiqqan muammodir. Shuning uchun ushbu mafkuraviy o’zgarishlarning chuqur o’rganish, uning zamonaviy talqinlariga alohida e’tibor berish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zero, “Shu o’rinda farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog’liq vazifalarga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak” [3. B.89].

Adabiyotlar

1. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. (Globalization and ideological processes) – Toshkent: “Muharrir”, 2009. - 64 bet.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. (High spirituality is an invincible force) –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 178 bet.

3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. (We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level) – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 592 bet.

4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. (Kamolot Youth Social Movement of the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev Speech at the IV Congress) // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 1 iyul.

5. Shamsieva I. Yosh avlod ma'naviy rivojiga internetning ta'siri va axborot psixologik xavfsizlik muammosi. (The impact of the Internet on the spiritual development of the younger generation and the problem of psychological security of information.) // "Ijtimoiy fikr-inson huquqlari" jurnali 2007. №1, – 172 bet

6. Bekmatov A. "Globallashuv, milliy an'analar va yoshlar tarbiyasi. (Education of youth in the spirit of national independence - an important factor in strengthening the peace and security of the homeland) // Yoshlarni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash – Vatan tinchligi va xavfsizligini mustahkamlanish muhim omili" mavzusidagi Respublikaga ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2004., - 398 bet.

7. Saidov U. Olomon madaniyati. (Cultural scholars) // Tafakkur. – Toshkent, 2008. №2. – 106 bet.

8. Umarov B. G'arb tamadduni: inkiroz alomatlari. (Western civilization: signs of crisis.) // Tafakkur, - Toshkent, 2007. №2, - 143 bet.

9. Мангейм К., Мэмфорд Л., Блох Э., Тейяр де Шарден П., Янг М. и др. Утопия и утопическое мышление: антология зарубежной литературы. (Utopia and utopian thinking: an anthology of foreign literature) Пер.с разн.яз. Составление, общая редакция и предисловие В.А.Чаликовой. - Москва: Прогресс, 1991. 405 с.

UDK: 1: 323(575.1)

MUSTAQILLIK DAVRI YANGI MILLIY - FALSAFIY TAFAKKUR RIVOJLANISHNING XUSUSIYATLARI

X. E. Boboqulova

*Samarqand davlat chet tillar instituti
hurhidabobokulova1980@gmail.com*

Annotatsiya. Mustaqillik yillarida yangi milliy falsafiy tafakkur rivojlanishning mazmun-mohiyatini o'rganishda uning umumnazariy qonun va tushunchalariga asoslanib, uning xususiyatlari barqarorlik va o'zgarishlar, tadrijiylik va taraqqiyot, sabab va oqibat, inkor va vorislik kabi umumiy kategoriyalar ahamiyatini tahlil etdik.

Kalit so'zlar: Mumtoz adabiyot, ijtimoiy tafakkur, milliy falsafa, ma'naviy meros, qadriyat, intellektual, dialektik tafakkur, vorislik, ichki aloqadorlik, evristik izlanish, milliy taraqqiyot.

Особенности развития нового национально-философского мышления в период независимости

Аннотация. В годы независимости, при изучении сущности и значения нового национального философского мышления, мы проанализировали важность его общих черт, таких как стабильность и изменение, эволюция и развитие, причина и последствия, отрицание и преемственность, на основе его общих принципов и концепций.

Ключевые слова: национальная литература, общественная мысль, национальная философия, духовное наследие, ценность, интеллектуальность, диалектическое мышление, наследование, внутренняя принадлежность, эволюционное исследование, национальное развитие.

Features of the development of new national - philosophical thinking during the period of independence

Abstract. During the years of independence, while studying the essence and significance of the new national philosophical thinking, we analyzed the importance of its common features, such as stability and change, evolution and development, cause and effect, denial and continuity, based on its general principles and concepts.

Keywords: candidate literature, social thought, national philosophy, spiritual heritage, value, intellectuality, dialectical thinking, inheritance, inner belonging, evolutionary research, national development.

Ma'lumki har bir xalqning ona tili, mumtoz adabiyoti, takrorlanmas moddiy va ma'naviy madaniyati, o'lmas san'ati bardavom bo'lganidek milliy falsafasi ham mavjud bo'lib kelgan. Xo'sh, milliy falsafa nima? Milliy falsafa muayyan xalqning ijtimoiy tafakkur tarixi bilan bog'liq tarzda bir millatga xos,

uning butun ijtimoiy hayoti rivojiga xizmat qiluvchi umummilliy, umumbashariy xarakter ahamiyat aks ettirgan chuqur, keng qamrovli an'anaviy tafakkur mahsulidir. Buning zamirida butun bir yurt, millat, qonqardoshlik aloqalari, insoniy fazilat xususiyatlari mujassam tarzda faoliyat yurg'izadi. Agar bir millatga mansub milliy falsafiy tafakkur mavjud bo'lmaganda edi, hozirgi davrgacha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan ma'naviy merosimiz takomili turli davrlarda vujudga kelgan bo'lsa-da, asl mohiyatini yaxlitligicha saqlab, o'z xususiyatini rivojlantira olmas edi.

Milliy falsafa o'z mohiyati bilan umuminsoniy falsafaning bir bo'lagi, o'ziga xos milliy taraqqiyot yo'lidan ketayotgan barcha xalqlar falsafasi uchun daxldor bo'lgan fenomendir. Agar biz milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda ham bu yo'nalishni rivojlantirish zarurati mavjudligini anglaymiz.

Adabiyotlarda milliy falsafa mavzuida turlicha fikrlar mavjud: Ayrim faylasuflar, aslida milliy falsafa bo'lishi mumkin emas, bunday yondashuvning o'zi etnik mahdudlikka olib keladi, deb hisoblaydi. Boshqalari esa, modomiki, milliy falsafa muayyan xalq dunyoqarashi va tafakkurining ifodasi, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning nazariy asosi ekan, bu boradagi har qanday umumiy qonuniyatlar muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda xususiy holda namoyon bo'ladi.[7-36]-deya milliy falsafani yoqlab chiqadi.

Millat bor ekan, milliy madaniyat, til va adabiyot ham mavjud bo'lib, ularning barchasi nafaqat bir millatga, balki butun insoniyatga xosdir. Milliy falsafa millat mentaliteti bilan bog'liq muhim ijtimoiy hodisadir. Umumbashariy sivilizatsiyaga uzviy qo'shilish jarayoni milliy falsafani rivojlantirish orqali sodir bo'ladi. Eng muhimi-falsafadagi milliylik, umuminsoniylikni rad qilish evaziga emas, balki uni ijodiy boyitish orqali rivojlanib boradi.

O'zbekistonning milliy o'z istiqloliga asoslanadigan yangi milliy falsafiy tafakkuri va uning rivojlanish xususiyatlari ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O'tish davrida zalvorli kechmishlaridan saboq olib, istiqloq tufayli milliy mafkuramiz sahifalarida yangilik yaratishda ildamlilik bilan ijtimoiy taraqqiyot sari, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar orasidan o'ziga yo'l topa oldi: "Bu qonuniyat qadriyat tizimlari, ularning tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar dialektikasi uchun ham umumiydir. Qadriyatlar tizimining zamon za'llari ta'sirida o'zgarishi va davr realliklariga mos holatga kelishi ham ana shu jarayonga bo'ysunadi. Bu jarayonda o'zgarishlar voqea va hodisalarni zamondagi ketma-ketligi tarzida ro'y beradi. Dialektik tafakkur esa ana shu davomiylikning in'ikosi, uni anglab olish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U qadriyatlarining o'zgarishi va yangi qadriyat tizimlari vujudga kelishi jarayonini anglab olish imkonini beradi. Hozirgi davrdagi turli nomutanosibliklar, zamona silsilari va muammolari orqali shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelish jarayonini tasavvur qilmoq uchun ham dialektik tafakkur va ilmiy bilish usullariga murojaat qilishga to'g'ri keladi". (Qiyomiddin Nazarov. Aksiologiya.[6-338/339])

Yangi milliy falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyati ma'lum bir xalqning o'z tarixiy bosqichi davomida asta-sekin shakllanib, takomillashib borishi bilan bog'liq bo'lib, chunki bu takomil o'sha xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy taraqqiyotiningmuayyan bir davrida namoyon etib rivojlantirish bilan xarakterlanadi. Xususan, mustaqillikka erishgan O'zbekiston davlati ham o'z milliy falsafasini rivojlantirib nazariy-metodologik jihatdan fikr oddiylikdan murakkablikka, tasodifdan zaruratga qarab, xilma-xillikdan ayniyatga va birlikka qarab harakat qiladi. Bu birlik xususiyati yangi milliy falsafani rivojlantirish mohiyatini ochishga keng yo'l ochdi. Bugungi o'zbek falsafasini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv shart – sharoitlari mavjud bo'lib, bular yangi milliy falsafaning quyidagi jihatlari sifatida alohida o'rin tutadi:

- xalqimizning o'z milliy an'analariga sodiqligi;
- mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi;
- muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e'tiqodi;
- mehnatsevarligi. intellektual salohiyati va boshqalar.[10]

Milliy falsafani yanada taraqqiy ettirish vazifalarini amalga oshirish quyidagi masalalarning yechimini topishga bog'liq:

- birinchidan, bugungi kun talablari mustamlakachilik sharoitida soxtalashtirilgan falsafiy g'oyalar, qarashlar tarixini haqqoniy yoritish. xolis ko'rsatib berishni taqozo qiladi. Lekin,afsuski, o'z davrida qimmatli tarixiy manbalarning yo'q qilingani yoki ayovsiz talon-taroj etilgani bu ishni qiyinlashtirmoqda;
- ikkinchidan, ko'plab manbalar ingliz, arab yoki fors tillarida ekanligi, ularni biladigan faylasuf olimlarning, malakali tarjimonlarning kamligi umuminsoniy ma'naviy merosdan bahramand bo'lish va ulardan ijodiy foydalanishga to'siq bo'lmoqda;

- uchinchidan, odamlar ongidan mustabid tuzumning soxta g'oyalari, ular qoldirgan asoratlarni siqib chiqarish, mafkuraviy bo'shliqni yangi g'oyalar bilan to'ldirish, milliy istiqloq g'oyasini kishilar qalbiga singdirish muayyan vaqtni taqozo qiladi.[10]

Bu masalalarni o'z vaqtida hal etish xalqimiz uchun tarixiy zarurat bo'lib mustaqillikni mustahkamlash yo'lida jamiyatni tubdan isloh qilish, yangi avlod kishilarini yetuk milliy kadrlar tizimi sifatida tarbiyalash va zamonaviy tafakkurni shakllantirish eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasidan kelib chiqib milliy falsafa asosida yangilangan falsafa rivoji har bir xalqqa xos davlatchilik shakllanishi va yuksalishi bilan bog'liq tarzda kechishi, kuchli davlatchilikdan, kuchli falsafiy tafakkur ravnaqini talab etadi: "Mustaqillikni qo'lga kiritgan har qanday xalq avvalo, o'z tarixi va falsafasidan yangi davr uchun tashbehlar izlaydi, ijtimoiy taraqqiyotiga asos bo'ladigan ma'naviy tamoyillar, milliy an'ana va qadriyatlarga murojaat qiladi. Bu esa istiqloqla erishgan va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan sobitqadamlik bilan borayotgan xalqimizning milliy tafakkuri va dunyoqarashining takomil bosqichlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini, o'zbek falsafasining bugungi rivojlanish jarayonini har tamonlama va chuqur o'rganish zaruriyatini belgilaydi"[7-43]

Bugungi kun yangi milliy falsafa rivojiga umumiy xususiyat bu borliqda taraqqiyotning inkor etiluvchi va inkor etuvchi o'rtasida vorislik, ichki aloqadorlikni dialektik inkor bilan amaliy faoliyati bir-biriga bog'liqdir. Negaki, mustaqillikka erishgan O'zbekiston tub o'zgarishlar asosida yangi jamiyat barpo etish masalasi dolzarb hisoblangan bir davrda eskisini butunlay rad etib, yangisini bunyod etishni rad etadi. Buni akademik I.A.Karimovning fikrlari orqali ham yaqqol ko'rishimiz mumkin: "Yangisini yaratmay turib, avvalgisini barbod etib tashlash qaysi aqlga sig'adi! Yangi uyni-imoratni qurmasdan, eski uyni, o'zimiz istiqomat qilayotgan uyni yiqitish, vayron qilish - bu aqldan emas". [2-210] kabi ilgari surgan g'oyalari eski davr bilan yangi davr o'rtasidagi tajriba va aloqadorlik doimo mavjud bo'lgan. Ana shu vorisiy va aloqadorlik jarayonida xalq asrlar davomida to'plagan eskiliklariga butunlay singib ketmagan holda yangi davrda uni yangicha asoslab, rivojlantirib boyitadi.

Shu ma'noda, yangi davrda eskidagi o'tkinchi mazmuni ifodalovchi hamma narsani qat'iy inkor etish, lekin shu bilan birga, uning o'zi o'tmishdagi butun taraqqiyotning davomi ekanligi yaqqol ko'rinadi. Yangi davr o'tmishning hamma progressiv jihatlarini va qimmatli narsalarini saqlab qolib, uni qayta baholaydi, oldingining inkori sifatida paydo bo'ladi, xato va vaqt sinovidan o'tolmagan hamma narsalarni bartaraf qilib, oldingidagi hamma haqiqatni saqlab qoladi.[8-386] Umumiy tarzda qaraganda taraqqiyoti yangilanish davrida faollashuv, omilkorlik rivojlanadi va individualizm mayliga asoslangan antropotsentristik (yunon. Anthropolos-inson, kentron-markaz)[5-36 bet] tafakkur shakllanadi.

Xalqimiz hayotidagi yangilanishlar milliy istiqloq g'oyalari negizida shakllangan va inson manfaatlariga xizmat qiladigan milliy falsafa shaklida endigina paydo bo'layotgan munosabatlarimiz butun o'tmishimizni yangicha nazar bilan baholash, uni qaytadan ko'rib chiqish, shu asosda tarix xotirasi va tarixiy tafakkurni yangi milliy falsafiy g'oyalar bilan rivojlantirish dolzarb hisoblanadi: Shu jihatdan tarixiy voqealarni to'g'ri, obyektiv baholash orqali shaxs o'zi yashayotgan davrni, mavjud muammolarni ham to'g'ri baholashni anglab etadi. O'zbekistonda kechayotgan islohotlar davri nafaqat tarixiylikni, obyektivlikni, xuddi shuningdek, optimizmni ham taqozo etadi. Tarixiy tafakkurga ega bo'lgan, voqealarni obyektiv baholay oladigan kishida bugun Respublikamizda kechayotgan tub o'zgarishlar kelajakka ishonch, optimizm uyg'otishi muqarradir. Mustaqillik davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotimizda, fuqarolar ongida, mentaliteti va turmush tarzida ro'y bergan o'zgarishlar haqiqatan ham buyuk ahamiyatga ega. Ularning barchasi eksport qilingan voqelik emas, balki xalqimizning tarixiy-madaniy tajribasiga asoslanadi, millatimizning asrlar davomidagi orzu-intilishlarining tarixiy natijasidir. Shuning uchun mustaqillik xalqimiz, fuqarolarimiz ongida shakllanayotgan o'zlikni anglash esa ushbu tarixiy-qonuniy hodisaning tarkibiy qismidir.[9-17 bet]

O'zlikni anglash orqali yangi falsafiy qarashlarimiz negizida milliy falsafamizning jamiyat taraqqiyotida rolini kuzatamiz. Bu o'zlikdan ajralmagan tarzdagi "milliy taraqqiyot" deb e'tirof etiladi. Milliy taraqqiyotning o'zagini o'z navbatida milliy o'zlikni anglash tashkil etadi. Bu millatning va uning har bir vakilining ekzistensial borliqda o'z o'rnini idrok etish, ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyot o'zining yaratuvchanlik faoliyati, evristik izlanishlari, intellektual salohiyatiga bog'liqligi shu o'rinda hayot va faoliyati taraqqiyot talablari nuqtai nazaridan oqilona boshqaruv yo'lini tanlash masalasi yotadi.

Mustaqillik buyuk ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida millatimiz hayotini to'g'ri va munosib tanlash yo'lini ko'rsatdi. Tafakkurning butun tarixi, shu bilan bir qatorda bilish prosessi ham umumlashgan tarzda falsafiy mohiyatni rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga qaratdi. Rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini o'rganish orqali o'zlikni anglash va amaliy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish, shu o'rinda yuz berayotgan jarayonlarning xususiyatlar dialektikasini konkret tadbiq qilish talab qilinadi. Voqelikni aniq analiz qilinish talabi makon va zamonda ichki bog'lanish aks ettiriladi va hal qiluvchi xususiyat namoyon bo'ladi. Bu xususiyat yangi milliy falsafaning muhim prinsipini konkretlashtiradi, bunda abstrakt haqiqat bekor qilinib, konkret

haqiqat o'z ifodasini topadi. Buning ma'nosi shuki, rivojlanishning umumiy qonunlari, va prinsiplarining bir biriga xosligi, hodisalar va jarayonlarning o'zaro chambarchas aloqadorlik asosida shakllanadi.

Millat va millat vakillari o'rtasida ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarida yakdillik bo'lishi milliy ongning, o'zlikning anglash demakdir. Shaxs borki, millat maqsadlari va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi g'oyalarni qabul qilmay, yakdil bo'lolmaydi. Mustaqillik tufayli millatimiz, uning har bir vakili o'z hayoti kelajagiga o'zi xo'jayin, o'zi ma'sul, o'zi ijodkor ekanini angladi, umuminsoniy taraqqiyotda o'z o'rni, ulushga ega ekanligini his etdi. Bu millatning milliy o'zligini anglashi umuminsoniy ong darajasiga ko'tarilishi va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvor bo'lishini e'tirof etadi. Milliy ongning gumanistik mohiyati va maqsadi bizning jamiyatimizda rivojlanishga, yangi bosqichlarga o'tishga yetaklaydi: "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnicilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarini qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir." [3-5]

Yangi takomil asosiga o'tgan davlatimiz siyosiy va ijtimoiy negizini demokratik tamoyillar asosida tanladi. Ammo eng avvalo, jamiyatimiz taraqqiyoti demokratik o'zgarishlarining darajasi va sur'atlari shu jamiyatning fuqarolarining tafakkuri va ijtimoiy saviyasining bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liqdir. Bu mutanosiblik o'zaro hamjihatlik va jamoatchilik fikrining ustuvorligi bo'lishligini I.A.Karimov shunday qayd etib, izoh beradi: "Biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatparvar demokratik davlat qurishga intilayapmiz. Adolatga intilish xalqimiz ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyatdir. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizimida o'z aksini topishi mumkin". [4-179]

Bizga ma'lumki, har bir mamlakat milliy davlatchilik an'analarini saqlab qolmasa, u chinakamiga o'ziga xos demokratik davlat bo'la olmaydi. Ana shu xususiyatga asoslanib, milliy davlatchilik uchun zarur an'analarni hayotga joriy qilish dolzarb hisoblanadi. O'tish davrining asosiy xususiyatlaridan biri ham shunda bo'ldiki, bu davrda –shaxs manfaati bilan millat manfaati o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'lgan holda millat, xalq manfaatlari yuqori turishi lozim, o'shandagina millat, xalq manfaatiga mos davlatchilik asoslari barpo etiladi. Shu jihatlariga intilgan tafakkur, ijtimoiy faollik deya baholanadi: "Lekin insonni birinchi navbatda tavsiflaydigan xususiyat bu uning beixtiyor va oldindan aytib bera olinmaydigan holatda amal qilish, olamga prinsipial jihatdan yangicha narsalarni olib kirish qobiliyatidir. Shu ma'noda faollik muayyan harakat sohasini, ishtirok etish va muhokama qilishga imkon beradigan siyosiy "ommaviy sahna"ni taqozo etadi". [1-697] O'tgan totalitar jamiyatda faollashuv praksis poyezisdan (praksis - praxis va poyezis - poiesis)[11] iborat qilib qo'yiladi. Inson, xalq, millat manfaati, bularning hammasi siyosiy manfaatlariga bo'ysundirildi. Bunday tuzum shaxslarni o'ziga bo'ysundirish va guruhlarini yo'qqa chiqarib, haqiqiy faollik qobiliyatidan, imkoniyatidan mahrum etdi. Bu o'z o'rnida yangilikdan uzoqlashgan, o'zligidan voz kechgan yangi individlarni dunyo keltirdi. Shakllangan individlarni bo'ysundirish va nazorat qilish totalitar tuzumning eng oson tizimini hisoblanardi. Shu tizim orqali bir butun xalq o'z o'tmishidan va kelajakka bo'lgan intilishlaridan uzoqlashdi ya'nikim - "ma'rifat, boshqaruv va tabiat ustidan hukmronlik sohalariidagi taraqqiyotning yuksak ideallari tanazzul va bema'nilikning ifodasi sifatida, hayotiy kuchlarni bo'g'ib tashlovchi intizom va tabiiy shart-sharoitlarning nooqilona emrilishi tarzida ko'rsatiladi (inkor etiladi)". [1-691 bet]

Xulosa o'rnida, Mustaqillik davri yangilanish jarayoni ma'naviy hayotni yangilash bilan birga falsafaning aynan rivojlanayotgan "o'zbek falsafasi"ning takomiliga fundament barpo etdi. Ya'ni davr o'zgarishi bilan ijtimoiy taraqqiyot rivojida yangicha hayot tarziga mos tafakkur uslubida yangi sifatli o'zgarishlar shakllandi.

Adabiyotlar

1. Gunnar Skirbekk. Nils Gile. Falsafa tarixi. – Toshkent: Sharq, 2002. 710-6er
2. Karimov I.A. O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent.: O'zbekiston, 2011. - 440 6er
3. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994. 86-6er
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: 1995. -369-6er
5. Falsafa qisqacha izohli lug'at. – Toshkent.: Sharq, 2004. -384 6er
6. Qiyomiddin Nazarov. Qadriyatlar falsafasi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati", 2011. 384 6er
7. Qiyomiddin Nazarov. O'zbek falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013. 212 6er
8. Qiyomiddin Nazarov. Falsafa asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2012. -808 6er
9. Qo'chqorov V. Ma'naviyat-milliy o'zlikni anglash. -Toshkent.: Akademiya, 2008.- 32 6er
10. www.ziyouz.com kutubxonasi
11. www.gumer.info.

UDK: 1 (2):141.336

HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING TA'LIMOTIDA IJTIMOY ADOLAT MASALALARI

A. N. Alimov

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
alimov.akbar@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada Husayin Voiz Koshifiyning ma'naviy merosi, asarlari, davlat va jamiyatni boshqarishga oid g'oyalari, xalq bilan muloqot qilish tamoyillari, Qur'oni karim va hadislarda keltirilgan din, tasavvuf, axloq, qalb, adolat to'g'risidagi so'zlarning mazmun mohiyati hamda shariat, tariqat va futuvvatni uyg'unlashtirilgan holda ochib berilganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: din, tasavvuf, hadis, axloq, qalb, adolat, xalq, muloqot, tamoyil.

Вопросы социальной справедливости в учении Хусейна Воиза Кошифи

Аннотация. В статье описывается, духовное наследие Хусейна Воиза Кошифи, произведения, идеи правительства и общества, принципы общественных отношений, а принципы диалога с народом, обосновываясь на смысл слово религия, мистика, мораль, сердце и справедливость, представленных в Коране и хадисах гармоничным образом.

Ключевые слова: религия, суфизм, хадис, мораль, сердце, справедливость, народ, диалог, принцип.

Issues of social justice in the teaching of the preacher Hussein Voiz Kashifiy

Abstract. This article describes the spiritual heritage of Hussein Voiz Kashifiy, works, ideas of government and society, principles of public relations, principles of dialogue with the people, basing on the meaning of the word religion, mysticism, morality, heart and justice, presented in the Qur'an and Hadith in a harmonious manner.

Keywords: religion, sufism, hadith, morality, heart, justice, peoples, dialogue, principles.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Temuriylar hukmronligi davri madaniy va ma'naviy yuksalish bosqichi hisoblanadi. Temuriylar davrining yirik mutafakkiri Husayn Voiz Koshifiy Sharqning mashhur allomalaridan biridir. Husayn Voiz Koshifiy (1442-1505) islom dinining yirik nazariyotchilaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she'r san'ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi manbalardan ma'lum[1;241-245]. Ularning aksariyati 500 yil davomida axloq-odob dasturi sifatida qo'ldan-qo'lga o'tib, zo'r qiziqish bilan o'qib kelinmoqda. Koshifiyning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik va H. Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar institutlarida 45 nomdagi asarlarining 197 qo'lyozma va 75 tosh bosma nusxalari saqlanmoqda. Bundan tashqari u o'z davrining ko'zga ko'ringan ilohiyotchi olimi bo'lib, hadisni, Qur'oni karimni yoddan bilgan, hatto Qur'onga to'rt kitobdan iborat sharh ham yozgan.

Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Risolai Hotamiya", "Anvori Suxayliy", "Futuvvatnomai Sultoniy", "Tavsiri Husayniy", "Javohirnoma" kabi o'ndan ortiq asari arab, tatar, eski o'zbek, urdu, turk, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda Koshifiy asarlari Parij, London, Berlin, Sankt-Peterburg, Moskva kabi shaharlarda, Iroq, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Bangladesh va boshqa sharq mamlakatlarining kutubxonalarida saqlanmoqda. Chet mamlakatlarda Koshifiy asarlariga qiziqish XVIII-XIX asrlardayoq kuchli bo'lib, G'arbiy Ovro'poning X. G. Kin, M. Duayt, D. D. Donalson, E. Braun, A. A. Arberri, E. S. Kennedi, E. Rozental, X. Masse, K. S. Lambton, R. Levi, A. M. Shasteri kabi mashhur olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV-XV asrlardagi madaniyati tarixini atroflicha o'rganishga harakat qilganlar va Koshifiyning ijodi, merosiga yuqori baho berganlar[2;88].

"Axloqiy Muhsiniy yohud yaxshi xulqlar" asarida Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari bayon etiladi. "Adolatning ma'nosi xalqning xuquqiy tengligini ta'minlashdir. Adl shunday ziynatdirki, u mamlakatga oroyish beradi, bir quyoshki, uning nuri bilan zulmat yorug'likka aylanadi. Adolat zulm ko'rganlarning dodiga yetib, ahvollariga shafqat nazari bilan qarash demak. Ehsan esa g'ussa tig'idan majruh bo'lganlarning jarohatiga rohat malhamini surish demakdir. Hadisda yozilishicha, bir soatlik adolat tarozi pallasi oltmish mukammal hajdan og'irroq ekan. Negaki, hajning natijasi, ya'ni foydasi hojilardan o'zga kishilarga bo'lmaydi, adolat foydasidan esa katta-yu kichik bahramanddir. Din va davlatning rivoji va shavkati uning barakatidan barqaror bo'ladi, mulki millat asbobi uning yordami bilan to'g'ri bo'ladi. Adolatning savobi chegarasizdir va aql qiyosidan tashqaridir"[3;42]. Adolatning ulug' shartlaridan biri shuki, zulm ko'rgan odamlar adolat talab qilib kelsalar, ularning so'zlariga shafqat qulog'ini tutish, mushkullarini hal etish uchun ularga marhamat ko'zi bilan qarash lozim.

“Axloqiy Muhsiniy yohud yaxshi xulqlar” asarida Husayn Voiz Koshifiy siyosiy qarashlarining nazariy va amaliy jihatlarini bayon etadi. Asarning siyosat bayonida shunday deydi. “Siyosat soʻzining asl maʼnosi kishini gʻamga solishdir. Istiloh maʼnosi esa mamlakatni qoʻlda tutish va har kimni oʻziga munosib oʻringa qoʻyishdir. Siyosat ikki xil boʻladi: biri oʻz nafsiga nisbatan siyosat qilish, ikkinchisi oʻzga kishiga siyosat qilish. Oʻz nafsiga nisbatan boʻlgan siyosat shuki, yomon sifatlarni oʻzidan yoʻqotish va yaxshi xulqlarni egallashdir. Boshqaga nisbatan siyosat esa yana ikkiga boʻlinadi. Birinchisi, oʻz aʼyonlari va yaqinlari siyosati va ularni tartibga solish. Ikkinchisi, umumxalq siyosati. Buning birinchisi qirqinchi bobda, inshoalloh, mazkur boʻlgʻusidir. Ammo ikkinchi qismi shundayki, podshoh mamlakatida badfeʼl yomon odamlarni hamisha qoʻrquvda tutishi, yaxshilarni esa doimo umidli xolda tarbiyalashi kerak. Hakimlarning aytishlaricha, har ikki olamning madori siyosatdir, uni olamning sozi nosozligi asosida nomzod qilganlar. Agar zabt etish va siyosat qilish boʻlmasa, barcha ishlar izdan chiqadi, agar adab berish va jazolash rasmi yoʻq boʻlsa, muhim ishlar vayronlikka yuz tutadi[4;155-156]. U davlatni odilona boshqarishda siyosatdan foydalanish kerakligini alohida taʼkidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga taʼlim-tarbiya bergan, Xuroson shaharlarida axloq-odobdan vaʼz aytgan. Koshifiy oʻz asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, maʼnaviyat masalalariga katta oʻrin ajratadi, siyosat, davlatni boshqarish, shoh bilan fuqarolar oʻrtasidagi munosabat, jamoani idora etish, yetuk insonni tarbiyalash muammolari uning ijodida katta oʻrin egallaydi. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, yuqori maʼnaviyatga ega boʻlish, madaniy yuksalish gʻoyalari ilgari suradi. Uning “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai Hotamiya”, “Anvori Sixayliy”, “Axloqi Karim”, “Javohirnoma”, “Lubbo ul-maʼnaviy fi-intixobi masnaʼviy”, “Iskandar oynasi”, “Tafsiri Husayniy”, “Futuv-vatnomai Sultoniyy” kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlardan Xuroson mamlakatida, Hirotida va boshqa shaharlardagi madrasalarda talabalar uchun darslik sifatida foydalanilgan. Mutafakkir bu asarlarida oʻzining hayotdan olgan soboqlari, tajribalari asosida xalqchilik, insonparvarlik, ijtimoiy hayot, adolat, halollik, sofdillik, poklik, toʻgʻrilik, rostgoʻylik haqidagi fikrlarini oʻqimishli, qiziqarli hikoyatlar, rivoyatlar yordamida bayon etadi. Bu asarlar Koshifiy tili bilan aytganda “Hikmati amaliy” asosida yozilganligidan bugungi kunda ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Husayn Voiz Koshifiy insonni dunyodagi eng yuksak olijanob mavjudot deb biladi.

Bu Voiz Koshifiy axloqiy taʼlimotining yetakchi gʻoyasidir. U salbiy axloqiy hislatlarni qoralaydi va ularning inson hayotida va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator hikoyat va rivoyatlar bilan koʻrsatadi. Husayn Voiz Koshifiy yaxshilik va yomonlik, adolat, vijdon, burch tushunchalari haqida ham atroflicha fikr yuritadi. Axloq normasi insonlarning xulq, feʼl atvorlarini tartibga solib turuvchi axloqiy talablardir. Koshifiy ijobiy hislatlarni kishilarda boʻlishi shart boʻlgan insoniy fazilat deb tushunadi va sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, saxiylik, saxovat, rostgoʻylik, shijoat, kamtarlik, hushyorlik, baland himmatlik, diyonatlik, ahdiga vafolik, andishalilik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira olish kabi fazilatlarini birma-bir taʼriflab oʻtadi. Koshifiy axlokli inson deganda, ilm-maʼrifatga intiluvchi, haqiqat va adolatni sevuvchi, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, mard, harakatchan, olijanob, saxiy, ochiq qalb insonni tushungan. Axloq masalalarini yoritishda Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” (Husayn Boyqaroning oʻgʻli – Abdulmuhsin Mirzoga bagʻishlangan) asari eng mashhur va muhim ahamiyat kasb etadi. Koshifiy oʻz asarlarida siyosat, davlatni boshqarish masalalari boʻyicha ham oʻz davri uchun muhim fikrlarni olgʻa suradi. U davlatni odilona boshqarishda siyosatdan foydalanish kerakligini alohida taʼkidlaydi. Siyosat mamlakatni boshqarish uchun zarur, u shaxsiy ish emas, balki ijtimoiy ishdir. Siyosat adolatli boʻlsa, mamlakat, jamiyat rivoj topadi, xalqi farovon yashaydi. Siyosatni odil podshohlar adolat bilan boshqarishlari kerak: “Adl (adolat) siyosatsiz mavjud boʻlmas. Siyosat yoʻq boʻlsa, sardorlik zaif. Na uchunkim mulku-millat ziynati, dinu davlati musallahi siyosatdur” [5;155-162], deb mamlakat taraqqiyotini, adolat qaror topishini ham Koshifiy siyosatga bogʻlaydi. Demak, Husayn Voiz Koshifiy shoir, yozuvchi, olimgina emas, balki dono siyosatchi ham boʻlgan. Uning jamiyat, davlat, tinchlik, ixtiloflarni osoyishtalik bilan hal etish zarurligi toʻgʻrisidagi fikrlari hozir ham oʻz ahamiyatini saqlab kelmoqda. Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning maʼnaviy davrasida boʻlgan XV asr Xuroson va Movarounnahr madaniyatining rivojiga katta hissa qoʻshgan hamda oʻz asarlari bilan soʻnggi avlodlarga katta taʼsir koʻrsatgan mashhur allomalardan boʻlib tarixda qoldi. U qomusiy ijodi bilan oʻz davri maʼnaviy yuksalishi yoʻlida faol xizmat qildi va nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq umuminsoniy, madaniy boyliklarini kuchaytirishga sezilarli taʼsir koʻrsatdi.

Adabiyotlar

1. Mahmudov R.J. Husayn Voiz Koshifiy / Maʼnaviyat yulduzlari. – T., 2001. –B.241-245.
2. Xayrullayev M. Buyuk siymolar, allomalar (Markaziy Osiyodagi mashhur mutafakkir va donishmandlar). A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – T.,1996. –B.88.
3. Husayn Voiz Koshifiy. Ahloqiy Muhsiniy. Futuvvatnomai sultoniyy. – T., 2019. – B.42.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Ahloqiy Muhsiniy. Futuvvatnomai sultoniyy. – T., 2019. – B.155-156.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Ahloqiy Muhsiniy. Futuvvatnomai sultoniyy. – T., 2019. – B.162.

ALISHER NAVOIY IJODIDA INSON MUAMMOSI

B.N.Turobov

*Samarqand davlat chet tillar institute
bekpulat2010@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoi ijodida inson muammosi yoritilgan. Navoiy fikricha insonning qadr-qimmati mezoni ijtimoiy kelib chiqishi va mol-mulki emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari hisoblanadi. Olamdagi barcha narsalar insonga xizmat qilish uchun yaratilgan. Mutafakkir panteizm ta'limotiga asoslanib, insonni ilohiylashtiradi, uni ilohiy mavjudlik, Xudoning namoyon bo'lishi, deb hisoblaydi. Navoiy odam asosan ijtimoiy hayot jarayonida insoniy xislatlarga ega bo'lib boradi, deb hisoblaydi. Inson instiktiv harakat qiladigan hayvondan farqli o'laroq aql, fahm-farosat, fikrlash, bilish qobiliyati, shunday qilib, o'zida u yoki bu predmetlar to'g'risida muayyan, tizimli bilim hosil qilish, til in'omi, o'zining fikrlari, bilimlarini boshqalarga berish ko'nikmasiga ega. Bu ijtimoiy fikrni vujudga keltirib, insonning hayvondan ustunligini bildiradi.

Kalit so'zlar: inson, panteizm, insoniy xislatlar, ijtimoiy fikr, bilim, taraqqiyot, ma'naviy qiyofa, ijtimoiy hayot.

Проблемы человека в творчестве Навои

Аннотация. В статье рассматривается проблема человека в творчестве Алишера Навои. По словам Навои, критерием человеческого достоинства является не социальное происхождение и собственность, а его духовный облик, нравственные качества. Все во Вселенной создано для служения человеку. Мыслитель, основываясь на учении пантеизма, обожествляет человека, считая его божественным существом, проявлением Бога. Навои считает, что человеческие качества человек приобретает в основном в процессе общественной жизни. В отличие от животного, которое действует инстинктивно, человек обладает интеллектом, разумом, мышлением, способностью знать, тем самым создавая в себе определенные, систематические знания о том или ином объекте, имея дар языка, пользуется способностью передавать свои мысли, знания другим. Это создает общественное мнение и означает превосходство человека над животным.

Ключевые слова: человек, пантеизм, человеческие качества, общественная мысль, знание, прогресс, духовный образ, общественная жизнь

Human problems in the work of Navoi

Annotation. The article deals with the problem of man in the work of Alisher Navoi. According to Navoi, the criterion of human dignity is not social origin and property, but its spiritual appearance, moral qualities. Everything in the universe was created to serve man. The thinker, based on the doctrine of pantheism, deifies man, considering him a divine being, a manifestation of God. Navoi believes that a person acquires human qualities mainly in the process of social life. Unlike an animal, which acts instinctively, a person has intelligence, reason, thinking, the ability to know, thereby creating in himself certain, systematic knowledge about this or that object, having the gift of language, uses the ability to transmit his thoughts, knowledge to others. This creates public opinion and means the superiority of man over animals.

Keywords: man, pantheism, human qualities, social thought, knowledge, progress, spiritual image, social life.

Inson borlig'i o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra eng murakkab borliq shaklidir. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, inson, dastavval, tabiatning eng oliy tirik mavjudotidir. inson, ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli bo'lgan ijtimoiy mavjudot hamdir. Navoiyning fikricha, erdagi hamma narsadan eng qadrlisi insondir. Insonning qadr-qimmati mezoni ijtimoiy kelib chiqishi va mol-mulki emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari hisoblanadi. Olamdagi barcha narsalar (Quyosh, tog'lar, dengiz, daryolar, havo, olov, tabiat, xullas, barcha borliq) insonga xizmat qilish uchun yaratilgan. Mutafakkir panteizm ta'limotiga asoslanib, insonni ilohiylashtiradi, uni ilohiy mavjudlik, Xudoning namoyon bo'lishi, deb hisoblaydi. Agar xudoga muhabbat bo'lsa, insonni hurmat qilish kerak, u chunki Xudoning to'liq, mukammal namoyon bo'lishidir. Inson Xudoning konkret namoyon bo'lishidan iborat bo'lib, u cheksiz istakka ega bo'lishi, erkin harakat qilishi mumkin. Demak u o'z taqdirini o'zi hal qiladi va qilishi kerak. Shuning uchun Navoiy ijobiy qahramonlarining birortasi fatalist (taqdirga ishonuvchi) emas.

Shuning uchun ular maqsadga erishishga intilib, yo'llaridagi to'siqlarni engishga harakat qiladilar. Bundan kelib chiqqan holda Navoiy inson xohishlarini real zaruriyatda, aniqroq aytganda, ba'zi munosabatlarda ijtimoiy bog'langanlikda ko'radi. Tirik mavjudotlar to'rtta unsurdan iborat (anosir-i-arbaa). Bular olov, suv, havo, tuproq, ya'ni issiq, sovuq, ho'l va quruqdir. Inson ham tirik mavjudot bo'lganligi uchun unga shu unsurlar ham xosdir. Inson hayoti shulardan kelib chiqadi va shuning uchun inson bilishga qodir [8, 49-53].

Navoiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib bora oladigan kishilarni "ma'no ahli", aksincha esa, ularga e'tiborsiz va yuzaki qaraydigan kimsalarni "suvrat ahli" deb ataydi. Suvrat ahlining insoniy hissiyotlari sust rivojlanganligi uchun, ular nafsining vaqtinchalik oromini o'ylaydilar. Uni lazzat deb hisoblaydilar. Aslida surat ahlining insonga aziyat beruvchi ishlar lazzat bag'ishlaydi, degan fikrga borishlari mohiyatni bilmaslikdan kelib chiqadi.

Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida tabiat fasllari bilan inson umri fasllari qiyosiy tahlil qilinadi. Navoiy nazdida, inson umri fasllarining almashinuvi umrning o'tkinchiligi va o'limning muqarrar ekanligidan dalolat beradi. Navoiy o'z ustoz Umar Hayyomdan farqli o'laroq bu haqda qattiq qayg'urmaslik kerak, deb hisoblaydi.

Necha jaf o'lsa falakdir unut,
Har nachakim kulli erur sahil tut.
Ishga necha sa'bliq erur,
Kim ani oson tutar, oson erur.

Bu Navoiyning o'sha davr falsafiy tafakkuri darajasidan juda baland ko'tarilganini ko'rsatadi [6, 214-215].

Navoiy odam asosan ijtimoiy hayot jarayonida insoniy xislatlarga ega bo'lib boradi, deb hisoblaydi. Inson instiktiv harakat qiladigan hayvondan farqli o'laroq aql, fahm-farosat, fikrlash, bilish qobiliyati, shunday qilib, o'zida u yoki bu predmetlar to'g'risida muayyan, tizimli bilim hosil qilish, til in'omi, o'zining fikrlari, bilimlarini boshqalarga berish ko'nikmasiga ega. Bu ijtimoiy fikrni vujudga keltirib, insonning hayvondan ustunligini bildiradi [2, 485-486; 3, 94]. Insonga muhabbat eng muhim ijtimoiy tamoyil bo'lib, vazifasi esa o'z yaqinlari xizmat qilishdan iborat. Erkak kishi uchun qandaydir avliyoning daxmasida chillada o'tirish isnod bo'lib, unga faqat mehnat munosibdir. Navoiy kishilarga foyda keltirishni hayot mazmuni, deb bilgan insonlarni ta'rifladi. Umrini faqat insoniyatga xizmat qilishga bag'ishlagan kishilargina odam degan ulug' nomga munosibdir, degan aqida ulug' shoirning hayot falsafasi hisoblanadi. Navoiy asarlarida ulug'langan inson mavhum odam emas. Navoiyning e'tiroficha, butun mavjudot olami, narsalar dunyosi, har qanday voqelikda inson eng aziz va eng qadr-qimmatli bo'lib, tashqi qiyofasi ham, ichki dunyosi bilan ham go'zaldir [8, 26].

Odamlarning harakatlari maqsadli xarakterga ega. Odam tirik ekan, u imkoniyat darajasida o'z hayotini saqlashga intiladi. Demak, odamlar hayotiy zaruriyat tufayli harakat qiladilar. Inson harakatsiz yashay olmaydi. Odamlar zaruriyat yuzasidan shunday munosabatlarga kirishadilarki, ular kishilarni birlari bilan bog'laydi. Birorta odam bundan tashqarida bo'la olmaydi. Navoiyning fikricha, odamlarning manfaatlari, tafakkur tarzi turlicha, bu esa birovlarini to'qnashuvga, boshqalarni esa o'zaro hamkorlikka olib keladi. Mutafakkirning fikricha, shunday toifadagi odamlar ham borki, ular tashqi qiyofasi bilan insonga o'xshaydi. Ammo ularning kirdi-korlari inson degan nomga munosib emas. Bunday odamlarni inson deb atash risolaga to'g'ri kelmaydi. Ular bilan do'stlashgan kishilarning obro'-etiboriga putur etishi ham mumkin. Shuning uchun bunday kishilardan uzoqroq yurish maqsadga muvofiq. Shoir bu fikrlarini she'riy tarzda quyidagicha bayon qiladi:

Kimniki, inson desang, inson emas,
Shaklda bir, fe'lda yakson emas.
Kimniki, aylay der esang mahraming,
Ko'p sinamay aylamagil hamdaming [1, 350].

Navoiy o'z davrining farzandi sifatida, ba'zi masalalarda o'z davri mafkura doirasidan tashqariga tashqariga chiqqan olmas edi. U falsafiy qarashlarida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zgartirish mexanizmlari masalasini qo'ya olmagan. Shoir o'zi yashagan davr ijtimoiy voqeligining salbiy hodisalarini tanqid qildi, ammo jamiyat rivojlanishi ob'ektiv qonunlarini tushuna olmadi. Navoiy hayoti va ijodini chuqur o'rgangan sharqshunos olim E.E.Bertelsning fikriga binoan, shu davra jiddiy ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirmay, faqat hokimiyat tepasida turgan amaldorlarni o'rnini almashtirish hech qanday natija bermas edi. Chunki bunday islohotlar uchun ob'ektiv shart-sharoit va sub'ektiv omillar bo'lmagan. Shu davrda bunday vaziyatning bo'lishi ham mumkin emas edi. Navoiy buni juda yaxshi anglardi, lekin shu davrning farzandi sifatida ijtimoiy muhitni o'zgartirish uning qo'lidan kelmasdi. Boshqa tomonda yondashsak, u ham saroy ahli safida muhim mavqega ega edi. Shu tufayli g'amgin kayfiyat ba'zi-ba'zida shoirni chulg'ab olgan bo'lishi kerak [6, 167].

Navoiy o'zi yashagan davr ijtimoiy hayotini o'rganadi, turli-tuman ziddiyatli va murakkab voqealarni kuzatadi. Kuzatishlar asosida shunday xulosaga keladiki, odamlar biologik nuqtai-nazardan birday tug'ulsalar-da, keyinchalik esa hayot jarayonida tafakkur tarzi, odatlari, xulq-atvorlari jihatidan turlicha bo'ladilar. Navoiyning anglashicha, insonning istaklarini belgilaydigan ichki va tashqi omillar mavjud. Tashqi omil esa ijtimoiy muhit bo'lib, inson usiz yashay olmaydi, odam bo'lmaydi ichki omillar insonning manfaati va foydani ko'zlashidir.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyatdagi turli tabaqalarning haqiqiy qiyofasini tavsiflaydi. Bu asar falsafiy mushohadalariga boy bo'lib, uch qismdan iboratdir. Birinchi qismda turli tabaqa va kasbdagi odamlarga axloqiy-pasixologik tasnif beriladi. Unda yutuq va kamchiliklar, odil va adolatsiz hukmdorlar, saroydagi katta amaldorlar va ularning axloqi to'g'risida fikr yuritiladi. Bular Navoiyning sotsiologik qarashlaridan dalolat beradi. Asarning ikkinchi qismida axloqiy fazilatlarini, ularning jamiyat hayotidagi roli va o'rini ko'rib chiqadi. Bu erda Navoiy falsafiy tahlil asosida, insonning axloqiy hayoti mezonini aniqlaydi. Uchinchi qismda esa aforizmlar, erkin ifodalar va chuqur mazmunli hikmatlar berilgan. Alisher Navoiyning asarlariga falsafiy mushohadalarining quruq mantig'i va mavhum postulatlar (isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoida, faraz) xos emas [5, 25].

Ijtimoiy muhit unsurlari haqida fikr yuritgan Navoiy, eng avvalo ularning asosiylari siyosiy institutlar, muassasalar va, davlat, deb hisoblaydi. Bu omillar qanday bo'lsa, jamiyat xarakteri, odamlarning tabiati, faoliyati, tafakkur tarzi shunday bo'ladi. "Mahbub ul-qulub" asarida podshoh qanday bo'lsa, uning fuqarolari ham shunday bo'ladi, deb yozadi. Podshoh yaxshi inson ekanligini yoki yaxshi ish qilayotganini ko'rgan fuqarolar unga taqlid qiladilar va shu ruhda tarbiyalanadilar. Demak, inson uni o'rab tugan olamdan ajralgan holda o'z qobig'ida yashay olmaydi. Uningcha, jamiyat hodisalar joyi, uyidir. Hech kim undan tashqarida, mustaqil bo'lishi mumkin emas [4, 133-136]. Ammo shu bilan birga, odamning ijtimoiy muhitga qaramligi, jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalar oldida hech kim degan ma'no kelib chiqmaydi. Haqiqatdan odam nima yaxshi-yu, nima yomonligini fikrlaydi, ularni bir-biridan ajrata oladi. O'z pozitsiyasi nuqtai nazaridan yomonlikka qarshi turishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhit tushunchasiga, Navoiy bir yoqlama yondashdi. U ijtimoiy muhit deganda, jamiyatning moddiy hayoti sharoitlarini emas, balki siyosiy institutlar, davlat va hukmdorlarni tushundi. Uningcha, ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun sub'ektiv omillar-tarbiya, fan, aql, axloqiy ta'sir zarur. Xususan, eng avvalo axloqiy ta'sir yo'li bilan, axloqiy omillar yordamida halqning hayotini yaxshilash mumkin [7, 314].

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida asosan odamlarni ikki guruhga bo'ladi, ular ham o'z navbatida juda ko'p qatlamlardan iboratdir. Bu qatlamlarning soni o'ttiz sakkiztadan iboratdir [3, 315]. Mutafakkir ularni qatlamlarga bo'lishda odamlarning ijtimoiy-foydali mehnat, Vatanga va farovonlikka, insonning qadriga munosabati nuqtai nazaridan yondashadi. Birinchi guruhga, shunday odamlar kiradiki, ular halqqa jabr-zulm o'tkazadilar va xarob qiladilar. Bular zolim shohlar bo'lib, ularning amaldorlari, ruhoniylarning jaholatparast vakillari, chayqovchilar aldov yo'li bilan mamlakatni barbod qiladiganlar sirasiga kiradi. Navoiy ularni itlar, cho'chqalar, chayonlar, eshaklar, bo'rilar, tulkilar deb ataydi. Qachonki bunday shoh ilon(vazir)ni qo'llab-quvvatlasa, bu xalqqa bir vaqtning o'zida bezgak va o'lat hujum qilganga o'xshaydi.

Navoiy o'zining siyosiy-falsafiy traktati "Hayrat ul-abror"da jamiyatning deyarli barcha (tekinox'r) qatlamlari bo'lgan ruhoniylar, shayxlar, savdogarlar, olib sotarlar, tekinox'rlar tavsifini beradi. Navoiy ikkinchi guruhga kiradigan odamlarni ham tavsiflaydi. Bu guruhga Navoiyning fikricha, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini yaratuvchilar, o'z baxtini o'zgaralar baxti hisobidan qurmaydiganlar kiradi. Navoiy eng avvalo hunarmandlar va dehqonlarni tilga oladi, chunki uning fikricha bular hammani boqadi, kerak bo'lgan narsalarni yaratadi. Inson mehnat jarayonida tabiiy boyliklar va ashyolarni ehtiyoj uchun zarur narsalarga aylantiradi. Masalan, hayvonlar uy hayvoniga, o'simliklar esa madaniy boylikka aylanadi. Inson o'zining faol hayotiy jarayonida "ikkinchi tabiat"ni, ya'ni sun'iy muhitni yaratadi va uning ko'lamini kengaytiradi. "Ikkinchi tabiat" "birinchi tabiat", ya'ni tabiiy borliq bilan bog'liqdir.

Shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy yashagan davrda sof ijtimoiy-falsafiy fikrlar kam uchraydi. Shuningdek, Navoiyning ijtimoiy-falsafiy fikrlari ham uning asarlarida asosan ramziy, ma'joziy tarzda aks etgan. U O'rta asr Sharqining murakkab sharoitiga qaramay falsafiy fikrni sxolastika ta'siridan qutqarishga harakat qildi.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Mukammal asarlar to'plami. Ettinchi tom. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1991. 422 b.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi tom. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 19910. 727 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinchi tom. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1991. 315 b.
4. Alisher Navoiy. Sab'ai Sayyor. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinchi tom. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1992. 491 b.
5. Aripov M. Gumanizm Alishera Navoi. Tashkent. "O'zbekiston", 1990. 222 s.

6. Bertels E.E. Navoiy. Monografiya. /Tarjimon. I.K.Mirzaev-f.f.d.-T.: "Tafakkur qanoti", 2015. 356 b.
7. Zaxidov V. Mir idey i obrazov Alishera Navoi. Gosudarstvennoe izdatelstvo xudojestvennoy literatury UzSSR. Tashkent-1961. 376 s.
8. G'anieva S. Alisher Navoiy. (Hayoti va ijodi). O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1968. 174 b.

UDK: 1:08

MA'NAViy QADRIYATLAR TAKOMILIDA SO'FIYLIK FALSAFASINING O'RNI

K. D. Haydarov

Samarqand davlat universiteti

haydarov.sam.@mail.ru

Abstract. Ushbu maqola Sharq xalqlari ijtimoiy-axloqiy fikri taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan g'oyaviy oqim – so'fiylik falsafasi, uning asosiy falsafiy xulosalari, g'oyaviy rahnamolari hamda ushbu ta'limotning ma'naviy qadriyatlarining takomillashib borishidagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Unda Sharq xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fikrida ma'naviy barkamollik, etuklikka erishish, mukammal va ma'rifatli inson bo'lib kamol topish orzusi asrlar mobaynida asosiy, ustuvor g'oya bo'lib kelganligi to'g'risida fikr yuritiladi, jamiyat ravnaqida ma'naviy etuk insonning o'rni to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlil qilinadi. O'sha davr ma'naviyatining yulduzlari bo'lgan so'fiy allomalar, o'rta asrlarda mintaqaning ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutgan mutafakkirlar ta'limotining bugungi kundagi dolzarb ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Diniy va dunyoviy ilmlar uzviy tarzda rivojlanib borgan o'sha davr falsafasining ayni paytda ta'lim-tarbiya rivojida o'rni ko'rsatib beriladi.

Shuningdek, XI asrda Sharqda keng yoyilgan so'fiylik falsafasining Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikri taraqqiyotiga benihoya katta ta'sir ko'rsatganligi, hatto zulm va zo'ravonlik kuchayib ketgan chog'lardayam uning mafkuraviy to'lqini susaymaganligi falsafiy tahlil qilinadi va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Sharq merosi, islom falsafasi, tasavvuf, ma'naviy yuksaklik, ta'lim, sharq ma'naviyati.

Роль суфийской философии в развитии духовных ценностей

Аннотация. Данная статья посвящается философии суфизма, ее основным философским выводам, идейным руководителям и значению в развитии духовных ценностей. В ней рассматривается стремление к духовному совершенствованию, зрелости и образованности, ставшее испокон веков приоритетной идеей в общественно-философской мысли народов Востока. В статье анализируются философские взгляды роли духовно зрелого человека в развитии общества. Высказываются суждения об актуальном значении взглядов знаменитых суфийских ученых на сегодняшний день, важное место в духовном развитии региона. Одновременно прослеживается и значение философии в период органического сочетания духовных и светских знаний и в ее роль в развитии образования и воспитания.

А также анализируется и резюмируется осязаемое воздействие философии суфизма на развитие общественно-философской мысли народов Центральной Азии, духовная волна которого не снизилась даже в период усиления жестокости и насилия.

Ключевые слова: Наследие Востока, философия ислама, суфизм, духовное совершенство, воспитание, восточная духовность.

The role of sufi philosophy in the development of spiritual values

Abstract. This article is devoted to the philosophy of Sufism, its main philosophical conclusions, ideological leaders, and the significance of spiritual values in the development. It examines the desire for spiritual improvement, maturity and education, which has become a priority idea in the social and philosophical thought of the peoples of the East from time immemorial. The article analyzes the philosophical views of the role of a spiritually mature person in the development of society. The author makes judgments about the actual significance of the views of famous Sufi scholars today, an important place in the spiritual development of the region. At the same time, the author traces the significance of philosophy in the period of organic combination of spiritual and secular knowledge and in its role in the development of education and upbringing.

It also analyzes and summarizes the tangible impact of Sufi philosophy on the development of social and philosophical thought of the peoples of Central Asia, the spiritual wave of which did not decrease even during the period of increasing cruelty and violence.

Keyword: Heritage of the East, philosophy of Islam, Sufism, spiritual perfection, education, Eastern spirituality.

Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida turli jabhalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar bani bashariyat e'tiborini tortmoqda. Xususan, Sharq xalqlari tarixida chuqur iz qoldirgan mutafakkir faylasuflar, ma'rifatparvar allomalarning ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, uni O'zbekistonda va xorijda keng targ'ib qilishga e'tibor kuchaygani ayni haqiqat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida tarixiy o'tmishni, ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish masalalariga alohida to'xtaldi. "Mamlakatimizda "jaholatga qarshi – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi"[1.1], deb ta'kidlash barobarida O'zbekiston etakchisi ma'naviy taraqqiyotga bebaho hissa qo'shgan buyuk allomalar merosini yanada keng va chuqur o'rganish zarurligini e'tirof etdi.

Ma'lumki, mustabid tuzum davridagi falsafiy adabiyotlarda Sharqda xalqlariga mansub ko'pgina falsafiy oqimlar, xususan so'fiylik falsafasi tarkidunyochilikni targ'ib qiluvchi reaksiyon oqim sifatida baholandi, go'yo u asketizmni, ya'ni zohidlik, dunyoning lazzatlaridan butunlay voz kechishni nazarda tutgan. To'g'ri, so'fiylarda uzlatpanohlik, jismoniy va ma'naviy poklanish niyatida, yomonlik qilishdan o'zini tiyish maqsadida el nazaridan chetlashishga urinish odati bo'lgan. Ammo So'fi Olloyor o'z asarida guvohlik berishicha, so'fiylar bu odatni payg'ambar alayhissalom va uning sahobalaridan o'rganganlar, u rasul yo'lidan borishni anglatgan. Uzlatda bo'lgan kishi yomonlikdan, riyo, fosiqlik va gunohdan xalos bo'ladi, u o'ziga ravo ko'rilgan rizqqa qanoat qilib, ortiqchasidan hazar qiladi. Uzlat paytida so'fiy o'zini Alloh bilan birga his etadi. Haqiqiy so'fiyda barcha insoniy fazilatlar mujassam: qalbi sof va musaffo, u o'zini nafs va shahvatdan tiyadi.

Falsafiy til bilan aytganda, so'fizmda amaliy hayot axloqiy me'yorlar tarzida tushunilgan: ochofatlik, mol-dunyoga mukkasidan berilish, gumrohlik, ta'magirlik, nifoq va boshqa g'ayriaxloqiy hollar qoralangan. SHu ma'noda buyuk mutafakkir Muhammad al-G'azzoliy "so'fiylikda kambag'allik uning ziynatidir"deb aytgan.

So'fiylik falsafada panteistik, ya'ni borliq bilan xudoni birga qo'shuvchi oqim hisoblanadi[6.443]. Koinot xudoning namoyon bo'lishidir. Xudo hamma joyda hoziru nozir: u barcha narsalarda, hatto odamda ham mavjud. Inson ruhi pirovardida xudo bilan qo'shiladi, bu qo'shilish eng lazzatli chog'lardir va u eng oliy maqsad hisoblanadi.

So'fiylikda jazava (falsafiy tilda – ekstaz) to'g'risidagi fikrlar ziddiyatli bo'lsa-da, diqqatga sazovordir. Jazava ijobiy ma'nodagi sof sub'ektiv holat bo'lib, u faqat ayrim kishilarga nasib qiladi, hamma ham jazavaga tusha olmaydi. Xudoga sidqidildan itoat qiluvchi kishi jazava bilan zikr-samoga tushgandagina Allohning jamolini ko'rishga musharraf bo'ladi.

Shuningdek, so'fiylikda jilolanish (falsafada – emanatsiya) to'g'risidagi fikrlar ham g'oyat qiziqarli. Bunday fikrlar qadimgi yunon faylasufi Plotin (204-269 yillar) asarlarida ham uchraydi. Birgina Xudo mavjud bo'lib, tevarak atrofdagi barcha narsalar va hodisalar Xudoning jilolanishi tufayli vujudga kelgan, shu jumladan, inson ham. Shu bois insonning maqsadi asl holiga qaytishdan iborat bo'lmog'i kerak.

So'fiylikning axloqiy ta'limotida kamtarlik markaziy o'rinda turadi. So'fiy o'zining barkamol bilimlari bilan boshqalardan ajralib tursa-da, lekin u hech qachon o'zini olim hisoblamaydi. U o'ziga nasib etgan ilm va axloqiy sifatlarni boshqalarga ham singdirishga intilishi kerak. Muayyan ilohiy va dunyoviy bilimlarga ega bo'lmagan kishi so'fiy bo'lolmaydi, o'z navbatida, uzlat uning uchun haromdir va uning ibodati qabul qilinmaydi. Ma'naviy pok, ruhan tetik, bilimdon, o'zini yomonlikdan, aysh-ishrat va nojoiz harakatlardan tiya olgan kamtar va kamsuqum kishilargina so'fiy bo'la oladi.

So'fiylar ta'limotining g'oyaviy-falsafiy manbai ham juda keng. Ular o'zlaridan avval yashab o'tgan mutafakkirlar va falsafiy maktablarning ta'limotlaridan foydalandilar – qadimgi yunon va hind falsafasi, zardo'shtiylik hamda xristianlik ta'sirida shakllandilar. Shuningdek, so'fiylik O'rta Osiyoda falsafiy-axloqiy fikrlarning keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi mutafakkirlarning ijodiga barakali ta'sir ko'rsatdi.

So'fiylik islom asosida paydo bo'lgan, o'z ta'limotini Qur'oni karim hamda hadislar asosida shakllantirgan bo'lsa-da, unda boshqa dinlar, islomgacha bo'lgan e'tiqodlarning ta'siri sezilib turadi. Qur'oni karim va undagi so'zlarning allegorik talqin qilinishi bilan so'fiylar islomgacha bo'lgan ta'limotlarga ancha yaqinlashdilar. So'fiylarning Tangri va unga yaqinlashish vositalari haqidagi tasavvurlari musulmon falsafasidan oldingi ta'limotlarni eslatadi.

Ortodoksal islom vakillari so'fiylikka (garchand u Qur'on zamirida shakllangan va hasdislardan keng foydalangan bo'lsa-da) qarshi muntazam kurash olib bordilar. Shuni ta'kidlash kerakki, so'fiylikda

ruhoniylar doirasi manfaatlarini ifodalovchi elementlar ham bor. Ayrim mo‘‘tadil so‘fiylar islom asoslariga tayanib, ba‘zi diniy qoidalarni falsafiy asoslashga harakat qildilar. So‘fiylikdagi bu yo‘nalish rasmiy islom ta‘limoti bilan uzviylashib ketadi. So‘fiylikning nazariy asoslari shakllanishida Bag‘dod, Basra va Xalifalikning boshqa shaharlaridagi so‘fiylik jamoalarining o‘rni va roli katta bo‘ldi. Ayniqsa “Sayyid Avliyo” nomi bilan mashhur bo‘lgan *Horisi Muhosibiy* (781-857), *Zunnun Misriy* (796-860), *Boyazid Bistomiy* (875 yilda vafot etgan), *Junayd Bag‘dodiy* (vafoti 910 yil) so‘fiylik taraqqiyotida yorqin iz qoldirdilar.

Ushbu mutafakkir so‘fiylarning qarashlarida insonning ichki dunyosi va uning Xudoga munosabati masalasiga katta e‘tibor qaratilgan. Masalan, Muhosibiyning fikricha, insonning Xudoga qanchalik yaqinlashishi va uni bila borishi uning ma‘naviy va ahloqiy sofligiga bog‘liq.

Junayd Bag‘dodiyning so‘fiylik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi uning ilohiy mohiyatni chuqur mushohada qilish va unga kirib borish uslubini yaratganligi bilan belgilanadi. Tangrini bilishning yagona yo‘li - jimgina turib ibodat qilish va butun vujudi bilan Tangri irodasiga buysinish (ar-saha). Ilohiy haqiqatni bilishning ushbu metodidan tashqari Tangri bilan qo‘shilishning baland ovoz bilan, jazavali ibodat qilish metodi (aru-sukr) ham keng tarqaldi. U Boyazid Bistomiy nomi bilan bog‘liq.

Ilk so‘fiylarning ilohiy ishq haqidagi fikrlarini rivojlantirib, shayx Boyazid Bistomiy shunday xulosaga keldiki, agar inson astoydil intilib, o‘z vujudini poklay olsa, u yuksak takomilga erishishi mumkin. Yagona aql bilan yalpi umumiy jonga erishish, boshqacha aytganda, insonning o‘zini ilohiylashtirish so‘fiy ta‘limotidagi g‘oya bo‘lib, u mohiyatan shariatga qarshi edi.

Boyazid Bistomiyning fikricha, haqiqatga erishish, ya‘ni Xudo bilan qo‘shilish uchun bir necha bosqichlarni o‘tish kerak (at-tariqat). Keyingi so‘fiylar Bistomiyning tariqatga asos solgan birinchi so‘fiy deb bilishadi. Uni insonning individual “men”ini Xudo bilan qo‘shilish orqali yo‘q qilish fikrini ilgari surgan ilk so‘fiy deb ham e‘tirof etishgan. Inson “men”i uning xudo bilan qo‘shilishi yo‘lidagi katta to‘siqdir. “Fano-filoh” bosqichida inson “men”idan xalos bo‘ladi. SHunda uning oldida moddiy dunyo manzaralari yo‘qoladi, sevis va sevimli bo‘lish o‘rtasida farq qolmaydi.

Boyazid Bistomiy o‘z ta‘limoti bois yurtdan bir necha bor quvg‘in qilindi. Uning “Men haqiqiy xudoman, mendan boshqa xudo yo‘q” degan jazavali shiori musulmon ruhoniylariga xush kelmadi. O‘zini xudo deb e‘lon qilish g‘oyasi mumtoz so‘fizmda shayx Mansur Xalloy tomonidan rivojlantirildi. O‘zining mashhur “An-al-haq” (“haqiqatan men haqman”) degan g‘oyasini ilgari surgan bu buyuk shayxning fojiali taqdiri tarixdan ma‘lum.

So‘fiylarga nisbatan ta‘qiblar foyda bermadi. Bil‘aks, Abulqosim Kushayriy, Abdulrahmon Sulamiy, Abusayd Abulxayr kabi sufiylarning g‘oyalari keng yoyilib ketdi. XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab g‘arbiy xududlardan Xuroson va Movarounnahr tomon tarqalib ketaverdi. Hirot, Samarqand, Buxoro Marv, Balx kabi yirik shaharlarda so‘fiylik tarafdorlari, maktablari ko‘p edi. Buning asosiy sababi shunda ediki, saljuqiylar tomonidan ijtimoiy-siyosiy vaziyat ancha murakkablashtirib yuborildi, zulm kuchaydi.

So‘fiylik yanada taraqqiy etishi va tarqalib borishi bilan uning ichida turli oqimlar va maktablar shakllana bordi, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ldi. XV asrga qadar bo‘lgan bunday oqimlar sarasiga taymuriyya, junaydiyya, kubraviyya, kasariyya, sayyoriyya, nuriyya, sahliyya, xalloyiyya, malomatiyya va boshqalar kirar edi. Naqshbandiyya mafkurasiga ko‘pgina so‘fiy oqimlar ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ular orasida Shayx Junayd Bag‘dodiy va Shayx Al-Arabi oqimlari bu jihatdan ustuvor edi.

Ilk so‘fiy ulamo va faylasuflar o‘zlarining ahloqiy qarashlarida ijtimoiy tenglik masalalariga keng o‘rin berganlar. Agar qodir Xudo barcha odamlarni bir xil materialdan yaratgan bo‘lsa, tug‘ilish va o‘lish barchasiga xos bo‘lsa, bu foni dunyoda ular teng yashashlari kerak. Bundan kelib chiqib, ular umuminsoniy g‘oyalarni ilgari surdilar, bu g‘oyalar Sharq falsafasining keyingi rivojiga barakali ta‘sir ko‘rsatdi.

Ilk so‘fiylikdan farqli o‘laroq, keyingi davrlardagi so‘fiylikning asosiy xususiyati shundaki, dinga va musulmon shariatiga moslashish so‘fiylikning asosiy tamoyillariga qarshi bo‘lmay, balki endilikda uning g‘oyalari keng ammo orasida tarqalib borishiga ham yordam berdi. Ilk so‘fiylik bilan keyingi davr so‘fiylikning yana bir farqi shundan iboratki, ilk so‘fiylikda uning vakillari so‘fiylikni musulmon shariatidan ajratish hamda tashqi (ularning ta‘biricha ekzoterik) fanlarni o‘rganish tarafdori bo‘ldilar, ya‘ni fiqh, hadis ilmlari, shariat qoidalarini o‘qitish va o‘rganishga qarshi chiqdilar va bu bilan yopiq fanlar tarafdori bo‘ldilar.

XIII asrdan boshlab xonaqohlarda ekzoterik fanlar ham, diniy ilmlar ham o‘rgatila bordi. Bu davrda hokimlik vakillari so‘fiylik, ayniqsa naqshbandiylikni maqtadilar va qo‘llab-quvvatladilar.

So‘fiylikning turli-tuman tariqatlari vakillari mashhur shoir va faylasuflardan iborat edi. Abulmajid Sanoiy (1050–1131), Farididdin Attor (1140–1221), Jaloliddin Rumiy, Mir Said Ali

Hamadoniy shular jumlasidandir. Naqshbandiylik tariqatlari haqida gap ketganda, avvalo uning asosiy g'oyaviy rahnamolari bo'lgan Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ali Romitaniy, Amir Kulol kabi Xojagon harakatining faol vakillarini yodga olish lozim. Ular naqshband ulamolar dunyoqarashi va ijodining shakllanishiga barakali ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Mir Kulol bevosita SHayx Bahouddin Naqshbandning, Xoja Ali Romitaniy esa Naqshbandga sezilarli ta'sir ko'rsatgan Xoja Boboi Samosiyning ustozlari bo'lishgan. Abduxoliq G'ijduvoni esa Naqshbandning ma'naviy murabbiyi bo'lgan. Naqshband ta'limotining asosini so'fiy *Abduxoliq G'ijduvoni* ta'limotining g'oyaviy tamoyillari hamda zikr tushish usullari tashkil qiladi.

Abduxoliq G'ijduvoni 1103 yilda Buxoro yaqinidagi G'ijduvon qishlog'ida tavallud topdi, 76 yil umr ko'rdi, YUSuf Hamadoniyning muridi bo'lgan. Uning asarlariga xalq orasida qiziqish katta edi. Xojagon harakatiga asos solar ekan, Abduxoliq G'ijduvoni Xojagon ta'limoti shariat ruhiga teskari emas, aksincha, u Rasululloh safdoshlari an'analarga to'la mos keladi, deb isbotlashga harakat qildi. Bu esa XII asrga kelib so'fiylik islom bilan uzil-kesil qo'shilib ketganligidan dalolat edi. Ustozi Yusuf Hamadoniyning ta'limotini zikri xufiya (maxfiy fikr) bilan boyitgan Abduxoliq G'ijduvoni Xojagon tariqatining muhim talablariga aylangan vaqtning qadriga etish, har bir qadamni to'g'ri bosish, azizlarning xizmatida bo'lish, har nafasda Allohni yoddan chiqarmaslik, tildan qo'yimaslik, labzda turish kabi rashha (qoida)larini bayon qilib berdi. Bunday rashhalar 8 ta bo'lib, ularning dastlabki to'rttasi Yusuf Hamadoniy tomonidan ishlab chiqilgan:

1. *Hush dar dam* – ogohlik, g'aflatda qolmaslik. Fikrni jamlab, faqat Allohga qaratish. 2. *Nazar bar qadam* – nojo'ya harakatlardan saqlanish, o'zini idora qila bilish. 3. *Safar dar vatan* – ichkarida, botinda sayr: o'zlikni anglash, qusurlardan forig' bo'lish. 4. *Xilvat dar anjuman* – zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lish. 5. *Yodkard* – yod olish, zikr qilish, ya'ni Allohni yod etish, boshqa narsalarga ko'ngil bermaslik. 6. *Bozgasht* – yangidan, boshqatdan boshlash. "Xudovando, mening maqsudim sensan" jumlasini zikr etish, Allohdan boshqa fikrlardan xalos bo'lish. 7. *Nigohdosht* – fikrni yolg'iz Allohga qaratish, boshqa fikr-xayollardan uzilish. 8. *Yoddosht* – har damda Allohni yodda tutish. Yaratganning mehr-muhabbati ko'ngilni butunlay bo'ysindirishi.

Abduxoliq G'ijduvoniya mansub bo'lgan 25 ta ruboiy uning she'riy salohiyati ham yuksakligidan dalolat beradi[5.114]:

*Gar dar dilat az kase shikoyat boshad,
Dardi dili tu az o' bag'oyat boshad,
Zinhor ba intiqom mashg'ul mashav,
Badro badii xesh kifoyat boshad.*

Ya'ni:

*Gar bir kishidan dilda shikoyat bo'lg'ay,
Dil og'rig'i undan benihoyat bo'lg'ay;
Hech o'ylama intiqom olishni, chunki
Yomonga yomonligi kifoyat bo'lg'ay.*

Xojagon harakatining rahnamalaridan biri bo'lgan Shayx Yusuf Hamadoniyning kasb-kori etikdo'zlik bo'lgan. U Buxoroni, so'ngra Samarqandni ajnabiy bosqinchilardan himoya qilishda faol qatnashgan. U safdoshlarini mehnat qilish, hunar egallash, hatto harbiy ishni o'rganishga chaqirdi. Uning to'liq ismi-sharifi Abu Yaqub ibni Ayub ibni Yusuf ibni Husayn ibni Bahrom Buzanchirdi *Hamadoniy* (1048-1141). Mutafakkir shayx qabri hozirgi Mari shahridan (Turkmaniston) 20 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, "Ka'bai Xuroson" deb ataladi.

«Qandiya» nomli falsafiy traktat muallifi Abdul Hakim guvohlik berishicha, tug'ri yo'l ikki qismdan iborat - tashqi va ichki yo'llar. Tashqi yo'l musulmon qonunchiligiga qat'iy rioya qilish, soflikni bildirsa, ichki yo'l esa qalb tozaligi, o'zidagi noma'qul sifatlardan poklanishni bildiradi [3.23].

Buyuk shayx o'z shogirdlariga shariat qonunlariga qat'iy rioya qilish va boshqalarni ham shunga undash zarurligini uqtirar edi. Abdul Hakimning yozishicha, Yusuf Hamadoniy 213 shayxga xizmat qilgan, ko'p kunlab ro'za tutgan, 30 marta haj ziyoratini ado etgan. U asosan arpa noni va so'k oshi er edi. O'z mulkini kambag'al, etim-esir va kasalmand odamlarga bo'lib bergan, hech kimdan xayr-ehson so'ramagan.

Yusuf Hamadoniy Xojagon - naqshbandiyya tariqatining asosiy g'oyasiga aylangan "xush dar dam", "nazar bar qadam", "safir dar vatan", "xilvat dar anjuman" qoilarini ishlab chiqqan.

Buyuk shayxning shogirdlari juda ko'p bo'lgan, albatta. Ammo ularning orasida to'rt nafari - Xoja Abdulloh Barqiy Xorazmiy, Xoja Hasan Andaqiy, Xoja Ahmad Yassaviy hamda Xoja Abdulkoliq G'ijduvoniylar nomini alohida ta'kidlash joiz. Buyuk mutafakkir Yusuf Hamadoniyning "Rutbat ul-hayot"

(Hayot mezoni), “Kashf”, “Risola dar odobi tariqat” (Tariqat odobi haqida risola), “Risola fi annal-kavna musaxxarun lil-inson”, “Risola dar axloq va munojot” (Axloq va munojot haqida risola) kabi asarlarni yozgan.

Shayx Abduxoliq G’ijduvoni o’z ta’limotining mohiyatini “Vasiyatnoma” degan asarida bayon qilgan. Uning hikmatlari, pand-nasihatlari, ibratli so’zlari, qonun-qoidalari naqshbandiylik sulukiga kirganlar uchun ham asosiy ahloqiy qonun-qoidaga aylandi.

G’ijduvoni va uning davomchilari bo’lgan so’fiylarning qat’iy uqtirishicha, hunarli bo’lish so’fiylarga aslo halaqit bermaydi. Shayx G’ijduvoni zararkunandalarga xos turmush tarzini tanqid qildi. Uning ta’limotida kasb-hunarning ulug’lanishi ham shu boisdan bo’lsa ajab emas. SHayx G’ijduvoni bir tomondan, diniy-mistik oqim vakili sifatida namoyon bo’lsa, ikkinchidan xalqni mehnat qilishga, kasb-hunarli bo’lish va farovon hayotga undadi. Abdulkoliq G’ijduvoniyning “Risolayi odobi tariqat”, “Risolai sohibiya”, “Vasiyatnoma” kabi asarlari bizgacha etib kelgan va xalqimiz ma’naviy mulkiga aylangan.

*Xoja Ali Romitaniy*ni o’z davrining Junaydi deb atashgan. U “Azizlar hazrati” degan nom bilan xalq orasida mashhur, hurmat va e’tiborli bo’lgan. Manbalarga qaraganda Xoja Ali Romitaniy 130 yil umr ko’rgan. 1316 yilda vafot etgan bo’lsa, demak 1186 yilda tavallud topgan. Asosiy hunari to’quvchilik bo’lgan Romitaniy fikricha, ilohiy haqiqatga erishish jarayoni juda murakkab bo’lib, muayyan talablarni bajarishni taqozo qiladi. Bu haqda Ali Romitaniy maxsus traktat yozdi. Yaratuvchini bilish uchun o’nta shartni bajarish kerak.

Birinchi - biluvchi poklanish tartibiga qat’iy rioya qilishi kerak. Bu tartib to’rt qismdan iborat: tashqi poklanish (tahorati zohiri); ichki poklanish (tahorati botini); qalban poklanish (tahorati dil); bosh (miya)ni poklash (tahorati sar). Tashqi poklanish - bu tanasining pokligi demakdir. Ichki poklanish - haromdan saqlanish, nafsini tiyish. Qalban poklanish deganda ichqoralik, hasad, ayyorlik, fisq-fasod, xiyonat kabi g’ayriaxloqiy sifatlardan xalos bo’lish tushuniladi. Boshni poklash xudoga aloqador bo’lmagan fikrlarni xayoldan chiqarib tashlashni bildiradi.

Ikkinchi - sukut saqlay olishi. Noma’qul, harom so’zlarni so’zlash aslo mumkin emas, balki Qur’oni karimdan oyat va suralarni ichdan takrorlab turish darkor. *Uchinchi* - xilvatda bo’lib turish. Xudoni bilish yo’li - betavfiq bandalardan xilvat yurishdir. Betavfiq va murtad odamlar buzg’unchidir, ular bilan aslo muloqotda bo’lmaslik zarur. Buning o’rniga hunar bilan shug’ullanish, botinan Tangrini eslab turish kerak. Shariatga zid so’zlarni eshitmaslik ham, gapirmaslik ham kerak. *To’rtinchi* - ro’za to’rish. *Beshinchi* - zikr tushish. *Oltinchi* - xotiraning mazmunan sofligi. Xotira 4 guruhga bo’linadi; ilohiy xotira, farishta xotira, iblisona xotira, shahvoni xotira. Ilohiy xotira deganda xudoga bog’liq bo’lmagan narsalardan tozalanish; farishta xotira deganda itoatgo’ylikni targ’ib qilish; iblisona xotira - gunohni bo’ysuntirish, shahvoni xotira - ehtiros va hirs demakdir. *Ettinchi* - xudo belgilab bergan taqdirdan qoniqish. *Sakkizinchi* - ba’mani odamlarga yaqinlashish, beburd va buzg’unchi odamlardan yiroq yurish. Aqlli-hushli odamlar, haqiqatni bilish va unga erishishda yordam beradi, munofiq kimsalarga ergashish kishini haq yo’lidan ozdirishi mumkin. *To’qqizinchi* - hushyorlik. Inson doimo hushyor bo’lishi, Tangrini bir lahza ham unutmasligi, nazarini undan qochirmasligi lozim. *O’ninchi* - ilohiy haqiqatni bilish. Shayx Romitaniy zikr tushishga katta ahamiyat beradi. Zikr - oliy maqsadga erishishning asosiy usullaridan biri.

Buyuk shayx so’fiylarning hurfikrlikka asoslangan ta’limoti - “*Vahdat ul-vujud*” (arab.- jismoniy birlik)ga qarshi chiqqan. Ushbu ta’limotning asoschisi arab faylasufi *Ibn al-Arabi*dir. Vahdat ul-vujud oqimining asosiy g’oyasi - “dunyo Xudo demakdir”, ya’ni borliq to’la-to’kis yagona ilohiy mohiyat, yagona ilohiy substansiyadan iboratdir. Ushbu oqimning ba’zi vakillari Xudoni o’rgimchakka o’xshatadilar: o’rgimchak o’zidan ip to’qib chiqaradi, go’yo Xudo ham o’zidan butun borliqni chiqarib turadi. Hamma narsa Xudoda ifodalanganidek, Xudo ham hamma narsada ifodalanadi. Xudo haqiqiy va yagona borliq, qolgan boshqa narsalar esa, uning shu’lasi, ya’ni nuri hisoblanadi.

Vahdat ul-vujud ta’limotiga qadimgi yunon falsafasining ta’siri sezilib turadi. Xususan, qadimgi davr falsafasida mavjud bo’lgan neoplatonizmning emanatsion ta’limoti ham ushbu oqimga sezilarli darajada ta’sir o’tkazgan. Vahdat ul-vujud oqimi ko’plab mutafakkir so’fiylar va shoirlar dunyoqarashiga katta ta’sir o’tkazib, ularning ijodi uchun ma’naviy ozuqa bo’lib xizmat qilgan diniy-falsafiy ta’limotdir.

Xoja Mir Kulol (1288-1371) - Xojagon tariqatining yorqin namoyondasi, Bahodudin Naqshband hazratlarining birinchi ustoz. U Buxoro yaqinidagi Suxor qishlog’ida tug’ildi (ba’zi manbalarda Sayid Amir Kulol deyiladi). Uning nevarasi Shahobiddin binni Amir Hamza tomonidan tuzilgan “Maqomati Mir Kulol” traktatida buyuk SHayxning qarashlari bayon qilib berilgan.

Xojagon harakatida Mir Kulolning mavqei ancha yuksak bo’lgan. Manbalarda aytilishicha, uning shogirdlari 114 nafar bo’lgan. Ularning ichida Mavlono Orif va Bahouddin Naqshband eng mashhurlari bo’lgan. Shu o’rinda Sayid Mir Kulolni uning zamondoshi Shamsiddin Kulol nomi bilan adashtirmaslik zarurligini ta’kidlaymiz: Mir Kulol bilan Bahouddin Naqshband yoshidagi tafvut deyarli birday bo’lsa, Shayx Shamsiddin

Kulol esa Mir Kuloldan chamasi 20-25 yosh kichik bo'lgan[4.159-160]. Sohibqiron Amir Temur Mir Kulolni ham, Shamsiddin Kulolni ham, hatto barcha so'fiylarni chuqur hurmat qilgan.

Shayx Amir Kulolning vasiyatlarida bilim olishning muhimligi haqida sarmazmun fikrlar bayon etilgan. Manbalar guvohlik berishicha, o'limidan oldin u o'zining izdoshlariga bilimga intilinglar, deb vasiyat qilgan. Iymon ilmning boshi, so'ngra namoz o'qish ilmi, undan so'ng ro'za tutish ilmi, to'rtinchisi - Haj ibodati ilmi, beshinchisi zakot ilmi, oltinchisi esa ota-onani hurmat qilish ilmi mavjud. Bularni har bir musulmon bilishi kerak.

Bilim va aql insonni bezaydi, kim bu sifatlardan mahrum bo'lsa, u - baxtsiz odam. Bilimni turmushga joriy qilish kerak, amalda qo'llanmagan bilim foydasiz va keraksizdir.

Ma'lumotli odam, agar u kambag'al bo'lsa ham, podshodan ulug'dir. Ilm, Mir Kulolning fikricha, har qanday boylikdan ustun. Odamning boyligi uning amali emas, bilimidir. Buyuk shayx o'qimagan, johil odamni kun bo'yi qora mehnat qilib, bir dirham topadigan mardikorga, olim odamni esa o'z hunari bilan boyib ketadigan muhandisga qiyoslaydi. Bilimli odamning turmushi ham fayzli bo'ladi.

Bahouddin Naqshband vafotidan keyin tariqat uch yo'nalishda rivojlanib bordi. Yo'nalishlar uning asoschisi nomi bilan bog'liq bo'lgani bilan yagona naqshbandiyya tariqati hisoblanar edi. Ular ichida ayniqsa *Mavloni YA'qub Charxiy* (to'liq ismi-sharifi Ya'qub ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy, 1363-1447) nomi bilan bog'liq yo'nalishni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Uning "Risoi muxtasar dar isboti vujudi avliyo va muroqibati eshon" (Muqaddas avliyolar va ularning mushohadasi mavjudligining isboti haqida qisqacha risola) degan asarida XI asr so'fiylik ilmi vakili Abulhasan Ali ibn Usmon al-G'aznaviy qarashlari bayon etilgan. Charxiyning fikricha, payg'ambarlardan keyin xalqni etaklovchilar avliyolardir. Ular e'tiqod, donishmandlik yoki keskin choralar ko'rish orqali xalqni to'g'ri yo'lga boshlaydilar, davlatning ma'naviy rahnamolaridirlar.

O'z paytida Xoja Romitaniy so'fiylik ham an'anaviy, ham turli ilohiy fanlarning majmuasi deb aytgan. Shu nuqtai nazardan yagona boshlang'ich substansiya to'g'risidagi ta'limotning tarafdori bo'lgan. Ma'lumki, *mazdakiylar* olamda qarama-qarshiliklar kurashi hukmron ekanligi haqida ko'p ta'kidlaganlar. Qarama-qarshiliklar ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va qorong'ulik kabi hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib boradi. Mazdakizm g'oyalari dualistik mazmunga ega bo'lsa-da, unda monistik xarakterdagi fikrlar ham mavjud. Ana shunday fikrlar *zarvanizm* degan nom olgan. Unga ko'ra butun mavjudlikning dastlabki sababi "zarvana okarenaka" (cheksiz makon) hisoblanadi. Zarvana - yagona boshlang'ich substansiya, ziddiyatlar kurashi uning bepoyon bag'rida sodir bo'ladi. Bunday qarashlar mifologik shaklda bo'lsa-da, unda sodda, stixiyali dialektika elementlari mavjuddir.

Ma'lumki, XI asrda so'fiylik xalifalikning barcha xududida yoyilib ketdi. Bu hol musulmon Sharqi, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fikri taraqqiyotiga benihoya katta ta'sir ko'rsatdi. Hatto zulm va zo'rvonlik kuchayib ketgan chog'lardayam mafkuraviy to'lqin susaymadi, falsafiy ravnaq yuksalib bordi. Bu to'lqin goh mistika, goh ochiq kurash va qo'zg'alishlar orqali kechdi.

Shayx Romitaniy so'fiylikning "borliqning birligi" ta'limotiga qarshi edi. Uningcha, moddiy olamdagi mavjud narsa va buyumlar Tangrining in'ikosi ekanligini fahmlash qiyin. Shu o'rinda so'fiylikning hurfikrlilik sari yo'l ochadigan "Vahdat ul-vujud" ta'limotini eslash joizdir (muallifi Ash-Shayx Al-Akbar).

O'rta asr Sharqining ko'pgina mutafakkirlari "Vahdat ul-vujud" ta'limotini ma'qullashgan. Shu boisdan ortodoksial islom ushbu ta'limotning keng yoyilishidan manfaatdor emas edi. Shayx Romitaniy ushbu ta'limot juda murakkab va nozik ekanligini ta'kidlagan. Aql-farosat yordamida uning mohiyatiga chuqur kirib borilsa ko'plab yanglishlar, hatto bid'atga duch kelish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Hamadoni, Abduxoliq G'ijduvoni, Mir Kulol, Ali Romitaniy singari so'fiylar ta'limoti musulmon shariati doirasidagi oqimlar bo'lib, ular orqali ma'naviy barkamollik g'oyalari targ'ib qilindi, islom dinining asosiy tamoyillarini ado etish zarurligiga e'tibor qaratildi. Shu nuqtai nazardan ularning diniy-falsafiy g'oyalari bugungi kunda ma'naviy tarbiya jarayonida muhim nazariy manba sifatida keng o'rganilishi joizdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi", 2020 yil 25 yanvar.
2. Islom. Ensiklopediya. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
3. Abdul Hakim. Qandiya. – Tehron, 1955.
4. Kattaev K. Samarqandnoma. – Toshkent: Mashhur-press, 2017.
5. Ochilov E. Barhayot siymolar. – Toshkent, O'zbekiston, 2012.
6. Filosofskiy slovar / Pod red. akad. I.Frolova. M.: Politizdat, 1991.

UDK: 321(575.1):371

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATIDAGI ISLOHOTLAR,
YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

X.A.Oripov, J.Sh.Shakarov
Samarqand Davlat universiteti
oripovkh@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosatidagi islohotlar, yosh avlod tarbiyasi, ularni komil inson qilib voyaga yetkazish, halq va millat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan yoshlarni tarbiyalash masalalari yoritilgan. Har qanday davlatning yoshlar siyosatini amalga oshirishidan maqsadi mamlakat iqtisodiy va siyosiy salohiyatini oldindan, ya'ni istiqbolli tarzda mustahkamlash, davlatchilik asoslarining kelgusi zahiralari yaratish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy takomillashuvning asosini barpo etishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: yoshlar, huquqiy madaniyat, ma'rifat, tarbiya, yoshlar siyosati, huquqiy ong, ijtimoiy hayot, ma'naviyat.

Реформы молодежной политики в Республике Узбекистан и формирование правовой культуры молодёжи

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования молодёжной политики в Республике Узбекистан, воспитания молодого поколения, развития его как идеального человека, воспитания молодёжи способной ставить интересы народа и нации выше собственных интересов. Цель молодёжной политики любого государства состоит в том, чтобы продвигать, другими словами, укреплять экономический и политический потенциал страны, создавать будущие резервы основ государственности, закладывать основы для экономического, социального и политического совершенствования.

Ключевые слова: молодёжь, правовая культура, образование, воспитание, молодёжная политика, правосознание, общественная жизнь, духовность.

Reforms of youth policy in the Republic of Uzbekistan and the formation of a legal culture of youth

Abstract. The article discusses the formation of youth policy in the Republic of Uzbekistan, the upbringing of the young generation, its development as a an ideal person, the upbringing of young people who are able to put the interests of the people and nation above their own interests. The goal of the youth policy of any state is to promote, in other words, strengthen the country's economic and political potential, create future reserves of the foundations of statehood, and lay the foundations for economic, social and political improvement.

Keywords: youth, legal culture, education, upbringing, youth policy, legal awareness, social life, spirituality.

Jamiyat taraqqiyotini, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq bo'lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni mafkurasiz tasavvur etish mumkin emas. O'zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy, siyosiy, huquqiy yetuklik darajasiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olish kabi masalalarga bevosita bog'liq. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston tomonidan "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgani jaholatga qarshi – ma'rifat tamoyili asosida olib borayotgan keng ko'lamli ishlarimizning uzviy bir qismi bo'lib, u yer yuzidagi ikki milliarddan ziyod yoshlarning haq-huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu masalalarning yechimiga oid O'zbekiston Respublikasida 2016-yilning 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406- sonli Qonunning qabul qilinganini alohida qayd etib o'tish joiz. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo'lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik yo'nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llarini belgilab berdi. Yoshlarga oid davlat siyosati davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni

ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir. Shunday ekan, qonun yoshlarimizning huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy kafolat hisoblanadi, normativ-huquqiy aktda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash belgilab qo‘yilgan.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;
- yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;
- yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;
- iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;
- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yosh oilalarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;
- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishdir [1].

Ushbu Qonunga ko‘ra, davlat yoshlar siyosatini amalga oshirar ekan, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, ma‘lumoti va siyosiy e‘tiqodidan qat’iy nazar, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an‘analarning avloddan avlodga o‘tishi, avlodlarning ma‘naviy aloqalarini ta‘minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari doirasida o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishlarini kafolatlash, jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta‘minlashni o‘ziga vazifa qilib olishi belgilab qo‘yilgan.

Bizga ma‘lumki, mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday deyiladi: “Xalqimizda “ta‘lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma‘rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta‘lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta‘lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya‘ni ta‘lim bog‘chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim” [2]. Ushbu murojaatnomaning tasdig‘i sifatida yurtimizda yoshlarning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlarning oliy ta‘limga qamrovini kengaytirish maqsadida ta‘lim muassasalari soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda Respublika bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari jami 113 ta, ulardan, 25 ta universitetlar, 33 ta institutlar, 2 ta akademiyalar, 30 ta filiallar, 1 ta konservatoriya, 1 ta oliy maktab, 21 ta chet el oliy ta‘lim muassasalari filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Birgina misol, O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalari soni 2016-yilda 77 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda 113 taga yetdi. Xorijiy oliy ta‘lim muassasalari filiallari soni 2016 -yildagi 7 tadan bugungi kunga kelib 21 taga yetdi. Birgina 2019-2020 o‘quv yilida 20 ta: 10 ta xorijiy va 10 ta mahalliy oliy ta‘lim muassasalariga qabul boshlandi. Bu raqamlar o‘shida davom etmoqda [3]. Eng muhimi, qabul jarayonlaridagi shaffoflikning ta‘minlanishi bilimli yoshlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarida birgina Samarqand Davlat universitetida 21 nafar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi, 106 nafar Beruniy,

Navoiy, Ulug'bek, I.Karimov nomli davlat stipendiyasi sovrindorlari, 252 nafarga yaqin talabalar fan olimpiadalari g'oliblari bo'lishdilar.

Xalq ta'limi tizimida ham yoshlarga qaratilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlash joiz. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi shaklidagi Prezident maktablari tashkil etilishi va Prezident maktablarining asosiy vazifalari belgilangan. Unga ko'ra, Prezident maktablarida ta'lim jarayoni xorijiy ta'lim muassasalar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha ingliz tilida amalga oshirilishi, Prezident maktablarida STEAM- (science-tabiiy fanlar, technology-texnologiyalar, engineering-texnik ijodkorlik, art-san'at, mathematics-matematika) dasturi joriy etilishi, Prezident maktablari bitiruvchilariga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish imkonini taqdim etuvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate. Advanced Placement yoki International Advanced Levels) berilishi kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida 2019-yil davomida yoshlarning 1 ming 991 ta biznes loyihalariga jami 458,3 mlrd. so'm imtiyozli kredit mablag'lari ajratish orqali 9 mingga yangi ish o'rni yaratildi. Respublika bo'ylab 10 ta "Yosh tadbirkor" kovorking markazi hamda 54 ta "Yoshlar mehnat guzari" komplekslari qurilib foydalanishga topshirilishi orqali jami 573 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Davlat dasturi doirasida yoshlarning umumiy qiymati 15,3 mlrd. so'mlik loyihalariga jamg'arma kafilligi taqdim etilib, ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashlariga ko'maklashildi. Shuningdek, Davlat dasturi doirasida imtiyozli kredit ajratilib, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan yosh tadbirkorlarning 750 ming AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlari chet elga eksport qilindi [4]. Mintaqamizda yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash zaruriyatining sabablaridan biri shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti chet el sarmoyalari, zamonaviy texnika va texnologiya, bozorni shakllantirish usullari bilan bir qatorda mamlakatimizga o'zining madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va tasavvurlarini ham olib kirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi PF-5106- sonli Farmonida yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorism, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustaqkam immunitetni shakllantirish muhimligi qayd etilgan [5]. Qadimiy va betakror diyorumizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida "Yosh kitobxon" tanlovi tashkil etildi. Ushbu tanlovning Respublika bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchiga "Spark" avtomobili bilan rag'batlantiriladigan bo'ldi. Bu esa, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga turtki bo'ldi desak, yanglishmaymiz. Prezidentimiz yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash hamda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ishlab chiqdilar.

Jumladan, birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilishdir. Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Uchinchi tashabbus - aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. To'rtinchi tashabbus - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha

tizimli ishlarni shakllantirish. Beshinchi tashabbusda esa xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari nazarda tutilgan.

Ana shu ezgu g'oya Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida boshlanib, qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi. Mazkur hududdagi tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Musiqa va san'at maktablari cholg'u asboblari, sport obyektlari jihozlari bilan ta'minlandi. Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirilib, "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi [6].

Ijtimoiy hayotda yoshlar faoliyatiga nisbatan liberal siyosat yuritish ular tarbiyasiga putur yetkazadi. Azal-azaldan yoshlar tarbiyasi ota-ona, qo'ni-qo'shnilar, mahalla va keng jamoatchilik tomonidan doimo nazoratda bo'lib kelgan. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish, bizningcha, to'g'ri bo'lar edi:

- Birinchidan, "shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat" konsepsiyasi asosida barchada daxldorlik hissini uyg'otish lozim.

- Ikkinchidan, barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha keskin choralar ko'rish zarur. Buning uchun, salohiyatli, ilmiy yoshlar o'rtasida turli xil brifinglar, master klasslar, konkurslar tashkil etish va talaba-yoshlarga har bir ilmiy ishi uchun eng kam oylik ish miqdorida rag'batlantirish lozim. Zero, investisiyalar bilimga, g'oyaga qaratilsa, yoshlarimiz barcha masalalarga kreativ yondashadilar.

- Uchinchidan, ta'lim muassasalarida sog'lom raqobatni kuchaytirish kerak. Masalan, "Prezident asarlari bilimdoni", "Huquqiy fanlar bilimdoni", "Deputat bo'lsam", "Hokim bo'lsam", "Prokuror – qonun himoyachisi" kabi tanlovlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

- To'rtinchidan, har bir ta'lim muassasasi qoshida "Huquqiy klinika" tashkil etish lozim, ushbu klinikada ko'ngillilardan iborat guruh yurtimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy aktlar bilan aholining turli qatlamlarini albatta, reja asosida kamida bir oyda bir marta tanishtirib boradi.

Vatanimizdagi har bir yosh avlod ongiga ana shu maqsadlarimizni singdirib borsak, ularga yangi zamonaviy bilimlar berib, milliy g'oyamiz ruhida tarbiyalasak, ertaga mehnatimizning samarasini, albatta, ko'ramiz. Har qanday davlatning yoshlar siyosatini amalga oshirishidan maqsadi mamlakat iqtisodiy va siyosiy salohiyatini oldindan, ya'ni istiqbolli tarzda mustahkamlash, davlatchilik asoslarining kelgusi zahiralarni yaratish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy takomillashuvning asosini barpo etishdan iboratdir.

Tarbiya har bir davrda kelajakni ta'minlashning eng muhim omili hisoblanib kelingan. Lekin unga nafaqat ta'lim, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlar, qadriyatlar, muhit, odamlarning o'zaro munosabatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy masalalarda adashilsa, jamiyat tarbiyasida muammolar yuzaga keladi. Ijtimoiy masalalar, maqsadlar, qadriyatlar tanlashdagi xotolar oqibatida "boy berilgan avlod" – "Lost generation" iborasi paydo bo'ldi. "Lost generation" – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, lost – yo'qotilgan, qo'ldan boy berilgan, adashgan, generation – oila avlodi, mamlakatdagi bir avlodning 25-30 yilga teng davridir. Ushbu avlodni beqarorlik, depressiya sharoitida tug'ilgan, xudbin, loqayd, jamiyatga foydasi tegmaydigan, shafqatsiz, alamzada, ichkilikbozlikka berilgan jinoiy ishlarga qo'l urgan, qo'ldan ish kelmaydigan, axloqsiz kishilar toifasi deyish mumkin [7]. Rivojlangan davlatlarning ko'pchiligida moddiy hayotning, biznesning asosiy o'ringa qo'yilishi natijasida yosh avlod tarbiyasiga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

A.Erkayev ta'kidlaganidek: "jamiyat ta'lim-fan, texnika yutuqlarini yangi texnologiya talablarini o'zlashtirishga tobora ko'proq vaqt ajratishga, tarbiya bilan kamroq shug'ullanishga majbur bo'ldi. Tarbiya ta'limdan ortda qola boshladi" [8]. Natijada yoshlar o'rtasida texnokratik qarashlar, iste'molchilik psixologiyasi, mumtoz qadriyatlarga bepisandlik kuchaya boshladi. Tarbiyadan vaqt tejash oqibatida davlat yoki oila budjeti foyda ko'rgan bo'lishi mumkin, lekin endi bolalarni qayta tarbiyalash uchun sarflanayotgan mablag' ko'rilgan foydadan o'n barobar ziyodni tashkil etmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qadimdan yosh avlod sog'lom, komil inson qilib voyaga yetkazish, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishiga erishish, xalq va millat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan ruhda tarbiyalash yurtimizda azaldan ustuvor masala bo'lib kelgan. Shu sababli davlatimiz tomonidan yoshlarga barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Ana shu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, kelajakda to'g'ri yo'lni tanlab, o'z oldimizga aniq maqsad qo'ya olsak va dadil harakat qilsak, taraqqiyotning yangi marralarini kashf eta olamiz.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида» ги ЎРҚ-406- сонли Қонуни. Халқ сўзи газетаси, 2016 йил 15 сентябрь, № 182 (6617). 1-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Маҳалла газетаси. 2018 йил 29 декабрь 164-165-сон (1642). 3-бет.
3. www.uza.uz./soceity/.
4. www.yoshlarittifoqi.uz/uz/news/4496
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида» ги ПФ-5106-сонли Фармони. Зарафшон газетаси, 2017 йил 8 июль, № 85 (22885) 2-б
6. www.uza.uz./soceity/.
7. Қуронов М. XXI асрда қайси давлат кучли бўлади? // “Маънавий ҳаёт”, 2013. Нишона сон. 14-б.
8. Эркаев А. Эркин инсон ва маънавий тарбия // “Тафаккур” журнали, 2014. 4-сон.13-14 бетлар.

UDK: 301(510)

XITOYNING «BIR MAKON - BIR YO'L» TASHABBUSI UCHUN MOTIVATSIYA

S. B. Nuriddinov

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya. Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida “Bir makon - bir yo'l” tashabbusining Xitoy tomonidan ilgari surilishi, buning uchun ichki va tashqi siyosatda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar o'rin olgan. Ushbu tashabbusning asosiy motivi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va albatta siyosiy manfaatlaridir. Yangi O'zbekiston uchun xalqaro tranzit aylanmasi hajmini maksimal darajada oshirishning amaliy choralari sifatida “Bir makon – bir yo'l” tashabbusi alohida ahamiyati yuqori deya e'tirof etilmoqda. Maqolada mazkur loyiha doirasida amalga oshirilayotgan hamkorlik masalalari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, O'zbekistonning yaqin qo'shnihilik siyosati, Harakatlar strategiyasi, Xitoy Xalq Respublikai, xalqaro logistika, “Bir makon - bir yo'l”, Xitoy yalpi ichki mahsuloti, Xitoy tashqi siyosati, Ipak yo'lining iqtisodiy makoni, Markaziy Osiyo infratuzilma loyihalari.

Мотивация выдвижения Китаем инициативы «один пояс - один путь»

Аннотация. Исследование по этой теме включает продвижение китайской инициативы «Один пояс - один путь», которая требует решения внутренней и внешней политики. Экономические, социальные и, конечно, политические интересы являются основными мотивами этой инициативы. Для нового Узбекистана инициатива «Один пояс - один путь» признана практической мерой по максимизации международного транзита. В статье подробно рассматриваются вопросы сотрудничества в рамках проекта.

Ключевые слова: Великий шелковый путь, тесная соседская политика Узбекистана, Стратегия действий, Китайская Народная Республика, международная логистика, «Один пояс - один путь», валовой внутренний продукт Китая, китайская внешняя политика, экономическое пространство Шелкового Пути, Центрально азиатские инфраструктурные проекты.

Motivation of the addition of china by the «one belt - one way» initiative

Abstract. Research on this topic includes the promotion of the Chinese initiative “One Belt - One Way”, which requires a solution to domestic and foreign policy. Economic, social and, of course, political interests are the main motives for this initiative. For the new Uzbekistan, the “One Belt - One Way” initiative is recognized as a practical measure to maximize international transit. The article discusses in detail the issues of cooperation within the project.

Keywords: The Great Silk Road, Close Neighborhood Policy of Uzbekistan, Action strategy, People's Republic of China, international logistics, "One belt - one way", China's gross domestic product, Chinese foreign policy, Silk Road Economic Space, Central Asian infrastructure projects.

Qadimdan barcha xalqlar iqtisodiy integratsiya masalasida yangi-yangi savdo yo'llarini ochish, tashqi olam bilan turli sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha izlanishlar olib borgan. Markaziy Osiyoda bundan 2500 yil oldin Sharq va G'arbni bog'lovchi savdo yo'llari bo'lganligi ushbu hudud geografik jihatdan qulay mintaqa ekanligidan dalolat beradi. Buyuk ipak yo'li deya nomlangan hamda XVI asrgacha (dengiz savdo yo'llarining ommalashishi) eng faol tranzit makon bo'lganiga shubha yo'q.

Yangi O'zbekistonni barpo etish tashabbusi doirasida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ajralmas komponenti hisoblangan tashqi tranzitni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor mintaqada “Bir makon - bir yo'l” tashabbusini ilgari surilishiga olib keldi. Bu masalada, ayniqsa, Xitoy xalq respublikasi bilan o'zaro teng sherikli hamkorlik yo'lga qo'yilayotgani fikrimiz dalilidir. Xitoy va O'zbekistonning “Bir makon - bir yo'l” tashabbusi o'z o'rnida bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, kerak bo'lsa, geosiyosiy muammolarni o'z vaqtida hal etilishiga xizmat qiladi.

Ba'zi mulohazalarga ko'ra mazkur tashabbus Xitoyni rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Xitoyda islohotlar va dunyoga ochilish siyosati yangi meyorlar bosqichiga kirganligi juda muhim, bu Xitoydan yangi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. 35 yil oldin, Xitoy tashqi investitsiyalar, ilg'or texnologiyalar va boshqaruv tajribasini jalb qilish uchun tashqi dunyo uchun eshiklarni ochdi. Jahon iqtisodiyoti va savdosining umumiy qoidalariga muvofiq, Xitoy barcha ichki munosabatlarni o'z iqtisodiyotini global iqtisodiyot bilan birlashtirish orqali o'rnatdi [1]. Shu munosabat bilan, Xitoy katta kuch sarfladi va katta yutuqlarga erishdi: JST ga a'zo bo'lish Xitoyga mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyoti bilan birlashtirishga yordam berdi. 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatda tashqi yuk aylanmasi ko'rsatkichini yanada oshirish bo'yicha zaruriy choralar ko'rilishi borasida o'z takliflarini bildirib o'tdilar. Ya'ni, yuk aylanmasiga ta'sir etuvchi turli suniy to'siqlarni bartaraf etish, hujjatlashtirish ishlarini bosqichma-bosqich minimal darajagacha qisqartirish masalalari haqida tanqidiy fikrlar yangrad [2].

Endi Xitoy iqtisodiyoti haqida ikki og'iz. Xitoy 35 yildan beri milliy iqtisodiyoti rivojlanib bormoqda. 1978-yilda 367,9 milliard dollar bo'lgan yalpi ichki mahsulot bo'yicha Xitoy atigi 10-o'rinda edi. 2008-yilda Xitoy Germaniyani ortda qoldirib, dunyoda 3-o'rinni egalladi. 2010-yil yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha Xitoy Yaponiyani ortda qoldirib, dunyoda AQShdan keyin ikkinchi yirik iqtisodiyoti rivojlangan makonga aylangandi. 2018-yilda Xitoyning yalpi ichki mahsuloti 13,08 trln. dollar bilan AQShdan keyin 2-o'rinni egallab turibdi. Iqtisodiy o'sishning jadal sur'atlari tufayli jahon yalpi ichki mahsulotidagi Xitoy yalpi ichki mahsulotining ulushi 1978-yildagi 5 foizdan 2019-yilda 6,1 foizga o'sdi. Bundan tashqari, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2008-yildagi moliyaviy inqirozdan keyin Xitoyning jahon iqtisodiyoti o'sishiga qo'shgan hissasi 30% atrofida, 2018-yilda - 35,2% ni tashkil etadi. Ushbu statistika shuni ko'rsatadiki, Xitoy jahon iqtisodiyoti o'sishining asosiy motoriga aylanib, asta-sekin mintaqada va butun dunyoda muhim rol o'ynayapti.

Biroq, mamlakatning jug'rofiy joylashuvi, ma'lum manbalarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi, rivojlanishning umumiy asosi va umuman tashqi dunyo uchun ochiqlik darajasi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlarning uzoq va qiyin yo'lini bosib o'tgan holda, Xitoyning rivojlanishi hali ham notekis va muvozanatsizdir. Vaziyat shundan kelib chiqdiki, Xitoyning sharqiy mintaqalari, ayniqsa qirg'oq zonasi tez rivojlandi va mamlakat g'arbida, ichki mintaqalarda rivojlanish sezilarli darajada kechikdi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda Xitoyning sharqiy mintaqalari yalpi ichki mahsuloti Xitoyning g'arbiy mintaqalariga qaraganda 2,5 baravar yuqori. 2018- yilda Sharqiy Xitoyda yalpi ichki mahsulot 42,3 trln. yuanga, G'arbda esa - 16,1 trln.

yuanga teng. Mamlakatning sharqiy va g'arbiy qismlarining iqtisodiy rivojlanish darajasidagi katta farq Xitoyning har tomonlama modernizatsiya qilinishidagi to'siqlardan biridir.

Xitoy iqtisodiyoti 30 yildan ortiq tezkor rivojlanishni boshdan kechirdi va yangi davrga kirdi: iqtisodiy o'sish sur'ati pasaymoqda, ishlab chiqarish tarkibi qayta ko'rib chiqilishi kerak, rivojlanish modeli o'zgarishga muhtoj. Hozirgi vaqtda Xitoy iqtisodiyoti jadal rivojlanish sur'atlaridan barqaror sur'atlarga o'tmoqda. Statistika ko'ra, 2018-yildan beri Xitoyning yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati sekinlasha boshladi va 2019-yil oxiriga kelib, YAIM o'sish sur'ati 6,1 foizni tashkil etdi [3]. Bundan tashqari, po'lat ishlab chiqarish va mashinasozlik kabi sohalarda ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari muammosi paydo bo'ldi. Mamlakat ortiqcha ishlab chiqarishni o'tkazish va iqtisodiy tiklanishni rag'batlantirish uchun samarali usullarni izlashi va tashqi bozorlarni kengaytirishi kerak. Turli mintaqalarning tarkibi va rivojlanish darajasidagi tafovutlar tufayli kelib chiqadigan to'siqlarni yengib o'tish uchun Xitoy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning keng yo'lidan voz kechib, uning o'rniga iqtisodiy tuzilmani tartibga solishni tezlashtirishi, an'anaviy sanoatni o'zgartirishga o'tishi va shu bilan kelgusida barqaror iqtisodiy rivojlanishni kafolatlashi kerak edi. Shu munosabat bilan, Xitoy rahbariyati "Bir makon - bir yo'l" yangi tashabbusini ilgari surdi, bu g'arbiy Xitoyning rivojlanishini jadallashtirish va Xitoyning shimoli-sharqiy mintaqalarini jonlantirishga qaratilgan iqtisodiy loyiha sifatida baholanmoqda [4]. "Bir makon - bir yo'l" tashabbusining amalga oshirilishi mintaqaning rivojlanish darajasini oshirishga, xususan, mahalliy aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy maqsaddan tashqari, havfsizlik masalalariga ko'proq e'tibor beriladi. Uni amalga oshirish separatistik kayfiyatni kamaytirishi mumkin (Shinjon-Uyg'ur muxtor viloyati va Tibetda), g'arbiy mintaqalarda va umuman butun mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash.

Xalqaro va mintaqaviy vaziyatning o'zgarishi bir vaqtning o'zida "Bir makon - bir yo'l" tashabbusini ilgari surishga ta'sir etuvchi tashqi omildir. XXI asrga kirib, jahon savdosida, investitsiyalar tarkibi va moliyaviy oqimlarda chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jahon iqtisodiyoti asta-sekin tiklanmoqda. "Bir makon - bir yo'l" tashabbusi Xitoyning so'nggi yillarda duch kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarga javobi edi. Jahon iqtisodiy inqirozi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishi eksport va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga asoslangan Xitoy iqtisodiy modelining samaradorligini pasayishiga olib keldi.

Ta'kidlash kerakki, 2008-yildagi xalqaro moliyaviy inqiroz Xitoy iqtisodiyotiga misli ko'rilmagan ta'sir ko'rsatdi. Rivojlangan davlatlar, ayniqsa Yevropa bozorlarining qisqarishi Xitoyning iqtisodiy modeli va tashqi muhitning o'zgarishiga olib keldi. Yangi xalqaro vaziyatga muvofiq, Xitoy avvalgi passiv vaziyatdan xolos bo'lishi, iqtisodiy rivojlanish uchun yangi va kengroq eksport bozorlarini topishi kerak. Xitoyning g'arbiy qismida ochiqlikni kengaytirish orqali Markaziy Osiyo, Janubiy va G'arbiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalari mustahkamlanadi, iqtisodiyot, fan va texnika va boshqa sohalardagi hamkorlik rivojlanadi. Shunday qilib, oxir-oqibat, Xitoyning tashqi tashqi ochiq tuzilishi shakllantiriladi. Ushbu jarayonda muhim yo'nalishlardan biri bu «Bir makon - bir yo'l» tashabbusidir. Bu tashabbus mintaqaviy va davlat ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga, davlatlar va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi savdo va investitsiyalar uchun to'siqlar va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi [7].

Xalqaro vaziyat nuqtai nazaridan, Xitoyning yangi Ipak yo'li dunyoning ikki muhim mintaqasi o'rtasida joylashgan Osiyo, Yevropa va Afrika qit'alarini o'zaro bog'lab turadi. Bir tomondan - Osiyo-Tinch okeani mintaqasining tez rivojlanayotgan iqtisodiyoti, ikkinchi tomondan - Yevropaning rivojlangan iqtisodiyotlari. Ularning o'rtasida Markaziy va G'arbiy Osiyo mamlakatlari Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan hamda mineral, energiya, yer va inson resurslariga boy. Ushbu mintaqalar mamlakatlari xalqlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va farovon hayoti uchun jiddiy intilishmoqda. Osiyoda mintaqaviy hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda va Osiyoning tinch rivojlanishiga samarali hissa qo'shmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa va Shimoliy Amerikada ham, Osiyoda ham mintaqaviy hamkorlik o'rtasida hali ham jiddiy tafovut mavjud, ayniqsa Osiyo mamlakatlarining rivojlanishidagi nomutanosiblik, yaqin aloqalarning yo'qligi - bularning barchasi mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish uchun katta to'siqlardir - deya ta'kidlanadi [8]. Integratsiya Xitoyning «Bir makon - bir yo'l» tashabbusida quruqlikdagi va dengizdagi Buyuk Ipak yo'li loyihalari barcha ishtirokchilarga foyda keltiradigan umumiy sabab sifatida tasvirlangan. Bunday loyiha Markaziy, Janubiy, Janubi-Sharqiy va G'arbiy Osiyoning turli davlatlarini qamrab oladi, bu mintaqalararo almashinuv, o'zaro bir-birini to'ldirish, Yevrosiyo ishlab chiqarish zanjiri va narxlar zanjirini yaratishga yordam beradi, bu Osiyo va Yevropa o'rtasidagi

mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi. "Bir makon - bir yo'l" tashabbusi Ipak yo'li bo'ylab mamlakatlar o'rtasidagi hukumatlararo hamkorlikni rag'batlantirishi ehtimoldan holi emas. Boshqacha qilib aytganda, Xitoyning mazkur tashabbusi Osiyo, Yevropa va Afrika mamlakatlari o'rtasida transport infratuzilmasini, energetika va savdo-iqtisodiy yo'lakni yaratishga qaratilgan bo'lib, so'nggi rejada "Bir makon - bir yo'l" bo'ylab ishtirok etuvchi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Umuman olganda, integratsiya g'oyasi va erkin savdoni ta'minlash Pekinning Yevroosiyo mintaqasidagi tashqi iqtisodiy strategiyasining asosidir [9].

Bundan tashqari, Xitoyning «Bir makon - bir yo'l» tashabbusi ikki tomonlama munosabatlarni bosqichma-bosqich mustahkamlash uchun yaxshi siyosiy asosga ega. Buyuk Ipak yo'li bo'yidagi davlatlar siyosiy rejimlar va madaniyatlarda bir-birlaridan farq qilishiga qaramay, deyarli barchasi tinch va do'stona tashqi siyosat yuritmoqdalar. Bugungi kunda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar, Xitoy va Sharqiy evropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, Xitoy hamda O'zbekiston munosabatlari tarixidagi eng yaxshi davrga aylandi. Masalan, 2013-yil 9-sentabrda "O'zbekiston bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro manfaatli shartnoma" tuzilishi keyingi faoliyat kayfiyatini o'sishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Xitoy xalq respublikasi bilan o'zaro hamkorlikni misli ko'rilmagan darajada har tomonlama sheriklik va strategik hamkorlikni yo'lga qo'ydi deb aytish mumkin. So'nggi yillarda Xitoy mintaqadagi eng yirik savdo va sarmoyaviy sherik sifatida O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Aytish kerakki, do'stona siyosiy munosabatlar barqaror va qulay muhitni yaratib, «Bir makon - bir yo'l» tashabbusi doirasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun asos yaratdi. Geosiyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan ushbu tashabbusning amalga oshirilishi Xitoy va Buyuk Ipak yo'li bo'ylab rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi siyosiy hamkorlikni rivojlantirishga va ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi [10]. O'zbekistonda Xitoyning rivojlanish bo'yicha ba'zi tajribalari tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilayotgani sir emas. Bugun O'zbekistonda Xitoylik investorlar ishtirokida katta loyihalar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Zero, dunyoga eshiklarni ochmasdan mamlakatda Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni o'z o'rnida va vaqtida amalga oshirish qiyin ekanligi barchaga ma'lum [10].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqilligini 29 yili mobaynida amalga oshirilgan ulkan iqtisodiy islohotlar rivojlangan davlatlar, xususan, Xitoy xalq respublikasi ishonchini qozonishga xizmat qildi. Yangi O'zbekiston geosiyosiy muhitda o'ziga xos pozitsiyani egallab turgani nafaqat mintaqadagi, shu bilan birga xalqaro tashkilotlarni ham e'tirofiga sabab bo'lmoqda [11]. Eng asosiysi, XXI asrda biror mamlakat tashqi integratsiyadan uzilgan holda yuksak marralarni egallay olmasligi ayon bo'lib bormoqda. Bu esa o'z navbatida rivojlanish pallasini boshidan kechirayotgan O'zbekistonda geosiyosiy tafakkurni yanada yuksaltirish zaruriyati paydo bo'layotganiga ishora qilmoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent, O'zbekiston. 2017. –B.403
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. \Yangi O'zbekiston gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, 1-son.
3. Флорова И.Ю. Китайский проект «Экономический пояс Шелкового Пути»: развитие, проблемы, перспективы // Проблемы национальной стратегии. – № 5 (38). – 2016. – С. 47-67.
4. Лихуа Х. Перспектива стыковки стратегии «Один пояс – Один путь» и ЕАЭС // Управленческое консультирование. – № 11. – 2015. – С. 66-70.
5. Сергеев М. Пекин дипломатично подвинул путинский проект Евразийского союза. // Независимая газета. 14.10.2013. //УРЛ: http://www.org.ru/economiss/2013-10-14/1_pekin.html
6. Выступление Си Цзиньпина в МГИМО, 22 марта 2013 г. //УРЛ: <http://www.eyutube.com/watch?v=3жw1УС3Тк5Й&feature=youtu.be>
7. Лавров: сопряжение Экономического пояса Шелкового пути с процессами евразийской интеграции. //МИД РФ. // http://www.mid.ru/brp_4.
8. Меморандум о совместном строительстве и развитии парков высоких технологий "Шелковый путь". 13.10.2014. // URL: <http://www.fdi.gov.cn>
9. Прекрасные перспективы и практические действия по совместному созданию

экономического пояса шелкового пути и морского шелкового пути XXI века. Госкомитет по делам развития и реформ, Министерство иностранных дел и Министерство коммерции (издано с санкции Госсовета КНР). //Пекин: Издательство литературы на иностранных языках, -Пекин, 2015.

10. Лукин А.В., Лузянин С.Г. и др. Китайский глобальный проект для Евразии: постановка задачи. - М.: Научный эксперт. 2016. - 130 с.

11. Мирзаев Р. С. Великий шелковый путь: реалии XXI века. // М. -2005. - 248 с.

UDK: 316.3

IJTIMOIY HAMJIHATLIK TAMOYILLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

G. G. Tagiyeva, Z. Xujanov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari, xalq bilan muloqot qilish, mahalliy hokimiyat faoliyatida ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari O‘zbekiston misolida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada insonning huquq va erkinliklarining ustuvorligi tamoyilini tahlil qilish jarayonida biz inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish majburiyatini amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari xizmatchilarining majburiyatlari inson hamda fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari o‘rganilgan. Shu o‘rinda ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini takomillashtirish yo‘llari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy hamjihatlik, xalq bilan muloqot, inson huquqlari va erkinliklari, inson manfaatlari, boshqaruv organlar, mahalliy hokimiyat, ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari, ijtimoiy hamjihatlik samaradorligi, axloqiy xulq-atvor.

Способы улучшения принципов социальной солидарности

Аннотация. В данной статье раскрываются принципы социальной солидарности, общения с людьми, принципы социальной солидарности в деятельности местных органов власти на примере Узбекистана. Также, в статье рассматриваются конституционные права и свободы человека и гражданина в профессии анализа принципа верховенства прав и свобод человека, обязательства государственных служащих при выполнении обязательства уважать и защищать права и свободы человека. Здесь исследуются способы улучшения принципов социальной солидарности.

Ключевые слова: социальная сплоченность, общение с людьми, права и свободы человека, интересы человека, органы управления, местное самоуправление, принципы социальной сплоченности, эффективность социальной сплоченности, этическое поведение.

Ways to improve the principles of social solidarity

Abstract. This article reveals the principles of social solidarity, communication with people, the principles of social solidarity in the activities of local authorities on the example of Uzbekistan. The article also examines the constitutional rights and freedoms of man and citizen in the profession of analyzing the principle of the supremacy of human rights and freedoms, the obligations of public servants in fulfilling their obligation to respect and protect human rights and freedoms. It explores ways to improve the principles of social solidarity.

Keywords: social cohesion, communication with people, human rights and freedoms, human interests, governing bodies, local self-government, principles of social cohesion, effectiveness of social cohesion, ethical behavior

Ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari xalq bilan muloqot qilish xususiyatini aks ettiruvchi muhim belgi hisoblanadi. Bu o‘zini o‘zi boshqarishni tashkiliy va boshqaruv jihatlaridan funksional foydalanishga mahalliy hokimiyat faoliyatida ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarining alohida ahamiyatini belgilaydi.

Insonning huquq va erkinliklarining ustuvorligi tamoyilini tahlil qilish jarayonida biz inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish majburiyatini amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari xizmatchilarining majburiyatlari inson hamda fuqaroning konstitutsiyaviy

huquqlari va erkinliklari bilan bog'lanishi muhim. Bunda huquq va majburiyatlarining ijtimoiy hamjihatlik bilan o'zaro aloqasi aholi uchun ham, davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari uchun ham nazarda tutilishi lozim [1, 153].

Xalq bilan muloqotda boshqaruv organlari xizmatchilarining o'z xizmat vakolatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarligi tamoyilini amalga oshirish imkoniyatlari tegishli qonun hujjatlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. Biroq ularning huquqni qo'llash amaliyoti darajasi ancha past bo'lib qolmoqda.

Boshqaruv organlari xizmatchilari xalq bilan muloqot jarayonida intizom, axloq me'yorlarini buzish bilan bog'liq ishlar uchun tegishli nizomlarda belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar. Bunda ularga nisbatan jarima, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi ma'muriy jazolar qo'llanilishi mumkin.

Quyidagilar aholi bilan boshqaruv organlari xizmatchilarining ijtimoiy hamjihatligi tamoyillarini shakllantirish asoslari hisoblanadi:

1. Inson manfaatlarini himoyalash yo'lida boshqaruv organlari xodimlarining aholi bilan doimiy asoslarda muloqot qilish ijtimoiy hamjihatlikning birlamchi omili sifatida namoyon bo'ladi.

2. Boshqaruv organlari xizmatchilarining ijtimoiy hamjihatligi uning o'ziga topshirilgan ishga munosabati, o'zi mas'ul bo'lgan boshqaruv jabhasining manfaat va vazifalari bilan bog'liq.

3. Boshqaruv organlari xodimlarining ijtimoiy hamjihatligi samaradorligi zahirida davlat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va inson manfaatlarini nechog'li anglash darajasi yotadi.

4. Boshqaruv organlari xodimlarining maqomi, boshqaruv tizimidagi mavqei va jamiyatdagi o'rni uning funksional rolini, xalq, davlat va jamiyat oldidagi hamjihatlilik uchun mas'uliyat darajasini belgilaydi.

Ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari:

- aholi bilan muloqotda qaytma reaksiya tizimining faol va xolis ishlashi;
- aholining ijtimoiy bilimlarini uzluksiz oshirilishi;
- boshqaruv organlari xodimlarining xalq bilan muloqot qilishi uchun mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, kasbiy mahoratini oshirish;

- jamoatchilik nazoratini olib borish;

- muloqotda davlat xizmatchisi madaniyatining shakllantirilishi;

Xalq bilan muloqot qilishda ijtimoiy hamjihatlik mexanizmi quyidagilardan iborat:

- xalq bilan muloqot qilishdagi yutuq hamda kamchiliklarni aniqlash;
- xalq bilan muloqotni tashkil etishni tartibga solish me'yorlarini ishlab chiqish.
- xalq bilan muloqotda xuddagi lider shaxslar fikriga tayanish;

• ijtimoiy hamjihatlik xalq bilan muloqotning asosiy va muhim fazilatlaridan biri bo'lib, uni shakllantirish omillariga doimiy e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, ijtimoiy hamjihatlik bir necha element va tarkibiy qismlardan tashkil topadi, biroq, uning asosiy omillari - madaniy-tarbiyaviy muhit va jamoatchilik fikri hisoblanadi.

Boshqaruv organlari xodimlarining xalq bilan muloqot qilishda ijtimoiy hamjihatligini shakllantirishning obyektiv omillari orasida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- aholining moddiy yashash sharoiti;
- aholi mehnatining xususiyati;
- aholining ish bilan ta'minlanganligi, uyushmagan yoshlarni faollashtirish, aholi madaniyatini oshirish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, xususiy tadbirkorlikni yanada takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish;
- xizmat madaniyatini oshirish va xokazolar.

Boshqaruv organlari xodimlarida xalq bilan muloqot qilishda ijtimoiy hamjihatlikni samarali va natijador tarzda shakllantirishning asosiy tamoyillari, quyidagilar:


1) rahbarning muammo xususiyatidan kelib chiqib ijtimoiy va huquqiy-me'yoriy maqbul bo'lgan yechim vazifalarni belgilash;

2) xalq bilan muloqot qilish tajribasining mavjudligi;

3) ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirishda jamoatchilik nazorati tizimining mavjudligi;

4) xalq bilan muloqot qilishda qarorlar qabul qilishga nisbatan mas'uliyat bilan yondashish.

Ijtimoiy hamjihatlikning yuqorida sanab o'tilgan tamoyillari respublika hududlarida, shuningdek, tarmoqlar va boshqaruv organlari faoliyatlarida qonun hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilishi lozim.



Xalq bilan muloqot qilishda ijtimoiy hamjihatlik – mahalliy hokimiyat, vazirlik, tashkilot va idoralari xodimlarining professiogrammalar (lavozimning ijtimoiy-psixologik portretlari)ni shakllantirish uchun zarur hisoblanadi.

Amalga oshirilgan konkret sotsiologik tadqiqot natijalari hozirgi vaqtda xalq bilan muloqot qilishda boshqaruv organlari xodimlarining axloqiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim omillarga barham berish uchun imkoniyat yaratdi. Bu omillarni quyidagi asoslarga ko'ra guruhlash mumkin:

1. Individual holat. Bunday omillar qatoriga xodimlar tarbiyasi va madaniyat saviyasining pastligini kiritish mumkin. Bu mehnat jamoalarida xulq-atvorning g'iybatchilik, yolg'onchilik, laganbardorlik, kalondimog'lik, aholiga past nazar bilan qarash kabi ko'rinishlari nisbatan keng tarqalganida namoyon bo'ladi.

2. Ijtimoiy holat. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat xizmatchilarining muayyan qismi jamiyatda axloqiylik darajasi pasayib ketganligini qayd etdilar. Darhaqiqat, axloqiylik darajasi past bo'lgan odamlarning murojaatlariga maqbul echim topish va samarali muloqot o'rnatish imkoniyatlari cheklangandir.

3. Siyosiy holati. O'zbekiston davlatining hozirgi siyosati xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, bu jarayonda aholi daromadlar darajasi va turmush sifatini uzluksiz oshirishga

qaratilgan. Qabul qilingan qarorlarni amaliyotga joriy etishni davlat xizmati organlari amalga oshiradi.

Mazkur omillardan tashqari aholi xulq-atvoriga subyektiv asos ko'proq namoyon bo'luvchi ayrim jarayonlar ham ta'sir ko'rsatadi:

- ijtimoiy hamjihatlikni yanada takomillashtirishda o'zlikni anglash – axloqiy barkamollikka erishishning eng muhim yo'li, chunki o'zlikni anglash jarayoni o'zini o'zi nazorat qilish va ijtimoiy hamjihatlik tuyg'usining kuchayishi bilan bevosita bog'liq. Bu jarayon mustaqil o'qib-o'rganish, yaxshilik qilishga intilish va hokazolarni rivojlantirishga qaratilgan umumiy o'zini o'zi takomillashtirish bilan bog'liq.

- xalq bilan muloqot qilishda ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini rivojlantirish - ijtimoiylashuv jarayonida amalga oshiriladi. Inson o'z xatti harakatlarini uning oldingi bosqichlarda kechgan ijtimoiylashuvida ishtirok etgan ijtimoiy institutlar (oila, bolalar bog'chasi, maktab, ta'lim muassasalari, kichik guruhlar va boshqalar)da qabul qilingan me'yorlarga muvofiq va mutanosib tarzda amalga oshiriladi.

- muloqot mahoratini yanada oshirish – xalq bilan muloqot qilishda ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari muhim natijaga erishishga qaratilgan xizmat mahorati hisoblanib, davlat xizmatchilarining munosib imiji shakllanishini ta'minlaydi. Professionallashuv xizmat mahoratini yanada yuksaltiradi.

- burch tuyg'usini shakllantirish – ijtimoiy hamjihatlikni yana bir muhim yo'nalishi xalq oldida muayyan darajada kafolatlar berishi, ijtimoiy hayot shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi ishlar amalga oshirilishini nazarda tutadi.

- jamoatchilik nazorati – davlat xizmati xodimlari xalq bilan muloqot vazifalarini bajarish jarayonida ularning ijtimoiy hamjihatligining muhim yo'nalishi sifatida xizmat madaniyati muhim rol o'ynaydi. U xodimlarning aholi bilan munosabatlari madaniyati, mehnatni tashkil etish madaniyati, o'zini tutish madaniyati, nutq madaniyati, o'zaro ta'sir etish madaniyati va hokazolarni o'z ichiga oladi.



Xalq bilan muloqot qilishda boshqaruv organlari xodimlarida **ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirish mexanizmiga** kelsak, u ishonirish, da'vat etish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, muammoning yechimini izlab topishga asoslanishi lozim.

Xalq bilan muloqot qilish, aholining turmush darajasi bilan yaqindan tanishish, uni o'rganishda boshqaruv organlari xodimlarining ish samaradorligi va faoliyatining sifatini oshirish, bu vazifalarni hal qilishni huquqiy ta'minlash muhim rol o'ynaydi. Huquq boshqaruvning direktiv negizini mustahkamlaydi, aholiga ta'sir ko'rsatishning axloqiy mazmunini belgilaydi, uning izchilligi va miqyosini ta'minlaydi, boshqaruv munosabatlariga kirishuvchi subyektlarning muayyan xulq-

atvorini belgilaydi va barqarorlashtiradi, boshqaruv qarorlari qabul qilishda erkinlikning o'ziga xos chegarasi bo'lib xizmat qiladi. Huquq aholiga ta'sir etishning majmuini to'liq belgilaydi. Shu sababli xalq bilan muloqot qilishning huquqiy jihatini, amaldagi qonun hujjatlarini bilmasdan davlat boshqaruvi apparatini xodimlarining aholi bilan uchrashishi, aholining turmush darajasi sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari tizimini to'g'ri belgilash hamda amalga oshirish mumkin emas. Boshqaruv organlari xodimlarining xalq bilan muloqot qilishida o'z harakatlarining qonuniyligi uchun shaxsiy javobgarligiga alohida e'tibor berish lozim. Shunday qilib, boshqaruv organi xodimi xalq bilan muloqot qilishida qonunga, davlat hamda inson manfaatlariga muvofiqlik nuqtai nazaridan yondashishi shart [2, 22].

Xalq bilan muloqotda boshqaruv organlari xodimlarining ijtimoiy hamjihatligini oshirish omillari orasida tashkiliy madaniyat alohida o'rin egallaydi. U ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari, aholining qadriyatlarga munosabati, qarashlari, an'analari, urf-odatlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, boshqaruv organlari xodimlarining axloqiy xulq-atvori ularning hamjihatligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Boshqaruv organlari xodimi, uning shaxsi, individualligi, insoniy fazilatlarini boshqalarga o'rnatib bo'lishi kerak, u atrofdegilar fikrini shakllantiradi, ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning xulq-atvori boshqalarga muayyan darajada namuna bo'ladi. Bu hozirgi kunda axloq va hamjihatlik aloqasining muhimligini belgilaydi.

Axloqlik va ijtimoiy hamjihatlik aloqasining muhimligi, bizningcha, ikki asosiy sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, demokratik jamiyatda hokimiyat, uning obro'si aholining unga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. Ikkinchidan, davlat xizmatiga katta talablar qo'yiladi, ularning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi aholini va jamoatchilik e'tiborini tortadi.

Xalq bilan muloqotga kirishish paytida boshqaruv organlari xodimlari faoliyatida qonuniylik va axloqlikni ta'minlash asosiy vositalardan biri bo'lib, u davlat xizmatida o'z burchini ado etishning o'ziga xos poydevoriga aylanishi lozim. Xalq bilan muloqotda hamjihatlik boshqaruv faoliyatining juda ko'p omil va shartlariga bog'liq bo'ladi. Biroq huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanish sharoitida davlat xizmati faoliyatining samaradorligini oshirish vazifalarini amalda bajarish jamoatchilik nazorati funksiyasini aniq va to'g'ri qo'llashni taqozo etadi. Zero, jamoatchilik nazorati boshqaruvning muhim funksiyalaridan biri bo'lib, u nafaqat xato va kamchiliklarni aniqlash, muammolarni bartaraf etish, balki ularning oldini olish va imkoniyatlarni izlash imkonini beradi.

Xalq bilan muloqot tizimida ijtimoiy hamjihatlikning samaradorligini oshirishda mustaqil nazorat va ekspertlar nazorati muhim rol o'ynashi mumkin. Boshqaruv sub'ektlarining ijtimoiy hamjihatligini samarali nazorat qilish va amalga oshirish uchun ularning oshkoraligi hamda demokratik xususiyati kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning davlat ustidan bevosita nazorati sifatida tushuniluvchi demokratik nazorat, ayrim mualliflar fikriga ko'ra, bevosita demokratiyaning rang-barang institutlari (umumxalq saylovi, fuqarolarning yig'inlari va majlislari, mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish va sh.k.) orqali amalga oshiriladi [3, 57].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq bilan muloqot qilishda intizom va javobgarlik bo'lmasa, samarali boshqaruv ham bo'lmaydi. Boshqaruv organlari xodimlarining xalq bilan muloqot qilishida hamjihatlikni shakllantirishning samarali yo'llari, vosita va usullarini topish borasidagi izlanishlar hamjihatlikning tabiatini, uning yuzaga kelish shart-sharoitlari va muayyan ijtimoiy borliqda namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq. Boshqaruv organlari xodimlarining xalq bilan muloqot qilish hamjihatligi o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi tartibga solish, o'zini o'zi cheklash, o'z harakatlarini mustaqil boshqarish tarzida namoyon bo'ladi, eng avvalo, so'z va ish birligida, intizomlilik, vijdonlilik, o'z vazifalarini bajarishga sidqidildan yondashishda ifodalanadi.

Adabiyotlar

1. Сильвестров В.В. Философское обоснование теории и истории культуры. -М.: Всесоюз. заоч. политехн. ин-та, 1990. -С. 153.
2. Mualliflar jamoasi. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. -T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. -B. 22.
3. Акопов Л.В. Демократический контроль как государственно-правовой институт (история, теория, практика). -Ростов-на-Дону, 1997. - С. 57.

UDK: 1

VOLONTYORLIKNI TADQIQ ETISHGA OID ILMIY YONDASHUVLAR

A. M. Qudratov

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi
anvarmirzo.qudratov@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada volontyorlikni ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos jihatlari ochib berilgan, uning sotsiologik tadqiqot oby'ekti sifatida o'ziga xosligi alohida fanga oid, shuningdek falsafiy, iqtisodiy, tarixiy, pedagogik, psixologik yondoshuvlar kesimida ko'rib chiqilib har bir yondoshuvning o'ziga xos ustunliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Volontyorlik, uslubiy yondoshuv, tizimli yondoshuv, anomiya, volontyorlar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy mas'uliyat, volontyorlik motivatsiyasi, volontyorlik tajribasi.

Научные подходы к волонтерским исследованиям

Аннотация. В статье раскрывается специфика волонтерства как социального явления, рассматривается его специфика как объекта социологического исследования с точки зрения отдельной науки, а также философских, экономических, исторических, педагогических, психологических подходов и анализируются конкретные преимущества каждого подхода.

Ключевые слова: Волонтерство, методологический подход, системный подход, аномия, социализация волонтеров, социальная ответственность, волонтерская мотивация, волонтерский опыт.

Scientific approaches to volunteer research

Abstract. This article reveals the specifics of volunteering as a social phenomenon, its specificity as an object of sociological research is considered in terms of individual science, as well as philosophical, economic, historical, pedagogical, psychological approaches and analyzes the specific advantages of each approach.

Keywords: Volunteering, methodological approach, systematic approach, anomie, socialization of volunteers, social responsibility, volunteer motivation, volunteering experience

So'nggi yillarda olimlar turli fan sohalariga oid alohida nazariyalarni umumlashtirib, ba'zi yondashuvlarni amalga oshirishga urinib ko'rmoqda. Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, volontyorlikni ijtimoiy hodisa sifatida ochib berish, uning sotsiologik tadqiqot oby'ekti sifatida o'ziga xosligini alohida fanga oid, shuningdek fanlararo turli xil yondoshuvlar kesimida ko'rib chiqish kerak.

Volontyorlikni tahlil qilishga oid ilmiy yondashuvlarni aniqlash va tasniflashga urinishlar ushbu masala bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida aks etgan. Volontyorlikni tadqiq qilishning uslubiy yondashuvlari haqida so'z borganda, N. V. Cherepanovning dissertatsiyasini misol sifatida keltirish mumkin, tadqiqotda aksiologik, gumanistik, tizimli, shaxsga-faoliyatga yo'naltirilgan, mazmunga yo'naltirilgan, dialogik va kontekstual yondashuvlar belgilab berilgan [7].

Volontyorlik yoki ko'ngillilikni o'rgangan tadqiqotchilarning bir qator ilmiy nuqtai nazarlarini ko'rib chiqib, ba'zi umumiy metodologik xulosalarni qilish mumkim. Birinchidan, volontyorlik o'rganilgan deyarli barcha nazariy tadqiqotlarda faqat muayyan fanga oid va fanlararo yondashuvlar saralab yoki qisman qo'llanilgan. Ikkinchidan, fundamental metodologik an'analarning imkoniyatlari tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha baholanmaydi; asosan, tadqiqotda alohida fan yo'nalishlarining yondoshuvlariga ustuvorlik beriladi. Uchinchidan, tanlangan yondashuvlar ushbu hodisani uning fanlararo xususiyatlarini baholash orqali ko'rib chiqishga imkon bermaydi, chunki mualliflar iqtisodiy, pedagogik, psixologik va boshqa fan tarmoqlarining muayyan muammolarini o'rganishga kirishadilar. Ba'zi tadqiqotlarda noto'g'ri talqin qilingan, tarkib, mohiyat va vositani o'rganishga qaratilgan yondashuvlar aralashib ketgan. Biz aniqlagan muammoli vaziyatlar tadqiqot mavzusiga tizimli yondashuvning yo'qligini tavsiflaydi, uning alohida jihatlari tegishli bo'lganini ko'rsatadi.

Keling falsafa, iqtisodiyot, tarix, pedagogika, psixologiya va huquq nuqtai nazaridan volontyorlikning tabiatiga murojaat qilaylik. Bizning fikrimizcha, ushbu mantiqiy yondashuvlar hech

qanday ziddiyatga ega emas, aksincha bir-birini to'ldiradi. Ular tadqiqot chegarasini umummetodologik tahlilni qo'llash orqali kengaytirishga, strategiyani nazariy jihatdan to'ldirib, uni tadqiqotlarimizda metodik jihatdan amalga oshirishga imkon beradi.

Volontyorlikni fundamental tushunishning asosi falsafiy bilimlarda yotadi. Falsafiy yondashuv volontyorlikni ijtimoiy ongimizga, uni anglash va yangi dunyoqarashni qabul qilishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. U tadqiqotchilarni volontyorlar faoliyatining ontologik va gnoseologik asoslarini ko'rib chiqishga yo'naltiradi, bizga ularning mavjudligi qonunlarini va ularning maqsadlarini amalga oshirishni, erkin va axloqiy faoliyat bilan bog'liq hayotni izlashning mazmunini, shaxsiy takomillashishini tushuntirishga imkon beradi. Mazkur hodisani o'rganish asnosida, tadqiqotda asosiy e'tibor falsafaning mavjudlik va ong yaxlitligi printsipligiga mos keladigan amaliy roliga qaratiladi [3].

Falsafiy yondashuv volontyorlarning idroki, amaliyoti va falsafasi evolyutsiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Bu o'z o'rnida, tadqiqotchilarni volontyorlik haqidagi fikrlarning xilma-xilligini tushunishga va tan olishga olib keladi hamda umuman inson taraqqiyotining tabiati haqidagi tasavvurni kengaytiradi. Faylasuflar volontyorlikni shaxsiy va jamoaviylikni qarama-qarshi qo'yish orqali o'rganadilar, shu orqali inson xulq-atvorining axloqiy mezonlarini yoritadilar, aniqlaydilar va tushuntiradilar. Volontyorlikka falsafiy yondashuv ko'p jihatdan axloqiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liq. Faylasuflar moddiy va ma'naviyatning ikki tomonlama mohiyatni tahlil qiladilar, inson tabiatining egoistik va altruistik tamoyillarining ziddiyatlarini o'rganadilar. Faylasuflar tomonidan ko'rib chiqilgan volontyorlik rivojlanishining barcha xususiyatlari "odatda insoniyatning tabiiy, ongsiz ruhiy rivojlanishiga putur yetkazmasdan lokal xususiyatga ega bo'ladi" [4].

Ilmiy sohada volontyorlikni tahlil qilish iqtisodiy yondashuvda ko'proq rivojlangan. Bu yondashuv volontyorlik faoliyatining iqtisodiy harajatlar, shaxs, jamoa va umuman jamiyat uchun ijtimoiy-iqtisodiy foydasi o'rtasidagi yaqin munosabatni aniqlashdan iborat. U iqtisodiy hodisa sifatida volontyorlik narxini baholashga imkon beradigan miqdoriy ko'rsatkichlarni belgilash bo'yicha tadqiqotlarni olib boradi, ya'ni ko'ngilli va xodimning individual mehnati qiymati moliyaviy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish, bozor sharoitida va notijorat sektorda ko'rsatiladigan xizmatlarning narxini taqqoslaydi.

Iqtisodiy yondashuv volontyorlar faoliyatining uch darajadagi iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilishni nazarda tutadi: mikro daraja, tashkiliy daraja va makroiqtisodiy darajadagi tahlil. Mikro daraja –volontyorlar uchun, yordam ko'rsatilgan odam uchun ham mehnatning iqtisodiy qiymatini belgilash bilan bog'liq bo'ladi. Tahlilning tashkiliy darajasida, volontyorlarni jalb qilgan holda, tashkilot amalga oshirgan tadbirlar, loyihalar qiymati baholanadi. Tashkilotning volontyorlarni mehnatga tayyorlashga va ularning faoliyatini boshqarishga sarflagan sarmoyalari darajasi ham o'rganilishi kerak. Makro darajada, iqtisodiyotning jamoat sektori darajasi baholanib, milliy va global miqyosda ko'ngilli ishchilarning ijtimoiy rivojlanishga qo'shgan hissasi hisoblanadi [6]. Iqtisodiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari, turli mamlakatlardan ma'lumotlarni olish va izohlashning yagona usullari vositasida volontyorlar ishi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatini tug'diradi.

Rus tadqiqotchilari A. M. Zinatulin, L. A. Karseva volontyorlar faoliyatining iqtisodiy-nazariy tahlili tamoyillarini bayon etishdi, bu esa volontyorlikning ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy asoslarini aniq baholash, ularni muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash uchun institutsional yo'nalishlarni shakllantirish imkonini beradi [5].

Volontyorlikni o'rganuvchi iqtisodiy tadqiqotlar asosan uchinchi sektor tashkilotlari faoliyati va rivojlanishi muammolariga e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv volontyorlik mehnat faoliyatini individual emas, balki birlashgan sub'ekt sifatida tahlil qilib, NNT faoliyatida ko'ngilli ravishda ishtirok etish orqali ishlab chiqarilgan xizmatlar, ishlab chiqarish va iste'mol tashqi ta'sirlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar sifatida qaraladi.

Volontyorlikni tartibga solishning me'yoriy jihatlari va huquqiy yondashuv ham e'tiborga molik. Bu yondashuvning predmeti xayriya va volontyorlik faoliyatining huquqiy asosini tashkil etuvchi normalar, shuningdek ularni amaliyotda qo'llashdan iborat. Huquqiy yondashuv volontyorlik faoliyati sub'ektlarining maqomini aniqlash, o'zaro munosabatlarning ma'lum hududiy doirada qonuniy tartibga solishni talab qiladigan jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Biz o'rgangan hodisaning huquqiy jihatlarni tahlil qilishda turli mamlakatlarda volontyorlarning mavqei va faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning xususiyatlari baholanadi, xalqaro normalar, ayniqsa mintaqaviy va mahalliy qonun ijodkorligi izchilligi (implementatsiya)

o'rganiladi. Turli mamlakatlarda mazkur sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, volontyorlik sohasidagi qonunchilik uchta darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi: xalqaro hujjatlar (shartnomalar, qarorlar, bitimlar), milliy qonunchilik va mahalliy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar. Xalqaro miqyosda volontyorlik muammolari xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va ko'p mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Huquqiy yondashuvni qo'llash orqali o'rganilayotgan muammolardan biri bu milliy miqyosda volontyorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishdir, chunki bugungi kunda barcha mamlakatlarda bu sohada huquqni qo'llash amaliyoti bir xil emas. Dunyoda volontyorlar tashabbuslarining xilma-xilligi, turli mamlakatlar o'z qonunchiligida turli maqsadlarga intilishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, volontyorlik faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi milliy qonunlar umuman bo'lmasligi ham mumkin, ammo bu holat mamlakatda uning ommaviyligi va tarqalishiga ta'sir qilmaydi. Turli mamlakatlarda mavjud volontyorlik to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar maqsad va vazifalariga, ular tomonidan tartibga solinadigan volontyorlar faoliyatining turlari hamda volontyorlar va tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish darajasi nuqtai nazaridan bir xil emas. O'zbekistonda "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun 2019 yil 2 dekabrda qabul qilingan [1]. Qabul qilingan qonunning xalqaro huquqiy hujjatlar va boshqa davlatlarning qonunchiligi bilan qiyoslab o'rganish masalasi alohida huquqiy tadqiqot uchun mavzu bo'ladi.

Ko'plab ilmiy materiallar, maqolalar, dissertatsiya tadqiqotlari va ularning mualliflari nashirlik faoliyati bo'yicha xulosa qilib aytish mumkinki, volontyorlikni o'rganishda ilm-fanda eng yaxshi rivojlangan yo'nalish pedagogik va psixologik yondashuvdir. Buning bir qator sabablari bor. Birinchidan, ushbu yondashuvlar, anomiya sharoitida, volontyorlar ijtimoiylashuvining turli jihatlarini to'liq ochib beradi. Ikkinchidan, psixologik va pedagogik tadqiqotlarga bo'lgan talab volontyorlarning yosh xususiyatlari bilan bog'liq, chunki davlat yoshlar va o'smirlar volontyorligiga katta e'tibor qaratmoqda. Uchinchidan, volontyorlarning ko'plab tadbirlari yosh avlod muammolarini hal etishni o'z ichiga oladi (ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy vasiylik muammolarini hal qilish, bo'sh vaqtni tashkil qilish, ish topish va boshqalar). To'rtinchidan, volontyorlikning muhim jihatlaridan biri bu insonlarni volontyorlikka undashdir, bu psixologiya orqali tushunilishi, pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida rag'batlantirilishi va rivojlanishi mumkin.

Volontyorlikka pedagogik yondashish – bu hodisani yosh avlod ta'lim jarayonining muhim elementlaridan biri; ijtimoiylashuv mexanizmi; o'qitish yoki kasb-hunar ta'limi texnologiyalari; shaxsning asosiy xususiyatlari shakllanadigan ta'lim va tarbiya sohasining ajralmas qismi sifatida ko'rishni nazarda tutadi. Yondashuv yoshlarning ijtimoiylashuvi, pedagogika, psixologiya, ijtimoiy ish, tibbiyot va shu kabi sohalardagi yosh mutaxassislarining kasbiy mahoratini oshirib borish va boshqalarni qamrab oladi.

Pedagogik tadqiqotlar volontyorlikni ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish bilan bog'liq bo'lib, uning mazmunini turli yoshdagi yoshlarning ijtimoiy kompetentsiyasini, ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga hissa qo'shadigan ta'lim faoliyati sifatida tushuntirishga qaratilgan. U tadqiqotchilar e'tiborini volontyorlar faoliyatini tashkil etish muammolariga (maqsadlar, usullar, pedagogik texnologiyalar, natijalar va boshqalar) qaratadi.

Psixologik yondashuv volontyorlikning tarkibiy elementlarini baholash, ularning funktsional yuklamasini tahlil qilib, ushbu faoliyat sub'ektini va uning faoliyatini o'rganish orqali aniqlab olishga imkon beradi. Bu yondashuv volontyorlik faoliyatning tarkibi, volontyor tomonidan sub'ekt sifatida ichki ruhiy mexanizmlar va munosabatga urg'u bergan holda tahlil qilishga qaratilgan. Volontyorlar faoliyatining motivlari, maqsadlari va vazifalari, uning natijalari to'g'risida sub'ektiv tasavvurlar, uni amalga oshirishning shartlari, ular orasida eng muhimi – maqsadga erishish yo'llari psixologik tahlildan o'tkaziladi.

Volontyorlik bo'yicha nazariy va empirik pedagogik-psixologik tadqiqotlar volontyorlarning tashqi va ichki motivatsiyasini o'rganishga, ularning faoliyatini rag'batlantirish shakllari hamda usullarini baholashga qaratilgan. Psixologik yondashuvni amalga oshirish doirasida tadqiqot yo'nalishi shaxsning har tomonlama rivojlanishi va o'zini-o'zi rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni aniqlash bilan bog'liq bo'lib, ushbu tadqiqotlar natijalarini pedagogikada amalda qo'llashga qaratilgan. Ushbu nuqtai nazardan, volontyorlik "volontyorning shaxsini - uning qadriyatlarini, qobiliyatlarini, imkoniyatlarini, potentsialini o'zgartirish, rivojlantirish va o'zgartirish uchun asos, vosita va shart" hisoblanadi [2].

Psixologlar volontyorlar faoliyatida qatnashishning tarbiyaviy ta'sirini baholaydilar, shaxsning axloqiy shakllanishini o'rganish nuqtai nazaridan volontyorlik tavsifini beradilar.

Volontyorlikni tadqiq qilishda pedagogik, iqtisodiy, psixologik tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonida olimlar tarixiy yondashuvga murojaat qilishadi. Tarix, falsafa, sotsiologiyaning fanlararo o'zaro ta'siri tekisligi fizik dunyoning qonunlari kabi doimiy bo'lgan mezonlarni, omillarni, tamoyillarni, "qonunlarni" qidirishni nazarda tutadi. Tarixiy tadqiqotlar turli xil tarixiy davrlarda volontyorlik faoliyatining muhim xususiyatlarini tahlil qilishga, uning o'tmishdagi institutsional xususiyatlarini baholab, hozirgi paytda mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu yondashuv tarixiy faktlarni taqqoslash, tarixiy shaxslar va alohida ijtimoiy birliklarning faoliyatini tahlil qilish orqali ijtimoiy hayotda volontyorlik faoliyatining shakllanishi va mustahkamlanishini aks ettiradi.

Tarixiy yondashuv insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti davomida to'plagan volontyorlik tajribasidan samarali foydalanishga qaratilgan. U volontyorlik faoliyatining genezisini alohida mamlakatlar madaniy va tarixiy rivojlanishining bir qismi sifatida tushuntiradi. Tadqiqotchilar har bir mamlakatda bir necha asrlar davomida mavjud bo'lgan jamoaviy darajadagi insonlarni o'zaro qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos an'analariga ega ekanligi va ularning ko'plari ijtimoiy xulq-atvor shakli sifatida zamonaviy volontyorlik tushunchasi bilan kesishganligini isbotlaydilar.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda, davlatlar va jamiyatlar alohida yakka rivojlanmaydi, vaqt va makon chegaralari yo'q qilinadi, shunday sharoitda volontyorlik fenomenini o'rganishda sotsiologik yondashuv eng samarali hisoblanadi. Uning mohiyati volontyorlik butun ijtimoiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida eng muhim ijtimoiy hodisalardan biri ekanligini, uning jamiyatga va jamiyatning unga ta'sirini o'rganishni tizimli ravishda tushunishdan iborat. Sotsiologik yondashuv volontyorlar faoliyati bo'yicha jamoatchilik fikrini tahlil qilishga, ularning faoliyatiga munosabatni baholashga qaratiladi. Ko'rib chiqilayotgan hodisaning ob'ektiv xususiyatlari va subektiv baholari bo'yicha tadqiqotlar kombinatsiyasini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda jamiyatni unda volontyor bo'lgan insonlar hamjamiyati, volontyorlar faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy institutlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, ularning ijtimoiy faolligini belgilovchi volontyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy jarayonlar ham bundan mustasno emas. Sotsiologik bilimlar doirasida volontyorlikni har xil nuqtai nazardan ko'rib chiqish, ijtimoiy o'zaro ta'sirning makro, mezo va mikro darajalarida, hodisaning o'zi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatini hisobga olgan holda har tomonlama o'rganish mumkin.

Umuman olganda, ushbu bo'limda tahlil qilingan har bir yondashuv o'ziga xos ustunliklarga ega, ijtimoiy hodisa sifatida volontyorlikning o'ziga xos jihatlari e'tibor qaratadi va uni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Волонтёрлик фаолияти тўғрисида”ги қонуни. <https://lex.uz/docs/4623999>
2. Абдалина Л. В. , Григорович М. В. Психологические аспекты добровольческой деятельности в подростковом возрасте // Вестник ТГУ. 2011. № 7 (99). С. 100.
3. Гринь А. В. Системные принципы организации объективной реальности. М. : МГУП, 2000. 300 с.
4. Дворко С. Б. Философия добровольчества. 2005.[Электронный ресурс] . URL: <http://www.razmah.ru/showarticle.asp?id=2298>. (дата обращения : 21. 01. 2013).
5. Зинатулин А. М. , Карсева Л. А. Экономико-теоретический подход к организации добровольческого движе-ния // Экономический журнал. 2011. Т. 23, № 3. С. 111–121.
6. Salamon M. , Wardell F. , Lishman J. Measuring the economic value of volunteer work globally : concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. Johns Hopkins University. USA. 2011. № 82(3). P. 224.
7. Черепанова Н. В. Социальное обучение в добровольческом движении: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Сев. Кавказ. гос. тех. у-т. Ставрополь. 2006. С. 6.

UDK 65.050.2Z22

MOTIVATSIYA FUNKSIYALARINING O'RNI VA XUSUSIYATLARI

M. A. Aynaqulov, O. T. Nazarov

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Maqolada samaradorlikning asosiy unsuri sanalgan motivatsiya bosqichlari, motivatsiyaning eng ilk ilg'or usullari, eng taniqli motivatsion nazariyalar, A.Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi, Kleyton Al'derferning ehtiyojlarni guruhlarda birlashtirishi, shuningdek, elektron motivatsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: "Shirin kulcha va qamchi", Gedonik, Psixoanalitik, Drayv (istak-hohish), Shartli reflekslar, Eros, Tonatos, "Ego", "Id", "Superego".

Место и особенности мотивационных функций

Аннотация. В статье описаны этапы мотивации, которые являются ключевыми элементами эффективности, наиболее продвинутые методы мотивации, наиболее известные мотивационные теории, иерархия потребностей А. Маслоу, группировка потребностей Клода Альдерфера и электронная мотивация.

Ключевые слова: «Пряник и кнут», «Гедонист», «Психоаналитик», «Драйв (воля)», «Условные рефлекс», «Эрос», «Тонатос», «Эго», «Ид», «Суперэго».

Place and features of motivational functions

Abstract. The article describes motivation stages that are key elements of effectiveness, the most advanced methods of motivation, the most well-known motivational theories, A. Maslow's hierarchy of needs, Claude Alderfer's grouping of needs, and electronic motivation.

Keywords: "Sweetheart and whip", Hedonic, Psychoanalytic, Driver (Will), Conditional Reflexes, Eros, Tonatos, "Ego", "Id", "Superego".

Korxonalar va tashkilotlarda turli yoshdagi, turli xulq-atvordagi kishilar faoliyat yuritadilar. Shu munosabat bilan ularning mehnat faoliyatini tartibga soluvchi, muvofiqlashtiruvchi yo'nalish va usullarga hamisha ehtiyoj seziladi. Ana shunday yo'nalish va usullardan biri bu motivatsiyadir. Menejment qoidalari bo'yicha motivatsiya inson tafakkuriga asta sekinlik bilan bosqichma-bosqich kirib boradi.

Motivatsiya dinamik jarayon sifatida, nazariy jihatdan ba'zi shartlar bilan qaralgan quyidagi bosqichlarda ifodalanadi:

1. Bir ehtiyojning paydo bo'lishi.
2. Ehtiyojni qondirish yo'llarini izlash.
3. Maqsad va harakat yo'nalishlarini aniqlash.
4. Harakatlarni amalga oshirish.
5. Harakatni amalga oshirganlikni taqdirlash.
6. Ehtiyojni qondirish yoki esdan chiqarish. [2]

Tashkilotni boshqarish nafaqat tashkiliy, texnik va ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat jihatidan, balki ijtimoiy-ruhiy, hamijtimoiy, ham biologik xususiyatlardan kelib chiqib, xodimlarning xatti-harakati va ular o'rtasidagi munosabatlarga uzviy bog'liq holda ko'rib chiqilishi kerak. Agar tashkilotni boshqarishda inson ruhiyati va uning ehtiyojlari, manfaatlari hisobga olinmasa iqtisodiy qonunlar o'zligini yo'qotadi.

Motivatsiya funksiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki tashkilotning iqtisodiy muvaffaqiyati tashkilotdagi tashkil etish, rejalashtirish darajalaridan ko'ra ko'proq ba'zi boshqa narsalarga, ya'ni, mehnat jamoalaridagi muhitga, o'z-o'zini boshqarishning rivojlanishiga, oshkorlikka, buxgalteriya hisobi va ishchilarning ehtiyojlarini qondirilishi kabi darajalarga bog'liqdir. [1]

Motivatsiya funksiyalarining eng muhimligi bilan bog'liq holda motivatsiya nazariyalarining bir nechta, tashkilot faoliyatini samarali boshqarishning motivatsiyasiga ruhiy yondashuv kabi ko'rinishlarini ko'rib chiqamiz.

Motivatsiyaning eng ilk ilg'or usullaridan biri "shirin kulcha va qamchi", ya'ni, ba'zi tashkilotlarda hali ham qo'llanib kelinayotgan taqdirlash va jazolash usulidir. [5]

Ko'plab tadqiqotlar buning asosli ekanligini isbotlaydiki, hozirgi vaqtda motivatsiyaning asosiy faoliyati bo'lib, maqsadga erishishni motivatsiyalash hisoblanadi, bundan tashqari muayyan sabablar va qadriyatlarga ega bo'lgan aniq ifodalangan modellar turi - bu bozor qonunlaridir.

Ko'p yillar mobaynida muayyan tizimlarda motivatsion an'analarni kamaytirishga va shu asosda tegishli nazariyalarni ishlab chiqishga urinishlar bo'ldi. Eng taniqli motivatsion nazariyalarni quyidagilar oldi:

- I. Gedonik;
- II. Psixoanalitik;
- III. Drayv (istak-hohish);
- IV. Shartli refleklar;
- V. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi va Kleyton Al'derferning nazariyasi;
- VI. Mak-Klelland ehtiyojlari;
- VII. Gersbergning ikki faktorli nazariyasi;
- VIII. Mak-Gregorning "X va U" nazariyasi;
- IX. Kutish;
- X. Adolat;
- XI. Porter-Louler modeli;
- XII. Elektron motivatsiyalar. [6]

Keling, ba'zi motivatsiya nazariyalarini qisqacha ko'rib chiqaylik.

I. Gedonik motivatsion nazariyasi uzoq o'tmishdagi davrlarda qadimgi Yunonistonda paydo bo'ldi, bu nazariyaga ko'ra, bir kishi lazzatlanish va ehtiyojni qondirishni ko'paytirish va g'amginlikni, norozilikni, noqulaylikni, og'riqni, azob-uqubat kabilarni esa kamaytirish sari intiladi. Bu nazariyani ishlab chiquvchilardan biri amerikalik ruhiyatshunos P. Yung hisoblanadi. U shuni isbotlaydiki, lazzatlanish asosiy omil hisoblanib, u xodimlarning xatti-harakatini, yo'nalishini va ishchilarning axloqiy tuzilishining tashkil etilishini belgilaydi. P. Yung konsepsiyasi bo'yicha, xulq-atvor hissiyoti, xatti-harakatining belgilari quyidagicha: agar bu hissiyot haqiqiy bo'lsa, harakat takrorlanadi, agar bu hissiyot salbiy bo'lsa, harakat to'xtab qoladi. Gadonik nazariyaning boshqa tomonidagilar - odamlar hissiy tuyg'ularga ishonishadi, faqat ular ma'lum darajaga qadar zavq sifatida qabul qilinadi, deb hisoblaydilar. So'ngra, qayta to'yinish keladi va bu hislar norozilik alomatini keltirib chiqaradi. So'nggi vaqtlarda Gedonik nazariya ikki muhim omilni aniqlash bilan bog'liq holda "ikki o'lchovli" degan nomni oldi:

1. Rag'batlantirish darajasi;
2. Subyektiv lazzatlanishga nisbatan Gedonik tovush.

Motivatsion faoliyatni o'rganish va tushunish tashkilotni boshqarish tadqiqotlarida muhim rol o'ynaydi. Yashirin xulq-atvor tuzilmalarini kashf qilish, inson shaxsiyatiga bog'liq muammolarni, qanday qilib bo'lsa ham psixologik omillar rivojlanishini o'rganish zarurdir. Ishchilarning haqiqiy xulq-atvorini o'rganishning o'zi bir narsa va ba'zan bunga qanday munosabatda bo'lishni tushunish ancha qiyin: odamlar doimo o'zlarining xatti-harakatlarini tushuntirishga qodir emaslar.

II. Psixoanalitik motivatsion nazariya avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd tomonidan yaratilgan va rivojlantirildi. Ular inson xatti-harakatini, xulq-atvorini o'rganishning psixodinamik yondashuvini misol qilib ko'rsatadi. Uning nazariyasi muayyan ruhiy kuchlarning mavjudligini tan olishga asoslanadi, insoniy xulq-atvorni shakllantiradi va bu har doim ham ularga tushuntirilavermaydi. Buni har xil rag'batlantirishlar harakatlariga javob sifatida izohlash mumkin. U odamlarning xulq-atvorining harakatlantiruvchi kuchlarini instinktlar (g'ayri ixtiyoriy) deb ta'kidlaydi:

1. Eros - hayotning beixiyor harakati (instinkti);
2. Tonatos - tajovuz, halokat, o'lim kabilarning beixiyor harakatlari.

Freydning ta'kidlashicha, insoniyat hali eros va tonatosning sirlariga egalik qilmagan va kelajak avlodlarning vazifalari - bu instinktlarni, ya'ni, g'ayri ixtiyoriy harakatlarni tushunish va boshqarishdir. Freyd bo'yicha instinktlarning 4 ta asosiy parametrlari mavjud: manbalar, maqsad, obyekt va rag'bat.

Psixoanalitik nazariya insonni uchta tuzilmaning komponentlarining birligi sifatida ko'radi:

1. "Ego" (Ya) o'zini anglash, shaxsiy aniqlik;
2. "Id" (bu) - bu instinktlar (g'ayri ixtiyoriy) va impulslarning (asab qo'zg'atuvchi harakatlar)

ombori;

3. "Superego" - "shaxs - befarqlik" doirasidagi inson xulq-atvorining ruhiy jihatlarini.

Sxematik tarzda, shaxsiy tuzilish Freyd bo'yicha aysberg ko'rinishiga o'xshaydi, suv sathining yuqorisidagi faqat "Ego" – bu taxminan oltinchi qismi. [3]

Psixanalitik nazariyada quyidagicha ifoda topildi:

•determinizmning (chegaralamoq) qoidalari va tamoyillariga kuchli tarafdorlik, irratsionallik, (nomutanosiblik) o'zgarimaslik, gomeostazi (moslik) va idrok etish;

•xolizm (butun) qoidalari nisbatan tarafdorlik;

•subyektivlik tamoyiliga ahamiyatsiz tarafdorlik.

Psixozanalizning asosiy asosi - ishchilarning ahloqiy maqsadlarini tushunish imkoniyatini beruvchi va uni tashkilot foydasiga yo'naltiruvchi insoniyat xulq-atvorining ko'plab uyg'otuvchi kuchlarini tushunmasdan o'zida saqlab turilishidir. Masalan, menejer mehnat unumdorligini oshirish zarurligi to'g'risida qanchalik gapirmasin, keyingi gap-so'zlar ungacha bormaydi. Ammo, agar ular rag'batlantirishning moddiy va ruhiy uyg'otuvchi, harakatlantiruvchi kuchlarini tushunmasa, buning zamirida fahmlaydigan va fahmlamaydigan asab qo'zg'atuvchi (impuls) harakatlar yotadi, unda u aniq choralarni oldindan belgilashi va muvaffaqiyat sari intilishi mumkin.

III. Drayvlarning motivatsion nazariyasi (xohish-istak) har xil ko'rinishdagi bixevioristik S-R model hisoblanadi, bu yerda S - rag'batlantiruvchi, R – (reaksiya), ta'sir etish.

Drayv motivatsion nazariyasining yaratuvchisi amerikalik psixolog Karl Xall hisoblanadi.

Gomeostaza (moslik) tamoyiliga asoslangan holda uning mohiyati shundan iboratki, ya'ni odam o'zining ichki holatini qo'llab-quvvatlash an'anasiga ega bo'lib, odamlarning ichki dunyosidagi o'zgarishlar muayyan (reaksiya) ta'sir etishga olib keladi. Avvalambor, inson har qanday o'zgarishlarni bartaraf etishga harakat qiladi. Bartaraf etishning faol unsuri bo'lib drayvlar (xohish-istak) hisoblanadi. [4]

S-R modeliga muvofiq, (reaksiya) ta'sirning yuzaga kelishi va bu ta'sirning zo'riqtiruvchi kuchlari, mustahkamlovchi yangi urinishlar deb ataladi. Xodimning ruhiyatidagi xatti-harakatlar biror narsa bilan yetarli darajada mustahkamlanadi va qat'iy standartga muvofiq ishlaydi. Muayyan rag'batga mo'ljallangan, xodimlarning "Tashib keltirmoq" deb nomlangan aniq tizimi yaratildi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari tashkilotlarida ushbu tizim xodimlarni rag'batlantiruvchi tizim sifatida ularga mehnat qilish jarayonlarida faollikka undash uchun pul va taqdirlashning turli xillari ko'rinishida qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tizim ishchilarning radsiz ham haqiqiy, ham salbiy ish faoliyatini ta'minlaydi. Oxirgi holatda, xodimlar ruhiyatida taqdirlanish tuyg'usini sezish uchun kayfiyatni yaratadi va ularga faqat bir necha marta katta unumdorli mehnatni biriktirmaslik lozimki, ishchi sifatida bunga u tezda ko'nikadi va endi qo'shimcha taqdirlanishlarsiz ham har doimgi holatda ishlayveradi.[7]

IV. Motivatsiyalarning shartli reflekslar nazariyasi. Mazkur nazariya rus olimi I.P.Pavlov tomonidan yaratilgan va ishlab chiqilgan. Uning chetki burchakli nazariyasi tashqi bezovta qilishga berilgan tananing ta'siri hisoblanib, motivatsiya-ning poydevori deb tan olingan shartli va shartsiz reflekslardir. U shartli reflekslarga alohida e'tibor qaratdi. Shartli - refleks, uning fikrlash va xatti-harakatlar stereotipi (bir qolipli) asosida aniqroq shakllantirilgan shaxs motivatsion tizimining markaziy qismini o'zida aks ettiruvchi psixofizikaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rib chiqilgan motivatsion nazariyalarni bilish tashkilot rahbariga ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan motivatsiyaga umumiy yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Shuning bilan birgalikda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda shakllangan motivatsiya nazariyalaridan tashkilotni boshqarish jarayonida kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

V. A.Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi haqida, ya'ni, odamlar o'zlarining ishlarida qanday qanoatlanishni izlashi to'g'risida fikr beradi. Taniqli amerikalik sotsiolog Abraxam Maslou (uning otanalari Rossiya imperiyasidan emigratsiya qilingan) tomonidan yozilgan uning "Ehtiyojlar iyerarxiyasi" deb nomlangan asari chop etildi. Kitobning kitobxonlar ehtiyojiga ko'ra yetishmasligi uni ko'paytirishga undaydi. Hozircha muayyan ehtiyoj qondirilmagan, chunki, kitob o'z mohiyati bilan mehnatga undovchi ta'sirchan omil bo'lib xizmat qiladi.

Kitobga bo'lgan oddiy ehtiyoj qanoatlanirilgandan keyin harakat birmuncha yuqori darajadagi ehtiyojlarga qarab yo'naltiriladi.

A. Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar quyidagi guruhlarda bo'lishi mumkin:

1.Salomatlikni saqlash va qo'llab-quvvatlashning ishonchligini ta'minlash - fiziologik ehtiyojlar - oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy va boshqalar;

2. Xavfsizlikni ta'minlovchi shaxslar - jismoniy, iqtisodiy, hissiy va boshqalar;
3. Muayyan ijtimoiy guruhga tegishli bo'lgan narsalar va ularning a'zolarining simpatiyalari (aloqalardagi ijtimoiy ehtiyojlar);
4. Tan olish zarurati (masalan, qaror qabul qilish huquqi) hokimiyat, g'alaba, tavakkalchilik, mustaqillik, hurmat;
5. O'zini ifodalash uchun ehtiyojlar (qobiliyatlari).

Abraham Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi, keyinchalik psixolog G. Murre tomonidan takomillashtirildi va tuzilma shaklida joylashtirildi, grafik piramida ko'rinishidagi tasvirlar ierarxiyada qancha yuqori ehtiyojni egallagan bo'lsa, shunchalik kam miqdordagi odamlar qiziquvchi bo'lib qatnashadi. (1- chizma).


Abraham Maslou nazariyasini tadqiq qilib, V.I.Chirkov uning quyidagi xususiyatlarini aniqladi:

1. Antigomeostaticnost - ijodkorlikning faol tamoyillari, yaratilishi. Insonlar hayotdagi maqsadlarni belgilash va ularga erishishga harakat qilish bilan tavsiflanadi.

2. Gumanizm bu - kollektivizmdir. Inson o'zidagi ma'lum darajadagi tuyg'ulari qurshovida doimo aloqa bo'lishi kerak.

3. Birbutunlik – inson yagonalikni, bo'linmaslikni, butunlikni, haqiqiy shaxsni, o'zini namoyon qilishda boy va intiluvchan shaxs.

4. G'ayri ixtiyoriylik va inson ehtiyojlarining asosiy iyerarxik tavsifi. Diagrammada ko'rsatilgan ehtiyojlar har qanday insonning tabiatiga xosdir, ular rivojlanmaganligi sababli har qanday shaxsning tabiatida ehtiyojlari aniq namoyon bo'lmasligi mumkin. Turg'unlik (statchnost) modelinining ehtiyojini A.Maslou 1955-yilda qanoatlantirilmagan ehtiyojlarining iyerarxiyasi tamoyilining qayd etilishiga rad javob berdi va (dinamichnost) jo'shqinlik tamoyilini joriy qildi.



1-chizma. **A Maslouning asosiy ehtiyojlar iyerarxiyasi chizmasi.**

5. Ehtiyojlar dinamikzmining "rivojlanish motivatsiyasi" inson butun hayotining davomiyligida shartlangan, kelishilgan. A.Maslou, mehnat motivatsiyasi bilan kichik hajmdagi ehtiyojlarni qanoatlantirish o'rtasida mustahkam aloqa mavjud deb jar solmay qo'ydi.

A. Maslou bo'yicha uning ehtiyojlar tasniflanishini o'rgana turib, X.Xekxauzen yuqori darajadagi ehtiyojlarining paydo bo'lish ko'lami bo'yicha insonning rivojlanish darajasini aniq o'rganadi. U ehtiyojlarni tasniflashning dinamik modelini quradi va grafik jihatdan motivatsiya va faoliyat o'rtasidagi yaqin aloqani ko'rsatadi.

Shunday qilib, A. Maslou nazariyasi odamlarning mehnatga bo'lgan asosiy intilishlarini tushunish uchun juda muhim hissa qo'shdi.

A.Maslou singari, Kleyton Al'derfer ham, ehtiyojlarni guruhlarda birlashtiradi. Ammo, A.Masloudan farqli o'laroq, u uchta guruh bor deb hisoblaydi. K.Al'derfer nazariyasi nisbatan ancha yosh bo'lib, uning qonuniy ekanligini tavsiflovchi uncha katta bo'lmagan empirik sonlarga egadir. Biroq, bu nazariyani bilish boshqarish amaliyoti uchun foydalidir, chunki u menejerlar uchun samarali motivatsiyalashning istiqbolli yo'nalishlarini keltirib chiqaradi.

VI. Yuqori darajadagi ehtiyojlarni motivatsiyalashning boshqa modellariga e'tibor qaratiladi, bu Devid Mak Klelland nazariyasi edi, u odamlarga uchta asosiy ehtiyoj xos deb ta'kidlaydi:

1. hokimiyat;
2. muvaffaqiyat;
3. ishtirok etish.

VII. Frederik Gersbergning ikki omilli motivatsiya nazariyasi diqqatga sazovor bo'lib, u so'rovnomalar asosida 200 nafar muhandislar va lak bo'yoq ishlab chiqarish firmasining ma'muriy xizmatchilari ishtirokida ishlab chiqilgan.[8]

Olingan javoblarni u guruhlab chiqdi va quyidagicha nomladi:

1-guruh – “gigiyenik omillar”:

- ish haqi;
- ijtimoiy nafaqalar;
- mehnat shartlari - jismoniy, tashqi;
- maqom;
- tashkilot muhiti, ishchi muhit, ahvol;
- Rahbarga va jamoaga munosabat.

2-guruh – “qiziqtiruvchi, undovchi omillar”:

•qiziqarli ish – masalalarning qiziqarli qo'yilishi, ko'p tamonlamalik, o'zining bilimlarini kengaytirish imkoniyati;

- mustaqillik va vakolat, ishda o'zining ishtiroki;

•maqsadlarni tan olish, daromadlarni o'sishi orqali ifodalash, vakolat, vazifalarning qiyinlik darajasi;

- sezilarli natijalarga erishish imkoniyati;

- kasbiy ta'lim va uzluksiz jarayon sifatida malaka oshirish.

Frederik Gersberg ehtiyojlarni guruhlash bilan bir qatorda, o'zining mehnat unumdorligining o'sishi va ishdan qanoatlanish o'rtasidagi uzviy korrelyasion bog'lanish mavjudligi haqidagi dastlabki fikrlarini aytdi, shuningdek, ishning tavsifi va motivatsiya o'rtasida munosabat o'rnatdi. Bundan tashqari, u motivatsiya va tabiatning o'zaro bog'liqligini o'rgandi.(2- chizmaga qarang).

A. Maslou, K. Alderfer, D.Mak-Klelland, F.Gersbergning ko'rib chiqilayotgan nazariyalari menejmentda tenglashtirilgan ichki kechinmalarga asoslangan, ehtiyoj deb nomlangan, odamlarni muayyan tarzda harakat qilishga majburlovchi motivatsiyaning mazmundor nazariyalari deb ataladi. Motivatsiyaning protsessual nazariyalari odamlarning idrok va istaklarini inobatga olgan holda ahloqiy xatti-harakatiga asoslangan.

Asosiy motivatsiya nazariyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:


1. Maqsadlarni belgilash;
2. Kutish;
3. Adolat;
4. Ishtirok etadigan boshqaruv;
5. Layman Porter-Edvard Lauer modeli kutish va adolat nazariyasiga asoslanadi.
6. Steyc Adamsning tengligi.

XII. Elektron motivatsiyalar. Internet tashkilot rahbariga xodimlarning ishdan bo'sh vaqtlarida har xil elektron tarzda axborotlarni olish uchun kirish imkonini beradi. Bu odamlarda o'zining o'zligini anglashni, tashkilot faoliyatida ishtirok etishini ta'minlaydi.

Tashkilotda kompyuter texnikalarining va internetning mavjudligi jamoani samarali mehnat sari yetaklaydi, ularning ishini engillashtiradi.

Motivatsiyada boshqa ko'plab nazariyalar mavjud, masalan, faollashuvning va rag'batlantirishning maqbullashuvi, shaxsiy ishtiroki, o'zini-o'zi idrok etishi xodimlar uchun ahamiyatlidir. Shunday qilib, motivatsiya aslida menejment funksiyasi sifatida, bu tashkilotni rivojlantirish maqsadida o'ziga xos maqsadga yo'naltirilgan usullar bilan harakatga keltiradigan, ishlovchilarni qo'zg'atadigan, tashkilotning manfaatlarini ham harakatga keltiradigan xodimlar

maqsadlarini asoslash uchun dalillar to'plamidir. Ekspertlarning fikricha, motivatsiya uchun ehtiyoj inobatga olingan harakatlar yoki ularni kuchaytirish kabi omillarga e'tiborning qaratilishi markaziy o'ringa chiqishi kerak.[9]



2- chizma. To'rt nafar muallifning motivatsion nazariyalarida ehtiyojlar guruhining o'zaro hamkorligi va munosabatlari.

Avvalo, motivatsiya tashkilotda mehr-oqibatli, nizoli vaziyatsiz muhitni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish faoliyati jarayoni bevosita amalga oshirilgan ishlar uchun hisob-kitob qilinadigan taqdirlash yo'li bilan maqsadga erishish imkoniyatiga bog'liq holda axloqiy xatti-harakatlarni tanlash va baholashga munosabatni o'z ichiga oladi.

Asosiy motivatsion nazariyalarni aniqlab, menejmentning eng muhim nazorat deb atalgan funksiyasini o'rganishga kirishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.
2. Айнакулов М.А, Кучимов А. МЕНЕДЖМЕНТ. Т.: Fan texnologiya nashriyoti, 2020 -394 b
3. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. –Москва: Дело,1997.

4. Наумов О.С. Менеджмент: человек, стратегия, организация, процесс. –Москва: Зеркало, 1998.
5. Попов А.В. Эффективное управление. – Москва: Экономика, 1995.
6. Турсунходжаев М.Л., Сагдуллаев М. Т. Инновационный менеджмент. под общ. ред. акад. Зайнутдинова Ш.Н. – Тошкент: ТГЭУ, 2001.
7. Хедоури Ф. Основы менеджмента. Перевод с англ. – Москва: Дело, 1997.
8. Фуломов С.С. Менеджмент асослари. – Тошкент: Шарқ-Матбаа АК, 2002.
9. Зайнутдинов Ш.Н. ва бошқалар. Менеджмент асослари. –Тошкент: Молия, 2001.

UDK: 331.1:338(575.1)

QISHLOQ JOYLARDA BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI DAVLAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING SAMARALI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

F. F. Shukurov

*Samarqand davlat universiteti
farrux.shukurov.91@list.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq joylarda ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari aniqlanib, bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari hamda qishloq mehnat bozorini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq mehnat bozori, bandlikka ko'maklashish markazlari, mehnat resurslari, ishchi kuchiga talab, ishchi kuchi taklifi, raqobat, ishsizlik, faol siyosat, passiv siyosat, ishga joylashtirish.

Эффективное организационно-экономическое воздействие регулирования деятельности государственных организаций, способствующих занятости населения в сельской местности

Аннотация. В данной статье определены принципы государственного регулирования занятости в сельской местности, изучены основные направления деятельности центров содействия занятости и эффективные организационно-экономические аспекты регулирования сельского рынка труда.

Ключевые слова: сельский рынок труда, центры содействия занятости, трудовые ресурсы, спрос на рабочую силу, предложение рабочей силы, конкуренция, безработица, активная политика, пассивная политика, занятость.

Effective organizational and economic impact of the regulation of the activities of state organizations contributing to employment in rural areas

Abstract. In this article have been studied the principles of the state regulation of employment in rural areas have been identified, the main directions of the activity of employment promotion centers and the effective organizational and economic aspects of the regulation of the rural labor market.

Keywords: rural labor market, employment promotion centers, labor resources, demand for labor force, labor force proposal, competition, unemployment, active policy, passive policy, employment.

KIRISh (Introduction)

Aholining mehnatda bandlik darajasi har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanish ko'lamini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. Mehnat va aholi ish bilan bandligi sohasida bozor aloqalarini rivojlantirish yangi va o'xshash bo'lmagan yondashishni, mehnat bozori elementlarini o'rganishda muntazamlilikni, bozor kategoriyalari va tushunchalarining uslubiy bazasini yangilashni talab etadi. Iqtisodiyotni qayta qurish va shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kelgusida aholini ish bilan bandligi sohasidagi institutsional tuzilmalar faoliyatlarini jadallashtirish va normativ-huquqiy bazalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Shuning uchun ham 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rt

maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish» [6] vazifasi qo'yilgan. Bu vazifalarni samarali hal etish qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot jarayonida qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi hamda ish bilan bandlik xizmati faoliyatining samaradorligini baholashning optimal usullardan foydalanish zarurati asoslandi.

Qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari qishloq joylarda yangi zamonaviy ish o'rinlarini yaratish, ishsizlarni kasbga yo'naltirish va qayta tayyorlash bilan bog'liq faol va passiv tadbirlarni amalga oshirish, qishloqda migratsion jarayonlarni tartibga solish va rag'batlantirish, ish bilan bandlikning innovatsion turlarini joriy etish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Davlat ish bilan bandlik siyosati mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida mehnat potentsialidan samarali foydalanish va uning rivojlanishi bo'yicha ish bilan bandlik muammolarini yechishga yo'naltirilgan ish kuchini tarmoqlar va ish bilan bandlik ko'rinishlari bo'yicha qayta taqsimlashda ijtimoiy jihatdan muvofiq ish bilan bandlik darajasini ta'minlashga yo'naltirilishi zarur.

Shunday ekan, qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi: qishloq joylarda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; ishsizlarni mehnatga yo'naltirishni rag'batlantirish; ish bilan band bo'lmagan qishloq fuqarolarini ish izlashda kasbiy harakatchanligini oshirish; ish izlayotgan qishloq aholisini ish bilan ta'minlamoq.

Shuningdek, o'z navbatida boshqarish va xo'jalik yuritishning turli darajalarida bunday tartibga solishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishga yangi yondashuvlar zarur bo'lmoqda.

Qishloq joylarda ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. **Qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishda uning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash.** Ushbu tamoyilni amalga oshirishda Bandlikka ko'maklashish markazlari (BKM)ning ijtimoiy funksiyalari va mehnat bozorini tartibga solishdagi iqtisodiy funksiyalari birga olib borilishi nazarda tutiladi. Mazkur funksiyalar BKMLarning ikki tomonlama mohiyatini aniqlab beradi. Ish bilan bandlik xizmati ijtimoiy funktsiya sifatida ishsizlik va iqtisodiy funktsiya sifatida ish bilan bandlik muammolarini optimal darajada hal etishning turli xil variantlarni ishlab chiqib, davlat siyosati darajasida amalga oshiradi.

2. **Mehnat bozorida ish kuchini talab va taklif qilish o'rtasidagi eng samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi normativ-huquqiy mexanizmni yaratish.** O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni va Mehnat Kodeksi mamlakatimiz hududida doimiy istiqomat qiluvchi fuqarolarning mehnatga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlarini, shuningdek bu huquqni ro'yobga chiqarish bo'yicha davlat kafolatlarini belgilab beradi.

3. **Ish bilan bandlik bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish.** Bunda ish bilan bandlik bo'yicha davlat siyosatining atrofida hamma darajadagi ma'muriy hududlarning aholini ish bilan ta'minlash faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yagona umumdavlat ish bilan bandlik siyosatini yuritish nazarda tutiladi. Bunda BKMLar mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solishda umumdavlat siyosatining maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda hududiy siyosat yuritishni amalga oshiradi.

4. **Aholining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha nazorat.** Ish bilan bandlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda BKMLari, kasaba uyushmalari, tadbirkorlar assotsiatsiyasining boshqaruv organlari bilan hamkorlikda mehnat munosabatlarini tartibga solish bo'yicha ijtimoiy hamkorlik mexanizmini samarali rivojlantirish va nazoratni amalga oshirishdan iborat.

5. **Qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari samarali rivojlanishiga tizimli**

yondashish. Qishloq mehnat bozorini tartibga solishga tizimli yondashuv asosan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari mohiyatiga bog'liqdir. Davlat o'z zimmasiga oladigan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari mehnat bozorini tartibga solish yo'nalishi va tamoyillarini belgilab beradi. Hududiy darajada mehnat bozori yagona tizim sifatida ishchi kuchiga talab va taklifni ham miqdor jihatidan, ham sifat ko'rinishida o'zaro bog'liq bo'lishini ifodalaydi. Chunki shahar va shahar atrofi hududlarida qishloq joylariga nisbatan ishchi kuchini kasbiy harakatchanligi ancha yuqori. Bu esa qishloq joylarda ishchi kuchi sifat tarkibi (malaka darajasi, kasbiy mahorat mutaxassisligi) shaharga nisbatan ancha pastligini bildiradi. Shuning uchun BKMLarini samarali rivojlanishida muayyan qishloq hududlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadli dasturlar ishlab chiqishda tizimli yondashish juda muhimdir.

Respublikamiz, ayniqsa, uning qishloq hududlarida aholining ish bilan bandligini ta'minlashda amaliy yechimini ko'tayotgan muammolar kam emas. Binobarin, qishloq aholisi tarkibida mehnat resurslarining ulushini yuqoriligi, iqtisodiy faollik va ish bilan bandlik darajasining pastligi, qishloq joylarida tashkil etilgan ish joylarining asosiy qismi qisqa muddatli va mavsumiy xarakterga egaligi, ish bilan band aholining salmoqli qismi ish haqi past bo'lgan sohalarda, norasmiy sektorda va barqaror bo'lmagan ish joylarida bandligi, xorijdan investitsiyalarni jalb etish bo'yicha faol harakatlarning sustligi, qayta ishlash, ijtimoiy infratuzilma va kasanachilik sohasida ish joylarini ko'paytirish imkoniyatlari to'liq ishga solinmayotganligi, tashqi va ichki mehnat migratsiyalari yaxshi tashkil etilmaganligi kuzatiladi [5].

BKMLari ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solishning muhim elementi hisoblanadi. Mehnat bozorida mehnat vositachiligi bilan shug'ullanadigan tashkilotlar faoliyatining tajribalari shuni ko'rsatadiki, u yoki bu bozor sub'ektlari o'rtasidagi ishchi kuchiga talab va taklif bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar samaradorligini oshirish uchun rivojlangan infratuzilma zarur. Ikkala tomonning manfaatlari muvofiqligi uchun davlat nomidan chiquvchi mustaqil tashqi tartibga soluvchi tuzilma kerak. Ko'pchilik mamlakatlarda mehnat bozori sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy tashkiliy shakli bo'lib, davlat ish bilan bandlik xizmati (BKMLari) hisoblanadi.

Albatta, mehnat bozorini tartibga solishda davlat ish bilan bandlik xizmatining roli va ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash g'oyatda katta ahamiyatga ega. Lekin davlat uni o'ziga xos ko'rinishda byurokratik tarzda milliy mehnat bozori, xususan, hududlar mehnat bozorlarining alohida segmentlarini hisobga olgan holda egiluvchanligini ta'minlamasdan pirovard natijalarga erisha olmaydi. Bundan tashqari, respublikamizda iqtisodiy islohotlarni samarali amalga oshirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar yaratishning ob'ektiv sabablari aholini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ish bilan bandlik davlat siyosatini amalga oshirishni talab etadi. Bu mamlakatimiz va xorijiy olimlar ishlarida qayd etilganidek [1], yangi "ijtimoiy ta'minot" sifatida ba'zi fikrlarda ishga joylashtirish bo'yicha davlat organlarining shakllanishi shunga olib keldiki, ishsizlik davomiyligining ortib borishi, ba'zi fuqarolarning ish qidirishiga passiv munosabati va ishsizlikdan ijtimoiy himoyalash tizimiga daromad manbai hamda shaxsiy talabni qondirish munosabati sifatida salbiy hodisalarni yuzaga keltirdi.

Respublikamizda davlat ish bilan bandlik xizmati tarkibi uch darajadan iborat: mamlakat miqyosida ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasida davlat siyosatini yurituvchi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, uning hududiy darajalardagi boshqarmalari, shahar va tumanlar miqyosidagi Bandlikka ko'maklashish markazlari.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda keyingi yillarda aholi o'rtasida davlat ish bilan bandlik xizmatining nafaqat ommaviyligi oshdi, balki axborot, ma'lumot, nafaqalar va boshqalar uchun davlat ish bilan bandlik xizmatiga doimiy ravishda murojaat qilayotgan fuqarolar soni ortdi; muntazam ravishda umumiy va ro'yxatga olingan ishsizlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq qisqardi. Biroq G'arbiy Yevropa mamlakatlarida davlat ish bilan bandlik xizmati 60-70 % ishsizlar va ish bilan band bo'lmaganlarga xizmat ko'rsatadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 35-40 %ni tashkil etmoqda. Sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, ish beruvchilar va bir qator munitsipal tashkilotlar ma'muriyati rahbarlari hamkorlikda ish bilan bandlik markazlari mutaxassislari malakasi va tayyorligini yetarlicha yuqori baholaydi, shu bilan birgalikda ularning umumiy masalalarni yechishda tashabbuskorlikning past darajada ekanligini ta'kidlaydilar. Sababi hamma ish beruvchilarga ham bo'sh ish joylarini to'ldirishda ko'maklashuv amalga oshirilmaydi, buni quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin: davlat ish bilan bandlik xizmatida axborotlarning yetarlicha emasligi, markaz mutaxassislari ish sifatining pastligi, ular malakasi va faolligining yetarli darajada emasligi, personalning beparvoligi.

Bandlikka kumaklashish markazlari – hududiy darajada davlat ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirishning tarkibiy qismi bo'lib, uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Tumanlar BKMLarining asosiy masalalariga – bu qishloq mehnat bozorini boshqarish va ishsizlarga personal yordam ko'rsatish, ularni hal etish yo'llarini aniqlash, mehnat vositachiligi, kasbiy va geografik kasbiy harakatchanlikni rag'batlantirish, mehnat bozori haqida axborotlar to'plash, ishsizlarni kasblarga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish kiradi. Shunday ekan, BKMLarining ijtimoiy funksiyalari va

mehnat bozorini tartibga solishdagi iqtisodiy funksiyalari birga olib borilishi nazarda tutiladi. Bu ikki funktsiya BKMLarining ikki tomonlama mohiyatini aniqlab beradi. BKMLar ishsizlik muammolarini (ijtimoiy funktsiya) va ish bilan bandlik muammolarini (iqtisodiy funktsiya) hal etish o'rtasida turli xil variantlarni ishlab chiqadi.

Ma'lumki, hududiy ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari qishloq joylaridagi tuman BKMLari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Mehnat bozorining holati ish bilan bandlik sohasida jami ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aks ettiradi. Iqtisodiy o'sishda investitsiyalarning yuksalishi ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshiradi, inqiroz davrida esa korxonalar o'zlarining mavjud shtatlarini qisqartiradilar. Boshqa tomondan, iqtisodiyotda tarmoqlarning rivojlanishi ko'pincha shunga bog'liq bo'ladiki, tezlik bilan moliyaviy va texnologik imkoniyatlar asosida malakali kadrlarni ta'minlash shart-sharoitlari yuzaga keladi.

Mehnat bozorida ish joyi sifati bo'yicha uni ikki xil asosiy segmentga bo'lish mumkin: yuqori malakali va past malakali ish joylari, (mehnat bozori segmenti-ishchi kuchiga demografik talab va taklif tuzilmasi (jinsi va yoshi bo'yicha), kasbiy (mutaxassisligi va malaka darajasi bo'yicha) va hududiy (mintaqalarning ishchi kuchiga talab va taklifdagi hissasi) jihatlariga bo'linadi) [4].

Hozirgi kunda respublikamizning yirik shaharlarida, xususan, Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarida yangi tarmoqlarning rivojlanishi natijasida mehnat bozorida ma'lum darajada yuqori malakali ish joylari segmenti shakllanmoqda.

Iqtisodiyotda band bo'lganlarning kasb-malaka tarkibi ko'p yillar davomida barqaror an'ana – band bo'lganlar va barcha aholini ta'lim darajasi doimo o'sishi tomon tavsiflanib keldi.

So'nggi 15 yilda respublikamiz qishloq joylarida ish bilan band bo'lgan aholining oliy va o'rta maxsus ma'lumotlilari tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi, xususan, 1991 yilda ish bilan band bo'lgan aholi tarkibidagi oliy va o'rta maxsus ma'lumotlilar miqdori korxon va tashkilotlarda yollanib ishlovchilarning mos ravishda 25,6 % va 28,1 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib, bu ko'rsatkichlar mos holda 32,6 % va 42,0 %ga o'zgargan. Bunday o'zgarish respublikamizning deyarli barcha viloyatlariga xos. Bu esa, o'z navbatida respublikamizda ish bilan band aholining so'nggi yillarda yetarli qadar yuqori ta'lim darajasiga chiqqanligini bildiradi. Shu bilan birga, ish bilan band bo'lgan aholi tarkibidagi o'rta va boshlang'ich ma'lumotlilar ulushi bu davrlarda 46,3 %dan 25,4 %ga kamaydi. Buning sababi esa ta'lim tizimida majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining to'liq qamrab olinganligi bilan izohlanadi.

BKMLarining ishga joylashtirish bo'yicha yuqori samarali faoliyatiga qaramasdan, unchalik katta bo'lmagan qismga ega bo'sh ish joylari uning yordamida to'ldiriladi.

3.6-jadval

O'zbekiston Respublikasida joriy mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari

Yillar	Bandlikka ko'maklashish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar soni, ming kishi hisobida	Ishga joylashtirilganlar soni, ming kishi hisobida	Murojaat qilganlarga nisbatan ishga joylashtirilganlar ulushi, %	Rasmiy ro'yxatga olingan ishsizlar soni, ming kishi
2000	421,4	280,6	66,6	35,4
2001	462,8	318,1	68,7	37,5
2003	430,5	317,4	73,7	32,2
2005	410,3	325,1	79,8	27,7
2007	557,4	486,5	88,5	27,4
2009	658,5	565,3	85,8	29,5
2011	661,4	595,7	90,1	25,3
2013	462,2	423,5	91,6	24,6
2015	300,2	284,1	94,6	7,5
2016	266,2	248,1	93,2	5,0
2017	271,9	229,9	84,6	14,4

Respublikamizda 2017-yilda jami BKMLari orqali ishga joylashganlar 229,9 ming kishini, 2000-yilda esa 280,6 ming kishini tashkil qilgan. BKMLariga ish so'rab murojaat qilganlar soniga nisbatan ishga joylashtirilganlar soni 2000-yilda 66,6 %ni, 2017-yilda esa bu ko'rsatkich 84,6 %ni tashkil etgan (3.6-jadval).

Respublikamizda mehnatga muhtoj shaxslarni aniqlash xususida amalga oshirilgan statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 1991-yilda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni 329,3 ming kishini, 2016-yilda

esa 724,1 ming kishini tashkil etgan.

Tahlil etilayotgan yillar mobaynida bu ko'rsatkich 394,7 ming kishiga, ya'ni 2,2 martaga oshgan. Bu ko'rsatkichning dinamikasini viloyatlar kesimida olsak, faqatgina Surxondaryo viloyatida kamayish (-7,6 ming kishi yoki 70,0 %) tendentsiyasiga ega bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichni iqtisodiy faol aholi soni dinamikasiga solishtirsak, 1991 yilda jami iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan 3,8 %, 2017 yilda esa 5,1 %ni tashkil etgan (3.7-jadval). Bundan ko'rinadiki, keyingi yillarda ish bilan ta'minlashga muhtoj shaxslarning ish bilan ta'minlanmaganlik holati o'sayotganligini ko'rishimiz mumkin.

3.7-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)

Hududlar (viloyatlar) nomi	Y illar						2017-yilda 1991-yilga nisbatan o'zgarishi	
	1991	2001	2010	2013	214	2017	+,-	%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	21,9	27,7	41,3	40,3	35,7	39,6	17,7	180,8
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	39,1	41,0	66,3	68,4	73,7	77,1	38,0	197,2
Buxoro	20,5	25,3	40,2	40,9	45,3	45,9	25,4	2,2 marta
Jizzax	6,7	12,5	21,2	22,2	24,6	26,1	19,4	3,9 marta
Qashqadaryo	26,3	33,2	58,3	58,3	64,0	67,1	40,8	2,5 marta
Navoiy	8,3	12,5	21,5	22,8	23,1	24,3	16,0	2,9 marta
Namangan	17,3	27,5	49,0	49,6	52,2	54,9	37,6	3,2 marta
Samarqand	51,3	65,1	74,6	76,2	82,6	86,8	35,5	169,2
Sirdaryo	9,5	8,6	13,9	47,6	52,0	54,7	45,2	5,8 marta
Surxondaryo	25,6	32,3	46,6	15,2	17,0	18	-7,6	0,70
Toshkent	24,5	30,3	45,4	46,8	51,1	53,7	29,2	2,2 marta
Farg'ona	40,4	51,4	73,2	72,9	82,9	87,1	46,7	2,1 marta
Xorazm	17,5	22,6	35,6	37,1	39,2	42,5	25,0	2,4 marta
Toshkent sh.	20,3	25,8	39,2	41,3	43,6	46,3	26,0	2,2808
Respublika bo'yicha	329,3	415,8	658,2	639,7	687,0	724,0	394,7	2,2 marta

Mamlakatimizda ish bilan ta'minlashga muhtoj shaxslarning ish bilan ta'minlanishi yaratilayotgan yangi ish o'rinlari miqdoriga bevosita bog'liq. Respublikamizda 2017-yilda yaratilgan ish o'rinlari soni 336146 tani tashkil etgan holda, eng ko'p yangi ish o'rinlari sanoat tarmog'i (101,5 ming), xizmat ko'rsatish sohasi (66,2 ming) va qishloq xo'jaligida (51,6 ming) yaratilgan. Shuningdek, respublikada faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar faoliyatini tiklash hisobiga – 14,7 ming va bo'sh turgan davlat ob'ektlarini ijaraga berish va xususiyashtirish orqali – 12,0 ming ish o'rni yaratilgan.

Qishloq joylarda BKMLar faoliyatini tahlil qilishda ish bilan bandlikka ko'maklashish doirasidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat ish bilan bandlik xizmatining samarali faoliyatini baholash, ish bilan bandlik siyosati yo'nalishlarini ishlab chiqish, balki ish bilan bandlik muammolari bo'yicha yangi yechimlarni taklif qilish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Respublikamizda 2011-yilda o'tkazilgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari natijalari bo'yicha jami 1281 ta bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi o'tkazilib, bunda 429182 kishi ishtirok etdi. Shundan, o'tkazilgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari natijalari bo'yicha mazkur yilda 47,3 %dan ortiqroq kishilar ish joylari bilan ta'minlandilar. Mamlakatimizda 2011-2017 yillar 1 yanvar holatiga o'tkazilgan yarmarkalar bo'yicha tahliliy natijalarga ko'ra, o'tkazilgan yarmakalar soni 2017-yil 2011-yilga nisbatan 149 taga kam bo'lgan holda, ishga joylashishga yo'llanma berilganlar hissasi ham 68,4 %ni tashkil etgan.

Ishga joylashtirishda bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarining o'tkazilishi samarali usullardan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ishsizlarni ishga joylashtirishning yana samarali usullaridan biri – bular bir tarmoqqa tegishli korxonalar va tashkilotlar ma'sul xodimlari bilan ish beruvchilarning talablariga muvofiq kasbiy malaka va mutaxassislikka ega bo'lgan ishsiz fuqarolar o'rtasida davlat ish bilan bandlik xizmati vositachiligi asosida xodimlarni tanlash bo'yicha o'tkaziladigan **to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar usuli** hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, yuqoridagi ishga joylashtirishning to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladigan muloqotlar usuli aholini ish bilan bandligiga ko'maklashishning muhim vositasi bo'lib

hisoblanadi. Bo'sh ish joylari bo'yicha o'tkaziladigan yarmarkadan farqli ravishda ishga joylashtirishning to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladigan muloqotlar usuli xodimlarni tanlashda ishchi kuchining bir muncha kasbiy harakatchan ekanligi hamda qisqa bosqichda kasbiy tayyorgarlikdan o'tishi bilan ajralib turadi. Bunda ish beruvchilarning xohish va istaklariga binoan muloqat o'tkazish joyi va vaqti belgilanadi, nomzodlarga talablar oldindan tushuntiriladi, masalan, ma'lumoti, ish tajribasi, kasbiy malakasi, transport vositalariga egaligi va boshqalar.

Shuningdek, ish bilan bandlik xizmati organlariga murojaat qilib kelgan fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish bo'yicha birdan-bir samarali axborot shakli bo'lib, aholiga ekspress-xizmatlar markazlarini yaratilishidir.

Samarqand viloyatida 2015-yilda aholini ishga joylashtirish bo'yicha o'tkazilgan monitoring tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ish izlovchi fuqarolarning 75 %i BKMLarga ish so'rab murojaat qilishga tayyor, agarda ish bilan bandlik xizmatida o'zlariga mos bo'sh ish o'rinlari to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lish uchun shart-sharoitlar mavjud bo'lsa.

Joylardagi BKMLarining yuqoridagi masalalar bo'yicha xizmatlaridan ekspress xizmati markazlarining farqi shundaki, ish so'rab murojaat qiluvchi fuqarolarga tez xizmatlar ko'rsatiladi, shuningdek fuqarolarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishlari amalga oshiriladi. Ishga joylashish masalalari bo'yicha barcha asosiy axborotlar ochiq, hammabop ko'rgazmali taxtalar yoki maxsus avtomatlashgan qurilmalar orqali har bir kishi bo'sh ish o'rinlari haqida barcha axborotlarni ketma-ket maxsus avtomatlar tugmachalarini bosish natijasida ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Tajriba shuni ko'rsatdiki, ekspress-xizmat markazlarining tashkil etilishi fuqarolarni ishga joylashishi va kasbiy ta'lim olishi bo'yicha mustaqil ish izlashning rivojlanishiga erishiladi.

Bizning fikrimizcha, davlat ish bilan bandlik xizmati qoshida ekspress-xizmat markazlarining yaratilishi tashkiliy-iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Bunday markazlarning tashkil etilishi davlat ish bilan bandlik xizmati organlarining ish so'rab murojaat qiluvchi fuqarolar bilan ish bilan bandlik masalalari bo'yicha muloqat doirasi kengayadi. Bu esa, fuqarolarning joylardagi BKMLariga ketma-ket ravishda ishsiz sifatida qayd qildirish uchun tashriflari kamayadi.

"Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash" bo'yicha BKMLarning yoshlar va nogironlar bilan ish bilan bandlik doirasida olib boriladigan ishlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Qishloq yoshlarini ish bilan bandligiga ko'maklashish. Respublikamiz BKMLariga murojaat qilgan aholining asosiy toifasi yosh fuqarolar – o'quv bilim yurtlari bitiruvchilari (38%-40%) va ish joyini o'zgartirayotganlardir (45%-48%).

Hozirgi kunda respublikamiz qishloq hududlarida turli yo'nalishlardagi o'quv yurtlarining ish bilan bandlik muammolari kuchaymoqda. Bunday holat yaqin 3-5 yil ichida ham saqlanib qolish ehtimoli mavjud. BKMLar u yoki bu mutaxassisliklar bo'yicha mehnat bozoridagi talabni ilmiy asoslash maqsadida mehnat bozori monitoringini o'tkazishi zarur. Mehnat bozori monitoringi o'tkazilishi o'quv yurtlarini bitiruvchilarni ishsiz bo'lib qolishining oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Chunki o'quv yurtlarini bitiruvchilar ertaga ishsiz bo'lib yursalar, ularni o'qitish uchun ketgan xarajatlarni moliyalashtirish samarasiz bo'lib chiqadi.

Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlarining oliy ma'lumotga ega bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi ham dolzarbdir. Chunki qishloq joylarda turli xil oliy mutaxassisliklar bo'yicha ishchi kuchiga talab yetarli darajada emas.

Bizning fikrimizcha, ko'p funktsiyali tizim sifatida talabalarga ularning kasbiy shakllanishi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida oliy o'quv yurtlari qoshida bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko'maklashish bo'yicha jamg'arma tashkil etilishi kerak. Bu jamg'armaning bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha faoliyati tumanlar hokimiyat organlari va ish bilan bandlik xizmatlari bilan muvofiqlikda amalga oshirilishi hamda BKMLari amaldagi qonunchilik bazasi asosida kasbiy-ta'lim xizmatlarini mehnat bozorida tartibga solish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Bizningcha, bu tadbirlar quyidagilardan iborat: kasbiy tarkibning yillik tahlili, bitiruvchi ishsizlar soni va ularni ishga joylashtirish monitoringini o'tkazish; yosh mutaxassislar uchun bo'sh ish o'rinlari tuzilmasi haqida ma'lumotlar bankini shakllantirish; bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash maqsadida ish beruvchilar bilan aloqadorlikni tashkil etish; oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini qishloq hududlarida ishlashga borishini rag'batlantirish, tumanlar hokimiyat organlari bilan o'quv yurtlari rahbariyati va bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha o'quv yurtlari jamg'armalari bilan aloqalarini tashkil etish; oliy ma'lumotli mutaxassislariga qishloq joylaridagi talabni istiqbollashtirish; oliy o'quv yurtlariga qabul qilinayotgan talabalarga qishloq mehnat bozoridagi talabni o'rganish; qishloq hududlarining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, yangi ochilgan mutaxassisliklarga xulosa berish.

Hozirgi kunda qishloq joylarda ishchi kuchi shaklida va yuqori malakali kadrlarga talabning o'sib borishi o'rtasidagi nomutanosiblik muhim muammolardan biridir. Shuning uchun muammoni hal etishning dolzarb yo'nalishi bo'lib, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi orqali ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, ishsizlar armiyasi katta qismini davlat tomonidan nafaqa bilan ta'minlash, ularni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashni moliyalashtirishga nisbatan qimmatga tushadi. Bunday yo'nalishdagi faoliyat ravshanki samaralidir. Masalan, Samarqand viloyatida 2017-yilda BKMLari orqali qayta o'qitishga yuborilgan ishsizlarning 89 %i ta'lim muddati tugagandan so'ng ishga joylashtirildi.

Qisman ishsizlik ish haqining past darajasi, sog'liqning yomonlashuvchi, ish vaqtining ko'p qismida uy xo'jaligi bilan shug'ullanganligi sababli paydo bo'ladi.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatdiki, ish bilan ta'minlashning faol tadbirlariga qilinadigan xarajatlar natijasida ishsizlar miqdori qisqarishi hisobiga ijtimoiy to'lovlarga qilinadigan xarajatlarni mutanosib ravishda kamaytirdi. Shuning uchun ishga joylashtirishni takomillashtirishga (axborot xizmatlari, kompyuterlashtirish, jihozlar va asbob-uskunalar) sarflanishi ishga joylashtirish jarayonini jadallashtirish va ishsizlikni qisqartirishni ta'minlaydi. Kasbga o'qitishga qilingan xarajatlarni qoplash shuni ko'rsatdiki, kasbiy tayyorgarlikdan o'tgandan keyin ishga joylashganlar hissasi kasbiy tayyorgarliksiz ishga joylashganlarga nisbatan 1,9 marta o'sgan, mavsumiy jamoat ishlariga yo'naltirish har bir ishsizga qilinadigan xarajatlarni 3-5 % ga qisqartiradi.

Ish bilan bandlikning faol tadbirlariga qilinadigan xarajatlar shuni ko'rsatdiki, har bir so'm qilinadigan sarflarning qaytimi 1,1-1,2 so'm samara beradi, shunday summaga ishsizlarga ijtimoiy tulovlar uchun qilinadigan xarajatlarni kamayishga olib keladi.

Qishloq aholisini kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash qishloq mehnat bozorida ijtimoiy-iqtisodiy holatlar, imkoniyatlar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda optimal ish bilan bandlik ko'rinishlarini tanlash va kasbiy shakllantirishda davlat va fuqarolar jamiyatlari tomonidan ijtimoiy ko'mak berishga yo'naltirilgan kompleks maxsus chora-tadbirlarni o'zida namoyon etadi.

Ish bilan bandlik xizmatining kasbga yo'naltirish bo'yicha yangi va noan'anaviy shakli bo'lib, kadrlarni kasbga yo'naltirish va qayta tayyorlash dasturi hisoblanadi. Bu dastur kasbga yo'naltirish bo'yicha psixolog maslahatlari va psixologik ta'sir ko'rsatish tavsifiga ega ma'ruzalar o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Aynan kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash yangi bozor sharoitlariga kasbiy kar'erni amalga oshirish uchun optimal shart-sharoitlarni yaratish orqali insonning moslashuvchanligini oshirish, mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning individual xususiyatlari bilan muvofiqlikda fuqarolarni ishga joylashtirishni optimallashtirish imkoniyatlari va hayot yo'lining har qanday bosqichida kasbiy o'z-o'zini aniqlash jarayonini faollashtirishga yo'naltirilgan. Buning natijasida ish bilan bandlik xizmatining kasbga yo'naltirish, qayta tayyorlash va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'limi mutaxassislarini psixologik tayyorlashga talabi kuchayadi. Ulardan psixologik imkoniyatlar, shaxsning ichki resurs imkoniyatlari, uning yashrin salohiyati, kasbga kirish va kasbiy ustunlikka ega ekanligi, maslahat berishning psixotexnologik bilimlari va axloq-odob normalari va tamoyillariga muvofiq mijoz bilan suhbat qurish layoqati to'g'risida bilimlarni talab etadi [3].

Uzoq muddatli ishsizlar bilan ijtimoiy moslashishning mazkur dasturini amalga oshirishda bosh muammo yangicha kurslar va ish izlovchilar kursini tashkil etish bo'yicha me'yoriy bazaning yetishmasligi hisoblanadi. Amaliyotda dasturni joriy qilish tahlili shuni ko'rsatmoqdiki, dastur ma'lumotlari ijtimoiy moslashish yoki ta'lim olish emas, balki kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari bo'lib hisoblanadi. Biroq mavjud me'yoriy jihatdan ta'minlashda bu hisobga olinmagan.

Shuning uchun, bizning fikrimizcha, ushbu yo'nalishda me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni taklif etamiz:

- kasbga yo'naltirishga bag'ishlangan davlat statistika hisobotlari bo'limlarida hisobot shakllari va xarajatlar smetasiga muvofiqlikda kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash statusini mazkur dasturlarga kiritish;

- kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash yo'nalishi mutaxassislari uchun ushbu dasturni o'tkazish bo'yicha uzviy bog'langan faoliyat, me'yoriy hujjatni ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Bizningcha, aholini ish bilan bandligini ta'minlashda bu yo'nalish bo'yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: davlat ish bilan bandlik xizmati tarkibida xodimlarni kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'limlarini tashkil etish; kasbga yo'naltirishni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy asoslangan dasturlarni ishlab chiqish; bu yo'nalish bo'yicha yetuk mutaxassislar va psixologlarni jalb etish; ishsizlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha psixologlar maslahatini berish va boshqalar.

Bizningcha, hududiy ish bilan bandlik xizmatini ish bilan bandlik sohasidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha

faoliyati holatining natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat bozorini tartibga solishda faol ish bilan bandlik siyosati quyidagi masalalarni hal etishga qaratilmog'i zarur:

- bozor iqtisodiyoti talabalariga muvofiq qishloq hududlarida ishchi kuchi sifatini oshirishda ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- qishloq yoshlarini kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish;
- qishloq yoshlarini ishga joylashtirish uchun maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va jamoat ishlari rivojlanishini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj qishloq fuqarolarini ishga joylashtirishga ko'maklashish;
- ish bilan band bo'lmagan qishloq aholisini tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oluvchi samarali ish o'rinlarini saqlash va yangi ish joylarini yaratish;
- ishdan bo'shatilayotgan qishloq xo'jaligi ishchilarini kasbga qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha oldindan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- bo'sh ish joylari soni va tarkibi, kasbiy ta'lim ko'rsalari va h.k.lar to'g'risida qishloq fuqarolariga xabar berish maqsadida qishloq aholisiga axborot xizmatlari ko'rsatish ko'lamini kengaytirish;
- qishloq mehnat bozorida monitoring tadqiqotlarini o'tkazish;
- umumiy, o'rta maxsus, oliy ta'lim tizimini ish beruvchilar talablariga yo'naltirgan holda takomillashtirish;
- ta'lim muassasalarida kelgusida mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishlari va hajmiga tuzatishlar kiritish, o'quv yurtlarida bitiruvchilar o'rtasida ishsizlik xavf-xatarini oldini olish;
- qishloq mehnat bozori kon'yunkturasi kelib chiqib, ish beruvchilarga maslahat xizmatlarini tashkil etish.
- ish bilan bandlik sohasida ijtimoiy hamkorlik mexanizmini rivojlantirish.

Adabiyotlar

1. Вальнева Л.В., Маркевич И.В. Становление российского рынка труда // Социально-политический журнал. - 1997. - JV2 5. - С. 138 - 142.
2. Дудников С.В. Эффективность активной политики содействия занятости населения мегаполиса. // Дисс. ...д-ра экон. наук. – М.: РГБ, 2006. - С. 195.
3. Рынок труда. Учебное пособие. Под общей редакцией д.э.н., проф. Абдурахманова К.Х., д.э.н., проф. Одегова Ю.Г. – Т.: ТФ РЭА, 2009. - 384.
4. Словарь терминов, применяемых в деятельности служб занятости. – М.: 1997. -С. 74.
5. Xolmo'minov Sh.R. va b. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari (monografiya). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2018. - 160 bet.
6. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni, 1-ilova, 4.1-band.
7. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. 2007-2016 yillardagi statistik to'plam.

UDK: 331.5

MEHNAT BOZORI INFRATUZILMASINING RIVOJLANISH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

L. B. Xudoyarov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Har qanday ijtimoiy-siyosiy tuzilmada aholini mehnatda bandlik muammosi murakkabdir. Ish bilan bandlik ijtimoiy totuvlik va barqarorlikka erishuvning, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omilidir. Ushbu maqolada mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari bo'yicha mezonlari aniqlanib, uning ko'rsatkichlari tasniflangan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori infratuzilmasi, demografik jarayonlar, aholi, mehnat resurslari, oqilona ish bilan bandlik, tarmoq va kasbiy tarkib, raqobat, ishsizlik, mezon, ko'rsatkichlar.

Development criteria and indicators of labour market infrastructure

Abstract. The problem of labour market is complicated in any social-political society. The busyness with labour is the main criteria of social unity and social economical development. This article is about criteria on all demographic, social, economical and other features of development of labour market infrastructure.

Keywords: labour market infrastructure, demographic processes, population, labour resources, busyness with labour, branch and professional career, competitiveness, unemployment, criteria, indicators.

Критерии и показатели развития инфраструктуры рынка труда

Аннотация: В любой общественно-политической структуре проблема трудоустройства является сложным вопросом. Занятость - важный фактор достижения социальной гармонии и стабильности, социально-экономического развития общества. В данной статье определены критерии развития инфраструктуры рынка труда во всех демографических, социальных, экономических и других аспектах и классифицируются ее показатели.

Ключевые слова: инфраструктура рынка труда, демографические процессы, население, трудовые ресурсы, рациональная занятость, отраслевое и профессиональное содержание, конкуренция, безработица, критерии, показатели.

Mehnat bozorining asosiy indikatorlaridan biri ishlovchilarning ishga joylashish ko'rsatkichidir. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, ishga joylashganlar sonining ham mutlaq, ham nisbiy ko'rsatkichlarning oshayotganligini mehnat bozoridagi ijobiy tendentsiya sifatida baholash mumkin. Tajribaning ko'rsatishicha mamlakat mehnat bozoridagi talab asosan malakasiz mehnatga yo'naltirilgan degan fikrni qisman tasdiqlaydi. Ishlovchilar orasida ish joyini tez-tez o'zgartiradigan hamda uncha yuqori malakaga ega bo'lmaganlarning ko'pligi mehnat bozoridagi vaziyatni keskinlashtiradigan holatlardan biridir. Tahlillar shundan dalolat beradiki, bunday vaziyat asosan ichki mehnat bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xodimlar qo'nimsizlik darajasining yuqoriligining in'ikosi sifatida yuzaga keladi. Ish beruvchilar uchun o'z hisobidan kadr tayyorlashdan ko'ra, mehnat idoralari orqali arzon ishchi kuchiga ega bo'lish iqtisodiy jihatdan manfaatliroq bo'lgani uchun ham, Bandlikka ko'maklashish markazlari yordamida ishga joylashganlar orasida yuqori malakaga ega bo'lmagan shaxslarning salmog'ini ortib borayotganlik tendentsiyasi ko'zatilmoqda. Bundan tashqari, mehnat bozori infratuzilmasi elementlarining, jumladan ijtimoiy hamkorlik mexanizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi, mehnat bozoridagi umumiy jarayonlarga jamiyatning mos ravishda tezkorlik bilan moslasha olmasligi uning oldiga yalpi ishsizlik muammosini ko'ndalang qo'yishi mumkin.

Respublikamizda mehnat bozori o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu yerda nafaqat makro va mikroiqtisodiy omillar, balki shular bilan birga ish kuchi bahosi ish haqiga doimo ham regulyatorlar hisoblanadilar.

Ishchi kuchining qayta taqsimlanishi, uning mehnat bozoridagi harakatiga, binobarin, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi miqdor-sifat jihatidan muvofiqlikka erishish ko'lamlariga bevosita ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangicha sharoitlarini shakllantiradigan makroomillarga bog'liq [1]. Shuning uchun ham ishsizlik miqyosining haddan tashqari oshib ketishining oldini olish va ishsizlarni ishga joylashtirishga yordam berish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim [3]:

- mehnat munosabatlari sohasida ijtimoiy hamkorlikning uch tomonlama mexanizmini takomillashtirish;
- mamlakatning har bir hududida mehnat zahiralari va ish joylari sonining ham sifat, ham soni jihatidan o'sish mutanosibligiga erishish;
- yangi taraqqiy etgan tarmoqlar va faoliyat turlarini rivojlantirish yo'li bilan yangi ish joylarini barpo etish. Bu tadbirlarni amalga oshirishda zamonaviy sanoat tarmoqlari, kichik va xususiy biznes, xizmat ko'rsatish sohalarida ish bilan bandlik innovatsion turlarini kengaytirishga ahamiyat berish kerak bo'ladi;
- ish bilan bandlikning tarmoq va kasbiy tarkibini takomillashtirish;
- iqtisodiyotda oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash;

- mehnat bozorida raqobat mexanizmini yo'lga qo'yish samaradorligini oshirish, ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini to'xtovsiz oshirib borish mazkur mexanizmning asosi bo'lib hisoblanadi;

- samarali va "egiluvchan" mehnat bozorini shakllantirish, mehnat bozori infratuzilmasining innovatsion rivojlanishini ta'minlash, xodimlarning kasbiy harakatchanligini oshirish hamda mehnat bozorining alohida segmentlariga ta'sir ko'rsatish orqali ishsizlarda yangi kasblarga qiziqish uyg'otish;

- mehnat bozorida faol siyosat olib borish borasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish, jamoat ishlari tarmog'ini kengaytirish, ishsizlarni o'qitish va qayta o'qitish tizimini va yangi ish joylarini barpo etish;

- yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Tashkiliy jihatdan mehnat bozori ijtimoiy institutlar tizimi sifatida maydonga chiqar ekan, mazkur bozor infratuzilmasi rivojlanishi aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishida muhim tashkiliy tuzilmalar majmui hisoblanadi. Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishining asosiy maqsadlari mehnatdan foydalanish muammolari, uning samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir.

Amaliyotda aholining oqilona ish bilan bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi. Bunday muvozanat ish beruvchilar va "mehnat qobiliyati" kishilarining iqtisodiy manfaatlarini eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasbiy malaka tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli, aholining oqilona ish bilan bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchining qiymati asosida "mehnat qilish qobiliyati"ni bozorda sotish uchun taklif qilganlarning turmush darajasi shakllanishi ham ta'minlanadi [2].

Oqilona ish bilan bandlik agregatsiyalangan ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, ish bilan bandlikning ushbu turini iqtisodiy faol aholi umumiy sonida mahsuldor ish bilan bandlar ulushi tavsiflaydi. Oqilona ish bilan bandlik samarali ish bilan bandlik shakllanishining shart-sharoiti, unga erishishdagi dastlabki bosqichdir. Shu no'qtai nazardan ish bilan bandlik sohasidagi davlat siyosati samaradorligiga erishishning pirovard natijasi samarali ish bilan bandlikka erishish hisoblanadi.

Yuqorida tushuncha nuqtai nazaridan qaraganda respublikamizda aholining samarali ish bilan bandligini shakllanishiga ham to'la erishilgani yo'q. Bunga quyidagi sabablar asosiy to'siq bo'lmoqda: iqtisodiyot zamonaviy sohalar va tarmoqlari rivojlanishining turlichaligi; ish bilan bandlik innovatsion turlarining yetarlicha shakllanmaganligi; mehnat haqining uning yakuniy natijalaridan uzilib qolishi; ish joylarining past sifatli moddiy-texnika jihozlari bilan ta'minlanishi; ishchi kuchi taklifini unga bo'lgan talabga nisbatan ko'proq o'sayotganligi; bo'sh ish joylari haqida ishonchli axborotlarning kamligi va mehnat bozorini samarali tartibga solish mexanizmining takomillashmaganligi va boshqalar.

Mehnat bozorining mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmini takomillashmaganligi mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishiga va buning natijasi sifatida aholining samarali ish bilan bandligini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aholini ish bilan bandligini samarali tartibga solish mexanizmi sub'ektiv yig'ma tushunchadir. Samarali ish bilan bandlikni tartibga soluvchi mexanizm mehnat bozori infratuzilmasiga kiruvchi tarkibiy qism elementlari majmuasidir.

Aholining samarali ish bilan bandligini ta'minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi; yollanma ish kuchiga mehnat haqini (narxini) eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol byudjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, pensionerlar, ko'p bolalik ayollar va nogironlar ish bilan bandligini oshirishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va kasbiy harakatchanligini oshirish, mehnat bozori infratuzilmasining samarali rivojlanishini ta'minlash va boshqalar.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishning asosiy omillari va shart-sharoitlarini tadqiqoti uning asosiy mezonlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Mehnat bozori infratuzilmasi tashkiliy tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari atroflicha tahlil qilinsa, uning asosiy mezonlarini qamrab olish va ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish qulaylashadi. Chunki, mehnat bozori infratuzilmasining strategik maqsadlari sifatida ish bilan bandlikni tartibga solish va aholini

ishsizlikdan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq ko'rsatkichlar bir tomondan, davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblansa, ikkinchi tomondan, mehnat bozorida davlat siyosatini amalga oshirishning pirovard ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi.

Har qanday jarayonni baholash imkoniyatini beruvchi mezonlar yagona yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Mezonlar voqea va hodisalarning qamrovini, darajasining yo'nalishini belgilab olishga ham xizmat qiladi. Mazkur mohiyat va asosiy vazifalarni aniqlash uchun ish bilan bandlik xizmati faoliyati samaradorligini pirovard natijalariga murojaat qilish muhim sanaladi. Pirovard natijalar esa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi. Bunda mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishining mezon va ko'rsatkichlarini aniqlashda uning elementlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyot rivojlanishining muayyan bosqichida ish bilan bandlikka ko'maklash organlarining shakllari va tashkiliy-iqtisodiy tasnifi tubdan o'zgarib, mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif nisbatlarini bevosita tartibga solishda qo'shimcha talab va imkoniyatlarni yuzaga keltirmokda. Shu bilan birga mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish mezonlari va ko'rsatkichlari ish bilan bandlik sohasida davlat siyosati samaradorligi ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha, mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishni kompleks tahlil qilish faqat uning mezonini o'z ichiga olish bilan chegaralanib qolmasligi zarur, chunki mezon asosan samaradorlikni oshirishning mohiyati va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o'lchov hamda baholash vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifani samaradorlik ko'rsatkichlari hal qiladi. Mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismlarini rivojlantirish kompleks dasturi mezonning murakkabligi uning maqsadlari va faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni zarurat etadi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishning asosiy omillari va shart-sharoitlarini tadqiqoti uning asosiy mezonlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Mehnat bozori infratuzilmasi tashkiliy tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari atroflicha tahlil qilinsa, uning asosiy mezonlarini qamrab olish va ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish qulaylashadi. Chunki, mehnat bozori infratuzilmasining strategik maqsadlari sifatida ish bilan bandlikni tartibga solish va aholini ishsizlikdan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq ko'rsatkichlar bir tomondan, davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblansa, ikkinchi tomondan, mehnat bozorida davlat siyosatini amalga oshirishning pirovard ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday jarayonni baholash imkoniyatini beruvchi mezonlar yagona yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Mezonlar voqea va hodisalarning qamrovini, darajasining yo'nalishini belgilab olishga ham xizmat qiladi. Mazkur mohiyat va asosiy vazifalarni aniqlash uchun ish bilan bandlik xizmati faoliyati samaradorligini pirovard natijalariga murojaat qilish muhim sanaladi. Pirovard natijalar esa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi. Bunda mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishining mezon va ko'rsatkichlarini aniqlashda uning elementlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyot rivojlanishining muayyan bosqichida ish bilan bandlikka ko'maklash organlarining shakllari va tashkiliy-iqtisodiy tasnifi tubdan o'zgarib, mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif nisbatlarini bevosita tartibga solishda qo'shimcha talab va imkoniyatlarni yuzaga keltirmokda. Shu bilan birga mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish mezonlari va ko'rsatkichlari ish bilan bandlik sohasida davlat siyosati samaradorligi ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha, mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishni kompleks tahlil qilish faqat uning mezonini o'z ichiga olish bilan chegaralanib qolmasligi zarur, chunki mezon asosan samaradorlikni oshirishning mohiyati va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o'lchov hamda baholash vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifani samaradorlik ko'rsatkichlari hal qiladi. Mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismlarini rivojlantirish kompleks dasturi mezonning murakkabligi uning maqsadlari va faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni zarurat etadi.

1-jadval

Mehnat bozori infratuzilmasi samarali rivojlanish mezonlari va ko'rsatkichlari

Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanish mezonlari	Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanish ko'rsatkichlari
1. Ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor	Mulkchilikning turli xil shakllari; mavjud va

muvozanatiga erishish	yangi yaratilgan ish joylarining soni; aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM ning hajmi.
2. Mehnat bozori sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash	Mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi; mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik; mehnat bozori institutsion tuzilmalari samaradorligi; samarali va egiluvchan mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirish.
3. Aholini ish bilan bandligiga oid axborotlar tizimini takomillashtirish	Mehnat bo'limida hisobda bo'lgan bo'sh ish o'rinlari va lavozimlarining katalogi; mehnat bo'limida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha ma'lumotlar; ishsizlikning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi to'liq axborot; ish beruvchilar to'g'risidagi axborot; yangi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatlari to'g'risidagi axborot.
4. Kadrlarning mobilligi va eksportabelligini rivojlantirish	Aholining migratsion oqimi; ishchi kuchi eksportidan kelgan tushum miqdori; eksport qilingan ishchi kuchi salmog'i.
5. Ishsizlikni kamaytirish	Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni hamda ularning nafaqa miqdori; yangi ishga joylashtirish; xizmat bo'yicha boshqa ishga o'tish munosabati bilan qayta o'qitish; yangi ish joyiga ko'chirib keltirish.
6. Malakali mehnat bozorini shakllantirish	Malakali kadrlardan foydalanish samaradorligi; malakali kadrlarni tayyorlashda moddiy-texnik ta'minot; oliy va o'rta toifadagi mutaxassislar salmog'i

O'zbekistonda zamonaviy mehnat bozori hali tarkib topish jarayonidadir. U hali mezon asosida o'zining yaqqol qiyofasiga ega bo'lib ulgurganicha yo'q. Bu jihatdan uni birinchi turga intiluvchi aralash mehnat bozori deb atash mumkin. Mazkur bozorning shu jihatlarini e'tiborga olgan holda uning infratuzilmasi rivojlanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi (1-jadval): ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; mehnat bozorining sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash; aholining ish bilan bandligiga oid axborotlar tizimini takomillashtirish; kadrlarning kasbiy harakatchanligi va eksportabelligini rivojlantirish; ishsizlikni kamaytirish; malakali mehnat bozorini shakllantirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni, mulkchilikning turli xil shakllari, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIMning hajmi; ishchi kuchi eksportidan kelgan tushum miqdori, aholining migratsion oqimi, eksport qilingan ishchi kuchi salmog'i; mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik, mehnat bozori institutsion tuzilmalari samaradorligi, samarali va egiluvchan mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirish; malakali kadrlardan foydalanish samaradorligi; malakali kadrlarni tayyorlashda moddiy-texnik ta'minot, oliy va o'rta toifadagi mutaxassislar salmog'i; ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni hamda ularning nafaqa miqdori, yangi ishga joylashtirish, xizmat bo'yicha boshqa ishga o'tish munosabati bilan qayta tayyorgarlik, yangi ish joyiga ko'chirib keltirish; mehnat bo'limida hisobda bo'lgan bo'sh ish o'rinlari va lavozimlarining to'liq ro'yxati, mehnat bo'limida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha ma'lumotlar, ishsizning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi to'liq axborot, ish beruvchilar to'g'risidagi axborot, yangi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatlari to'g'risidagi axborot, mulkchilikning turli xil shakllari va h.k.

Ushbu qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan mehnatga layoqatli aholining oqilona ish bilan bandligini shakllantirishni tartibga solish mexanizmlarini, tegishli maqsadli kompleks dasturini hamda kompleks tahlili va istiqbolini belgilashning metodologik asoslarini yaratishda va ularni tadbiq etishda foydalanish mumkin.

Mehnat bozori murakkab, keng qamrovli, tez o'sib boruvchi jarayon bo'lganligi sababli uning infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham xuddi shunday murakkab tasnifga ega, jamlovchi tizimdan iboratdir. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish ko'rsatkichlarini ularning mazmuni, jarayonni ifodalash tarzi, qamrovi, hisoblash usullari kabi belgilariga ko'ra tasniflash va guruhlash mumkin.

Mehnat bozori infratuzilmasi samarali rivojlanishi ko'rsatkichlarini statik va dinamik ko'rsatkichlar tarzida katta ikki guruhga ajratish mumkin. Boshqacha aytganda, statik ko'rsatkichlarni miqdor ko'rsatkichlari, dinamik ko'rsatkichlarni esa sifat ko'rsatkichlari deyish ham mumkin.

Statik ko'rsatkichlar mehnat bozori holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bularga mamlakat aholisi soni, mehnat resurslari soni, mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan qismi soni, ishsizlar soni, ishsizlikning davomiyligi, yollangan va yollanmagan ishchi kuchi soni, davlat va nodavlat sektorlarida band bo'lganlar soni, mehnat resurslarining tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishi (hududiy va tarmoq tarkibi), mehnat resurslarining yosh va jinsi bo'yicha tarkibi kabilari kiritiladi.

Dinamik ko'rsatkichlar muayyan vaqt davomida mehnat bozoridagi o'zgarishlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, undagi jarayonlarning yo'nalishlarini va qamrovini aniqlash imkoniyatini beradi. Bularga mehnat resurslarining o'sish sur'atlari, ish bilan ta'minlanganlar soni, qisqargan va yangidan yaratilgan ish o'rinlari, ishsizlik darajasi, kadrlar qo'nimsizligi, muayyan tarmoqdan yoki hududdan boshqasiga o'tganlar soni, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbat, ish bilan ta'minlanganlarning jami ish qidiruvchilarga nisbati, ishchi kuchi eksporti, ish bilan band bo'lganlarning tarmoq va hududiy tarkibidagi siljishlar, mehnat resurslarining malakasi, yosh va jins tarkibidagi o'zgarish, yollangan va o'z-o'zini ish bilan band qilgan ishchi kuchi soni o'rtasidagi nisbat o'zgarishi, davlat va nodavlat sektorlarida band bo'lganlar o'rtasidagi nisbat o'zgarishi kabilarni kiritish mumkin.

Mehnat bozori infratuzilmasi samarali rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ijtimoiy va iqtisodiy mazmundagi ko'rsatkichlarga ham ajratish mumkin. Ammo bu yerda bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy, ham iqtisodiy mazmunga ega ko'rsatkichlar ham mavjud.

Iqtisodiy mohiyat kasb etadigan ko'rsatkichlar mehnat bozoridagi talab va taklif, ishchi kuchi qiymati va bahosi, ish haqi, mehnat bozoridagi raqobat munosabatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlar esa ishsizlik nafaqalari, ishchi va xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, kadrlar qo'nimsizligi darajasi, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlari bilan bog'liq ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ish bilan bandlik darajasi, ish haqi, aholi daromadlari kabi ko'rsatkichlarni bir vaqtning o'zida ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi ko'rsatkichlar deb hisoblash mumkin. Albatta, bunday guruhlash qaysidir ma'noda shartli hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mehnat bozorini samarali rivojlantirish siyosati ma'lum ma'noda davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarning dinamikligi davlat makroiqtisodiy siyosatini bozor tamoyillariga qanchalik uyg'un kelishiga ham bog'liq. Ayniqsa, davlat investitsiya siyosati, daromadlarni tartibga solish siyosati, ish bilan bandlik siyosati mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Isroilova D. Mehnat bozorining shakllanish tendentsiyalari. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2003. №10. 60-61 b.
2. Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish // Dis. i.f.d.- T.: 1998. -60 b.
3. Xolmo'minov Sh.R., Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Fan va texnologiyalar”, 2016. 71-72 b.
4. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. 2011-2016 yillardagi statistik to'plam.

UDK: 784.0:37

XOR JAMOALARI BILAN ISHLASH JARAYONIDA VOKAL, SOLFEDJIO MASHQLARINING AHAMIYATI**J.Xodjayev***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada xor san'ati hamda xor darslarining xususiyati haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek dars jarayonida talabalarni ovozi shakllantirish uchun vokal mashqlarining ahamiyati, asarlarni professional kuylash uchun xor solfedjio mashqlarini kuylash, kuylaganda ham barcha nuanslariga, ayniqsa, dinamik belgilariga alohida e'tibor berib kuylash haqida qisqacha fikr mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xor, vokal, solfedjio, artikulyatsiya, intonatsiya, kantata, oratoriya.

Важность вокальных и сольфеджио упражнений в процессе работы с хорами

Аннотация. В статье представлен краткий обзор хорового искусства и характера хоровых уроков. Есть также краткие комментарии о важности вокальных упражнений для формирования голоса студентов, пения хорового сольфеджио для профессионального пения и пения с особым вниманием ко всем нюансам, особенно динамическим особенностям.

Ключевые слова: хор, вокал, сольфеджио, артикуляция, интонация, кантата, оратория.

The formation of a sense of international harmony in orphanages

Abstract. The article provides a brief overview of choral art and the nature of choral lessons. There are also brief comments on the importance of vocal exercises for shaping the voice of students, singing choral solfeggio for professional singing and singing with special attention to all the nuances, especially the dynamic features.

Keywords: choir, vocals, solfeggio, articulation, intonation, cantata, oratorio.

Yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol, har tomonlama mujassam rivojlangan madaniyatli inson qilib shakllantirishda musiqaning, shu jumladan ohangrabo qo'shiqlar o'ziga xos o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbusda yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari va 312 ta musiqa va san'at maktablari 130 ming nafar o'g'il-qizlarni qamrab olgan.

Ushbu madaniyat markazlari va musiqa maktablarida imkoniyatdan kelib chiqib xor jamoalari ham tuzilgan bulib o'z faoliyatini olib bormoqda.

Jamoat hayotida xor san'atining o'rnini katta. U nafaqat xor san'atining kuchli ekspressiv vositalari bilan belgilanadi, bu tinglovchilarga yuqori estetik zavq bag'ishlashga qodir. Xor qo'shiqlari musiqa san'atining eng demokratik shaklidir. Bu aholining keng qatlamini faol badiiy ijod va mulohazaga jalb qiladi va shu bilan uning haqiqatan ham tugab bo'lmaydigan ta'lim va tashkiliy imkoniyatlariga ega.

Xor qo'shiqlari ayniqsa yosh avlod musiqiy va estetik tarbiyasining asosiy shakli bo'lib, shaxsning musiqiy madaniyatini rivojlantirishga, bolalar va yoshlarning yuqori badiiy didini shakllantirishga xizmat qiladi [1,6.b].

Professional va xavaskorlik xorlari uzining badiiy-ijrochilik yunalishlariga qarab, asosan, xalq xorlari va akademik xorlarga bulinadi.

Bularning har biri uzining spesifik xususiyatiga ega. Akademik va xalq xorlari bir-birlaridan ijro uslubi, repertuari, tashkiliy asoslari, ish va boshqarish metodlari bilan farqlanadi.

Akademik xor ijrochiligi zamon talabiga javoban yangi yo'nalish oldi. Milliy musiqa ijodiyoti ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Akademik xor san'ati bilan milliy xalq xor san'ati barobar usa bordi. Professional va xavaskorlik xor san'atining asosini folklor tashkil qilganligi sababli ular uzaro yaqinlasha bordilar. Xalqning boy milliy ana'naviy san'ati (yuqori ijro mahorati) milliy professional san'atning rivojiga zamin yaratdi [2. –B.6.].

Ma'lumki, umumiy janr tasnifiga ko'ra, barcha musiqa vokal va instrumentalga bo'linadi. Vokal musiqasi yakkaxon, ansambl, xor bo'lishi mumkin.

«Xor — bu vokal musiqani cholg'u asboblari jo'rligida yoki jo'rsiz (a — cappella) ijro etuvchi xonandalar kollektivi».

«Xor» atamasi yunoncha «choros» so'zidan olingan bo'lib, «to'da, yig'in» ma'nosini bildiradi. Turiga ko'ra xor bir xil yoki aralash tuzilishda bo'lishi mumkin. Bir xil tuzilishdagi xorlarga alohida erkaklar xori, ayollar xori, bolalar xori kiradi. Aralash xorga bolalar bilan ayollar xori, ayol va erkaklardan iborat xorlar kiradi. Xor ko'rinishi xorni tashkil qiluvchi mustaqil xor partiyalarining soni bilan belgilanadi: ikki ovozli xor, uch ovozli xor, to'rt ovozli xor va hokazo. Har bir xor partiyasi ma'lum bir joyda 2—3 ovozlariga bo'linishi mumkin. Aralash xor odatda to'rt ovozlilikdan iborat. Lekin bundan ham ko'p ovozga mo'ljallangan xor asarlari ham uchraydi. Divizi tufayli aralash xor 6—12 ovozli ifodaga ega bo'lishi mumkin. Xor adabiyotida ikki-uch va undan ortiq mustaqil ovozlar gruppasi (ijrosiga mo'ljallangan ko'p ovozli asarlar) alohida bo'limni tashkil qiladi [5. –B.6-7].

O'z navbatida xor ishi o'z yunalishlariga ega, ularga xor ishlari deyiladi:

- 1) qo'shiq;
- 2) xor miniatyurasi;
- 3) katta hajmli xor;
- 4) oratoriya-kantata (oratoriya, kantata, to'plam, she'r, rekvizem, ommaviy va boshqalar);
- 5) opera va sahna harakati bilan bog'liq boshqa asarlar (mustaqil xor raqami va xor sahnasi);
- 6) qayta ishlash;
- 7) tartibga solish [1. –B.8]

Xor jamoasi bilan ishlashda qo'shiq aytishni boshlashdan oldin vokal-xor talablari darajasida ovoz qizdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz ustida ishlash jarayonida ovoz unsurlari uyg'un harakatda bo'lishi talab etiladi. Ya'ni hiqildoq, nutq a'zolari, ovoz rezonatorlari bir-biriga bog'langan va bir-biriga o'zaro ta'sir kursatgan holda harakatlanadi. To'g'ri uyg'unlashish natijasida murakkab ovoz apparati tizimi vujudga keladi. Bunda ovoz bog'lamlari oz miqdorda kuch sarf qilib, yuksak akustik samaraga erisha oladi. Ovoz apparatining barcha faoliyatini markaziy asab tizimi boshqaradi. Shu tufayli har bir tovush ijrochini musiqiy qobiliyatining natijasi deb baholanadi.

Yosh ijrochilarning musiqiy, vokal eshitish qobiliyatlarini mukammal darajaga yetkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Vokal eshitish qobiliyati ovoznining o'ziga xos (tembr) sifatlarini idrok qila bilishga va uning fiziologik shakllanishini tushunib yetishga yordam beradi. Professional ijroning tovushi oddiy so'z tovushidan sezilarli darajada farq qiladi, chunki uning akustik spektrida ovoz formantlari bor (yuqori ovoz formantlari 2500-3000 gs atrofida past ovoz formantlari esa 55-600 gs) [3. –B.4]. Tovush to'g'ri hosil bo'layotganligini eshitish va tushunish, ayrim muskullarni haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik (hiqildoq, nafas va boshqa a'zolarida), qabul qilingan estetik etalondan chekinmaslik va o'zligini saqlab qolish g'oyat muhimdir.

Ovoz mashqlarining asosiy vazifalari:

1. Kuylashda nafasni vokal ixtisosiga mos darajada olish;
2. Kuylashda «artikulyatsiyani» tug'ri ishlatish;
3. Tomoq (ovoz) mushaklarini rivojlantirish;
4. Sof intonatsiyaga erishish;
5. Ovoz diapazonini (doirasini) kengaytirish;

Barcha kuylash texnikalari: kuychanlik (kantilena), stakkato, non legato, tayanchli tovush, falset, tovush filirovkasi, voz dinamikasi (forte, piano) ni egallash; [4.–B.12]

Talaba kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshishi shart. Bu uchun har bir mashqni talabaga kuylashni tavsiya etishda uni nafaqat kuylab ko'rsatish, balki uning asosiy maqsadini mufassal tushuntirib berish lozim. Shunda talaba ongli ravishda ovozin to'g'ri yo'naltiradi, hamda fonetik va texnik qiyinchiliklarni onson

yengib o'tadi.

Eng avvalo, ovozni erkin va to'liq chiqishini diapazonning o'rta qismida yangratişga erishish lozim. Shundan so'ng diapazoning yuqori tovushlarini kuylashga o'tish mumkin.

Ish jarayonida ustozning idroki nihoyatda xushyor bo'lishi, tomoq siqilishi, artikulyasiyaning notug'ri pozitsiyada ekanligi va xususan ovoz toliqishini o'z vaqtida payqab olib zarur choralar ko'rishi shart. Dars jarayonida talabada vokal mashqlarining barcha turlari «M» (yumuq) tovushdagi yopiq lablar bilan ochiq tarzdgagi unli tovushlar, hamda unli va undosh tovushlar birligida «legato», «stakkato», «arpedjio», intervallar, gammalar, kichik kuylarni kuylash va ulardan tegishli malakalar va ko'nikmalar shakllanishi lozim.

Ma'lumki, har bir ustoz-o'qituvchi o'zining shaxsiy tarjibasi va nuqtai nazariga tayanib xor ijrochiligi darslarida vokal mashqlari orqali ovozni rivojlantirishda xususiy ish uslubiga ega.

Xor darslarida vokal mashqlari bilan bir qatorda xor solfedjiosi ham ancha katta ahamiyatga ega. Bu jarayon har bir talaba o'rganayotgan asarni, xor jamoasida ijro etilayotgan qo'shiqlarni tez va aniq kuylashga imkon beradi.

Xor solfedjio mashqlari qator uslublari: melodik garmonik eshitish qobiliyqtini, usulni to'g'ri his etish kabi muhim mezonlarni o'z ichiga oladi.

1. Xor darslarida kamida 10-15 daqiqa davomida xor solfedjio mashqlari kuylanishi zarur.

2. Xor solfedjio mashqlarini vokal-xor asnosida nafas olishni to'g'ri yo'naltirilgan holda aniq tovush balandligida kuylash lozim

3. Xor solfedjio mashqlarini olib borish xor jamoasi ish uslubi bilan doimiy ravishda uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

4. Xor jamoasining saviyasini e'tiborga olgan holda kuy, qo'shiq hatto mashqlarni to'g'ri tanlay bilish muhim.

5. Xor solfedjio qator ritmik mashqlarni, ladlarni eshitish qobiliyati va qo'l harakat belgilaridan faol foydalaniladi. Shu mavjud mezon va usullarni to'g'ri foydalanish, qo'llash natijasida talabaning absolyut eshitish qobiliyati yanada rivojlanadi.

6. Dars jarayonida ko'proq ahamiyatli (solfedjio) o'qitishga ajratish zarur.

Notaga qarab kuylash davomida avval qo'l harakati bilan, so'ng qarab kuylash, sekin-asta o'z o'rnida Talabani ikki va uch ovoqli xor partitularidan nota bo'yicha kuylash ko'nikmalari yanada rivojlanishiga imkon beradi.

Xor solfedjio mashqlari doimiy ravishda xor darslarida qo'llanib borilishi, ya'ni ikki, uch, va undan ortiq ovozlarni notaga qarab kuylashga urgatishi talabalar asarni tezroq va aniqroq kuylashga, to'liq o'zlashtirishga balki garmonik eshitish qobiliyatini, usulini his qilish ko'nikmalarini rivojlanishi va mustahkamlanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari bevosita doimiy ravishda talabalar asarni kuylashlari ularning musiqiy tafakkurini yanada rivojlanishi va o'sishida juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, asarning murakkab qismi ustida nota bilan kuylash asarni sifatli darajada o'rganishga muhim poydevor bo'ladi.

Xor darslarida solfedjio mashqlarini kuylash mobaynida asardagi dinamik belgilarga alohida urg'u berish kerak. Ushbu holat asarning janr xarakter nuqtai nazarida yaxlitgini va mukammalligini to'liq ta'minlaydigan omil bo'lib hisoblanadi.

Dinamik belgilarni o'z ornida his etish va kuylash asarning nafaqat ta'sirchanligini oshiradi, balki mazmum va mohiyatini to'liq ochib berishda muhim jabhalardan biri hisoblanadi. Mashqlardan so'ng xor asarlaridan kichik bo'laklarni ham dinamik belgilar asosida kuylash kerak. Bunda har bir taktlar o'zaro dinamik belgilar asnosida yaxlitlikni tashkil etishi lozim.

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, yurtimizda san'atga, musiqaga alohida urg'u berilmoqda. Musiqaning katta bir bo'lagi bo'lmish xor ijrochiligi janri ham o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviyatli, komil inson bo'lib o'sishida hamda jipslik, birdamlik xususiyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Xor ijrochiligida esa vokal, solfedjio mashqlarisiz mukammallikka erishib bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. Keerig O.P. Xorovediniye: Uchebniye posobiye. – Sankt-Peterburg, 2004.
2. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik: O'quv metodik qo'llanma. – Toshkent. 1987.
3. Rizayeva A. Yosh xonandaning kamoloti. –Toshkent: Cho'lpon, 2003.
4. Mansurbekova F. Xor solfedjio. O'quv metodik qo'llanma. – Toshkent, 2010.
5. Sharafiyeva N. Xorshunoslik. O'quv qo'llanma.

UDK: 373.3

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QUV-BILISH KOMPETENSIYASI:
TUSHUNCHA, XUSUSIYATLAR, MAZMUNI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI****M. F. Qurbonova***Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasi: tushuncha, o'ziga xos xususiyatlari, mazmuni va shakllanish bosqichlari, o'quv jarayonini tashkil etishda darsning asosiy o'rni, o'quvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishdagi pedagogik vazifalar kabilar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya, o'z-o'zini baholash, mexanizm, nostandart, vaziyat, muammo, evristik, metod, faoliyat, malaka, bilish, statistik, pedagogik texnologiya, o'quv dasturi, kompetensiya.

Учебно-познавательные компетенции учащихся начального образования: понятие, содержание и этапы формирования

Аннотация. В данной статье речь идёт о учебно-познавательных компетенции учащихся начального образования: понятие, особенности, содержание и этапы формирования, роли уроков в организации учебного процесса, а также о задачах формирования учебно-познавательных компетенции учащихся.

Ключевые слова: планирование, анализ, рефлексия, самооценка, механизм, нестандартный, условие, проблема, эвристический, метод, процесс, навыки, знание, статистический, педагогическая технология, компетентность.

Pupils learning competence in primary education: notion, peculiarities, content and stages of formation

Abstract. This article focuses on students cognitive competence in elementary education: understanding, peculiarities, content and stages of formation, the main role of the course in organizing the learning process, and the pedagogical tasks of forming students cognitive competences

Keywords: forming, analyzing, reflection, self-assessment, non-standart, situation, problem, heuristic, method, activity, experience, knowledge, statistics, pedagogy, technology, syllabus, competence.

Zamonaviy ta'lim tizimining eng asosiy vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish mahoratini, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishni ta'minlovchi o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish hisoblanadi.

O'quv-bilish kompetensiyasi – bu, bilish faoliyatining ko'nikma va malakalar majmuasi: shaxsiy faoliyati muvaffaqiyati uchun rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya, o'z-o'zini baholash mexanizmlarini egallash; nostandart vaziyatlarda, muammolarni evristik metodlar bilan yechishda faoliyat metodlarini egallash; o'lchash malakalarini egallash, bilishning statistik va boshqa metodlaridan foydalanishdir [1].

O'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish funksiyalari quyidagilardan iborat: boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish faoliyatini mustaqil amalga oshirish, o'quv maqsadlarini qo'yish, ularga erishish uchun zarur vosita va metodlarni topish, ulardan foydalanish, jarayonni va faoliyat natijalarini nazorat qilish va baholash imkoniyatlarini ta'minlash; uzluksiz ta'limga tayyorgarligi asosida shaxsning garmonik rivojlanishi uchun va ularni o'zi amalga oshirish uchun sharoit yaratish; har qanday predmet sohasida bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, ko'nikma, malaka va kompetentligi shakllantirishni ta'minlash.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish motivlarini shakllantirish o'qituvchidan quyidagi sharoitlarni tashkil etishni talab etadi: muammoli vaziyatlarni yaratish, o'quvchilarni o'qishga ijodiy munosabatini faollashtirish; o'quvchining bilim olishga refleksiv munosabatini shakllantirish; o'quvchilarning yangi bilimlarga erishganligini inobatga olib ularni baholash bilan masalalarni yechishning zarur vositalari bilan o'quvchilarni ta'minlash; hamkorlikda o'quv faoliyati,

o'quv hamkorligi shakllarini tashkil etish.

Bugungi kunda har bir o'qituvchining pedagogik faoliyatining maqsadi, zamonaviy dars vositalari asosida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tayanch va predmetli kompetensiyalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bu davr talabi. Asosiy pedagogik faoliyat vazifalariga quyidagilar kiradi: amaliyotda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish; o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish uchun dars tizimlarini yaratish; o'quvchilarning kompetentligi rivojlanganligi monitoringini amalga oshirish hamda tashqi ekspertiza uchun natijalarni taqdim etish; darslarda kompetensiyali yondashuvni amalga oshirish uchun resurs bazalari bilan ta'minlash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini tashkil etishda darsning asosiy o'rin egallashini bilishi kerak. Darsda o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishi, o'quvchilarning tayanch va predmetli kompetensiyalarini shakllantirishi va rivojlantirishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashi, muvaffaqiyat vaziyatini hamda psixologik komfort yaratishi lozim [2].

O'quv-bilish kompetensiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi: maqsadni qo'yish va unga erishishni tashkil etish, o'z maqsadini tushuntira olish; o'z o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishni, tahlil qilishni, refleksiyaning o'zini o'zi baholashni rejalashtirish tashkil etish; o'rganilayotgan muammoga nisbatan kuzatilayotgan faktlarga savollar qo'yish, hodisa sabablarini aniqlash, o'zining tushunganligi yoki tushunmaganligini bildirish; bilish vazifalarini qo'yish va gipotezalarni ilgari surish; kuzatish yoki tajribani o'tkazish uchun sharoitni tanlash; kerakli asbob-uskunalarini tanlash, o'lchash va ish instruksiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini egallash; natijalarni yozish, xulosalarni shakllantirish; o'z tadqiqotlari natijalari haqida kompyuter vositalari va texnologiya (matnli va grafik redaktorlar, prezentatsiya)lar foydalanib og'zaki va yozma chiqishlar qilish [3].

Shuningdek, o'quv bilish kompetensiyasi o'z ichiga: bilish vazifalarini qo'yish, gipotezalarni ilgari surish, kuzatish yoki tajriba o'tkazish sharoitini tanlash, natijalarni bayon etish, xulosalarni shakllantirishni oladi, bu bilish kompetensiyalarini shakllantirishga tadqiqotchilik va faoliyatni loyihalash yordam beradi. Ayni loyihalash metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarini gipotezalarni ilgari surishga, kuzatishni o'tkazish uchun sharoitni tanlashga, natijalarni bayon etishga, xulosalar chiqarishga o'rgatishga yordam beradi. Tadqiqotchilik va loyihalash ishlari himoyasi esa, o'quvchilarda o'z tadqiqotlari natijalari haqida og'zaki yoki yozma chiqish qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu ham yana bir o'quv-bilish kompetensiyasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni to'g'ri tashkil etish, hamkorlik qilish, darsdan keyingi faoliyat, olimpiada, loyihalash va tadqiqotchilik faoliyatida ishtirok etish, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'rganilayotgan obyektga nisbatan o'quvchi – kreativ ko'nikmalarni o'zlashtiradi, atrof-muhitdan haqiqiy bilimlarni izlab topishni amalga oshiradi, nostandart holatlarda o'zini ko'rsatadi. Bu kompetensiyalar doirasida savodxonlik mazmuniga tegishli talablar kelib chiqadi: faktlarni uydirmalardan ajrata olish, o'lchash malakalarini egallash, bilishning taxminiy, statistik va shunga o'xshash metodlaridan foydalanish.

S.G.Vorovshikov ta'kidlashicha, o'quv-bilish kompetensiyasi - "... bu metodologik xarakterdagi bilimlarning umumo'quv ko'nikmalari va guruhlarini hamda o'quv-bilish kompetensiyasini amalga oshirishda muvaffaqiyatli amalga oshirishda shaxsiy-anglanganlik tajribasi sifatida gnoseologik yo'nalganlikning normativ-qadriyati o'rnatilishi yig'indisi" [4].

V.I.Baydenko o'quv-bilish kompetensiyasini aniq fanlarni bilish metodlaridan foydalanish bilan iqtisodiy muammolarni yechish uchun yangi bilimlarni egallash qobiliyati sifatida ko'rib chiqadi [5].

Bugungi kunda zamonaviy boshlang'ich maktabda ta'lim jarayoni o'quvchining ijodkorlik imkoniyatlarini rivojlantirishga, o'qish ko'nikmalarini hamda ularning mustaqil ta'limga qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan. Eng asosiysi universal o'quv faoliyatini shakllantirish hisoblanadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, ko'pchilik o'quvchilar o'z mehnatini tashkil eta olmaydi, o'quv qiynchiliklari bor, bu o'z navbatida o'qishga qiziqishning yo'qligi hamda o'ziga ishonmaslikdan kelib chiqadi. Yaxshi o'qish, o'z qobiliyatlarini anglash, turli topshiriqlarni sifatli bajarish malakasi – kompetentlik hissining yuzaga kelishiga olib keladi [6].

O'quv-bilish kompetensiyalari o'z ichiga quyidagi ko'nikmalarni oladi: maqsad qo'ya olish va unga erishishni tashkil etish, o'z maqsadini tushuntirish; o'z o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish,

tahlil qilish, refleksiya, o'z-o'zini baholashni tashkil etish; kuzatilayotgan faktlarga savollar bera olish, hodisalar sababini izlash, o'rganilayotgan muammo bo'yicha o'zining tushunganligi yoki tushunmaganligini aytish; bilish vazifalarini qo'ya olish, uni yechishning muhim vositalari va yo'llarini tanlash, natijalarni yozish, xulosalarni shakllantirish; o'z o'quv faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish.

O'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ustida ishlash bilan o'qituvchi o'quvchilarning raqobatbardosh, faol bo'lishlariga yordam beruvchi ijobiy ta'limiy-rivojlanuvchi muhitni yaratishga intilishi lozim. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini yaxlit holda o'quvchilarning o'zaro munosabatini kuzatish, ularni diskussiyaga jalb etish, ularga o'z fikrlarini aytishga imkon berish, muhokama qilish bilan baholash mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish qanday amalga oshiriladi? O'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni juda murakkab va ziddiyatlidir. Bu faqat kompetentlikning integrativligi va ko'p o'lchamligi bilan emas, balki boshqa sabablar bilan ham tushuntiriladi, ulardan asosiylari: o'quvchining yosh va individual imkoniyatlari (bilimi, bilish va iroda jarayonlarning xususiyatlari); pedagogik sharoitlar (maktabda o'qitishning yo'naltirilganligi va darajasi, o'qituvchi shaxsi, o'qitish texnologiyasi); ijtimoiy sharoitlar (oilalar ta'siri, sinfdoshlarining qadriyatli orientatsiyasi).

Kompetensiyalarni shakllantirishning boshlang'ich bosqichida ta'lim olishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish muhim hisoblanadi. O'quvchi 7-8 yoshida maqsadga erishish yo'lidan to'siqlarni bartaraf eta olishi lozim. Shuning uchun darslarda o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish uchun o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, bunda ularda bilishga qiziqishga rivojlansin. Bilishga qiziqish boshlang'ich sinf o'quvchisining predmetni o'rganishga emotsional munosabatida ifodalanadi. Kompetensiyalarni shakllantirishda motivatsiya eng asosiy rol ni o'ynaydi [7].

Yuqorida ta'kidlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish masalasining bugungi ahvolini tahlil qilish, ulardan foydalanish vositasida mashg'ulot samaradorligiga erishish tamoyillarini aniqlash; mazkur texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan shakl va metodlarning mashg'ulot samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslash, ulardan foydalanish asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantiruvchi turli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; har bir mavzu yuzasidan ularning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qo'yiladigan minimal talablar, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish kabi ilmiy-metodik tavsiyalarni va mashg'ulot ishlanmalarini ishlab chiqish; o'quvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantiruvchi samarali vositalarni belgilash; mashg'ulotda mazkur texnologiyalardan foydalanishga omil bo'luvchi metodik shart-sharoitlarni yaratish, ulardan foydalanishning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq turli shakl, metod, vositalarni amaliyotga joriy etish; o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalarini o'zaro bog'lik holda amalga oshirish va boshqalar.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy o'qitish metod va texnologiyalaridan foydalanishning vosita va metodlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish barobarida, ularning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish va mashg'ulot samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Bildirilgan mulohazalar o'quvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi pedagogik vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi: o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularda o'quv-bilish kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash hamda bunga imkon beruvchi obektiv va subektiv omillarni o'rganish; mashg'ulotlarning tashkil etilishini ta'minlashga e'tiborni qaratish hamda ularni aniq maqsadga asoslanuvchi loyiha asosida tashkil etish, bu jarayonda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, har birining faollik ko'rsatishlariga erishish; samarali nazorat metodlar vositasida o'quvchilarda bilish kompetensiyasining shakllanganlik darajasini o'rganib borish va tahlil etish.

Yangilangan ta'lim mazmunining hayotda to'laqonli o'rnini topib, kutilgan natijalarni berishi uchun tajriba-sinovdan o'tkazilishi, uning natijalari asosida takomillashtirilishi, undan keyingina amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiq. Buning uchun, yangi sinov dasturi bo'yicha har bir mashg'ulot mavzusini sinash, u o'quv dasturiga muvofiq kelishi, o'quvchilar yoshiga mosligi, ular tomonidan o'zlashtirish darajasi va sifat ko'rsatkichi, mavzuni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va

ularni bartaraf etish yuzasidan xulosalarni o'rganib chiqish muhim, ya'ni: guruhlarda beriladigan bilimlar kichik topshiriqlar orqali o'quvchilarga beriladigan bilimlar bilan uzviy bog'lanishi, ularga murakkablik qilayotgan, yoshi va psixologik xususiyatlariga mos bo'lmagan materiallar berilmasligi lozim; topshiriqlarning berilishi bilan o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda bir xillikka erishish, dasturda berilayotgan bilimlar bo'yicha tizimlashtirish asoslarini aks ettirish kerak; o'quvchilarga beriladigan asosiy bilimlar hajmiga aniqlik kiritib, unga ajratilgan umumiy soatlar ularni zo'riqtirmasligi, yoshiga mos holda materialni qabul qilish nuqtai nazaridan qayta taqsimlanishi ma'qul; bilimlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda shakllantiriladigan asosiy tushuncha, ko'nikmalar dasturda o'z ifodasini topishi, bunda ularga nisbatan talablar, ularni shakllantirish davomiyligi, metodlarning asta-sekin oshib boradigan murakkabligi hisobga olinishi, ayniqsa asosiy tushunchalar hozirgi davr talablari asosida qayta ishlanib o'rganishga keng o'rin berilishi muhim.

Shuningdek, endilikda yangilangan ta'lim mazmuniga monand bilish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha o'qitish metod va texnologiyalarini takomillashtirish, mashg'ulot jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, har bir yosh guruhi uchun o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirishga qo'yiladigan minimal talablar, namunaviy nazorat materiallari, mazkur muammolar yuzasidan boshlang'ich ta'limni metodik tavsiya va qo'llanmalar, didaktik materiallar bilan ta'minlash dolzarb vazifa ekanligiga e'tibor qaratish lozim.

O'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda yuqorida keltirilgan shartlarga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga olib keladi.

O'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tanishish: o'quvchilarni topshiriqlar mazmuni bilan tanishtirish, uni bajarish bo'yicha yo'riqnoma berish, o'quvchilar guruhini shakllantirish; tasavvur qilish: o'quvchining bilish haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantirish; egallash: bilimlarni egallash hamda mustahkamlash jarayonini amalga oshirish; takomillashti-rish: o'quvchilarning bilish kompetensiyalarini shakllantirishni amalga oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish; yakuniy: o'quvchilarni mustakil ish bajarishga tayyorlash va bilimlarini shakllantirishni amalga oshirish. Bu bosqichlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi oshishiga imkoni beradi.

Dars jarayonida o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiyalaridan biri o'quvchilarni o'z faniga qiziqitira olishdir. Olimlar ta'kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqish va motivlar o'quvchilar o'quv faoliyatining shakllanish darajasiga qarab shaxsning shakllantiruvchi (o'quvchining nazariy fikri, o'qish faoliyatini o'quvchi shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o'zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo'ladi. Savol tug'iladi: O'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Buning uchun o'qituvchi darsda nima qilishi kerak? O'quv faoliyatini faollashtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

O'quvchilarni bilishga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o'quvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni ochishga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi. O'quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil metodda axborot berish va bir xil metoddagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi. Fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda fanlarni o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini o'quvchilarga anglatish lozim.

O'tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko'proq bog'lab tushuntirilsa, u o'quvchilarga shunchalik qiziqarliroq bo'ladi. O'quv materialini o'quvchilarni qiziqitiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham, ularni darsga qiziqitirishda muhim rol o'ynaydi. O'quv materiali bir oz qiyinroq, lekin o'quvchilar kuchi etadigan bo'lishi kerak. O'quvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'qituvchining zavqlanib gapirishi ham o'quvchiga, uni fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning

o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ularning mustaqil bilishlariga, bilish faolligining o'sishiga, o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ta'limga yordam beruvchi faoliyat (o'quv-boshqaruv, o'quv-axborot, o'quv-mantiqiy) metodlarini o'zlashtirishga imkon beradi. Shu munosabat bilan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini jiddiy shakllantirishni ta'minlovchi, amaliy natijalarni beruvchi metodika va metodlarni tashkil etish muhim. Bulardan kelib chiqib, o'rganilayotgan muammolarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab o'tish mumkin: boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida faoliyatning barcha turlari – bilish doiralarning takomillashishiga ta'sir ko'rsatadi, o'z echimlariga nisbatan mustaqillik va tashabbuskorlik yuzaga keladi, o'qishga, o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchisi keyinchalik o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga fundament bo'luvchi tarkibiy fikrlash operatsiyalarini o'zlashtiradi.

Adabiyotlar

1. Сидорова Е.А. Формирование учебно-познавательной компетенции у младших школьников [Текст] // Педагогическое мастерство: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Москва, ноябрь 2014 г.). — М.: Буки-Веди, 2014. — С. 17-19.
2. Лукьянова М.И. статья «Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика – 2001 – 10 – с.56.
3. Хуторской, А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций // Интернет-журнал Эйдос. - 2005. - 12 декабря. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/-2005/1212.htm>, свободный.
4. Воровщиков, С.Г. Внутришкольная система учебно-методического сопровождения развития учебно-познавательной компетентности учащихся [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2011/0627-10.htm>,
5. Байденко, В.И. Болонский процесс: проблемы, опыт, решения [Текст] / В.И. Байденко. – М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006.- 128 с.
6. Эриксон Э.Г. Детство и общество. /Э.Г.Эриксон - СПб.: Речь, 2000. - 416с.
7. Матюхина М.В. Мотивация учения младших школьников. /М.В.Матюхина. – М., 1984. – 200 с.

UDK. 339.331.378

OLIY TA'LIM TIZIMIDA MALAKALI KADRLARNI YETISHTIRIB BERISHGA BO'LGAN INNOVATSION YONDASHUVLAR

F.E. Jomonqulova, M.A. Esanov

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
fazilat_72@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni kelajakda malakali kadr bo'lib yetishib chiqishida ularda axborot imunitetini shakllantirishning zamonaviy usullaridan foydalanib, dunyo miqyosidagi o'qitish tizimidan yuqori o'rinlarga olib chiqish ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, bilim, qobiliyat, ko'nikma, o'qitish, aniqlash, tizim, DTS, ilmiy dastur, munozara, seminar, test.

Инновационные подходы к подготовке специалистов в сфере высшего образования

Аннотация. В этой статье подчеркивается важность того, чтобы молодые люди выходили на передний план образования мирового уровня, используя современные методы формирования информационного иммунитета в своей будущей карьере.

Ключевые слова: образование, воспитание, знания, умения, навыки, обучение, определение, система, DTS, научная программа, дискуссия, семинар, тест.

Innovative Approaches to Training Specialists in Higher Education

Abstract. This article highlights the importance of bringing young people to the forefront of world-class education using modern methods of information immunity formation in their future career.

Keywords: education, upbringing, knowledge, skills, abilities, training, definition, system, DTS, scientific program, discussion, seminar, test.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar o'quv mashg'ulotlarini yuqori saviyada tashkil etishga xizmat qilmoqda. Shuni aytib o'tmoqchimanki, hozirda o'quvchi-talabalarining bilimini nazorat qilishda ushbu yangi innovatsion texnologiyalari va tizimlaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Shunga qaramasdan didaktika nazariy va amaliy mashg'ulotlarning tuzilishida quyidagi asosiy bosqichlar mavjudligini ko'rsatadi: o'quv mashg'ulot mavzusini ta'riflash; maqsadini tushuntirish; o'tgan mashg'ulotga uyga berilgan vazifalarni tekshirish; yangi mavzu materialini bayon etish va talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; o'tilgan o'quv materialini takrorlash va uni mashq, amaliy ishlar bilan mustahkamlash; o'rganilgan mavzuni davra suhbatida tarziya takrorlash; talabalar bilimini tekshirish va baholash; mashg'ulotni yakunlash; uyga vazifani berish.

O'quv mashg'ulotining bu bosqichlari har bir nazariy yoki amaliy mashg'ulotda doimo shu tartibda takrorlanmaydi. Chunki, ijodiy izlanuvchan pedagog. ularni o'z tajribasi bilan to'ldirishi, boyitishi va mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalariga ko'ra o'zgartirishi mumkin.

O'quv mashg'ulot jarayonini tahlil qilishda ko'pincha quyidagi kamchiliklar kuzatiladi: tizimsizlik; o'quv mashg'ulotiga tasodifan ishtirok etish; aniq bir maqsadning yo'qligi; tahlil etuvchining mashg'ulotni chuqur tahlil qilishga uslubiy tayyor emasligi; aniq kuzatish dasturining yo'qligi; o'quv mashg'ulotida asosiy tomonlarni ajratib ko'rsata olmasligi; xulosalar chiqara olmasligi; kasbdoshiga malakali tavsiyalar va metodik yordam bera olmaslik.

Ayniqsa, har bir o'quv mashg'ulotiga qatnashishdan oldin aniq maqsadni belgilash zarur. Qo'yilgan maqsad mashg'ulotda qatnashish va uni tahlil qilishni yanada samaraliroq, xulosalarni esa aniqroq qiladi.

Pedagog o'quv mashg'ulotiga tayyorlanish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak: mashg'ulot vaqtini samarali rejalashtirish, foydalanish uchun tanlab olingan manbalarni chuqur o'rganish, guruhdagi talabalarining imkoniyatlarini hisobga olish, mashg'ulotning turiga qarab, uning uslubi va vositalarini to'g'ri tanlash, davlat ta'lim standartlari talablari asosida talabalarining bilim olishini ta'minlash. Pedagogning o'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

1-bosqich. Taqvim-mavzu rejadagi yangi mavzu va unga ajratilgan vaqt aniqlashtirib olinadi.

2-bosqich. DTS va fan dasturidan o'tilayotgan mavzuda qanday tushunchalar (bilim, ko'nikma va malakalar) shakllantirilishi lozimligi aniqlashtirib, shu asosida mashg'ulot maqsadi belgilab olinadi.

3-bosqich. Mavzu asosida mashg'ulotda foydalaniladigan texnik vositalar, ko'rgazmali va didaktik materiallar, adabiyotlar o'rganib chiqiladi hamda mashg'ulot ishlanmasi yoziladi. O'quv mashg'ulotiga qo'yilgan maqsad 80 daqiqa davomida bajariladigan, aniq, hayotiy va mashg'ulot yakunida baholanadigan bo'lishi lozim.

Ta'limiy maqsad - o'quv mashg'uloti jarayonida talabalarda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar; tarbiyaviy maqsad - mashg'ulot jarayonida talabalarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi; rivojlantiruvchi maqsad - mashg'ulot natijasida talabalarda qaysi bilimlar va axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi asosida belgilanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda malakali kadrlarga bo'lgan talab yanada ko'payib bormoqda, biroq aksiga olib yurtimizda malakali kadrlarning saviyasi, bilimi, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari juda ham past desak mubolag'a bo'lmaydi. Kadrlarni yetishtirish jarayonidagi bu xato va kamchiliklarni o'rganib chiqib, xatolarimizdan tegishli xulosalar chiqarib, kamchiliklarimizni to'ldirgan holda yetuk va malakali xodimlar tayyorlab, vatanimizni rivojlangan mamlakatlar safiga qo'shilishiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Shu o'rinda kadrlarimizning malakasini oshirish uchun qanday o'zgartirishlar kiritilishi kerak? – degan savol tug'iladi.

Dastlab, o'rta ta'limdan oliy ta'limga o'tishdagi, ya'ni DTM testlarini shaffof va haqqoniy bo'lib o'tishini ta'minlash va o'quvchi yoshlarning fikrlash doirasini, fanlardan qanchalik darajada bilimga ega ekanligini, o'zimizning milliy tilimiz bo'lmish ona tilimizda savodxonligi qay darajada ekanligini tekshirish, hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi ballar tizimida bo'lishini ta'minlash kerak.

Oliy o'quv yurtiga qabul qilingandan so'ng, bo'lajak kadrlarga quyidagicha imkoniyatlar yaratilish lozim deb o'ylayman:

- avvalambor ikkinchi mutaxassislik tilini tanlashi;

- birinchi va ikkinchi bosqichda darslar o'zbek tilida olib borilib, o'quvchilarning tillarni yaxshi o'zlashtirishini ta'minlash;
- uchinchi bosqichda o'zlari tanlagan birinchi mutaxassislik tillarida darslar olib borilishini ta'minlash;
- to'rtinchi bosqichda esa o'zlari tanlagan ikkinchi mutaxassislik tillarida darslar olib borilishini ta'minlash;
- xorijiy davlatlarga chiqish, ya'ni grantlar sonini oshirish va boshqa rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilayotgan o'zgarishlarni ko'rib, o'rganib kelib mamlakatimizni ham shu mamlakatlar safiga qo'shish.

Shu o'rinda:

- professor-o'qituvchilarning bilim saviyasini, xorijiy tillarni va AKT(Axborot-kommunikatsion texnologiya) larini bilish darajasini tekshirib borish;
 - o'qituvchilarning mutaxassislik fanidan tashqari bo'lgan yondosh fanlardan bilish darajasini tekshirish;
 - xorijiy til o'qituvchilarining mutaxassislik fanidan bilish darajasi;
 - mutaxassisligi bo'lmagan o'qituvchilarning xorijiy tillardan bilish darajasi (Ingiliz tilidan ILETS 5.5-6 ball va boshqa xorijiy tillarga ham joriy etish);
 - AKT(Axborot-kommunikatsion texnologiya)lar ya'ni komp'yuter savodxonligini tekshirish.
- Oliy ta'limda har bir auditoriyalarda:
- ikkitadan to'rttagacha (ma'ruzaxonada) kuzatuv kameralari bo'lishi;
 - kuzatuv kameralarni kuzatuvchi mas'ul xodimlar jamoasini shakllantirish;
 - har bir xonada bittadan kompyuter bo'lishi va elektron jurnallarni shakllantirish;
 - professor-o'qituvchilarning talabalar bilan ishlash jarayonida psixologik salohiyatini hamda pedagogik mahoratini birinchi o'ringa qo'yish.

Mutaxassis tayyorlash zahiralarga yangi innovatsion texnologiyalari va tizimlarini tatbiq etish natijasida yangi tizim mutaxasisi yoki mutaxassisning yangi shaklini hosil qilinadi, sifati esa o'zgaradi. Yetkazib berilgan mutaxasis va bu mutaxassisni yetkazib berish esa pedagogik mahorat xizmati deyiladi [5].

Pedagogik mahorat xizmati - foydalanuvchiga mutaxasis mahsulotini taqdim etish yoki qabul qilishdir [6].

Mutaxassis tayorlashning foydaliligi nuqtai nazaridan sifat xususiyatlari:

- **To'liqlik.** Mutaxassis tayorlashning to'laqonligi inson faoliyatining u yoki bu tomonlarining miqdoriy va sifat parametrlarini aniq belgilash hamda mos qarorlarni ishlab chiqarishda ifodalaniladi.
- **Ishonchlilik** qabul qilinadigan qarorlar samaradorligi saqlanadigan etib kelgan va natijaviy mutaxassisda muayyan darajada buzilishlarga yo'l qo'yadi.
- Mutaxasis tayorlashni qabul qilishning **bemalolli**gi vaqt birligida ma'lumotlarni qabul qilish tezligi bilan belgiladi.
- Ma'lumotlarning **dolzarbliligi** muayyan vaqt mobaynida aniq vazifani amalga oshirish uchun yaroqliligini ifodalaydi.
- **O'z vaqtidaligi** mutaxassisga qulay yoki belgilangan vaqtda yangi texnologiyaning kelib tushishini anglatadi. Bu talabni buzish bo'lajak kadrlarni qadrsizlantiradi.
- **Aniqlilik** uning to'g'riligini, ta'minot darajasini anglatadi.
- **Tezkorlik** vaqt o'tgach mutaxasis tayorlashning eskirishi va dolzarbliligini yo'qotishini aks ettiradi.

Oliy o'quv yurtlarida:

- o'quvchi yoshlar bilan ishlash jamoasi va psixologlarni shakllantirish, kelajakda to'g'ri yo'lni tanlay olishga imkon yaratish;
- Yoshlar ittifoqi va shunga o'xshash bir qancha tashkilotlarni ko'paytirish ishlarini olib borishni ko'rib chiqish;
- biznes treninglar, xorijiy o'qituvchilar va investorlar bilan bo'ladigan konferensiyalarni tashkil etish;
- o'quvchi yoshlarni bandlikga jalb etadigan mashg'ulotlarni tashkil etish (zakovat, aqliy hujumlar, keys-trening va shunga o'xshash mashg'ulotlar).

Yuqorida aytilgan fikrlar va takliflardan shularni xulosa qilamizki, ba'zi rivojlangan mamlakatlar XX asrning o'rtalaridayoq amalga oshirgan ta'lim siyosati bugungi kunda o'z

dolzarbligini ko'rsatmoqda. Oliy ta'limda urchib ketgan korrupsiya balosi ko'plab yetishtirib chiqargan kadrlarimiz korrupsiya o'chog'ida o'tin bo'lishiga olib keldi. Ta'lim siyosatini to'g'ri olib borish, vazirliklar faoliyatini barqarorlashtirish hamda joylarda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim tizimida yuz berayotgan bugungi kundagi tub o'zgarishlar, albatta, tahsinga sazovordir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29-avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi 463-I-son qonuni.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
3. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -Toshkent, 1999.
4. Xodiev B.Yu. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. -T.: TDIU, 2006.
5. Ishmuhamedov R. Abdulkodirov A. Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.

UDK: 33:004

BO'LAJAK IQTISODCHILARNI ELEKTRON AXBOROT MUHITIDA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

J.E.Rustamov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya. Maqola iqtisodchi kadrlarni elektron axborot muhitida ko'nikma malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirish texnologiyalar masalalari bayon qilingan. Shuningdek, masofaviy ta'lim shakllari, masofaviy ta'lim olish metodlari va bu metodlarning ahamiyati haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim olish shakllari, ma'ruza, konsultatsiyalar, laboratoriya ishlari, namoyish tajribalar, nazorat ishlari, mustaqil ish, vebinar, masofaviy ta'lim olish metodlari, xulosa, axborot-reseptiv metodi, reproduktiv metod.

Развитие знаний будущих экономистов в электронной информационной среде

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы содержания повышения квалификации экономистов в электронной информационной среде и совершенствование требований к качеству на основе современных подходов, периодически во время профессиональной деятельности и вопросы совершенствования методологии непрерывного обучения. Также формы дистанционного обучения, методы дистанционного обучения и важность этих методов

Ключевые слова: формы дистанционного обучения, лекции, консультации, лабораторные работы, показательные эксперименты, наблюдение, самостоятельная работа, вебинары, методы дистанционного обучения, резюме, информационно-рецептивный метод, репродуктивный метод.

The development of knowledge of future economists in the electronic information environment

Abstract. The article addresses the issues the content of advanced training of economists in the electronic information environment and improvement of quality requirements based on modern approaches, periodically during professional activities and issues of improving the methodology of lifelong learning. In addition, forms of distance learning, distance learning methods and the importance of these methods.

Keywords: forms of distance learning, lectures, consultations, laboratory work, exhibition experiments, observation, independent work, webinars, distance learning methods, abstracts, information gathering method, reproductive method.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining eng asosiy xususiyatlari – bu uning yaxlitligi, tizimliliği, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik deganda tarbiyalash va o'qitish jarayonlari, shuningdek shaxsni rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasa-da, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar ustunlik qiladi. O'qitish asosan aql-idrokka ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalash birinchi navbatda shaxsning iste'mol sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq atvoriga ta'sir ko'rsatadi va uning rivojlanishiga olib keladi. Bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilm-fan ularni tarbiya nazariyasi va didaktikada alohida ko'rib chiqadi. Bunda zamonaviy shart-sharoitlarda uslubiy tamoyil va ayniqsa dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonini tizimli ravishda rivojlantirish jarayonning tuzilmasini, shuningdek ular o'rtasidagi aloqalarni ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. Bu har birining o'ziga xos xususiyati, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishga yordam beradi. Masalan, o'qitishning maqsadi uning mazmunini belgilab beradi, o'zlashtirganlik darajasi esa o'qitish usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi va h.k. [1].

Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Moslashuvchan kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida, o'quv materiallarini yaratishning turli:

- kompyuter o'rgatuvchi tizimlarini yaratish;
- amaliy o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini shakllantirish;
- o'qitishning turli usullari va vositalari orqali kasbiy ta'lim jarayonini shakllantirish

bosqichlarida moslanuvchanlik tamoyilining bo'lishini talab etadi. Bunday tamoyil asosida tayyorlangan o'quv resurslari talabning bilim darajasi, malakasi, psixologik xususiyatlari, guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim berishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Kasbiy ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish – pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini tashkil etish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu jarayon zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni hamda talabning intellektual salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Asosiy qism

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi vazifalarga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra, talabalarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirayotib, aniq bir mavzu bo'yicha darsning rivojlantiruvchi salohiyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq [1]. Talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarini aniqlash, takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda talabalar uchun faol ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchi esa, bu maqsad talabalarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Talabalar o'qishini nazorat qilishning boshqa bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bog'liq bo'lib, ularda o'qishga javobgarlik, intizom, saranjomlik va soflik his-tuyg'ularini tarbiya qiladi. Ularda mehnatga layoqatlilikni, g'urur va irodani hamda mehnatga nisbatan muntazam ko'nikmani shakllantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining kasbiy ta'lim tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ayrim tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois kasbiy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda kompleks yondashuvni amalga oshirish boshlandi. Ta'lim va tarbiya ishlar jarayoni murakkab jarayon bo'lib, unda ta'lim muassasasining jamoasi, murabbiy va

talabalarining o'zaro munosabatidagi yaxlitlik ta'minlanadi. Endilikda ushbu jarayon elektron formatdagi o'quv resurslari – rasmiy veb-saytlar, elektron formatdagi adabiyotlar, audio va video materiallar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu vaziyatda kasbiy ta'lim jarayonlari ko'proq talabani ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda.

Elektron formatdagi o'quv resurslarining afzalliklari qatoriga axborotlarning jamlanganligi, ko'rgazmaliligi, ya'ni turli xil taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanganligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish jihatlari kiritish mumkin. Bu resurslar talabada ijodiy fikrlashni, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish orqali resurslarni har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishda asosiy vazifalar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- yangi axborot texnologiyalarini kasbiy ta'lim jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnika bazasini yaratish;
- kasbiy ta'lim jarayoni uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini loyihalash va qo'llash;
- foydalanuvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- zamonaviy texnologiyalar negizida kasbiy ta'lim jarayonlaridagi samaradorlikni kafolatlash.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1-jadval

No	Bosqichlar mazmuni	Kutiladigan natija
1.	Kasbiy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holatini tahlil qilish va baholash	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holati haqidagi dastlabki xulosalar olinadi
2.	Kasbiy ta'lim moddiy-texnik bazasini takomillashtirish yo'llarini belgilash	Kasbiy ta'lim jarayonlarining moddiy-texnik bazasi takomillashtiriladi
3.	Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etish va vazifalarini belgilash	Resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar shakllantiriladi, vazifalar belgilab beriladi
4.	Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish va foydalanish uchun tayyorlash	Kasbiy ta'limga oid elektron resurslar yaratiladi
5.	Elektron resurslardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish	Elektron resurslardan foydalanish mexanizmi ishlab chiqiladi
6.	Kasbiy ta'limga oid elektron resurslardan foydalanish samaradorligi monitoringini tashkil etish	Kasbiy ta'limga oid elektron resurslardan foydalanish monitoringi tizimi yaratiladi

1-jadvalda bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda samarali foydalaniladi;
- bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning zamonaviy vositalari - elektron resurslarni joriy etish tizimlari yaratiladi.

Kasbiy ta'lim bo'yicha elektron resurslarni yaratishdagi didaktik tamoyillarga tayaniladi: ta'lim jarayonining kasbiy yo'nalganligi; texnologik dunyoqarashni shakllantirish; ilmiylik; tushunarlilik va qiziqarlilik; amaliyot bilan bog'langanlik; talabalarining shaxsiy xususiyatlarini

hisobga olish; kasbiy ta'limning uzviyligi va uzluksizligi; aniq va abstrakt tushuncha va faktlarning birligi; bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish; ko'rgazmalilik.

Ishlab chiqilgan elektron resurslarni kasbiy ta'lim jarayoniga qo'llashdan oldin mutaxassislar guruhi uni o'rganadi. Bizning fikrimizcha, yaratilgan elektron resurslarning ilmiylik va taqdimot sifatini baholashda quyidagi holatlarga tayangan tizimni taklif etish mumkin:

- kasbiy ta'lim maqsadiga mosligi;
- o'quv faoliyati bayoni;
- axborotlarni taqdim etish darajasi;
- manba tuzilishi;
- ko'rinishi va dizayni;
- qo'shimcha illyustratsiya.

Elektron resurslar muayyan yo'nalishda bilimlar berishdan tashqari talabalarda kasbiy fanlarga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak [4].

Elektron resurslar kasbiy ta'limning kundalik turmush va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonda, tabiat va jamiyatning ilmiy muammolarini tushunishda talabalarga ko'maklashishi, ularni rivojlantirishi lozim. Shuningdek, talabalarda o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishni davom ettirish imkoniyatlarini yaratishga yordam berishi kerak [3].

Ta'lim-tarbiya elektron resurslarining yaratilish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya elektron resurslarini yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish.
2. Loyihalashtirish.
3. Taqdim etish shakllari va axborot bloklarining dizayni (interfeys).
4. Ta'lim-tarbiyaviy resurslarni joylashtirishga tayyorlash.
5. Tayyorlangan resurslarning tuzilmali elementlarini to'ldirish.
6. Yaratilgan ta'lim-tarbiya elektron resurslarini tajribada sinash.
7. Elektron resurslarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Kasbiy ta'lim elektron resurslarini yaratishda quyidagi talablar e'tiborga olinadi:

- resurslarning to'liqligi, uzviyligi va kasbiy ta'lim mazmuniga mosligi;
- kasbiy ta'lim o'quv jarayonini individuallashtirish darajasi (yakallashtirish);
- kasbiy ta'limning uzviyligi va izchilligini hisobga olish zarurligi;
- resurslarda zarur bo'lgan axborotlarning taqdim etilishi shakllari;
- resurslarni tez moslashuvchan va yangilab borish imkoniyatlari;
- asosiy bloklar va ular orasidagi o'zaro aloqa usullarining tarkibi.

Tatbiq jarayoni pedagogik va dasturiy darajalarda amalga oshiriladi. Pedagogik tatbiq darajasi resurslar va ulardan foydalanish harakat algoritmini o'z ichiga oladi.

Dasturiy tatbiq darajasi bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining har bir bosqichida resurslardan ommaviy foydalanish darajasini aniqlab beradi. Dasturiy tatbiq darajasida resurslar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- jarayonda qatnashuvchilarning barchasiga tushunarli bo'lishi;
- kasbiy ta'limning istalgan bosqichida tizimning har bir qadamini yetarlicha aniq yoritishni ta'minlashi;
- kasbiy ta'lim jarayonining har qanday bosqichida, hatto eng murakkab bo'g'inida ham adekvat ta'sirga ega bo'lishi;
- o'quv jarayonining barcha bosqichlarida psixologik-pedagogik o'ziga xoslikni hisobga olish;
- boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqa imkonini ta'minlash.

Elektron resurslarini tizimlashtirish - mazmun, uslub, tashkiliy, shakl va axborot texnologiyalari vositalarining tahliliga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning samaradorligiga quyida keltirilgan shartlar bajarilgandagina erishish mumkin:

- o'quv jarayonini axborotlashtirishning o'zi kasbiy ta'lim maqsadini o'rnatishdan tortib, yakunlash natijasigacha bo'lgan bosqichlarni loyihalashtirish tizimi sifatida namoyon bo'lsa;

- kasbiy ta'lim jarayonining axborotlashtirilishi uning barcha tashkil etuvchilariga yo'naltirilgan bo'lsa;

- elektron resurslardan foydalanish kasbiy ta'lim mazmuniga qo'yilgan talabga hamda talabaning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lsa.

O'quv jarayonida individual yondashuvni tatbiq qilish ta'limning rivojlanuvchi modelini o'z ichiga olishi kerak:

- mantiqiy va tizimli fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish: ijodiy fikrlovchi qarama-qarshiliklarni ko'ra olishga layoqatli, shuningdek, mustaqil ravishda muammolarni qo'ya oluvchi va hal qila oluvchi mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlashi;

- tizimli qaytar aloqani ta'minlash: qaytar aloqa pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilishi kerak, ya'ni u nafaqat yo'l qo'yilgan xatoliklar haqida, balki ularni bartaraf etish borasidagi axborotlarni ham o'z ichiga qamrab olishi;

- rivojlangan yordam tizimining mavjudligi: yordam tizimi ko'p darajali, pedagogik nuqtai nazardan asoslangan, masalaning ifodalari va uni yechish usulining o'zlashtirilishi uchun yetarli bo'lishi;

- ta'limiy resurslarning to'liqligi: axborotlar bazasi, vazifalar bankini ko'p darajali tashkil etishning mavjudligiga oid qo'yilgan talablarga rioya qilish;

- intellektual yadroning mavjudligi: dasturiy vositalar bunday yadroning ekspert tizimlari va sun'iy intellekt vositalarini qurishda berilganlarni qayta ishlash usullarini tatbiq qilish hisobiga ta'minlash;

- pedagogik moslashuvchanlik: resurslar foydalanuvchiga faoliyat strategiyalarini ixtiyoriy tanlash, axborotlarning uzatilish tezligiga mos faoliyatni tashkil etish hamda mustaqil qaror qabul qilishga imkon berishi kerak. Avval o'zlashtirilgan resurslarga kirish, ulardan ixtiyoriy vaqtda chiqish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi;

- ikki tomonlama muloqotni ta'minlash: foydalanuvchi savol bera olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, bunda boshqarish nafaqat kompyuter tomonidan, balki o'rganuvchi tomonidan ham amalga oshirilishi;

- orqaga qaytish imkoniyati: mustaqil ishlash davomida foydalanuvchi yo'l qo'ygan xato harakatlarini ortga qaytarish hollari ko'rib chiqilgan bo'lishi;

- foydalanuvchining refleksiya uchun maxsus ajratilgan joyning mavjudligi: dastur o'rgatilayotgan harakatlarni ketma-ket to'g'rilash maqsadida refleksiyaning natijalarini to'plashi;

- o'quv faoliyatining borishini va uning natijalarini hujjatlashtirish imkoniyati: dasturni tuzuvchi dasturga zaruriy axborotni to'plashi va qayta ishlashiga mo'ljallangan modullarga ega bo'lishi;

- tushunarli, qulay interfeysning mavjudligi: dastur axborotni matn, grafika, animatsiya, gipermatn, multimedia ko'rinishida namoyon qilishning barcha usullaridan adekvat foydalanilgan holda tuzilgan bo'lishi kerak. Foydalanuvchi axborot materialini har ikki tomonlama, "oldinga", "orqaga" tarzda varaqlash imkoniga ega bo'lishi kerak. Foydalanuvchi shriftning o'lchami va tipini o'rnatish, shuningdek, ixtiyoriy fragmentni istalgan marotaba qaytarish imkoniga ega bo'lishi;

- dasturning statistik (matnli, grafik, illyustrativ) qismlarining aniq nusxasini olish imkoniyatini ta'minlash: tanlangan axborotni shaxsiy elektron konspektga nusxalash, uni tahrirlash va dasturiy mahsulotdan chiqmagan holda chop etish imkoniyati.

Keyingi bosqichlarda kasbiy ta'lim elektron resurslarini bezash usullari ishlab chiqiladi. Bu jarayon WEB - dizayn bo'yicha mutaxassislar, dasturiy ta'minotni qayta ishlovchilar, shuningdek psixologlarning takliflari asosida amalga oshiriladi.

Kasbiy ta'lim resurslarni joylashtirishga tayyorlash jarayoni qat'iy texnik talablarga mos bo'lishi zarur. Buning uchun avvaldan multimedia fayllarining o'lchami va shakllari bo'yicha ma'lum imkoniyatlar yaratilishi kerak:

- rasmi va tasvirli fayllarning tipi va kompressiyaning imkoniyati;
- ovoqli fayllarning tipi, kompressiyaning imkoniyati;
- video fayllarning tipi, kompressiyaning imkoniyati;
- animatsiyalarni yaratish;
- ko'rish uchun dasturiy ta'minot yaratish.

Materiallar standart dasturiy va apparatli ta'minotga, xususan, 600*800 pikseli ekranda ko'rishga moslashgan bo'lishi kerak.

Pedagogik tajriba va sinovdan o'tkazishda foydalanuvchining ixtiyoriy holatdagi resurslarga har bir murojaati, aloqasi va reaksiyasining to'g'riligini tekshirish, resurslarni tahrirlash uchun mos malaka va tajribaga ega bo'lgan mutaxassis jalb etiladi, resurslar haqida xulosa chiqarishga pedagoglar, foydalanuvchilar, ekspertlarni jalb qilish tavsiya etiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari yordamida turli shakldagi kasbiy ta'lim bo'yichaelektron resurslar yaratishning keng imkoniyatlari mavjud. Bunda Power Point, Macromedia DreamWeaver, Microsoft FrontPage, HTML muharrirlari va Microsoft Word, Adobe Photoshop, CorelDraw, Acrobat Reader, Director, Macromedia Flash kabi dasturiy vositalarning imkoniyatlari juda katta hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarni amaliyotga joriy qilish kasbiy ta'lim bo'yichaelektron resurslar majmuasini shakllanganlik darajasiga ko'ra uni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkoniyatini beradi. Tadqiqot ishlarimiz natijasida kasbiy ta'limga oid elektron resurslar majmuasini shakllantirish va amaliyotga joriy etishning quyidagi bosqichlari taklif etildi:

- elektron resurslar majmuasini shakllantirishni birinchi bosqichida matnli, audio, video, animatsiyali axborotlarning elektron versiyalari ishlab chiqiladi;
- ikkinchi bosqichda yaratilgan majmua resurslarini joylashtirish uchun dasturiy platforma ishlab chiqiladi;
- uchinchi bosqichda elektron resurslar majmuasi yaratilib, undan foydalanishning masofali yoki aralash-an'anaviy va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanadi.

Xulosa. Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ilmiy tadqiqot ishlarni va nazariy qoidalarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

- loyihalashtirish hozirgi zamon ijtimoiy va pedagogik adabiyotlarda keng qo'llaniladigan va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning hozirgi holatini aks ettiruvchi atama;
- pedagogik loyihalashtirish pedagogika va tadqiqotchilarning pedagogik amaliyotida hozirgi zamon masalalarini yechishga imkon beruvchi modellarni yaratish, asoslash va taqdim etishga yo'naltirilgan amaliy faoliyati;
- pedagogik loyihalashtirishni pedagogik jarayondagi turli muammolarni yechishga yo'naltirilgan faoliyatning tuzilmaviy va protsessual harakteristikasi sifatida qarash mumkin;
- pedagogik loyihalashtirish ta'lim tizimi faoliyati va rivojlanishini boshqarish mexanizmlaridan biri;
- turli darajadagi va harakterdagi ta'lim tizimlari, ularning tuzilmaviy komponentlari pedagogik loyihalashtirishning ob'ektlari bo'lishi mumkin;
- pedagogik loyihalashtirish - mahsuldor faoliyat, uning mahsuli loyiha va uni joriy etish dasturi, shuningdek loyihani joriy etishdagi ta'lim natijasi;
- pedagogik loyihalashtirish uning sub'ektlarining individual va jamoaviy ilmiy va amaliy tajribasi, ularning projektiv va ijodiy-ta'limiy faoliyati bilan o'zaro bog'liq va shuning uchun uning ishtirokchilar mazkur tajribani o'zlashtirishlari muhim hisoblanadi;
- ta'limiy tadqiqotlar jarayonida va ta'lim amaliyotida pedagogik loyihalashtirish funksiyalarning kengligi va xilma-xilligi nazarda tutilsa, bunga har-xil kasbiy toifadagi pedagoglarni o'rgatish zarur bo'ladi.

Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning ob'ektiv murakkabligi, loyihalash jarayonida o'qituvchining metodik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus ishlab chiqiladigan dasturda hisobga olinishi lozim. Amaliyot ko'rsatdiki, elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish qator omillarga bog'liq. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi, elektron ta'lim resurslari, texnologik yondashuvlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140 - son qarori. www.lex.uz

2. Xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablari ("O'zstandart" Davlat agentligida 2013 yil 5 martda O'zDSt 2767:2013 3523-qayd raqami bilan ro'yxatga olingan).– Toshkent, 2012, 250 b.
3. Karimov I.A. Tinchlik va xavsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. - Toshkent: O'zbekiston, 2004. - 400 b.
4. В.А.Адолф Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: дис. пед. наук. М., 1998. 365 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 27.07.2017y. PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda
6. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2006. – 182 b.
7. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368b.
8. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: "Moliya", 2003, – B.192.
9. Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовки преподавателей для профессиональной подготовки учащихся // Сов. Педагогика. – Москва, 1985. – №2. – С.54-57.
10. Авазбоев А. И. Совершенствование подготовки учителей трудового, и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебных предметов. Автореф. канд. пед. наук — Т.: 2001. – 21 с.

UDK: 372.851

МАКТАБ О'QUVCHILARIGA KETMA- KETLIK VA FUNKSIYA LIMITINI O'RGATISHDAGI BA'ZI MISOLLARNI ISHLASHNING INNOVATSION USLUBLARI

M. N. Solayeva, A. J. Seytov

*Chirchiq davlat pedagogika instituti
mehrbon.solayeva@bk.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada funksiya limitlari haqidagi ba'zi teoremlar va ularning tadbirlari ko'rib chiqilgan. Bu teoremlarni maktab o'quvchilariga tushuntirishning qulayliklari tahlil qilingan. Funksiya limitlarida aniqmasliklarni ochish bo'yicha ba'zi mosollar ishlab va maktab o'quvchilariga qulayliklari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: limit tushunchasi, pedagogik-tadqiqotlar, fanlarning uzviyligi, pedagogik amaliyot.

Инновационные способы разработки некоторых примеров последовательности обучения и функциональных ограничений для школьников

Аннотация. В этой статье рассматриваются некоторые теоремы о пределах функций и их приложениях. Проанализирована простота объяснения этих теорем школьникам. Некоторые инструменты были разработаны для устранения неточностей в границах функций и были продемонстрированы для удобства школьников.

Ключевые слова: концепция предела, педагогическое исследование, преемственность дисциплин, педагогическая практика

Innovative ways to work with some examples of teaching sequence and function limits to schoolchildren

Abstract. This article discusses some of the theorems on function limits and their applications. The ease of explaining these theorems to schoolchildren is analyzed. Some tools have been developed to address inaccuracies in function boundaries and have been demonstrated for the convenience of schoolchildren.

Keywords: concept of limit, pedagogical research, continuity of disciplines, pedagogical practice

Kirish: Hozirgi kunda Prezidentning kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan, har bir dars va oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini yuqori saviyada olib borish maqsadida matematika va boshqa fanlardan o'quvchi va o'qituvchilarga juda katta talablar qo'yilmoqda. Bunday deyishimizning oddiy misollaridan bittasi shuki hozirgi maktab matematikasida limitlar mavzusi va oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlariga limitlar va deyarli oliy matematikaning ba'zi misollaridan savollar va testlar uchrayotgani hammaga ma'lum. Shu sababli biz matematikani o'quvchilarga juda oddiy va tez o'rgatishning yangi usullarini ishlab chiqishimiz lozim. Ushbu maqolada limitlar ya'ni funksiya limitlari tushunchasini maktab o'quvchilariga sodda holda tushuntirib berishni ko'rib chiqamiz. Bundan oldin, albatta, ketma-ketlik limitlari tushunchasini kiritishimiz lozim, chunki ketma-ketlik nimaligini va ketma-ketlik limiti nimaligini bilmay turib funksiya limitini bilish, albatta, murakkab masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'rif: Ihtiyoriy $\varepsilon > 0$ yetarlicha kichik son uchun shunday n_0 nomer topilib, $n > n_0$ larda $|x_n - a| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, u holda a soniga ketma-ketlikning limiti deyiladi va $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$ kabi belgilanadi [1].

Bu ta'rifning ma'nosini o'quvchilarga tushuntirishdan oldin ketma-ketlikka to'xtalamiz. Ketma-ketlikning o'zi nimaligini tushuntiramiz. Ketma-ketlik, bu har bir natural songa biror haqiqiy sonni mos qo'yuvchi moslikka sonlar ketma ketligi deyiladi va a_n, b_n, \dots, x_n kabi belgilanadi biz odatda ketma-ketlikni x_n kabi belgilaymiz. Ketma-ketliklarga yana bir oddiy misollardan shuni keltirishimiz mumkinki, biz maktab matematika kursining 9-sinfida o'rganadigan arifmetik va geometrik progressiyalarni misol ta'rifasida keltirish mumkin.

Progressiyalar ketma-ketliklar bo'limining chegaralangan qismlaridan biri sanaladi, ya'ni progressiyalar har bir hadi oldigi hadiga bog'liq yoki ma'lum biror qonunga bo'ysinadi. Ketma-ketliklar esa har bir natural songa biror sonni ma'lum qoidaga binoan mos qo'yilishiga aytiladi.

Masalan: $a_n = 2n + 1$ bu arifmetik progressiya hisoblanadi. $x_n = \frac{1}{n}$ bu esa ketma-ketlikka misoldir. Birinchi ketma-ketlikda, uning har bir hadi oldingi hadiga biror sonni qo'shish orqali hosil bo'lyapti. Ikkinchi misolda esa ketma-ketlik hadlari biror qoidaga bo'ysunmayapti. Shu sababdan progressiyalar ketma-ketlikning bir qismi hisoblanadi.

Endi ketma-ketlik limiti haqida gapiradigan bo'lsak: u holda ketma-ketlik limiti bu ketma-ketlik hadlari soni cheksizlikka intilganda, ketma-ketlikning o'zi qanday songa intiladi? Savoliga ketma-ketlik limiti javob beradi.

Yuqoridagi misollarda progressiyaning, cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya bo'lgan holda cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning barcha hadlari yig'indisi formulasi qanday kelib chiqqanligi ketma-ketlik limitiga bog'liq ekanligini ko'rib chiqamiz.

b_1, b_2, \dots, b_n – cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya berilgan bo'lsin, bu progressiyaning hadlari yig'indisini topamiz. $S_n = \frac{b_1(q^n - 1)}{q - 1}$ bu yerda S_n – progressiyaning yig'indisi, b_1 – progressiyaning birinchi hadi, q – progressiyaning mahraji. Progressiya cheksiz kamayuvchi bo'lgan holda progressiya mahraji birdan kichik bo'ladi. Progressiyaning barcha hadlari yig'indisini topish uchun yig'indi formulasini hadlar sonini cheksizlikka intiltirib limitga o'tamiz. Bundan esa

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{b_1(q^n - 1)}{q - 1} = \frac{b_1(-1)}{q - 1} = \frac{b_1}{1 - q}$$
 ekanligi kelib chiqadi. Shu sababdan biz maktab matematika

kursining 9-sinfida cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig'indisi $S = \frac{b_1}{1 - q}$ deb o'rgatamiz, bu esa ketma-ketlik limitidan kelib chiqqan. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday misollardan keyin o'quvchida ketma-ketlik va uning limiti to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi. Shundan so'ng, funksiya va uning limiti hususida to'xtalish mumkin.

Ta'rif: Ihtiyoriy $\forall \varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta(\varepsilon)$ son topilib, argument x ning $|x - a| < \delta(\varepsilon)$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi a dan farqli barcha qiymatlarida $f(x)$ funksiya $|f(x) - A| < \varepsilon$ tengsizlikni qanoatlantirsa, u holda x argument a ra intilganda $f(x)$ funksiya A ga teng limitga ega deyiladi [1].

Aslida funksiya limiti ikki xil ta'riflanadi. Ya'ni atroflar bo'yicha ta'rifi va ketma-ketlik tilidagi ta'rifi. Bu ikki ta'rifdan atroflar tilidagi ta'rif maktab o'quvchisiga ancha tushunarli va o'zlashtirishga oson hisoblanadi, shuning uchun limit ta'rifi sifatida atroflar tilidagi ta'rifini keltirdik. Bu ta'rifning ma'nosini o'quvchiga shunday tushuntirish maqsadga muvofiq.

a nuqtaning shunday kichik atrofi topilishi kerakki, funksiya argumentining shu atrofga tegishli a nuqtadan farqli barcha qiymatlarida funksiya $f(x)$ yagona A nuqtaga intilsa, u holda argument x , a ga intilganda $f(x)$ funksiya A ga intiladi deyiladi va $\lim_{x \rightarrow a} f(x) = A$ kabi belgilanadi.

Misollar:

1. $\lim_{x \rightarrow 3} (x^3 + x - 5) = 25$ ekanligini limit ta'rifi yordamida isbotlang. $\forall \varepsilon > 0$ son uchun $\exists \delta(\varepsilon)$ son topilib, $|x - 3| < \delta$ tengsizlik bajarilganda, $|x^3 + x - 30| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilishi kerak.

$$\begin{aligned} |x^3 - 27 + x - 3| &= |(x-3)(x^2 + 3x + 9) + (x-3)| = |(x-3)(x^2 + 3x + 10)| = |(x-3)(x^2 - 6x + 9 + 9x + 1)| \\ &= |(x-3)((x-3)^2 + 9(x-3) + 28)| < |\delta^3 + 9\delta^2 + 28\delta| < |\delta^3 + 9\delta^2 + 27\delta + 27| = |(\delta+3)^3| = \varepsilon \Rightarrow \delta+3 = \sqrt[3]{\varepsilon} \Rightarrow \delta = \sqrt[3]{\varepsilon} - 3 \end{aligned}$$

bu esa tenglik to'g'ri ekanligini isbotlaydi.

Limitlar haqida teoremlar

Teorema 1: Agar argument $x \rightarrow a$ da $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar limitga ega bo'lsa, u holda bu funksiyalarning yig'indisi va ayirmasi ham limitga ega bo'lib, bu limit $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar limitlarining yig'indisi va ayirmasiga teng bo'ladi

$$\lim_{x \rightarrow a} (f(x) \pm g(x)) = \lim_{x \rightarrow a} f(x) \pm \lim_{x \rightarrow a} g(x). [2]$$

Teorema 2: Agar argument $x \rightarrow a$ da $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar limitga ega bo'lsa, u holda bu funksiyalarning ko'paytmasi ham limitga ega bo'lib, bu limit $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar limitlarining ko'paytmasiga teng bo'ladi [2].

$$\lim_{x \rightarrow a} f(x) \cdot g(x) = \lim_{x \rightarrow a} f(x) \cdot \lim_{x \rightarrow a} g(x).$$

Teorema 3: Agar argument $x \rightarrow a$ da $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar limitga ega bo'lib, $g(x)$ funksiya limiti noldan farqli bo'lsa $\frac{f(x)}{g(x)}$ nisbatning ham limiti mavjud bo'lib, uning limiti $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar limitlarining nisbatiga teng

$$\lim_{x \rightarrow a} \frac{f(x)}{g(x)} = \frac{\lim_{x \rightarrow a} f(x)}{\lim_{x \rightarrow a} g(x)}. [2]$$

Teoremlardan kelib chiqadigan natijalar:

1. O'zgarmas ko'paytuvchini limit belgisi oldiga chiqarish mumkin [2].

$$\lim_{x \rightarrow a} k \cdot f(x) = k \cdot \lim_{x \rightarrow a} f(x)$$

2. Agar n natural son bo'lsa, u holda

$$\lim_{x \rightarrow a} x^n = a^n, \quad \lim_{x \rightarrow a} \sqrt[n]{x} = \sqrt[n]{a}$$

bo'ladi. [2]

3. Ushbu $P(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + a_2x^{n-2} + \dots + a_n$ ko'phadning $x \rightarrow a$ dagi limiti bu ko'phadning $x = a$ dagi qiymatiga teng, ya'ni $\lim_{x \rightarrow a} P(x) = P(a)$ ga teng [2].

4. Ushbu $R(x) = \frac{P(x)}{Q(x)} = \frac{a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_n}{b_0x^m + b_1x^{m-1} + \dots + b_m}$ kasr ratsional funksiyaning $x \rightarrow a$ dagi limiti, agar a bu funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli bo'lsa, bu funksiyaning $x = a$ dagi qiymatiga teng, ya'ni $\lim_{x \rightarrow a} R(x) = R(a)$ ga teng [2].

Yuqoridagi teorema va natijalarni keltirishdan maqsad, maktab o'quvchilari fikrida argument biror songa intilgandagi limit bu aslida funksiyaning shu nuqtadagi qiymatiga teng degan fikr paydo bo'lib qolishini oldini olishdan iborat. Ma'lumki hozirgi kun maktab o'quvchilarining funksiya limiti aslida funksiyaning shu nuqtadagi qiymatiga teng deb fikr yuritishini bilamiz. Bu esa, ba'zi bir tushunmovchiliklarga olib keladi.

Masalan: $\lim_{x \rightarrow 6} \frac{x-6}{\sqrt{x+3}-3}$ ko'rinib turibdiki, bu limitda argument o'rniga 6 ni qo'yib topsak $\frac{0}{0}$ ko'rinishiga kelamiz [3]. Bu esa aslida aniqmaslik hisoblanadi, lekin ba'zi o'quvchilar limitni 0 ga teng deb javob hosil qilishadi. Shu kabi misollardagi bunday noto'g'ri tushunchalar o'quvchining yuqorida ta'kidlaganimizdek limit argumentning shu nuqtadagi funksiya qiymatiga teng degan fikridan kelib chiqmoqda. Shuning uchun yuqoridagi barcha teorema va natijalarni o'quvchilar bilishlari shart va ohirgi natijada kasr ratsional funksiyalarda argument intilayotgan son funksiya aniqlanish sohasiga tegishli bo'lishi ta'kidlab o'tilgan. $\lim_{x \rightarrow 6} \frac{x-6}{\sqrt{x+3}-3}$ bu misolda esa argument

intilayotgan son funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli emas. Bunday hollarda nima qilish mumkin? Yuqoridagi misolda funksiya mahrajini irrotsionallikdan qutqaramiz

$$\begin{aligned} \lim_{x \rightarrow 6} \frac{x-6}{\sqrt{x+3}-3} &= \\ &= \lim_{x \rightarrow 6} \frac{(x-6)(\sqrt{x+3}+3)}{(\sqrt{x+3}-3)(\sqrt{x+3}+3)} \\ &= \lim_{x \rightarrow 6} \frac{(x-6)(\sqrt{x+3}+3)}{x+3-9} = \lim_{x \rightarrow 6} \frac{(x-6)(\sqrt{x+3}+3)}{x-6} = \lim_{x \rightarrow 6} (\sqrt{x+3}+3) = 6 \end{aligned}$$

ekanligi kelib chiqadi.

Keyingi misollarda esa $\frac{0}{0}, \frac{\infty}{\infty}, \infty - \infty, \infty + \infty$ ko'rinishidagi aniqmasliklarni ko'rib chiqamiz.

Misol: $\lim_{x \rightarrow \infty} x(\sqrt{4x^2-1}-2x)$ [4] limitni hisobdang.

Yechish: yuqoridagi teoremdan foydalanib argument o'rniga cheksizlikni qo'ysak u holda $\infty - \infty$ ko'rinishidagi aniqmaslik hosil bo'ladi. Bu aniqmaslikni yechish uchun maktab matematika kursining 10 sinfida o'tilgan irrotsionallikdan qutqarish ishini qilimiz, ya'ni ifodani qo'shmasiga ko'paytirib bo'lamiz.

$$\begin{aligned} \lim_{x \rightarrow \infty} x(\sqrt{4x^2-1}-2x) &= \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x(\sqrt{4x^2-1}-2x)(\sqrt{4x^2-1}+2x)}{(\sqrt{4x^2-1}+2x)} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x(4x^2-1-4x^2)}{(\sqrt{4x^2-1}+2x)} = \\ &= \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{-x}{(\sqrt{4x^2-1}+2x)} \end{aligned}$$

bundan ko'rinadiki, oxirgi tenglikdan argumentni cheksizlikka intiltirib limit hisoblanganda $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishidagi aniqmaslik hosil bo'ladi. Bu aniqmaslikdan qutqarish uchun quyidagicha qilamiz.

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{-x}{(\sqrt{4x^2-1}+2x)} = -\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x}{x(\sqrt{4-\frac{1}{x^2}}+2)} = -\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{1}{\sqrt{4-\frac{1}{x^2}}+2} = -\frac{1}{4}$$

Funksiya limiti $\infty - \infty$ aniqmaslik bo'lgan holda juda ko'p o'quvchilar doim nolga teng degan fikrga kelib nol yechimini tanlashadi. Bu yechimdan esa $\infty - \infty$ ko'rinishidagi aniqmaslikdan chekli son chiqishi ham mumkin ekanligini ko'rish mumkin.

Misol: $\lim_{x \rightarrow \infty} (\sqrt{x^2-4}-x)$ [4] limitni hisoblang.

Yechish: ushbu limitni hisoblaganda ham $\infty - \infty$ ko'rinishidagi aniqmaslik hosil bo'ladi. Bu aniqmaslikni ochish uchun ham yuqoridagi kabi irrotsionallikdan qutqarish ishini bajaramiz.

$$\lim_{x \rightarrow \infty} (\sqrt{x^2-4}-x) = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{(\sqrt{x^2-4}-x)(\sqrt{x^2-4}+x)}{(\sqrt{x^2-4}+x)} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x^2-4-x^2}{(\sqrt{x^2-4}+x)} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{-4}{(\sqrt{x^2-4}+x)}$$

ohirgi tenglikdan kasr maxrajiga cheksizlikni qo'yib hisoblanganda $\frac{-4}{\infty} = 0$ bo'ladi va limit nolga teng bo'lar ekan.

Endi esa $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishidagi aniqmasliklarni ochishga to'htalsak.

Misol: $\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{3x^5-2x^2}{x^3+3x-x^5}$ [5] limitni hisoblang.

Yechish: yuqoridagi teorema asosan kasr ratsional ko'phadning surat va mahrajiga cheksizlikni qo'yib hisoblasak u holda $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmaslik hosil bo'ladi. Bunday misollarni ishlashda quyidagicha yo'l tutiladi, ya'ni kasrning surat va maxrajidan argumentning eng katta darajasini chiqaramiz.

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{3x^5-2x^2}{x^3+3x-x^5} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x^5(3-\frac{2}{x^3})}{x^5(-1+\frac{3}{x^2}+\frac{3}{x^4})} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{(3-\frac{2}{x^3})}{(-1+\frac{3}{x^2}+\frac{3}{x^4})} = \frac{3}{-1} = -3$$

га тенг бўлади.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, limitlar nazariyasi sonlar ketma ketligi va funksiya hosilasini topishda qo'llaniladi. Shuning uchun ketma ketlik va funksiya limitini topishni, albatta, o'quvchilarga qisman ma'noda o'rgatish kerak. Shu sababdan matematika fanida limitlar tushunchasini pedagogik tadqiqotlar, fanlarning uzviy bog'liqligi hamda pedagogik amaliyot usullari bilan o'rgatish umumiy o'ra ta'lim maktablari yuqori natija beradi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Fixtengols G.M. Matematik analiz asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1970. –B.243.
2. Bogomolov N.V. Matematikadan amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. –B.243.

3. Xurramov Sh.R. Oliy matematika. I jild. –Toshkent: Cho'lpon, 2018.–B. 368.
4. Sh.A.Alimov, O.R.Xolmuhammedov, M.A.Mirzaahmedov. Algebra. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. –B.240.
5. M.A.Mirzaahmedov, Sh.N.Ismailov, A.Q.Amanov. Matematika. 11-sinf uchun darslik. –Toshkent, 2018. –B.192.

UDK: 81.2

NOORGANIK KIMYONI O'QITISHDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

H.T.Omonov¹, I.B.Egamberdiyev²

¹Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

²Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Kimyoni o'qitishda "Anorganik kimyo" kursida tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik asoslari, tarixiylik tomlarini o'rgatish, bilan birgalikda pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritilgan. Olib borilayotgan islohotlar samarasini ya'nada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: noorganik kimyo, tarixiy material, didaktika, rivojlanish.

Дидактические основы использования исторических материалов в преподавании неорганической химии

Аннотация. В статье дана педагогическая технология вместе с историческими принципами формирования и историческое развитие соединений неорганической вселенной в преподавании химии. В процессе осуществляется дальнейшие повышение эффективности проводимых реформ, комплексное развитие государства и общество создало основу для радикальных реформ в области образования.

Ключевые слова: неорганическая химия, исторический материал, дидактика, развития.

Didactic basis for the use of historical materials in the teaching of inorganic chemistry

Abstract. The role of pedagogical technologies in teaching the use of modern inorganic materials in the acquisition of construction materials. The independence of the country is the basis for radical reforms in the field of national education for the purpose of further improving the effectiveness of the reforms, creating conditions for the comprehensive development of the state and society, modernization of the country and liberalization of all spheres of life. created. At present, large-scale reforms are being implemented in the education system of the country.

Keywords: inorganic chemistry, historic material, didactics, development.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli asarida to'g'ri ta'kidlanganidek, O'zbekiston o'zining innovatsion rivojlanish bosqichida ijtimoiy sohaning barcha jabhalarini modernizatsiyalashning hamma zarur sharoitlariga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammosi katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda yuksak qobiliyatli, yuqori malakali va ijodiy faol bo'lgan kadrlarni tayyorlash o'ta muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki mamalakatimiz kelajagi keng dunyoqarashli, bilimdon va ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarga bog'liqligi ko'p martalab e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda ta'lim tizimini qayta qurish va rivojlantirish strategiyasi belgilab olindi. Ana shunday sharoitda uzluksiz ta'limni amalga oshirish masalasini muvafaqqiyatli hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ko'plab tegishli qarorlar, farmonlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi [1].

"Nonorganik kimyo" o'quv predmeti alohida ahamiyatga ega moddaning tuzilishi, uning kimyoviy, tarkibining qiyosiy tavsiflari, ularda sodir bo'ladigan kimyoviy o'zgarishlar, modda va energiya almashuvlari, o'sish va rivojlanishning kimyoviy qonuniyatlarida mineral moddalarning ishtiroki to'g'risida umumiy ma'lumotlarni yetkazishga xizmat qiladi. Ikki karra Nobel mukofotning

sovrindori, amerikalik mashhur kimyogar Laynus Poling o'rinli ta'kidlaganidek, "Kimyogorlar – dunyoning qanday tuzilganligini asl holda tushunadigan kishilardir" [2].

Noorganik kimyo kursida moddalarni didaktik materiallarni to'plash, tanlash, saralash va ularning o'zaro aloqadorlik jihatlarni aniqlash uchun o'tmishga hurmat nazari bilan qarash zarur harqanday madaniyatli jamiyatning bosh belgisi bo'lishi lozimligini uqtira boshlashgandi. Ular qatoriga Yu.V.Xodakov, L.A.Svetkov, E.V.Shapovalenko, S.A.Balezin D.P.Yerigin kabi olimlarni kiritish mumkin.

Yustus Libix kabi buyuk nemis olimi «Kimyo tarixidan qiziqarliroq va jozibadorroq ta'limot yo'q va bo'lmagay ham», deganida naqadar haq gapni aytgan edi.

Kimyo ta'limining barcha shakl va turlarida antik dunyo davridan to IV asrgacha shakllanib tetapoya bo'lgan qadimgi dunyo kimyosi, 1200 yildan ko'proq vaqt davom etgan (IV-XVI asrlar) alkimyo, kimyo fanining oyog'iga tushgan 300 yillik tushov-flogiston kimyosi, 100 yilga yaqin davrda hukmronlik qilgan va buyuk kimyogorlar (J.Dalton, A.L.Lavuazye, Y.Ya.Berselius, S.Arrenius, Ya.X.Vant-Goff, M.V.Lomonosov, D.I.Mendeleyev va boshqalar) asos solgan klassik kimyo va XX asr boshidan rasman davom etib kelayotgan zamonaviy kimyo bosqichlarini o'zaro uzviy aloqadorlikda va kimyoviy tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti tarzida uzluksizlikda bayon etish lozim [3].

Alkimyogacha bo'lgan davr – insoniyat rivojlanishi tarixini tosh, yangi tosh (neolit), mis, bronza, temir davrlariga bo'linishi. Bu davrlarda tajribaviy yutuqlarga asoslangan holda tabiiy xom ashyolar- toshlar, rudalar, yog'ochdan foydalanib, turli xil metallar qotishmalar ulardan esa qurollar, uy-ro'zgor anjomlari, taqinchoqlar sifatida foydalanish (Levkipp 500-440), Demokrit (470-390) atomlarning nazariyaning paydo bo'lishi [4].

Alkimyo davri – Arab alkimyosi. Sharq alkimyosi va uning eng mashhur namoyondalari. Osiyoda mutafakkir va faylasuf olimlarning namoyondalari va ularning kimyo sohasidagi ishlari (Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy).

Birlashish davri – kimyoning vazifalari to'grisida aytilgan fikrlar. «Flogiston» nazariyasining alkimyoga qarshi qo'yilishi. Shtal va flogistikaning boshqa namoyondalari va tarafdorlari (Blok, Kavendish, Pristli) va boshqalar.

Pnevmatik kimyoning rivojlanishi – suv tarkibini o'rganish. Yonishning kislorod nazariyasi. Lavuaze tomonidan kislorod nazariyasini yaratilishi. M.V.Lomonosovning ilmiy faoliyati. Lavuaze laboratoriyasi. Moddalarning tarkibi va xossalari to'g'risidagi fikrlarning shakllanishi. Yangi-yangi elementlarning kashf qilinishi.

Stexiometrik qonunlarning ochilishi – kimyoviy elementlar to'g'risidagi ta'limotning vujudga kelishi. Robert Boyl ishlari. Stexiometrik qonunlarning ochilishi. Rixter va Prust ishlari. Daltonning karrali nisbatlar qonunini hamda Avogadroning molekulyar nazariyasi. Atom-molekulyar ta'limotning yaratilishida Lomonosov hamda Daltonning atom va molekular to'g'risidagi ta'limoti. Elektrokimyoviy nazariya. Faradey tomonidan elektroliz qonunlarining kashf qilinishi [4].

Nonorganik kimyoni o'qitishda tarixiylik jihatdan 5-bosqichga bo'lib o'rganiladi

Birinchi davr	Ikkinchi davr	Uchinchi davr	To'rtinchi davr	Beshinchi davr
IV-VI asr	VI-XVI asr	VII-XVII asr	XIX- XX asr	XX-XXI asr
Tarkib, tuzilish	Tarkib, xossa, elementlar	Tarkib, struktura, xossa, qonunlar	Tarkib, struktura, xossa, reaksiya, kompleks birikma	Tarkib, struktura, xossa, reaksiya kvant maxanika

Ana shundagina tarix va ayni davrning bog'liqligi ayon bo'ladi. Qolaversa, buni o'qitishning tarixiylik prinsipi ham taqozo qiladi. Kimyo o'qituvchisi uchun noorganik kimyoning tarixi faqat yangi fakt va ma'lumotlar manbaigina emas, balki uning qo'l ostidagi o'quvchilarga katta pedagogik ta'sir o'tkazish omili bo'lib xizmat qiladi. Kimyo tarixi o'ta murakkab va ziddiyatli uzoq yo'lni bosib o'tgan. Chunki qo'lga kiritilgan har qanday yutuq zamirida alamli mag'lubiyatlar va zafarli odimlar omixtaligi yotadi. Muvaffaqiyatlar va kamchiliklarning tagzaminida qiziqish uyg'otuvchi va tanqidiy fikr-mulohazalarga undovchi sirli kuch yashiringandir. Anorganik kimyo va u bilan bog'liq o'quv

materiallari ushbu fanni faraz va qarashlar, g'oya va fikrlarning tirik hamda muttasil yangilanib va o'zgarib boruvchi jonli oqimidan iborat dinamik jarayon tarzida idrok etish imkonini beradi [2].

O'zbekiston Respublikasida yagona pedagogika fanlari doktori, professor H.T.Omonov kimyogar-metodistlardan A.Mamajonov, J.Fayozov, T.Gulboyev, G'.Boymurodov, A.Azimov, M.Umarov, Sh.Quvvatov, J.Mamajonov, Sh.Begmatov, E.Eshchanov, Sh.Mamajonov, N.Anvarova, F.Alimova, S.Nizamovalar kimyo o'qitish metodikasining turli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan [2].

Biz yuqorida nomlarini tilga olgan ulug' olimlarning xizmati tufayli fanlardan biri bo'lgan kimyo o'qitish metodikasi o'zining bir butun rivojlanish bosqichini boshdan o'tkazdi hamda hozirgi yashash davri – zamonaviy kimyo bosqichiga zamin tayyorladi. Ayni davrda bu fan tabiatshunoslikning shoh tarmog'iga aylanib ulguragan.

Tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan kelib chiqib, noorganik kimyoni o'qitishda tarixiy materiallardan foydalanish kimyoviy ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirib, bilim oluvchilarda kimyo faniga qiziqish va turg'un kimyoviy tafakkurni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, tarixiy materiallarni to'plash, tanlash va saralash hamda ularni didaktik jihatdan tasniflash zarur.

1. O'qitish jarayoni tamoyillari orasida tarixiy yondashuvlarning zaruriyatini o'rni va mavqeyini baholash.

2. Kimyoni o'qitish jarayonini tarixiy materiallar hisobiga boyitish zarurligini asoslash va uni amaliyotga tatbiq etishni bashoratlash.

3. Kimyo o'qitishni tarixiylik asosida tashkil qilishning didaktik asoslarini tadqiq qilish.

4. Kimyoni uning tarixi bilan bog'liq holda o'qitish talabalarida fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishini nazariy va amliy jihatdan asoslash.

5. "Noorganik kimyo" kursi uchun tarixiy materiallarni to'plash, tanlash va saralash hamda ularning didaktik jihatdan maqsadga muvofiqligi aniqlash.

Pedagogik tahlil, empirik metodlar, test topshiriqlari, kuzatish, suhbat, umumlashtirish, muvofiqlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan foydalanish mumkin.

Kimyo o'qituvchilari kimyo fanini o'qitishda kuydagilarga e'tibor berish ayni davrda, eng muhim va dolzarb hisoblanadi.

a) Kimyo ta'limi mazmuniga tarixiy va mahalliy materiallarni ko'proq singdirish hamda mustaqillik yillarida kimyo fani, sanoati va texnologiyasi sohalarida erishilgan yutuqlarni aks ettirish

b) Ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat elementlari yordamida tarixiy ma'lumotlar bilan tinglovchilarni ko'proq qurollantirish.

c) Kimyoviy bilimlarning uzoq tarixi va ularning genezisi bilan bog'liq masalalarni o'qitishning barcha tashkiliy shakllari mazmuniga tizimli tarzda singdirish.

d) Kimyo fani bo'yicha o'quv adabiyotlarining ilmiy va metodik jihatdan tahlil qilish hamda bu o'quv predmetining o'quv-metodika majmuasini takomillashtirish va uni pedagogik jarayonga tatbiq etish masalalariga ko'proq e'tibor berish kabilar [2].

Noorganik kimyo fanini, o'qitish, o'quv materialini mazmunan atroflicha tahlil qilish ularni muhimligi bo'yicha guruhlariga ajratish kimyoviy bilimlarni berishda ularning hayotiy zarurligiga asoslanib tasniflash kimyoning ishlab chiqarish va jamiyat a'zolari uchun foyda yoki zararini odilona baholash hamda kimyodan cho'chish (qo'rqish) kabi xemofobik ijtimoiy fikrni kamaytirish kimyoviy savodxonlikning ommaviy ko'lamga erishuvini ta'minlash uchun uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim turida kimyo o'qitishni tubdan qayta qurish kabi talablar qondirilishi lozimdir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -486 b.

2. Omonov H.T. Fidoiy bo'lmay-kimyogar bo'lmas.// "Maktab va hayot" jurnali. -2004. -№2. – B.4-6.

3. Omonov H.T., Maraimova U.R. Kimyo o'qitishning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati./Konsentrik ta'lim kontekstida innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. -Toshkent: Yangi nashr, 2017.-B.190-193.

4. Toshpo'latov Yu.T, Primqulov M.T., Maxmatkulova Z.X. Kimyo tarixi (metodik qo'llanma). Toshkent. -2006.

UDK: 377.1

KASBIY FAOLIYAT KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH SHARTLARI**N. N. Tolibov***O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti
tolibovn@inbox.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqola uchuvchilar bilan trenajyor tayyorgarligini tashkil etish jarayonida kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish orqali kafolatlangan yuqori natijaga erishish mumkinligi va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, mahorat, kompetentlik, psixologiya, shaxs, vositalar.

Условия формирования навыков профессиональной деятельности

Аннотация. в этой статье освещаются способы достижения гарантированного высокого результата и устранения недостатков, формируя навыки профессиональной деятельности в процессе организации тренажерной подготовки пилотов.

Ключевые слова: дидактика, мастерство, компетентность, психология, личность, средства.

Developing conditions for the formation of professional skills

Abstract. this article highlights the ways to achieve a guaranteed high result and eliminate shortcomings, forming professional skills in the process of organizing pilot training simulations.

Keywords: didactics, skill, competence, psychology, personality, money

V.I. Andreev va V.P. Bepalkolar taqdim etgan didaktik tizimning tuzilishi [1; 2]: vazifalar va texnologiyalar yechimini topish uchun trenajer tayyorgarlik jarayonida kasbiy faoliyat ko'nikmalari tizimini shakllantirish hisobiga samaradorligini oshirish orqali kafolatlangan yuqori natijaga erishish mumkin.

Didaktik vazifaning tarkibiy tuzilmasida, inson faoliyatining har qanday sohasida qo'yiladigan vazifalardagi singari, maqsad ko'rsatiladi, unga erishish vaziyat (sharoit) bilan shartlangan bo'ladi va faoliyat uchun ma'lumotga ega bo'lish (mazmun) bilan belgilanadi.

Tadqiqotimizdagi didaktik vazifalar - kasbiy faoliyatda ko'nikmalarni shakllantirish zarurati, vaziyat (shart-sharoitlar) – ta'lim oluvchilarning dastlabki shaxsiy fazilatlar va ularni shakllantirish muammosini hal qilish texnologiyasi, ma'lumotlar esa - maxsus o'quv fanlari mazmuni va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rinishlaridir.

Har bir didaktik vazifa mos ta'lim texnologiyasi yordamida hal qilinishi mumkin, uning yaxlitligi uch komponentning o'zaro bog'liqligi va rivojlanishi: tashkiliy shakli, didaktik jarayon va o'qituvchining mahorati (ta'lim berishdagi texnik vositalarining sifati) bilan ta'minlanadi.

Trenajyorda tayyorgarlikni tashkil etish tizimida asosiy xususiyatlarini shakllantirish uchun uning funktsiya ko'rsatish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rib chiqish lozim.

Pedagogika fanida omillar ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy sabablari va shartlari (E.I. Monozon), ularning murakkab munosabatlari (M.E. Duranov) shaxsni shakllantirishga qaratilgan harakatlantiruvchi kuchlar, uni tarbiyalash va o'qitish vazifalari sifatida tushuniladi (Yu. K. Babanskiy).

Tadqiqot ishimiz nuqtai nazaridan, asosiy omil sifatida kasbiy faoliyat kompetentligini shakllantirish jarayoni samaradorligini tushunamiz.

Omillar va shart-sharoitlarni bu holda tushunish, bir tomondan, ularning chamber-chas bog'liqligini va boshqa tomondan ularning nisbiy avtonomligini anglatadi. SHuning uchun, trenajyor tayyorgarlik tizimi samarali funktsiya ko'rsatishida mos didaktik shartlarni aniqlashdan maqsad - kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish, eng avvalo, uning sifati va darajasiga ta'sir etuvchi omillar to'plamini aniqlash kerak.

O'quv jarayonining turli tomonlarini o'rganish ustida izlanish olib borgan ko'plab psixolog va didakt tadqiqotchilar, asosan ta'lim oluvchilarga turli omillar ta'siridagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik samaradorligi, ularning mustaqilligi va faolligiga bog'liqligini tadqiq etishgan. Ko'pgina tadqiqot

ishlarining o'ziga xos xususiyati - ba'zi omillarning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatish, boshqalarini to'g'ri baholanmasligiga borib taqaladi.

Psixologiya va pedagogika, pedagogik amaliyot, shuningdek tajriba tavsifidagi materiallariga tegishli manbalar tahlili asosida, ijtimoiy-pedagogik xususiyatiga ko'ra, trenajyor tayyorgarlik darajasi va sifatiga ta'sir qiluvchi omillar tashqi hamda ichki omillarga bo'linadi, degan xulosaga keldik.

Tashqi omil tarkibiga ta'lim oluvchilarda uchuvchilik kompetentligini shakllantirish jarayonida tashqaridan ta'sir ko'rsatish, ichki - ijrochilarning ishni tashkil qilishdagi o'ziga bog'liq bo'lgan holatlar kiradi.

Birinchi guruh – sabab omillari, chunki ular ta'lim oluvchilarga ta'sir ko'rsatadi, ularda ishchanlikni rag'batlantirish holatlarini uyg'otadi.

Ta'lim jarayonida ichki omillar asta-sekinlik bilan muhim ahamiyat kasb etib boradi, shuning uchun ham ular tashqi omillarga nisbatan natijaviyligi yuqoridir.

Tashqi omillarni kichik guruxlarga birlashtirish mumkin: birinchi navbatda, kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi o'qituvchining faoliyati; ikkinchidan, ishning mazmuni; uchinchidan, o'quv jarayonini zaruriy vositalar bilan ta'minlanishi.

Tabiiyki bunday faoliyatni tashkil etishda, uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning talablari qondirilmaydi. Bu erda psixologik va didaktik vositalar tizimi, shuningdek, ijtimoiy-psixologik muhitga bog'liq ma'lum shartlar zarurdir.

Sub'ektiv kategoriya - atrofidagi hodisalar bilan aloqasini ifoda etadi va ularsiz mavjud bo'la olmaydi.

Ularning mavjudligi o'quv tizimini takomillashtirishning barcha manbalaridan optimal foydalanish va shu bilan zarur kompetentlikni shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Didaktik shartlar – kasbiy faoliyat uchun zarur majmuaviy kasbiy ko'nikmalar texnik tayyorgarlik jarayonini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim va bilish faoliyatini tashkil etuvchi vositalaridir.

Tizimning o'ziga xos xususiyati, yuqorida aytib o'tganimizdek, yuqori samaradorlik - oldindan berilgan talim natijasining kafolatlanishidir. Pedagogikaning muammosi sifatida ma'lum bir ta'lim sifati natijasi kafolat bilan ta'minlanishi yangilik emas.

Shu munosabat bilan kasbiy ta'limga yondashuvni innovatsion didaktik nazariya asosida o'zgartirish muammosi yuzaga keladi.

Pedagogik nazariya haqiqatan ham sezilarli va eng muhimi kutilayotgan pedagogik samarani berishi uchun uni muayyan pedagogik texnologiyaga aylantirishi kerak. Aynan pedagogik texnologiya, berilgan vaqt oralig'ida sifati kafolatlangan ta'lim natijasiga didaktika yutuqlaridan foydalanish orqali talab etilgan sifatga erishishni o'zining asosiy vazifasi qilib belgilab oladi.

Shaxsni shakllantirishning sifat darajasi, uning kasbiy mahoratini oshirishga zamonaviy talablar, kasbiy faoliyatning eng yuqori darajasi nuqtai nazaridan doimiy ravishda o'sib boradi va shunga mos ravishda pedagogik vositalarni yangilash zarurati mavjuddir.

Umuman pedagogik texnologiyaning ma'nosi quyidagilardan iborat [2]:

- o'quv jarayonini oldindan loyihalash va keyinchalik mazkur loyihani ishga tushirish, takrorlash orqali amaliy mashg'ulotlarda pedagogik ekspromtni minimallashtirish;

- faqat o'qituvchiga mo'ljallangan metodik ishlanmalarni emas, balki ta'lim oluvchining o'zi tomonidan olib boriladigan o'quv va kognitiv faoliyatning tarkibi hamda mazmunini belgilaydigan o'quv jarayoni loyihasini joriy etish.

Agar uslubiy ishlarni har birini o'qituvchi tomonidan birma-bir takrorlash mumkin bo'lsa, u holda o'quv va kognitiv faoliyatni loyihalashtirish motivatsiyani kuchayishiga, bilim darajasining sezilarli darajada oshishiga, umumiy ta'lim va kasbiy ko'nikmalarning ongli va samarali shakllanishiga, deyarli har qanday ishtirokchilar uchun muvaffaqiyatning yuqori barqarorligiga olib keladi [1; 11-b]. Ta'lim sifatini oshirish muammosini hal qila turib, Ya.A. Komenskiy shunday deb yozgan edi: Har bir o'qituvchiga pedagogik vositalardan foydalanishni o'rgatish mumkin va kerak, faqat shundan keyingina uning ishi juda samarali bo'ladi. Didaktik mashina uchun quyidagilarni:

1) qat'iy belgilangan maqsadlar;

2) ushbu maqsadlarga erishish uchun aniq moslashtirilgan vositalar;

3) ushbu vositalardan foydalanish bo'yicha, ularsiz maqsadga erishib bo'lmaydi qat'iy qoidalar [3; 472-b.] ana shularni izlash lozim.

AQShning pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi pedagogik texnologiyaning quyidagi ta'rifini qabul qilgan: "Pedagogik texnologiya - murakkab, integratsion jarayon bo'lib, muammolarni tahlil qilish va muammolarni boshqarish bo'yicha faoliyatni tashkil etishning barcha tomonlarini qamrab olgan g'oyalar, vositalar va usullarni o'z ichiga oladi." [1; 128-b.].

Pedagogik texnologiyalar muammosi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar tahlilini olib borgan M.V. Klarin quyidagi muhim belgilar va elementlarni qayd etadi:

1. Maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayonini konstruksiyalash va amalga oshirish.

2. Aniq belgilangan maqsadlarga izchil e'tibor qaratish.

3. Etalonning (mezonning) aniq ta'rifi ushbu tizimdagi ishning eng muhim momentidir.

4. O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi adekvat ishlash usullarini belgilaydi [4; ,55-b.].

SHuni yodda tutish kerakki, o'qitish texnologiyasi (didaktik texnologiya) va pedagogik texnologiya konsepsiyalari xususiy va umumiy bog'lanishga egadir. So'nggi yillardagi mahalliy va xorijiy etakchi tadqiqotchilar ishlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, "pedagogik texnologiyalar" xususiyatlarining ro'yxati sezilarli darajada farq qiladi.

"Ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismlari" asarida Bepalko V.P. Quyidagi muhim elementlarni ta'kidlaydi:

1) ta'lim, tarbiya maqsadlarini aniq izchil, pedagogik, didaktik nuqtai nazardan ishlab chiqish;

2) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni, tarkiblashtirish, soddalashtirish, mazmunni zichlashtirish;

3) didaktik, texnikaviy, shu jumladan kompyuter, ta'lim va nazorat vositalaridan majmuaviy foydalanish;

4) iloji boricha ta'lim-tarbiyaning tashhishlash funksiyalarini kuchaytirish;

5) ta'lim sifatini etarlicha yuqori darajasini kafolatlash.

Shunday qilib, Pedagogik texnologiya, shu jumladan ta'lim texnologiyasi - texnologiyaga mos keladigan pedagogik qonunlarni, maqsadlarni, prinsiplarni, mazmunini, shakllarini, usullarini va vositalarini loyihalashtirish va amaliy qo'llash tizimi, ularning samaradorligini etarlicha yuqori darajada bo'lishini kafolatlashdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz o'quv jarayonida kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish tizimining samaradorligi uchun didaktik shartlarni keltiramiz:

- o'quv maqsadlarini tashhishlash;

- natijalari kafolatlangan texnik protseduralarni yo'naltirish va tashkil etish;

- doimiy aks aloqani amalga oshirish;

- butun o'quv siklini takrorlash.

Ushbu sharoitlarda tizimning ishlashini quyidagilar ta'minlaydi: motivatsiyani oshirish, og'zaki ko'rsatmalarda va keyingi faoliyatda barcha mashg'ulotlarga ta'lim oluvchilar faolligi va e'tiborini oshirish; harakatlarning barqaror ketma-ketligini shakllantirish, ularning tuzilishini yaxshilash; nazariy bilim va amaliy faoliyatning bog'lanishini takomillashtirish, fikrlashni faollashtirish; qisqartirilgan vaqt ichida berilgan daraja ko'nikmalarini shakllantirish.

Pedagogik texnologiyalar o'qituvchining yuqori pedagogik mahorati va ijodiga qo'yiladigan talablarni istisno qilmaydi yoki kamaytirmaydi, ammo ular ma'lum darajada tajribasi kam o'qituvchining xato va kamchilikka yo'l qo'ymasligiga etarli darajada kafolat beradi.

O'quv jarayonida kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish tizimi quyidagi didaktik shartlar asosida yanada samarali ishlaydi:

- ta'lim maqsadlarini tashhishlashda;

- aks aloqani doimiy amalga oshirishda;

- o'quv jarayonida kafolatli natijaga erishish uchun trenajyor ishi tartibini maqsadli yo'naltirish va tashkil etishda;

- yaxlit o'quv siklini takrorlashda.

Ushbu shartlar bir vaqtning o'zida kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish uchun vazifalar tizimi sifatida o'quv jarayonining texnologik samaradorligini takomillashtirish va shu bilan birga o'quv maqsadlariga erishish samaradorligini oshirishi shartlari hamdir.

Birinchi didaktik shart - ta'lim maqsadlarini qo'yilishini tashhishlash.

O'quv jarayonini samaradorligini oshirishni boshqarish faqatgina didaktika va boshqaruv nazariyasi tomonidan aniqlanadigan talablar tizimi bajarilgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu talablarning eng muhim birinchi navbatdagi tizim tashkil etuvchisi bo'lib, ta'lim maqsadini aniq qilib qo'yilishi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlarini aniqlash muammosiga V.I. Andreev, V.P. Bepalko, A.A. Verbitskiy, B.S.Gershunskiy, K. Ingenkampf, V.I. Kagan, M.V. Klarin, D.SH. Matros va boshqalar alohida e'tibor qaratgan. Maqsadni qo'yilishi, aniqlanishi bilan har qanday faoliyat boshlanadi jumladan, o'quv-biluv va o'quv kasbiy faoliyatlari ham.

Shunday qilib, ta'lim jarayonini tashkil etishda albatta hal qilinishi kerak bo'lgan markaziy, asosiy vazifa - ta'lim maqsadining aniq belgilab olishdir, chunki, ta'lim natijasida biz nimaga erishishimizni tasavvur qilmasak, mazkur holatni tashkil etish mumkin emasdir.

Adabiyotlar

1. Андреев В.И. Учебный курс для творческого саморазвития. - 2 е изд. - Казань. Центр инновационных технологий, 2000, - 608 с.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: НПО МО России, 1995. - 336 с.
3. Кедров Б.М. Классификация наук. - М.: Мысль, 1985 - 550 с.
4. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе: (Анализ зарубежного опыта). - М.: Знание, 1989. - 77 с.
5. Tolibov N.N. Uchuvchilarni texnik tayyorgarligi jarayonida kasbiy kompetentligini shakllantirish yo'llari. «Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'».№3. Nøkis. 2019, 72-78-b

УДК.541.371:654.9(575.1)

KIMYO FANINI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MULTIMEDIYA DASTURLARIDAN FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

S. A. Nizamova

Turin politexnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada kimyo fanini multimediya dasturlariasosida o'qitib, ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgani muammolar va ularning yechimi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kimyo fanini o'qitish, axborot texnologiyalari, muammolar, umumiy o'rta ta'lim maktablari.

Проблемы использования мультимедийных программ для повышения эффективности химического образования и пути их решения

Аннотация: В статье представлена информация о проблемах и способах их решения в обучении химии с помощью мультимедийных программ и повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: обучение химии, информационные технологии, проблемы, общеобразовательные школы.

Problems in the use of multimedia programs to improve the effectiveness of chemistry education and their solutions

Abstract. The article provides information on the problems and their solutions in teaching chemistry through multimedia programs and improving the effectiveness of education.

Keywords: teaching chemistry, information technology, problems, general secondary schools.

Jahonda kimyo ta'limi sohasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitishning metodik asoslarini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlardan AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Koreya, Turkiya, Gretsiya, Belgiya kabi mamlakatlardagi olimlarining tadqiqot ishlari axborot texnologiyalarning dasturiy vositalarini kimyo fanini o'qitish jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchining bilim olishini faollashtirishga, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, tayanch va fanga oid maxsus kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Xalqaro miqyosda kimyo fanini o'qitish sifatini yaxshilash uchun ta'lim jarayoniga innovatsion va multimedia texnologiyalarni tatbiq etish, integratsiyalash, aralash ta'lim texnologiya imkoniyatlaridan

foydalanish, zamonaviy metodik ta'minotni yaratishga hamda o'quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan: Polsha, Germaniya, Avstriya, Gretsiya, Yaponiya, Koreya, Turkiya, Pokiston, Xindiston, Rossiyada.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash, pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida multimediyaning dasturiy vositalaridan samarali foydalanib, amaliyotga joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning o'quv faoliyat mazmunini shaxsiy reflektiv, kognetivlik, kreativlik va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son farmonlari, 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son² Farmoni [1,2]

Xalq ta'limi tizimida kimyo fanini o'qitish jarayoniga multimedia texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha imkoniyatlar yetarlicha to'liq ochib berilmagan, ayrimlari kimyo ta'limiga tizimli tatbiq etilmagan hamda to'liq yoritilmagan. Jumladan:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini multimedia dasturiy vositalari asosida tayyorlangan elektron, animatsiya va virtual laboratoriya usullaridan foydalanib o'qitish uchun maxsus metodika ishlab chiqilmagan;

2. Multimediyaning dasturiy vositalaridan foydalanib kimyo fanini o'qitish samaradorligini yaxshilashga qaratilgan ishlar yetarli darajada bo'lmaganligi sababli, pedagogik kadrlar bugungi kun talabi darajasida kasbiy bilim hamda pedagogik mahorati yetarli emas;

3. Ushbu muammolar orasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo ta'limi sifatini yaxshilashga qaratilgan multimediyaning dasturiy vositalarini fanga joriy etish, undan samarali foydalanish hozirda alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda alohida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Ayni vaqtda kimyo fanini o'qitish metodikasini multimediyaning dasturiy vositalari asosida takomillashtirish, o'quvchilarning bilish faolligini oshirishning samarali shakl, metod, usullarini qo'llash zarurati yuzaga keldi.

Bugungi kunda jahonda ta'limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda:

- o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash bo'yicha kontseptual loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy kontseptsiyalarni ishlab chiqish;

- o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanib ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish;

- o'qitishning multimedia dasturiy vositalari asosida o'qitishni tashkil etish nazariyasi va texnologiyasini yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish;

- zamonaviy o'qitish vositalarining ta'lim jarayoni sifatiga ta'sirini baholash metodikasini ishlab chiqish;

- o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish [3,4,5].

Kimyo fanini multimedia dasturiy vositalari asosida o'qitilganda quyidagi g'oyalardan (kontseptsiya) foydalanish lozim:

1. Fanni multimedia dasturlari asosida o'qitilganda ta'limni informatizatsiyalash, kompyuterlashtirish, texnologik takomillashtirish, integratsiyalash, optimallashtirish, uzluksizlikni ta'minlash, ta'limni shaxsga yo'naltirishga mos keladigan tamoyillarini ishlab chiqilish zarur.

2. O'quvchilar berilgan topshiriqni bajarishlari uchun kompyuterda ishlashni yaxshi bilishlari va beriladigan topshiriqlar ularning erkin va mustaqil fikrlashiga, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

3. Kimyo fanini kompyuter asosida o'qitishda –nazariyani ko'rgazmalilik va amaliyot bilan o'zaro bog'lagan holda olib borilishi lozim;

4. Kimyo fanini multimedia dasturlari asosida o'qitilganida o'qitish jarayonining mazmuni: o'quv jarayonining bosqichlariga, tashkiliy- uslubiy majmuaga, ta'lim faoliyatiga, ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishiga alohida e'tibor beriladi;

5. Maktablarda kimyo fanini o'rganishda multimedia dasturlari asosida yaratilgan turli xil o'quv qo'llanmalar oquvchilarga ilmiy jihatdan asoslangan holda taqdim etilishi kerak;

6.O'qitishning interfaol metodlar va zamonaviy didaktik vositalar supertyutorlar (mashq qildiruvchi dasturlar), shaxsiy tyutorlar (o'quvchi faoliyatiga oid dasturlar asosida yaratilgan o'quv materiallari) shaklidagi o'rgatuvchi multimedia dasturlarini qo'llash orqali amalga oshirish kerak;

7.Shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi zamonaviy didaktik vositalarni o'qitishning bosqichli (fazali) modeli asosida qo'llash (imprinting - o'quv materiali mazmunini idrok qilish; meorayzing - eslab qolish; avtorizatsiya - o'quv materiali mazmunini anglash va uni qayta tiklash; initsiatsiya-o'zlashtirilgan bilimlarni baholash va e'tirof etish fazalari); shaxsiy kompetentsiyalarni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari vositasida shakllantirishning modellarini takomillashtirish zarur.

Kimyo fanini o'qitish metodikasini multimediyaning dasturlari asosida takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bilish faolligini oshirishning samarali shakl, metod, usullarini qo'llash zarurati bo'yicha yuzaga kelgan muammoni hal qilish maqsadida o'z oldimizga maqsad va vazifalar qo'ydik.

Maqsadimiz: kimyo fanini o'qitishda ta'limi samaradorligini oshirishni multimediyaning dasturlari asosida takomillashtirish. Qo'yilgan maqsad asosida quyidagi vazifalar belgilandi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini multimediyaning dasturlari asosida o'qitishning hozirgi holatini o'rganish, tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini multimediyaning dasturlari asosida tayyorlanadigan elektron, animatsiya va virtual laboratoriya usullaridan foydalanish uchun maxsus metodika ishlab chiqish;

- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bilish faolligini oshirish kompetentsiyalarini shakllantirishga, olgan bilimlarini avtomatlashtirilgan nazorat qilishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.

Hozirda kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirish uchun yuqorida 1-rasmda ko'rsatilgan multimedia dasturlari va ularning turlaridan foydalanish mumkin.

Kimyo fanini o'qitish jarayonida multimediyaning dasturlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin.

Kutiladigan natijalar:

- mavzularni o'rganishda beriladigan bilimlar tizimli, o'zaro bog'liq ravishda o'rganiladi, o'quvchilarning bilim olishi faollashadi, har bir o'rganilayotgan mavzu ko'rgazma asosida o'rganiladi, mustaqil ishlarni amalga oshirish orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha yetarli darajada bilim, ko'nikma, malaka hosil qilinadi, bilimdagi bo'shliqlar o'z vaqtida bartaraf etiladi;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini multimediyaning dasturlari asosida tayyorlangan, maxsus metodika asosida ishlab chiqilgan elektron, animatsiya va virtual laboratoriya usullaridan foydalanish natijasida ta'lim samaradorligi ortadi;

- multimediyaning dasturlari asosida kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarning shaxsiy-refleksiv (fikrlash, mushohada qilish), kognitivlik (bilim egallash ishtiyoqi), kreativlik (tanqidiylik, muayyan didaktik muammoni har tomonlama ko'ra olish), motivatsion-faollashuv (qiziqish, ishtiyoq), ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi didaktik topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi, amaliyotga joriy etiladi, natijada o'quv faoliyat mazmuni ortadi.

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish mazmuni, o'quv reja va dasturlarini multimediyaning dasturlari asosida takomillashtirish, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotini yaratishga imkon yaratiladi, ta'lim amaliyotiga tavsiya etiladi, bu esa kimyo ta'limida samaradorlikka erishishga xizmat qiladi;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida multimediyaning dasturlari asosida takomillashtirilgan mazmun va ta'limiy jarayonini loyihalashtirish modeli (o'quv dasturlar, multimediyali elektron qo'llanmalar, animatsiya va virtual usulida tayyorlangan laboratoriya ishlari, o'quvchilar bilimni nazorat qilishning avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar) o'quv jarayoniga tatbiq etiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha" Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning "Ijtimoiy sohani rivojlantirish"deb nomlangan 4-ustivor yo'nalishida belgilangan vazifalar. –Toshkent, 2017-yil 7-fevraldagi qarori

2. 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

3. R.X.Juraev, U.Taylakov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida interaktiv elektron o'quv komplekslarini ishlab chiqarish va undan foydalanish metodlari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014. –B.160; –B.32-33.

4. I.A.Yuldashev. Ta'limda zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015. –B.16-18.

5. S.A.Nizamova. Kimyo ta'limi samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2017. –B.16-18.

УДК:53+551.502.4(076.5)

FIZIKANING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

L.T.Djuraeva¹, N.F.Nurmurodova², U.A.Beknaev²

¹Toshkent davlat agrar universiteti

²Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Toshkent filiali
nurmurodova89@bk.ru

Annotatsiya. “Fizikaning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati” deb nomlangan ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sohasida fizik qonunlar, jarayonlar va u bilan bog'liq holda qo'llanilayotgan yangi innovatsion texnologiyalar sohani rivojlanishi va hosildorlikni ortishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maqolada fizikaning mexanika sohasidagi qonuniyatlarni va elektr tokini qishloq xo'jaligi mashinalari va jarayonlaridagi tadbiri va amaliy ahamiyati qarab chiqilgan. qishloq xo'jaligi oliygoqlarida fizikadan o'tiladigan har bir dars ushbu soha ob'ekt va jarayonlari bilan bog'langan holda o'tilishi kerak.

Kalit so'zlar: agrofizika, biofizika, agrometeorologiya, inertsia, elektrostimulyatsiya.

“Значение физики в селском хозяйстве”

Аннотация. Статья «Значение физики в селском хозяйстве» рассматривается как влияет физические законы, явления и физические приборы вразвитие селского хозяйства, повышение урожайности, и применение новых инновационных технологий в данной сфере народного хозяйства. На примере рассматривается применения законов механики в различных сельскохозяйственных машин. При преподавании физики для будущих специалистов сельского хозяйства на каждом уроке тему надо связывать с сельскохозяйственными процессами и объектами.

Ключевые слова: агрофизика, биофизика, агрометеорология, инертция, электростимуляция.

“The Importance of Physics in Agriculture”

Abstract. The article “The Importance of Physics in Agriculture” examines how physical laws, phenomena and physical instruments affect the development of agriculture, increase in yield, and the application of new innovative technologies in this field of the national economy. An example is the application of the laws of mechanics in various agricultural machines. When teaching physics to future specialists in agriculture, in each lesson the topic should be associated with agricultural processes and objects.

Keywords: agrophysics, biophysics, agrometeorology, inertion, elektrostimulation.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, hosildorlikni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, bu sohani yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mashhur olim I.M.Komov qishloq xo'jalik fanlarini boshqa tabiiy fanlar, ayniqsa fizika fani bilan bog'lab o'rgatish lozimligini ta'kidlagan. I.M.Komov o'zining 1788 yilda chop etilgan «Dehqonchilik haqida» nomli kitobida fizikaning dehqonchilikdagi ahamiyati haqida shunday fikrlarni yozib qoldirgan: «Dehqonchilik oliy fanlar davolash fani, kimyo, mexanika va deyarli butun fizika bilan chambarchas bog'langandir, uning o'zi ham amaliy fizikaning bir qismi bo'lib, hammasidan foydali qismining o'zginasidir» deb ko'rsatgan.

Atoqli fizik, akademik A.F.Ioffe ko'p yillar davomida fizikaning agronomiyada qo'llanilishini kuchaytirish zarurligini targ'ib qilgan. Uning tashabbusi bilan Rossiyaning hozirgi Sankt-Peterburg shahrida 1932 yilda Agrofizika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilingan va bu institut hozirgacha faoliyat ko'rsatmoqda.

Akademik A.F. Ioffe o'sha yillarda fizikaning agronomiyada qo'llanilishi juda yomon holatda ekanligini qayd qilib quyidagini aytgan: «Agronomlar fizikani bilmaydilar, fizika agrotexnik ta'lim amaliyotida deyarli ishtirok etmaydi, fiziklar esa agrotexnikani bilmaydilar va qiziqmaydilar, qishloq

xo'jalik xodimlarining orasida fiziklar yo'q, agar ularga fizik tadqiqotlar zarur bo'lib qolsa, uni fizik bilimlar asosi bilan kam tanish bo'lgan kishilar tomonidan o'tkaziladi» [1].

Hozirgi vaqtda oradan qariyb bir asr o'tgan bo'lsa-da, fizikaning qishloq xo'jaligi sohasidagi ahamiyatini tushuntirish va qo'llash yetarli deb bo'lmaydi. Bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf qilishga fizika fanini o'qitishda agrofizika, biofizika va agrometeorologiya kabi kontakt fanlarni o'qitish yordam beradi.

Hozirgi zamon tajribasidan ma'lumki fizikani faqatgina tibbiyotga qo'llanishi natijasida bu sohaning diagnostikasi, davolash usullari ancha yuqori darajada rivojlanib ketdi. Ayni davrda tibbiyotni, ultratovush diagnostikasi, rentgen, flyurografiya, MRT, PET, elektrokardiografiya, UVCh, UFO, elektroforez, darsenvalizatsiya, lazer terapiyasi kabi ko'plab tashhiz qo'yish va davolash usullarisiz tasavvur etib bo'lmaydi [2].

Fizik qonuniyatlar va hodisalarni o'simliklar va hayvonlar tuzilishi, fiziologiyasi va hujayrasiga tadbiri kuchaytirilsa bu sohada ham katta-katta o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Quyida fizikaning faqat mexanika va elektr qismiga tegishli hodisalar va qonunlardan qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan holatlarga to'xtalib o'tiladi.

Qishloq xo'jaligida inertsia qonuni ya'ni jismlarning tinch yoki to'g'ri chiziqli tekis harakat holatini saqlash xossasi qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi. Masalan, oddiy traktorning yon tomoniga o'rnatilgan, havo so'ruvchi qalpoqli tozalagichi bor. Dvigatel normada ishlashi uchun unga beriluvchi havo tarkibida chang va qar xil iflosliklar bo'lmasligi kerak. Traktorning havo tozalagich qurilmasi havo inertsiasini qonuniga asosan ishlaydi.

Separatorlarning ishlash printsipi ham noinertsial sanoq sitsemasida vujudga keluvchi inertsia kuchlariga asoslangan [3,4,5]. Separatorlarning aylanma harakatida ham sutga nisbatan yengilroq bo'lgan qaymoq aylanish o'qi yaqinida to'planadi va alohida naycha orqali idishga oqib tushadi.

Shunigdek quritish mashinalari ish printsipida ham inertsia qonunidan foydalaniladi (1-rasm). Quritish mashinasi to'r T barabandan iborat bo'lib, uning ichiga quritilishi lozim bo'lgan material solinadi. Baraban L - tez aylantirilganda, materialning suv zarralari inertsiasiga ko'ra tasma to'g'ri chiziqli harakat holatini saqlashga intiladi va to'r oralaridan chiqib ketadi. Bu mashinalardan qishloq xo'jaligi maqsadlarida ham foydalansa bo'ladi.



1-rasm.

Qishloq xo'jaligi sohasida donlarni tozalash va navlarga ajratish uchun mo'ljallangan mashinalarda og'irlik kuchi ta'sirida tushayotgan don zarralariga havo oqimi ta'sir qiladi. Havo oqimining ta'sir kuchi har xil massali don zarralariga turlicha tezlanish beradi. Massasi katta, yirik don zarralari nisbatan kichik tezlanish oladi va yaqinroqqa tushadi. Massasi kichik, mayda don zarralari esa katta tezlanish natijasida uzoqroqqa tushadi, natijada donning mayda bo'laklari alohida, yirik bo'laklari alohida yig'iladi.

Qattiq jismlarning aylanma harakati qonunlariga binoan mashina va aylanuvchi qismlari o'qlarining yo'nalishi, massa markazidan o'tuvchi geometrik o'qi yo'nalishi bilan ustma-ust tushadigan qilib yasaladi. Chunki bu mashinalarning, masalan, kombayn barabanining aylanish tezligi minutiga mingtadan oshadi. Agar geometrik va aylanish o'qlari ustma-ust tushmasa, burchak tezlikning katta qiymatlarida aylanish o'qiga va o'qning podshipnik hamda sharnirlariga katta dinamik nagruzka tushadi.

Dinamik nagruzkani kamaytirish maqsadida, tez aylanuvchi massiv mexanizmlar va ishchi qildiraklar egiluvchan, elastik valga o'rnatiladi. Katta aylanishlarda valning egilishi natijasida aylanuvchi jism og'irlik markazi uning geometrik o'qiga yaqinlashadi. Jismning massa markazidan o'tuvchi o'q atrofidagi aylanishi eng barqaror bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ishlatiladigan turli mashina va mexanizmlarning mexanik energiyasi ularning ichki yonuv dvigatellaridagi yonilg'ining yonishidan vujudga kelgan issiqlik energiyasi hisobiga qosil bo'ladi. Yoqilqining yonishi natijasida bosim ortadi va gaz kengayib, porshenni slindr bo'ylab itaradi. Burovchi moment ta'sirida shatun va krivoship yordamida tirsakli val aylanma harakatga keladi. Tirsakli valga o'rnatilgan maxovik energiyasi valning bir tekisda aylanishini ta'minlaydi.

Fizikada Paskal qonuni asosida ishlaydigan gidravlik mexanizmlar gidravlik mashinalar deyilib, ulardan yuqori bosim hosil qilish natijasida yog` zavodlarida, o'simliklar urug`laridan(chigit, kunjut, ziqir, pista) yoq siqib chiqarishda, konserva zavodlarida pomidor va mevalardan sharbat ajratib olishda. qishloq xo'jaligida esa paxta, pichan va somon kabilarni presslashda qo'llaniladi. Past bosimlarni hosil qilish orqali esa qishloq xo'jaligi mashinalarida paxta maxsus qurilmalar yordamida terib olinib, qabulxonasiga uzatiladi. Qabulxonaga tushgan paxta past bosim ostida so'rib olinadi va bunkerga uzatiladi.

Suyuqlik va gazlarda bosimning Paskal qonuniga muvofiq barcha yo'nalishlarda bir xilda uzatilishidan paxta terish mashinalariga, kombayn hamda traktorlarga yonilg'i quyishda maxsus mexanizatsiyalashgan agregatlardan foydalaniladi. Qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi qo'llaniladigan oddiy mexanik purkagichlarning ishlash jarayonida ham suyuqlik va gazlarda bosimning barcha yo'nalishlarda tekis taqsimoti qonuni yotadi.

Qadim zamonlarda botqoqlikni quritish uchun, uni kanal orqali yaqin atrofdan o'tuvchi daryo bilan tutashtirganlar. Bunda gidrodinamikaning asosiy qonunlaridan biri Bernulli qonunini qo'llanishiga misoldir. Daryo bilan botqoqlik orasidagi oqim tezligiga mos bosimlar farqi hosil bo'ladi va oquvchan suv botqoqlikning turg'un suvini so'rib oladi. Masalan oqim tezliklari farqi 1m/s bo'lganda ham bosimlar farqi 500 Pa ga yaqin bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali fizikaning faqat mexanika bo'limiga tegishli bo'lgan eng asosiy qonunlar – Nyuton qonunlari, energiyaning saqlanish qonuni, aylanma harakat dinamikasi va gidrodinamikaga oid qonunlardan qishloq xo'jaligi sohasida qo'llanishiga misollar keltirdik. Bu misollar dengizdan bir tomchi xolos. qishloq xo'jaligi mutaxassislari ham fizika va uni amaliy tadqiqini chuqur o'rgansalar, bu sohaning taqraqqiyoti ham aqliy salohiyatlar asri bo'lgan – XXI asrga xos bo'lgan ajoyib kashfiyotlarga turtki bo'lar. Qishloq xo'jaligida ham hosildorlik, yuqori sifat va samaradorlik yanada ortgan bo'lar edi. Fizik qonuniyatlar va hodisalarni o'simliklar va hayvonlar tuzilishi, fiziologiyasi va hujayrasiga tadbiri kuchaytirilsa bu sohada ham katta-katta o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Quyida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun faqatgina elektr toki ta'siri qanday ekanligini ko'rib o'tamiz.

O'simliklarni unib chiqishi va rivojlanishiga juda ko'p tashqi fizik faktorlar ya'ni yoruqlik, issiqlik, namlik, tuproq bilan bir qatorda elektrlanishning ham bevosita va bilvosita ta'siri mavjud .

1.Elektrlashtirish o'simliklarni minerallarni o'zlashtirishini stimulashtirish yoki to'sqinlik qilishidan tashqari o'simliklarni atmosferadan karbonat angidridni o'zlashtirib fotosintezni yuz berishi, o'simliklardagi modda almashinuviga va ularni o'sishi, rivojlanishiga bir butun holda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'simliklar metall setkalar yordamida atmosferaning elektr maydonining ta'siridan himoya qilinsa, hosildorlik 50% qadar pasayib ketganligi aniqlangan. Bu tajribalardan yana shunisi ma'lum bo'ldiki, atmosferaning musbat zaryadlarining ta'siri ostida o'simliklarning azot hamda fosforni yutishi, manfiy zaryadlari ta'sirida esa kaliy, kaltsiy va magniyni o'zlashtirishi kuchayar ekan.

3. Bioelektrik potentsial ta'sirida o'simliklarning o'qi bo'ylab bioelektrik qutblanish yuz beradi. Bu holat esa noqulay ob-qavo sharoitlarida ya'ni qurg'oqchilik, past temperaturalar va yoritilganlik kam bo'lgan hollarda o'simliklarga yordam berish uchun foydalaniladi. O'simliklarga kuchsiz(bir necha mikroamper) toklar bilan ta'sir etganda ularning turli stress holatlarida yordam berib, hayot faoliyatini yaxshilaydi.

4. Elektr turli xil poliz maqsulotlarining urug`larini sifat jihatdan ajratishga yordam beradi. Sug`oriladigan suv elektromagnit bilan ta'sir ettirilganda, "tirik" yoki "o'lik" suv bilan ishlov berilganda o'simlikni o'sishini stimullashtirib, hosildorlikni ortishiga olib keladi.

5. Elektr toki yordamida maxsus spektral tarkibga ega bo'lgan yoruqlik hosil qilib, yopiq binolarda o'simliklarga ta'sir ettirilsa, olinadigan hosil issiqxonalaridagiga qaraganda bir necha marotiba ustun turadi va qisqa vaqtda yetishtiriladi.

6. Doimiy magnit maydoni madaniy o'simliklarning urug'ini o'sib chiqishi va keyingi rivojlanishini tezlashtiradi.

7. Yil o'tgan sari tuproqning hosildorligini kamayishi va hech narsa unmay qolishi ham shu joyning elektrokimyoviy maydonining yomonlashuvi bilan tushuntiriladi. Bunday holatni yaxshilash uchun bur vaqtning o'zida o'simliklar elektrlashtirilgan suv bilan sug'orilishi va ildizini tuproq orqali va o'simlik barglari orasida qisqa muddatli elektr tokini ta'sir ettirish tavsiya etilgan.

8. O'simlik o'sayotgan tuproqqa mis qipqlari yoki alyuminiy folga joylashtirib qo'yilsa, o'simlikni o'sishi tezroq yuz beradi.

9. Ma'lumki ba'zi sovuqqa chidamli o'simliklar o'zida ko'p miqdorda yog' moddasini to'plasa, ba'zilari shakar moddasini to'playdi. Elektrostimulyatsiya o'simliklarda yog' va shakar moddasini to'plashni kuchaytirar ekan. Bu moddalarning to'planishi albatta, o'simlikda modda almashinuvi va uni o'tish tezligiga bog'liq bo'ladi.

10. Kungaboqar va bodiringning ildiz sistemasini elektrolitga botirilib, kuchsiz 5-7 mA/sm² elektr toki o'tkazilganda o'simliklarni oziqlantruvchi elektrolitdan kaliy, azot oksidining o'zlashtirishi osonlashgan va elektrlashtirish jarayoni o'simliklarning ildiz sistemasining faoliyatini kuchaytirgan.

11. Elektr toki ta'sirida assimilyantlarning hujayralararo kontakt orqali simplastik transportatsiyasi ortadi. Shuningdek hujayra membranasi orqali qo'shimcha ion kanallar orqali ionning ko'chishi yuz beradi. Buning natijasida o'simliklarda modda almashinishi kuchayadi, natriy, kaliy, kaltsiy, xlor va boshqa zaryadlangan molekullarning tezroq o'zlashtirilishi sodir bo'ladi. Natijada modda almashinuvi kuchayib, o'simliklar tezroq o'sadi va ko'proq miqdorda hosil to'planadi, uglevod va oqsil almashinuvida ishtirok etadi. Meva va sabzavotlarning hujayra membranasi strukturasi qo'llab - quvvatlab, ularning vaqtdan oldin eskirishini oldini oladi bu esa, meva-sabzavotlarning transportirovka qilish va saqlash imkoniyatini yaxshilaydi.

12. Ekinlarning qurg'oqchilikka chidamliligini oshirish maqsadida hozirgi paytda o'simliklarning ekish oldidan chiniqtirish usuli qo'llaniladi.

Toblangan urug'lardan unib chiqqan o'simliklar qurg'oqchilikdan so'ng tez o'zini o'nglab oladi. Ularda suv tanqisligi kam bo'ladi. O'simliklarni hujayralari kichik, barglari esa toblanmagan o'simliklarnikiga nisbatan katta bo'ladi, hosildorligi esa yuqori bo'ladi. Hatto qurg'oqchilik bo'lmagan taqdirda ham toblangan o'simliklarni o'sishi va hosildorligi yuqori bo'ladi.

13. Elektr toki ta'sirida tuproqning sho'rsizlantirish ham ancha samaradorligini ko'rsatdi. Tuproq eritmasidagi ionlari va turli xil musbat ionlar elektr maydon ta'sirida elektrodarga tomon ko'chadi, buning oqibatida tuproq eritmasidagi tuz miqdori vaqt o'tishi bilan kamaya boradi. Filtratsiya xossalari juda past va boshlang'ich holatda 0,2% gacha xlor ionlari bor bo'lgan xlorid-sulfatli sho'rlangan yerlarni bir oy davomida 1 m chuqurlikkacha sho'rsizlantirish mumkin. Bunda 6000 kVt soat elektr energiya va 5000, 6000 m³/ga chuchuk suv sarflanadi. Sho'rni yuvishning odatdagi uslubida esa xuddi shuncha ishni 6-8 oyda 20 ming m³/ga chuchuk suv sarflab amalga oshirish mo'mkin.

14. Ayni vaqtda elektromagnit to'lqinlar hosil qiluvchi kichik fizik qurilma xonadonlardagi barcha zararli hashoratlar va kemiruvchilarni asab sistemasiga ta'sir etib, shu joyni tashlab ketishi isbotlangan. Nima uchun don mahsulotlarini saqlashda, tuproqdan zararkunanda hashoratlarni yo'qotishda bu usulni qo'llab bo'lmaydi?

15. Elektr toki ishdan chiqqan, hosildorligi kamayib ketgan tuproqni yana qayta hosildorlik xossasini tiklashga ham yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'simliklarni har qanday usul bilan kuchsiz elektr toki ta'siriga uchratish ularga ijobiy ta'sir etadi, o'simliklarni turli noqulay sharoitlarga nisbatan chidamliligini orttirib, moddalar almashinuvi va demak hosildorlikni ortishiga olib keladi. Bu usulni qo'llash, hozirgi kunda quyosh batareyalari yordamida amalga oshirilsa u qadar qimmatga tushmaydi va qishloq xo'jaligi uchun katta foyda keltiradi.

Xulosa. Biz bu o'rinda fizika kashfiyotlaridan faqat mexanika qonunlari va elektr toki ta'siri haqidagina so'z yuritdik. Boshqa fizik omillar haqida ham yetarlicha faktlar va bilimlar mavjud. Endi bu bilimlarni sistemaga solib, tajribalarni qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassis kadrlarni yetishtirib beruvchi oliygoqlarda nega qo'llamaslik, tadqiqotlar olib bormaslik, ilmiy laboratoriya tashkil etmaslik, talabalarga yetarli darajada o'rgatmaslik kerak? Respublikamizda bu soha vakillarini qanday muammolar qiynayapti, ularni bartaraf etishda ilm-fan yutuqlaridan qanday foydalanish kerak, uni ishlab chiqarishga joriy etish haqida o'ylashimiz, amalga oshirishimiz kerak emasmi? Bizni qo'l ostimizda ilmga yetaklasak jon deguvchi ulkan yoshlar armiyasi tahsil olayaptiku? Qishloq xo'jaligi sohasidagi mavjud muammolarni fermerlar tomonidan universitet saytiga yozishlari yoki uni o'rganuvchi guruh tashkil etsa bo'ladi. Muammo fermerdan, ilm olimlardan, uni o'rganish va yechimini izlash mutaxassis yoshlardan.

Bir-biriga uzviy bog'langan biosferadagi fizik jarayonlarni mohiyatini chuqur tushunish, undan bu soha rivoji uchun yuqorida tilga olingan tibbiyot sohasidagi kabi ulkan yutuqlar sari istiqbolni ochib beradi degan umid bizni ushbu maqolani yozishga undadi.

Adabiyotlar

1. X.Abdullaev, X.Arg'inboev, T.Xushvaqto'v "Agrofizika" uslubiy qo'llanma. Toshkent 2003.-198 b.
2. E.Ismailov, N.Mamatqulov, Q.Xodjaev, N.Norboev."Biofizika" Toshkent. 2012 y.-249 b.
3. T.T. Turg'unov., "Amaliy fizika". Toshkent. "O'zbekiston" 2003 y. - 480 b.
4. A.B. Усова, Н.С.Антропова Связ преподавания физики в школе с сельско-хозяйственным производством. –Москва. «Просвещение» 1988г.– 191 с.
5. Фарберман Б. Мусина Р. Джумабаева Ф. Современную методи преподавания в вузах. Учебное пособие. –Тошкент. 2001 г.-127 с.

UDK: 81-139

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I. M. Tuxtasinov¹, B. H. Xoliyorov²

¹Samarqand Davlat chet tillar instituti, ²Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
tuhtasinov@edu.uz, bunyodkholiyorov@yahoo.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik oliy ta'lim muassasalarida, xususan texnikaga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishdagi masalalar o'rganilgan. Maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitish jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etishdagi maqsad va vazifalar yetakchi olimlarning izlanishlarini tahlil qilgan holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitish, yondashuv, kompetentlik, o'qitish, kommunikativ, qobiliyat, vositalar, ehtiyojlar, o'quv dasturi, strategiya, uslub, til tavsifi, model.

Особенности преподавания английского языка в нефилологических вузах

Аннотация. В данной статье изучены вопросы обучения английскому языку в нефилологических высших учебных заведениях, в частности, в технических вузах. С этой целью изучены проблемы, возникающие в учебном процессе, и пути их решения, а также проведен анализ научных исследований ведущих ученых в данной отрасли.

Ключевые слова: целевое обучение английскому языку, подход, компетентность, обучение, коммуникативность, способности, средства, потребности, учебная программа, стратегия, метод, характеристика языка, модель

Characteristics of teaching english in non-philological universities

Abstract. This article explores the issues of teaching English in non-philological higher educational institutions, in particular, in technical universities. Moreover, the problems arising in the educational process, and ways out of the solution were studied, as well as an analysis of scientific research by leading scientists in this industry.

Keywords: English for specific purposes, approach, competence, training, communication, abilities, means, needs, curriculum, strategy, method, language characteristics, model

Mutaxassislar texnika oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish muammolarini hal qilishda turli yondashuvlarni ilgari surib kelmoqdalar. Ushbu uslublardan biri shaxsiy sotsial-madaniy shakllanishning kasbiy yo'naltirilgan modeliga asoslangan o'quv dasturini yaratishdir. Ingliz tili o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida kommunikativ, madaniyatlararo yetuklik, kasbiy malakasi, professional muloqot, ish joyidagi muloqot va professional til haqida so'z yuritiladi. Talabalarga axborotni tahlil qilish, ijodiy qarorlarni qabul qilish va madaniy yetuklikni yuqori darajada shakllantirish uchun modulli o'qitish dasturlari ishlab chiqilgan. Maxsus maqsadlar uchun tilni o'rganish uchun universal multimedia darsliklarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha say-harakatlar mavjud. Ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet orqali chet tillarini o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari ham ko'rib chiqiladi. Shunga qaramasdan, chet tilni o'rganishning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatdir.

Aloqa ko'nikmalarining tuzilmasi keng miqyosli nashrlar bilan tavsiflangan. Masalan, L. V Suxova nashrlaridan quyidagi tarkibiy qismlar o'rin olgan:

- 1) Til ko'nikmasi, shu jumladan so'zlar, talaffuz va grammatika qoidalarini bilish;
- 2) Ijtimoiy-tilshunoslik qobiliyati, ya'ni turli xil madaniy va ijtimoiy sharoitlarga munosib javob berish qobiliyati. Aloqa maqsadiga qarab, tegishli til shakllari va vositalarini tanlash va qo'llash kommunikativ vaziyatlar va ishtirokchilarning ijtimoiy roli;
- 3) Turli xil kommunikativ turdagi so'zlarni tushunish qobiliyati bo'lgan nutq vakolati, turli funksional uslublarda bog'langan va mantiqiy jummalarni yaratish;
- 4) Strategik vakolatlar, shu jumladan qo'llanilishi mumkin bo'lgan og'zaki usullar yoki strategiyalar haqida xabardor bo'lish, agar aloqa vazifasi bajarilmasa;
- 5) Ijtimoiy-madaniy yetuklik ona tilidagi ma'ruzachilarning madaniy xususiyatlarini, ularning urf-odatlarini va xulq-atvor normalari va ularni amalga oshirish jarayonida munosib foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa madaniyat vakilining aloqasi;
- 6) Ijtimoiy qobiliyat - odamlar bilan muloqot qilish va muloqotga bo'lgan ishonchni qobiliyat va istak. (Suxova, 2007).

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, jumladan, texnik sohaga ixtisoslashgan talabalar uchun ingliz tili o'qitish so'nggi yillarda tobora o'z ahamiyatini oshirib bormoqda. Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish kurslari talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun yaxshi tayyorlaydigan qilib, butun dunyo bo'ylab tan olingan kadrlar sifatida yetishishlarini ko'zda tutadi.

Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish yoki ESP(English for specific purposes) ingliz tilini ikkinchi yoki chet til sifatida o'qitish va o'rganishni anglatadi, bu yerda talabalarning maqsadi ma'lum bir akademik, kasbiy yoki kasbiy sohada ingliz tilidan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, u EOP (Ingliz tili uchun Kasbiy Maqsadlar) va EAP (ingliz tili uchun akademik maqsadlar uchun) kabilardan ajralib turadi.

Xatchinston va Vaters tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, ESP ingliz tili o'qitishning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ular ESPni mutaxassislik fanlarini, aniqsa texnikaga yo'naltirilgan ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish, shuningdek, olimlar uchun fan so'zlari va grammatikasi masalalariga urg'u beriladi. Tez va samarali o'rganish tamoyillari asosida birinchi navbatda tilni o'rganishning boshqa shakllaridan farq qilmaydi. Bu talabaning ehtiyojlariga asoslangan va tilni o'rganishning o'ziga xos va aniq sabablari bilan yo'naltirilgan tilni o'rganishga nisbatan yondashuvdir. Uning kitobida ingliz tilida muayyan maqsadlar uchun kurslarni ishlab chiqishda Basturkmenning ta'kidlashicha, "ESP da talaba akademik, kasbiy yoki kasbiy faoliyat bilan shug'ullanadigan va inglizchadan bu ishlarni amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanadigan til o'rganuvchi sifatida ko'riladi. Tashqi maqsadlar tilni o'rganish va lingvistik maqsadlar uchun o'rganiladigan tilning instrumental ko'rinishini taklif qiladi. Umumiy ingliz tilini o'qitish holatida maqsadlar odatda lingvistik hisoblanadi (masalan, og'zaki yoki keng lug'atning rivojlanishi, yoki grammatik tuzilmalarning keng doirasidan foydalanish imkoniyati). Maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitish sharoitida esa talabaning o'ziga xos lisoniy vakolatlarini talab qiladigan maqsadlar "haqiqiy dunyo" maqsadlariga erishish istagi borligi tushuniladi. Ushbu fikrni Mohammad Kaosar Ahmad o'zining «ESP o'qituvchisi: muammolar, vazifalar va qiyinchiliklar» nomli kitobida ilgari suradi.


Dudley-Evans va Seyn-Johnlarning ESPning mutlaq belgilariga ko'ra, kurs talabalarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak va kursning muayyan mazmuniga mos keladigan tilga asoslangan bo'lishi kerak. Shuning uchun, ehtiyojlarni tahlil qilish, kurs provayderini kursga nima kiritish kerakligini tanlash va qaror qabul qilish imkoniyatini taqdim etishi bilan, albatta, uning ahamiyatini shakllantirdi.

Basturkmen, maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitishdagi ehtiyoj tahlil qilish bir kurs rivojlantirish jarayonini ifoda etadi deb hisoblaydi. Ushbu jarayonda talabalar maqsadli kasb-hunar yoki kasbiy ish joylarida yoki o'quv yurtlarida foydalanadigan til va ko'nikmalar talabalarning hozirgi holatiga, ularning ehtiyojlari va amaliy imkoniyatlari va cheklovlariga qarab belgilanadi va ko'rib chiqiladi. Ushbu jarayondan olingan ma'lumotlar maxsus maqsadlardagi ingliz tili kursining mazmuni va usulini aniqlash va takomillashtirishda qo'llaniladi.

Xatchinston va Vatersning fikriga ko'ra, ESP o'qituvchilari tomonidan olib borilgan ishlar ko'pchiligi turli xil talabalar guruhlari uchun tegishli kurslarni yaratish bilan bog'liq. Shunday qilib, kurs dizayni, umumiy ingliz tili o'qituvchisi hayotida nisbatan odatdagidan farq qiladi, bu yerda odatda an'anaviy tarzda, darslik yoki vazirlik qarori bilan aniqlanadi - ESP o'qituvchisi uchun o'quv yuklama ham dizayniga odatdagidan farq qilishi nazarda tutiladi.

Xatchinston va Vaters, ESP kurslarini loyihalash "ta'lim dasturlari, materiallar yozish, guruhlarni o'qitish va baholashning keyingi jarayonlari uchun asosli asos yaratish uchun asosan mavjud muammolarga yechim topish lozim" deb hisoblaydi. ESP o'qituvchisi bir necha narsalar haqida ma'lumotga ega bo'lishi

kerak, masalan, talabning nima uchun tilni o'rganishi kerakligi, jarayonda ishtirok etishi kerakligi, tilning qaysi jihatlari kerakligi va boshqalar. ESP o'qituvchisi o'zidan so'rashi kerak bo'lgan savollarni o'rganib chiqib, Xatchinston va Vaters ularni uchta toifaga ajratdi: Til tavsiflari, Ta'lim nazariyasi va ehtiyoj tahlillari. Ushbu uchta element alohida holatlarga qaramasdan, ularning o'quv rejalarida o'zaro bog'liqligi katta ahamiyatga ega. Ular o'zaro munosabatini quyidagicha ko'rsatadi:



1 Chizma: ESP kurs dizayniga ta'sir qiluvchi omillar (Xatchinston va Vaters 1987, 22-bet)


Ushbu omillarni hisobga oladigan bo'lsak, ESP provayderlari kurs loyihalarini diqqat bilan o'rganishlariga yordam beradi. Shunday qilib, ESP kursini ishlab chiqishda, kurs maqsadlarini va ularning "maqsadga erishishi" ni aniq belgilash juda muhimdir. Ma'lumki, aniq maqsadlar va vazifalar o'qituvchilar va talabalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'qituvchilarning o'zlari o'rgatayotgan narsalar uchun mas'ulligini izohlaydi. Maqsadlar "faollashishi", ta'lim, xatti-harakat, o'quv-tarbiyaviy yoki ishlash deb nomlangan bo'ladimi, yoki ular haqida bilib olish uchun ishlatiladigan xususiyatlar tavsiflarini belgilaydi.

O'zining "Til kurslarini loyihalash" deb nomlangan o'qituvchilar uchun qo'llanmasida Ketlin Kreyvs shuni alohida ta'kidlab o'tadiki, "Niyatlaringiz bu kurs rejasiga ko'ra erishilgan natijalar hamda maqsadlaringizning so'zlardagi ifodasi bo'lsa, intilishlar esa niyatlarga erishish yo'lida qo'yiladigan vazifalardir".

Kreyvsning fikriga ko'ra, maqsadlar, o'qituvchilarni kursni davom ettirishi va kursni o'rgatishiga yordam berishi mumkin, shuningdek, o'qituvchining kursga e'tiborini va ustuvorligini oshiradi.


U maqsadlar umumiy so'zlar bo'lishi mumkin, ammo noaniq bo'lmasligi lozimligini ta'kidlaydi. Shuning uchun, agar biz ularga erishmoqchi bo'lsak, maqsadlarni yanada aniqroq qilishga moyil bo'lishimiz kerak. Maqsadlar kursning chegaralari va resurslari, ya'ni talabalar, ularning darajasi, mavjud bo'lgan vaqt, mavjud materiallar va boshqalar ichida aniq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan narsalar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Biz katta maqsadlardan boshlashimiz mumkin, lekin ularning barchasiga erisha olmaymiz, chunki vaqt yetarli emas, talabning qobiliyati dastlab kutilganidan kamroq, yoki maqsadga erishish uchun kerakli ko'nikmalarga ega bo'lmasligi mumkin.

Vazifalar bir tomondan, o'zlashtirilishi hamda o'qitilishi oson qismlarni o'zida jamlab birgalikda maqsadlarni tashkil qiladi. Ular natijalar, o'qitish hamda baholash o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlab beradi. Shu sababli o'quv maqsadlar talabning muayyan ishtiroki bilan aloqada bo'lishi hamda o'qituvchining talabaga nimani bajartirishi lozimligini aniqlab berishi lozim. Harqalay, vazifalar o'lchanadigan hamda amalga oshirilishi imkoni bo'lgan narsalardan tarkib topishi lozim, sababi faqat aynan shu yo'l bilan niyatlar, maqsadlar amalga oshishi mumkin. (2-chizmaga qarang)



2-chizma. *Vazifa va maqsadlar o'rtasidagi sabab va oqibat munosabatlari (Kreyvc 2000 yil, 77-bet)*

Keyingi qadam, Kreyvc ning fikriga ko'ra, maqsadlarni o'rganish yoki "faollashtirish" ni o'z ichiga olgan "o'rganiladigan va o'rgatiladigan bo'linmalar" ni aniqlash uchun bajariladigan maqsadlarni ularning tarkibiy qismlariga tushirishdir.



3-chizma: *Har bir umumiy maqsad uchun ko'p tarmoqli vazifalar majmui mavjud bo'ladi (Kreyvc 2000 yil, 77-bet)*

Maqsad qanchalik aniq bo'lsa, maqsadga erishish uchun yaxshi imkoniyat bo'ladi. Ushbu iyerarxik munosabatlar, har bir maqsadga erishish uchun bir nechta maqsadlarga ega bo'lishini ko'rsatadi. Agar biz ushbu haqiqatni tan olsak, biz ko'zlayotgan maqsadlarimizga erishish mumkinligini va ta'lim maqsadlarini o'lchash mumkinligini kafolatlay olamiz.

ESP o'qituvchilariga tegishli maqsadlar va maqsadlarni yozishga yordam beradigan ikkita foydali nazariy ramka mavjud. Birinchisi - aloqa va kommunikativ kompetentlikdir, bu o'z navbatida batafsil bayon etilgan kommunikatsiya maqsadlariga erishish uchun tilni to'g'ri va aniq ishlatish qobiliyatini nazarda tutadi. Ikkinchi tilni o'rganish va testdan o'tkazish bo'yicha *Kommunikativ yondashuvlarning nazariy asoslari va shunga qarab, Kommunikativ til o'qitish: ijodiy holat*. Ikkinchi ramka ESP ehtiyojlarini baholash bo'yicha o'ziga xos qobiliyat va layoqat sohalari ajratilgan kommunikatsiya vazifasini buzish uchun kommunikativ kompetentlik tizimini ishlatadigan Aloqa / Tilni tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu ma'lumot bilan ESP o'qituvchisi har bir maqsadga erishish uchun aniq maqsadlarni yaratishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Алешчанова. И. В, Фролова Н.А, Организация самостоятельной работы по иностранному языку, ВолГТУ, Волгоград. 2013, 9-12-бетлар;
2. Дулепова. Н. А, Основы методики преподавания английского языка, Москва. 2013, 28-35-бетлар;
3. Ketlin Kreyvs "Til kurslarini loyihalash". Kebrij. 2000 yil, 77-bet;
4. Mohammad Kaosar Ahmad, « ESP o'qituvchisi: muammolar, vazifalar va qiyinchiliklar». Tehron. 2005, 3-5-бетлар.
5. Сухова. Л. В, "Факторы формирования языковых навыков", Москва. 2007, 17-29-бетлар;
6. Hutchinson T. English for Specific Purposes: A learner-centred approach / T. Hutchinson, A. Waters. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987, 22-бет;
7. H. L. Basturkmen, ESP teacher education needs. *Language Teaching*. 2017. URL: <http://hdl.handle.net/2292/41798>.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Texnik muharrir

X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

Muharrirlar:

I.Sulaymonov	- f.f.d., dotsent
E.Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O.Yusupova	- fil.f.n., dotsent
A.R.Safarov	- PhD., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
X. S. Xaydarov	- f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 29.08.2020 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 277. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.